



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“O‘RTA OSIYODAN ANADO‘LIGACHA:
TURKIY XALQLAR TILI, TARIXI, MADANIYATI
VA ETNOGRAFIYASI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

II KITOB



**Navoiy shahri,
19.10.2023**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TASHKILIIY QO‘MITASI

B.B.SOBIROV	Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor
NECATI DEMIR	Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) direktori; Anqara G‘azi Universiteti professori
A‘ZOLAR:	
T. O‘TAPOV	Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektoriv.b., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
X. QURBONOV	Navoiy davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori, tarix fanlari nomzodi,dotsent
G‘. YODGOROV	Navoiy davlat pedagogika instituti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, informatika fanlari nomzodi, dotsent
S.XUDOYBERDIYEV	Navoiy davlat pedagogika instituti moliya va iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori
D. HAMROYEVA	Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) O‘rta Osiyo- O‘zbekiston bo‘limi mas’uli
A. ALLABERDIYEV	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.f.d., dotsent
A. XOLMURODOV	Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori
N. SADINOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
F.RAXIMOV	Navoiy davlat pedagogika instituti ATM TB bo‘limi boshlig‘i tel: 0(436)225-19-23 E-mail: navgosp_i_inbox.ru Web-sayt: www.nspi.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY'ATI

Mas'ul muharrir N. SADINOVA

1-Sho'ba

N.SADINOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
N.RAXMONOV	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
M. AXMEDOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

2-Sho'ba

S.MUQUMOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi
F.YULDOSHEV	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.d. (DSc)

3-Sho'ba

M.XUDOYOROVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.
D.NUSRATULLAYEVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası f.f.f.d.

4-Sho'ba

V.CHO'LIYEVA	Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.f.d. (DSc)
Sh. ASHUROV	Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar

***Ассалому алайкум, халқаро конференция иштирокчилари, хонимлар ва жаноблар!
Бугунги халқаро илмий-амалий конференцияда Сиз азизларни кўриб турганимдан
хурсандман.
Хуш келибсизлар!***

Бугунги глобаллашув даврида туркий тилли давлатларнинг яқинлашуви нафақат иқтисодий-сиёсий, балки маънавий-руҳоний жиҳатдан ҳам аҳамиятлидир. Азиз-азалдан улар бир дин, бир маслак бўлиб, бир ариқдан сув ичиб яшаб келган. Маданий-маърифий қарашлари, тили ва адабиётидаги муштарак жиҳатлар хануз сақланиб қолмоқда.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бугунги глобаллашув жараёнида Инсониятни маънавий таназзуллардан асраб қоладиган ягона куч адабиёт экани, миллий меросини асраб қолиш ва тарғиб этиш заруратини таъкидлайди: “Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак. Аждодлар меросини ўрганиш, буюк маданиятимизга муносиб буюк адабиёт яратиш учун ҳамма шароитларни яратамиз”.

Ҳар бир халқнинг ўзига хос шаклланиш жараёни мавжуд. Туркий қавмларнинг ҳам бир неча миллат сифатида шаклланиши шундай хусусиятга эга. Бугун дунё тамаддунига бешик бўлган Шарқ ўзининг бой ўтмиши, яшаб ўтган улуғ сиймолари билан ҳақли равишда фахрланади. Жумладан, дунё цивилизациясининг бошланиши қадим – шумер давлатчилиги эканлиги, улар томонидан яратилган “Билгамиш” достони эса жаҳон ёзма адабиётининг илк намунаси эканлиги бугун илм аҳлига яхши маълум. Туркий тиллий халқлар тили ва адабиёти Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Яссавий, Юнус Эмро, Алишер Навоидан тортиб Абдулла Қодирий, Азиз Несин, Рашод Нури Гунтекин ва бошқа кўплаб ижодкорлар асарларида ўз ифодасини топган.

Жаҳон ва туркий халқлар адабиёти – инсоният маданиятининг муштарак бир бўлаги. Шарқ цивилизацияси – тараққиётнинг маънавий асосларидан бири– инсонни улуғлаш, унинг камолотини ички ва ташқи дунёсини уйғунликда қарашдан иборатдир.

Ҳар бир миллат тили ва адабиёти дунё бадиий тафаккурининг ажралмас қисмини ташкил қилади. Жаҳон халқларининг қизиқиши ва ўқиши бадиий адабиёт аҳамиятини белгиловчи асосий мезонлардан ҳисобланади. У ёки бу халқнинг жаҳонда танилиши, энг аввало, ўша халқ маданияти, санъати ва адабиётининг қандай миқёсда тарқалиши ва тан олинishiга боғлиқдир. Бирон бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар томонидан тан олинishi, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг ғурур ва ифтихори, миллий ўзлигини юксалтиришга хизмат қилади.

Жаҳон халқларининг маънавий-маданий йўналишда ҳамжиҳатликка интилиши, бир-бирларининг адабиёти ва санъатини ўрганишга қизиқиши аллақачон табиий жараёнга айланган. Шарқнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий ҳаётини етарли даражада билиш эҳтиёжи, тилшунослик ва адабиётшунослик илми тараққиётидаги асосий омиллардан бири бўлган.

Кейинги йилларда илмий-адабий тафаккур кундан-кунга янгиланмоқда, ўзбек тили ва адабиётининг халқимиз, жамиятимизнинг маънавий ривожига, замонавий илм-фан тараққиётида тутган ўрни ва роли билан боғлиқ долзарб мавзуларда муҳим илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Бугунги ташкил этилган халқаро миқёсдаги илмий-амалий конференция ҳам ана шу хайрли ишларнинг давоми.

Конференция ишига муваффақият тилайман.

Эътиборингиз учун раҳмат!

***Баҳодир СОБИРОВ,
техника фанлари доктори, профессор
Навоий давлат педагогика институти ректори***

BIRINCHI SHO'BA

GLOBALASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR “QUTADG'U BILIG”DAGI IJOBIY VA SALBIY FE'L-ATVOR BILDIRUVCHI LEKSEMALAR

Xolmuradova Mushtariy
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Rezyume. Maqolada “Qutadg'u bilig” asaridagi fe'l-atvor bildiruvchi so'zlarning asosiy xususiyatlari yoritilgan. Insonning ijobiy va salbiy xususiyatlarini ifodalovchi so'zlarning asar badiiyligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Fe'l-atvor bildiruvchi so'zlarning asardagi va bugungi kundagi ma'nolari qiyoslangan.

Kalit so'zlar: fe'l-atvor, ijobiy fe'l-atvor, sadoqatli, mehribon, salbiy fe'l-atvor, hiyakor, kibrli, xasis.

Резюме

В статье описаны основные особенности слов, выражающих характер в произведении «Кутадгу Билиг». Выделена роль слов, выражающих положительные и отрицательные характеристики человека, в обеспечении художественности произведения, сравниваются значения слов, обозначающих характер в произведении и сегодня.

Ключевые слова: характер, положительный характер, лояльный, добрый, отрицательный характер, надменный, высокомерный, жадный

Resume

The article describes the main features of words expressing character in the work “Kutadgu Bilig”. The role of words expressing positive and negative characteristics of a person in ensuring the artistry of a work is highlighted, the meanings of words denoting character in a work and today are compared.

Key words: character, positive character, loyal, kind, negative character, haughty, arrogant, greedy.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari qadimgi turkiy til namunalarini o'zida mujassamlantirgan muhim manba hisoblanadi. Asarda ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettiruvchi so'zlar berilgan. Jumladan, bir qator leksemalar inson tabiati, fe'l-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu maqolada “Qutadg'u bilig” asarida qo'llangan fe'l-atvor bildiruvchi ayrim leksemalar semantikasi borasida to'xtalamiz.

Har bir badiiy asarning, jumladan, pandnoma asarlarning ham muayyan o'rinlari shaxs tasviriga bag'ishlanadi. Shaxsning fe'l-atvori, uning xarakter xususiyatini ifodalovchi leksemalar asar leksikasining ma'lum qismini tashkil etadi.

Fe'l-atvor shaxsning faoliyati, o'zga shaxslarga munosabati, yashash tarzida namoyon bo'ladigan hodisa bo'lib, bir qator leksik birliklar orqali anglashiladi. Shaxs faoliyatiga ko'ra uning fe'l-atvori ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'ladi. “Qutadg'u bilig”da quyidagi leksemalar shaxsning ijobiy fazilatlarini ifodalashga xizmat qilgan: *bag'irsaq, sewüg, bütün, çın, ersig, edü*.

Bağirsaq bağır asosidan shakllangan sof turkiy so'z bo'lib, “marhamatli”, “shafqatli”, “sadoqatli” ma'nolarini bildiradi. *Bağirsaq* so'zi asarda ko'proq Allohning sifatlarini berishda qo'llangan.

Uquş ol saña eđgü andlıđ adaş

Bilig ol saña keđ bağirsaq qadaş(317/84) “Zakovat sen uchun ezgu ontli do'stdir, Bilim sen uchun o'ta mehribon qarindoshdir (311/107)

Asarda “Olloh” tushunchasi turkiy *iđi* so'zi bilan ifodalangan. Asar qahramonlari tilida *bağirsaq iđim* (mehribon egam), *bağirsaq inanđu iđim* (mehribon, inonadigan egam), *qatıǵlıq yerindä siğınđu iđim* (og'irlik paytlarida sig'inadigan egam) birikmalari ishlatilgan.¹ *Bağirsaq iđim* birikmasida Ollohning mehribonligi, rahm-shafqatli ekanligi o'z ifodasini topgan. *Bağirsaq* “Qadimgi turkiy lug'at”da “mehribon”, “samimiy”, “rahmdil” ma'nolarida qayd etilgan (DTC,78). *Bağirsaq* sifatidan yasalgan *bağirsaqlıq* “marhamatlilik”, “shafqatlilik”, “mehribonlik” ma'nolarini anglatgan:

Bağirsaqlıq erdi meniñ bu söziüm

Esan qal salāmat ay körklüg yüzüm (1481/35)². “Bu so'zlarim barchasi mehribonlikdan iborat, Eson va salomat qol, ey yuzi ko'rkligim” (1460/267).³ *Bağirsaqlıq* “Qadimgi turkiy lug'at”da “sodiqlik” ma'nosida qayd etilgan (DTS,78).

¹ Sodiqov Q. Turkiy til tarixi.-Toshkent.,2009.219-bet.

² Мисоллар куйидаги нашр асосида транскрипцияда берилди. “Qutadg'u bilig” I,II,III,IV,V jildlar. -T.: Jahon print, 2011. Qavsdagi raqamlar bayt tartibini bildiradi.

Alisher Navoiy asarlarida *bağirsaq* soʻzining asosi boʻlgan *bağır* koʻp qoʻllangan. *Bağır* soʻzi sifatlovchi tarzida *bağʻir pargolasi*, *bağʻir porasi*, *bağʻri tosh*, *bağʻri suv*, *bağʻri butov*, *bağʻri qaro*, *bağʻri tol* birikmalari tarkibida ishlatilgan.⁴

Sewüg turkiy soʻz boʻlib sevmok feʼlidan yasalgan. *Sewüg* soʻzi asarda “sevimli”, “sevikli” maʼnolarida qoʻllangan:

Sawçi sawçi idti bağirsaq idi

Boʻdunda talusi kishida kedı “Mehribon egam sevikli rasul yubordi, (U) xalq orasida sarasi (va) kishilar orasida yaxshisi edi” (34/65). “Qadimgi turkiy til lugʻati”da *sewüg* “sevimli” maʼnosida keltirilgan (DTC,498).

Sawçi yuqoridagi baytda “paygʻambar” maʼnosida qoʻllangan. *Sewüg sawçi* “sevikli rasul” maʼnosini ifodalagan. *Sewüg* soʻzi barcha insoniy fazilatlar jamlangan umumiy tushunchani anglatadi. Inson *sewüg* boʻlishi uchun yaxshi, mehribon, koʻngilchan, rahmdil kabi sifatlarga ega boʻlishi lozim.

Asarda *sewüg* asosan, shaxslarning (*sewüg sawçi* “sevikli rasul”), shaxs tana aʼzolarining (*sewüg yüz* “sevimli yuz”, *sewüg jän* “sevimli jon”), narsa-buyumlarning (*sewüg neş* “sevimli narsa”) sifatlovchisi boʻlib kelgan. Asar qahramonlari bir-birlariga murojaat qilganlarida koʻp hollarda *sewüg yüz* (sevikli yuzligim) birikmasini qoʻllagan.

Bütün turkiy soʻzi “ishonchli”, “toʻliq”, “durust” maʼnolarini ifodalagan:

Bağirsaq keräk häm közi köñli toq

bütün çın qılıqı köni bolsa-oq. “Sadoqatli hamda koʻzi toʻq (boʻlishi) kerak, Ishonchli, chin, qiliqlari oʻq(dek) toʻgʻri boʻlishi kerak” (2607/119).

Bütünden yasalgan *bütünsüz*, *bütünlük* soʻzlari ham shaxs fazilatlarini anglatgan. Xarakter-xususiyatni ifodalashda *qılınçı bütün*, *qılqı bütün* (“qiligʻi butun” - barcha yaxshi fazilatlarini qamrab olgan insonlarga nisbatan qoʻllangan), *bütün er* “ishonchli kishi” birikmalaridan foydalanilgan.

Hozirda *butun* soʻzi “sinmagan, sindirilmagan, shikastlanmagan; siniq-mertik joyi yoʻq” maʼnolarida kelib⁵, narsa-buyumlarga nisbatan ishlatiladi. Insonga nisbatan qoʻllanganda *bağʻri butun*, kallasi butun birikmalari tarkibida koʻchma maʼnoda keladi.

Asarda “haqiqiy”, “butun”, “ishonchli”, “toʻgʻri” maʼnolarini ifodalash uchun *çın* soʻzidan foydalanilgan. *Bütün* soʻzi *çın* bilan birgalikda qoʻllanib, “haqiqiy” semasini kuchaytirishga xizmat qilgan:

Tiriklikdä qızraq bütün çın kişi “Yoshi yetilgan (kishi) nima deydi, eshitgin, Hayotida juda ehtiyotkor, yetuk, chin kishi” (1724/54)

Asarda *çın* shaxsga nisbatan “samimiy” (*çın kişi* “samimiy inson”), “mard” (*çın er* “mard kishi”), shaxs xulqiga nisbatan “yaxshi, yoqimli” (*çın qılıq* “yaxshi qiliq”), shaxs faoliyatiga nisbatan “haqiqiy” (*çın vafalıq* “haqiqiy vafolik”), shaxs nutqiga nisbatan “toʻgʻri, haqqoniy” (*çın söz* “toʻgʻri soʻz”), narsa-buyumga nisbatan “ishonchli” (*çın bitig* “ishonchli kitob”) maʼnolarni bildirgan.

Ersig sof turkiy soʻz boʻlib, “shijoatli”, “mard”, “jasur” maʼnolarini ifodalagan:

Yağıqa qatıq bolsa ersiglikı

körür közkä suw bersä körkluglikı “Shijoatda yovga nisbatan beayov boʻlsa, Chiroyi koʻruvchi koʻzlarga suv baxsh etsa” (2085/80).

Bu soʻz asarda yigitlarning fazilatlarini ifodalab kelgan. *Ersig* “botir” (*ersig yüräklik* “botir yurakli”, *ersig er* “botir er”), “shijoatli” (*ersig beg* “shijoatli beg”) maʼnolarida qoʻllangan. “Qadimgi turkiy lugʻat”da *ersig* “mard, jasur” maʼnolarida qayd etilgan (DTS,181).

“Qutadgʻu bilig”da shaxs fazilatlarini ifodalashda eng faol soʻzlardan biri “yaxshi” maʼnosidagi *eðgü* soʻzidir:

Keräk beg keräk qul ne eðgü esiz

özi öldi ersä atı qaldı iz “Hoh beg,hoh qul ,yo ezgu yomon boʻlsin) Oʻzi oʻlgan boʻlsa, otidan iz qoladi” (235/78).

Bu soʻz “yaxshi” maʼnosini bildirib, *eðü iş* (yaxshi ish), *eðü kişi* (yaxshi kishi), *eðü erdäm* (yaxshi xulq), *eðü el* (yaxshi el), *eðü asıq* (yaxshi foyda), *eðü at* (ezgu nom), *eðü qılınç* (yaxshi qiliq), *eðü söz* (ezgu soʻz), *eðü bodun* (yaxshi xalq), *eðü er* (yaxshi er), *eðü yol* (ezgu yoʻl) birikmalari tarkibida kelgan. “Qadimgi turkiy til lugʻati”da *eðgü* “yaxshi”, “samimiy” maʼnolarida qayd etilgan (DTS,164).

Quyidagi soʻzlar shaxsning salbiy xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi:

Biligsiz bilig “bilim” soʻzidan yasalgan boʻlib, asarda “bilimsiz”, “nodon” maʼnosida qoʻllangan:

³ Baytlarni tabdil qilishda Q.Karimov nashridan foydalanildi: Юсуф Хос Ҳожиб “Кутадғу билиг”. Транскрипция ва hozirgi ўзбек тилига тавсиф.-Тошкент: Фан,1972.

⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.-Тошкент, 1983. 236-бет.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати (бешинчи жилд). -Тошкент, 2006.-387-бет.

Biligsiz kişi kõnli qum teg turur

Öküis kirsä tolmas ap ot yem önür (975/130). “Nodon kishi ko‘ngli qum (cho‘l) kabi bo‘ladi, yemish, o‘t o‘shishi u yoqda tursin, unga daryo oqib kirsä ham to‘lmaydi” (961/199). Baytda *kõñül* so‘zi “ong”, “idrok” ma’nolarini bildirgan. Zotan, “bilim” tushunchasi ko‘ngil bilan emas, ong, aql, idrok bilan bog‘liq. Ko‘ngilning qumga o‘xshatilishi bilim asosida ong, idrokda fahm shakllanmaganligini ifoda etishga xizmat qilgan. Fahm, idrok bo‘lmas ekan, daryo bilan to‘ldirib bo‘lmas sahro, o‘ppondek bo‘shliq hosil bo‘lishiga ishora qilingan.

Shaxs tabiatiga xos salbiy xususiyatlarni ifodalashda “tilanchi”, “tamagir” ma’nolarini bildiruvchi *umduçi* so‘zi qo‘llangan:

Kişi umduçi bolsa boldı bulun

Suyurqa anı sen ay körki tolun “Kishi tamagir bo‘lsa, narsaga qul bo‘ladi, Sen unga ehson qil, ey chiroyli to‘lin oy” (2683/435).

Ümdüçi derivati “Qadimgi turkiy lug‘at”da “xasis”, “baxil” ma’nolarida qayd etilgan (DTC,611). Baytda narsaga qul bo‘lish, tamagirlik yomonliklarga yetaklovchi illat sifatida qoralangan, uning oldini olishga da‘vat qilingan. Baytdagi *suyurqa* “ehson qil” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, molga qul bo‘lgan shaxsga davo chorasi sifatidagi mazmunni ifoda etgan.

Kishi fe‘l-atvoridagi illatlardan bo‘lgan “baxillik”, “ochko‘zlik”, “xasislik” ma’nolari *saran* so‘zi orqali ifodalangan:

Negü ter eşitgil saranıñ bilig

Ay çırguy, ay muñluğ, ay tügmiş elig “Ma’rifatda ochko‘z haqida nima deyilgan, eshitgin, Ey ko‘zi yoshli, ey, mungli, ey, azob chekkan” (1673/50).

Baytda qo‘llanilgan *saran* so‘zi “Qadimgi turkiy lug‘at”da “ochko‘z” ma’nosida qayd etilgan (DTC,488). Mazkur so‘z -*liğ affiksi* yasalgan *saranliğ* “ochko‘zlik” ma’nosidagi mavhum otni ifodalagan.

“Qutadg‘u bilig”dagi leksemalar tahlili turkiy tillarga xos bo‘lgan ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, semantik torayish, kengayish hodisalarini o‘rganishda ham ahamiyatlidir. Masalan, turkiy tillarda so‘z semantikasidagi o‘zgarishlar bilan belgilanuvchi turkum sinkretizmi, ma’no kengayishi, torayishi, zid ma’nolarning hosil bo‘lishi kabi hodisalar kuzatiladi. “Qutadg‘u bilig”dagi *bütün*, *çın* so‘zlarida ma’no torayishi kuzatilgan. Ayrim hollarda bir so‘z semantikasida zid, o‘zaro nomuvofiq ma’nolarning shakllanishi ham kuzatiladi. Masalan, hiylakor, makkor so‘zlarining arxaik shakli bo‘lgan *alçı* asar matnida ijobiy fazilat sifatida keltirilgan. Hiylakor, aldoqchi, makkor insonlarga nisbatan *alçı* so‘zi qo‘llangan:

Yana alçı bolsa qızıl tilkü teg

tetir buğrası-teg kör aç sürsä kek (2312/96). “Yana qizil tulki kabi hiylachi bo‘lsa, Tuya erkagidek uzoq o‘ch saqlasa, ko‘r” (2276/379).

Kishilarni alçı so‘zi bilan sifatlashda, asosan, tulkiga nisbat berilgan. Bunda tulkining hiylakorligi, tadbirkorligi asos qilib olingan. Tadbirkorlik, hushyorlik lashkarboshi, hiylakorlik beklar egallashi lozim bo‘lgan ijobiy fazilatlar sifatida keltirilgan. Hozirda hiylakorlik salbiy illat sifatida qaraladi. “Hiyla” tushunchasini ramziy tarzda ifoda etuvchi *tilkü* timsoli ham ijobiy ma’noda qo‘llangan. Hozirda “hiyla” tushunchasini ifodalash uchun *alçı* so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan *aldoqchi* shaklidan foydalaniladi.

Öktäm so‘zi semantikasida teskari holatni kuzatish mumkin. **Öktäm** “Qutadg‘u bilig”da “kibor, kibrli” ma’nolarida qo‘llangan: *kötürmä, bajıtmä eşiz ögtämig*. “Qadimgi turkiy lug‘at”da ham shu ma’noda qayd etilgan (DTS,381).

Bugungi kunda **öktäm** so‘zi ijobiy sema kasb etgan bo‘lib, “boshqalarga o‘z ta’sirini, so‘zini o‘tkazadigan; shijoatli, o‘tkir” ma’nolarini ifodalaydi.⁶

Fe‘l-atvorni bildiradigan so‘z aksariyat o‘rinlarda tashqi ko‘rinish, gavda tuzilishini ifodalashda “chiroyli”, “ko‘rkam” sifatlariga sinonim tarzda qo‘llanadi. Bunday zidlikning yuzaga kelishi, so‘z semantikasida zid ma’nolarning hosil bo‘lishi ma’lumki, enantiosemiya deb yuritiladi. So‘z semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan enantiosemiya hodisasi, ya’ni bir leksema semantikasida qarama-qarshi semalarning mavjudligi so‘zning qo‘llanish doirasi, semalar taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Alisher Navoiy g‘azallarida *o‘kta* so‘zi qo‘llangan bo‘lib, “behuda”, “keraksiz” ma’nolarini ifodalagan: “*Majlisida o‘kta hukmlar surar chog‘i, barcha ijroni ahkom bir, bu dog‘i, giriftor majlisidin qo‘parga suruk qaltaboni mone‘ va agar ani g‘ofil qilib eshigiga yetsa, darboni mone‘*”.⁷

Shaxs fe‘l-atvorini bildirishda qo‘llanadigan so‘zlarning aksariyati turkiy qatlamga mansub: *bağırmaq, sewüç, bütün, çın, ersiq, eđgü, biligsiz, umduçi, saran, alçı, öktäm*. Asardagi fe‘l-atvor leksikasi

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати.(бешинчи жилд).-Тошкент,2006.146-бет.

⁷ Алишер Навоий.Маҳбуб ул-қулуб.-Тошкент.146-бет.

tub (*çın, eđgü, saran*) va yasama (*sewüg, ersig, bağırsaq, bütün, ersig, biligsiz, umduçı, alçı, öktam*) soʻzlarni oʻz ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadgʻu bilig” asarida qoʻllangan shaxs fazilatlarini bildiruvchi soʻzlar inson xususiyatlarini ifodalashda, oʻzbek tili tarixidagi belgi bildiruvchi soʻzlar stmantikasi haqida toʻliq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати(III жилд)-Тошкент.,1984.
2. Алишер Навоий.Маҳбуб ул-қулуб.-Тошкент
- 3.Древнетюркский словарь.-Л.,1969.
4. Sodiqov Q.Turkiy til tarixi.-Toshkent.,2009.219-bet.
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
- 6.Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. I,II,III,IV,V jildlar. -Toshkent: Jahon print, 2011.
7. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг”.Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов.-Тошкент: Фан,1972.

RUS VA OʻZBEK TILIDA TANGLIK QURILISHLARINI KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHLASH BILAN OʻRGANISH

*Alimsaidova Sayyora Amidieevna,
Qoʻqon davlati
Muqimiy nomidagi pedagogika instituti
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Raximova S.G., Mafozilova N.M., Mamirova R.A.
magistratura talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqola rus va o'zbek tillaridagi vaqtinchalik munosabatlarni taqqoslash masalalarini ochib beradi. Taqqoslangan tillarda temporal munosabatlarni talqin qilishning grammatik usulining o'ziga xos xususiyatlari va ularni maktab o'quvchilari nutqida qo'llash tahlil qilinadi.

Tayanch so'z va iboralar: vaqt munosabatlari, qiyosiy tahlil, kompetentsiya, ijodiy mashqlar.

ИЗУЧЕНИЕ ВРЕМЕННЫХ КОНСТРУКЦИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ПРИ КОМПЕТЕНТНОСТНОМ ПОДХОДЕ

*Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,
Кокандский государственный
педагогический институт имени Мукими
доктор педагогических наук (DSc), доцент,
Рахимова С.Г., Мафозилова Н.М., Мамирова Р.А.
магистранты*

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы сопоставления темпоральных отношений в русском и узбекском языках. Проанализированы характерные особенности грамматического способа толкования временных отношений в сопоставляемых языках и их использование школьниками в своей речи.

Ключевые слова и словосочетания: темпоральные отношения, сопоставительный анализ, компетенция, творческие упражнения.

STUDYING TENSION CONSTRUCTIONS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES WITH A COMPETENCE-BASED APPROACH

*Alimsaidova Sayyora Amidieevna,
Kokand State Pedagogical Institute named after Mukimi
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor,
Rakhimova S.G., Mafozilova N.M., Mamirova R.A.
master's students*

Abstract: This article reveals the issues of comparing temporal relations in the Russian and Uzbek languages. The characteristic features of the grammatical method of interpreting temporal relations in the compared languages and their use by schoolchildren in their speech are analyzed.

Key words and phrases: temporal relations, comparative analysis, competence, creative exercises.

Русский и узбекский языки генетически и типологически различные. Отличительные особенности этих языков объясняются спецификой их строя, и именно сопоставительно-типологический метод исследования позволяет выявить общее и специфическое, типологические схождения и расхождения на разных уровнях языка, особенно в синтаксисе, так как в категориях синтаксиса закреплены более общие категории мышления.

Данная речевая конструкция широко употребительна, и распространена в разных сферах общения, а также универсальна в употреблении, что, безусловно, положительно влияет на формирование компетентностного подхода у учащихся школ. Но вместе с тем данная конструкция вызывает значительные затруднения у учащихся средней школы в связи с интерферирующим влиянием родного языка.

Наш опыт работы показывает, что, основой новой концепции обучения неродному (русскому) языку является *научение* общению на неродном (русском) языке, т.е. сформирование умений и навыков решать языковыми средствами различные коммуникативные задачи. Отдельные вопросы темпоральных отношений современного русского языка в лингводидактическом плане рассматривались в работах учёных Узбекистана (М.Аскарова, И.А.Азляров, М.М.Муждабаев, Д.И.Рузиева, М.М.Шамсиева, и др.). Анализ современной литературы по сопоставительному изучению языков показывает, что исследования грамматической категории времени с точки зрения компетентностного подхода ещё недостаточно раскрыты.

Категория времени в современном русском языке имеет обширный лексико-фразеологический состав и сложную структуру. К языковым выражениям категории времени относятся

Таблица № 1

1.	Имена существительные	<i>время, день, ночь, год, век, полугодие, столетие, пятница, будни, секунда, час</i> и т.п.;
2.	Имена прилагательные	<i>вчерашний, завтрашний, ежедневный, прошлогодний, воскресный, июньский</i> , и т.п.;
3.	Наречия	<i>беспрерывно, долго, досрочно, вчера, вдруг, впредь, допоздна, сегодня, рано, поздно</i> , и т.п.;
4.	Союзы и союзные слова	<i>до тех пор как, в то время как, едва, когда, с тех пор как</i> и т.п.;
5.	Свободные сочетания	<i>в свободное время, на следующий день, поздно вечером, сегодня вечером</i> и т.п.;
6.	Фразеологические обороты	<i>в кои веки, когда рак на горе свистнет, после дождика в четверг, при царе Горохе</i> и т.п.

В целом универсальные свойства времени в русском языке имеют разнообразное языковое выражение – лексическое, морфолого-синтаксическое, стилистическое.

Наиболее характерными являются слова и грамматические конструкции, частично совпадающие в русском и узбекском языках по способу выражения:

Таблица № 2

№	В русском языке	В узбекском языке
	I. Обозначение времени продолжительности действия выражается:	
1.	именами существительными в форме родительного падежа с наречием – <i>раньше</i> и с предлогом – <i>после</i> например: <i>раньше срока, после обеда</i> ,	в узбекском языке именами существительными (и другими именами) в форме исходного падежа с послелогами <i>ilgari, burun, avval</i> (раньше, прежде), <i>keyin, so'ng</i> (после): <i>muddatidan oldin, hammadan burun, tushdan keyin (so'ng)</i> ;
2.	именами существительными в винительном падеже с предлогами <i>-в</i> и <i>-на</i> : <i>в пятницу, на следующий день, на среду</i> (запланировать),	именами существительными без падежных аффиксов или существительными в форме дательного падежа: <i>juma kuni, ertasi kuni, shorshanba kuniga</i> (rejalashtirmok);
3.	наречиями: <i>всегда, раньше, теперь, сейчас, рано, поздно, ночью, недавно, зимой, завтра</i> ,	наречиями того же значения: <i>hamisa, hozir, kech</i> и другими, а также именами существительными и прилагательными в форме местного, дательного или исходного падежей <i>ertaga</i> (эрта+га), <i>tunda</i> (тун+да),

		<i>yaqinda</i> (якин+да).
	II. Обозначение времени, к которому приближается действие и обозначение времени и количества выражается:	
4.	именами существительными в форме дательного падежа с предлогом - к: <i>к шести часам, ко дню рождения</i> , именами существительными в форме творительного падежа: <i>собирают осенью, возвратились поздней весной, готовился целыми днями</i>	именами существительными в форме дательного падежа с послелогом <i>qadar, dovur</i> со словом <i>yaqin</i> : <i>Mustaqillik kuniga qadar, jumaga yaqin</i> , а также именами существительными с суффиксом <i>-gacha</i> : <i>soat oltigacha</i> . в ф-ме местного падежа, а иногда в ф-ме именительного падежа: <i>kuzda teradilar, kech bahorda qaytdilar</i> ,
	III. Обозначение времени, срока, в течении которого что-либо произошло или произойдет и обозначение периода времени, по истечении которого совершается что-либо выражается:	
5.	именами существительными в форме винительного падежа с предлогом -за: <i>за год, за шесть месяцев, за три часа, -через: через неделю</i>	в узбекском языке именами существительными в форме винительного падежа с послелогом <i>ichida</i> или <i>tobainida</i> : <i>yil ichida, olti oy tobaynida</i> , а также именами существительными в форме местного падежа: <i>uch soatda</i> ; в ф-ме исх. падежа с послелогом <i>keyin</i> : <i>bir haftadan keyin</i>

Принцип национальной ориентированности образования, ещё более чётко определяет эту установку. А именно, национальная направленность образования заключается в его органическом единстве с национальной историей, народными традициями и обычаями, сохранении и обогащении культуры народов Узбекистана, признании образования важнейшим инструментом национального развития, уважения к истории и культуре других народов. Поэтому работа со связными текстами, на базе которых выполняются как языковые, так и речевые упражнения, по нашему мнению, являются наиболее продуктивными. Например:

Задание. Прочитайте статью. Перескажите её своими словами используя темпоральные конструкции.

Маргилан

Полководец Александр Македонский первый раз побывал в Маргилане, когда его войска шли от Ходжента к Узгену. Местные старейшины решили во время торжественной встречи угостить его жареной курицей с хлебом. Отведав угощение, полководец спросил, как называется это блюдо. Ему сказали: «Мургинон», то есть курица и хлеб. Возвращаясь обратно, Александр остановился здесь и снова поел курицу с хлебом. Данное Македонским городу название «Мургинон» прижилось и дошло до наших дней с некоторыми изменениями.

Здесь жили и творили величайшие ученые и писатели Востока, в частности, Бурхониддин Маргиноний, поэтесса Увайси и многие другие.

(Р. Отажонов, Б. Носиров из газеты «Знамя труда»)

Задание. Составьте 5-6 связанных по смыслу предложений, используя темпоральные конструкции, на тему:

1. *Посмотрите на фотографию и расскажите о достопримечательностях вашего города. Когда они были построены?*

Целью этих упражнений была выработка у учащихся навыка самостоятельного составления предложений с использованием временных конструкций. Как показала практика, данная работа вызывает у учащихся большие трудности в связи с различиями в структуре предложений и их компонентов в русском и узбекском языках.

Мы пришли к выводу, чтобы учащиеся освоили эти средства для продуцирования активной русской речи, необходимо учитывать влияние родного языка.

Список использованной литературы

1. Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. на. д-ра пед.наук. - Т., 1997. – 350 с.
2. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 240 с.
3. Алимсаидова, Сайера Амидеевна. "Историко-литературные тексты как основа преподавания

неродного языка". <i>Журнал текущих исследований по педагогике</i> 2.10 (2021): 204-208.

4. Алимсаидова С.А. Дидактические принципы при обучении неродному языку Международный научный журнал «Молодой учёный». – Казань, 2015. – №23 часть X. С. 1062-1063

5. Alimsaidova Sayyora Amidyevna Sociolinguistic competence as a purpose of teaching a nongene (russian) language in a secondary school. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) Published: October 30, 2020 | Pages: 321-327 IMPACT FACTOR 2020: 5. 525.. Doi: <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue10-53 P. 321-327>

6. Sayyora, Alimsaidova. "IMPROVEMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 313-316.

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONI TERMINLARINING MAVZUVIY GURUHLARI

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi*
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
umidaubaydullayeva49@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar terminologiyasini o‘rganish keyingi yillarda sezilarli rivojlanmoqda. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan terminlarni aniqlash, tahlil qilish Navoiy asarlarini tushunish uchun ham, terminologiya tarixi uchun ham muhim manba ekanligi shubhasiz. Alisher Navoiy asarlarida turli sohalarga, kasb-hunar va fan tarmoqlariga oid ko‘plab terminlar qo‘llanilgan. “Xamsa” tarkibiga kiragan “Layli va Majnun” dostonida ham turli mavzularga oid bir qancha terminlarni uchratish mumkin. Jumladan, zoologik terminlar, ekologik terminlar, tibbiyotga, musiqaga, harbiy soha, astronomiyaga oid terminlar va h.k. Biz bu maqolada dostonida qo‘llanilgan terminlarni aniqladik va mavzuviy guruuhlarga ajratdik.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Layli va Majnun, termin, terminologiya, astronomiya.

Аннотация. Исследование терминологии художественных произведений в узбекском языкознании в последние годы существенно развивается. В частности, выявление и анализ терминов, используемых в творчестве Алишера Навои, несомненно, является важным источником для понимания творчества Навои и истории терминологии. В произведениях Алишера Навои используется множество терминов, относящихся к различным областям, профессиям и отраслям науки. В эпосе «Лейли и Меджнун», входящем в состав «Хамсы», можно встретить ряд терминов, относящихся к различным темам. Включая зоологические термины, экологические термины, термины, связанные с медициной, музыкой, военной областью, астрономией и т. д. В этой статье мы определили термины, используемые в эпосе, и разделили их на тематические группы.

Ключевые слова: Алишер Навои, Лейли и Меджнун, термин, терминология, астрономия.

Annotatsion. The study of the terminology of artistic works in Uzbek linguistics is developing significantly in recent years. In particular, identifying and analyzing the terms used in Alisher Navoi's works is undoubtedly an important source for understanding Navoi's works and for the history of terminology. In the works of Alisher Navoi, many terms related to various fields, professions and branches of science are used. In the epic "Layli and Majnun", which is part of "Khamsa", you can find a number of terms related to various topics. Including zoological terms, ecological terms, terms related to medicine, music, military field, astronomy, etc. In this article, we defined the terms used in the epic and divided them into thematic groups.

Key words: Alisher Navoi, Layli and Majnun, term, terminology, astronomy.

O‘zbek tili terminologiyasining shakllanish tarixi va bugungi tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun amaliy ehtiyoj hisoblanadi. O‘zbek tilshunosligida terminologik tadqiqotlar XX asrning 30-yillaridan boshlangan va S.Ibrohimov, S.Usmonov, A.Hojiyev, S.Akobirov, N.Mamatov kabi olimlarning ishlarida aks etgan. Soha terminologiyasiga doir qilingan tadqiqotlar talaygina bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida badiiy asar terminologiyasiga doir qilingan ilmiy ishlar sanoqli. Bu borada dastlab X.Shamsiddinov o‘zining nomzodlik ishida badiiy matnda terminning qo‘llanish xususiyatlariga to‘xtalgan. Mazkur tadqiqotda she’riy matnda terminning uslubiy vazifalari, shuningdek, terminning funksional sinonimlarini qo‘llanilish xususiyatlari o‘rganilgan[9]. Keyinchalik, N.Jalilova badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifini o‘rgandi[3]. D.Jamoliddinovaning doktorlik dissertatsiyasi ham badiiy asarlarda terminlarning qo‘llanishi haqida bo‘lib, badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari bir necha nasriy asarlar misolida tahlil qilingan[4]. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlari, xususan, “Xamsa” dostonlari matni ham turli jihatlardan

tahlilga tortilgan. Biroq, bu dostonlardagi qo'llanilgan terminlar va ularning morfologik-sintaktik xususiyatlari hali to'liq tadqiq etilmagan.

Alisher Navoiy birgina "Layli va Majnun" dostonida bir yarim mingga yaqin terminlarni qo'llaydi. Biz bu terminlarni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratdik:

Motam marosimiga oid terminlar: *a'zo, na'sh, tobut, madfan, mayyin, go'riston.*

Ma'lumki, motam marosimlari o'lim holati bilan bog'liq. *O'lim* so'zi asarda bir necha o'rinlarda kelgan:

Majnun g'amidin bori azoliq,

Layli **o'lumi** uchun qaroliq [2:288].

Umri kemasi vahalg'a botdi,

Ko'nglini **o'lumga** qo'ydi, yotti [2:259].

To'y marosimiga oid terminlar: *jashn anjumani, aqd bog'lamoq, nikoh, kelin, kuyov, sur.* to'y xabarini eshitgan Navfal butun qarindosh-urug'ini to'plab, katta to'y boshlagani manzarasi tasviri quyidagicha:

Jashn anjumanin azim qurdi,

Ul xaylni **bazm** aro tushurdi. [2:219]

Bunda *jashn* so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1-jildida o'yin-kulgi majlisi, bazm, ziyofat deb berilgan [5:568]. "Layli va Majnun" dostonining Vohib Rahmonov muharrirligida tayyorlangan 2020-yilgi nashrida **Jashn anjumani** birikmasi **to'y majlisi** deb izohlangan [1:333].

Musiqaga oid terminlar: *miyongir, tarona, navo, mutrib, nag'masoz.* Navoiy 4-bobda, osmon jismlarining holatini bayon qilar ekan, Zuhra yulduzini quyidagicha tasvirlaydi:

Zuhra yo'lida tuzub **navo zer**,

Mutriblardek bo'lub **miyongir** [2:22].

Navo so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2-jildida 1. *Nag'ma ohang* [6:418] deb ta'riflangan. O'zbek tilining izohli lug'atida *navo* (*fors. kuy, ohang; qo'shiq*) so'zining ma'nosi "*kuy, ohang; xonish*" deb berilgan [B.7]. *Zer* so'zi esa *musiqada eng ingichka ovoz, nozik tovush* [B.632]ni ifodalaydi. *Mutrib* so'zi *cholg'uchi* [B.387] ma'nosini bersa, *miyongir qatnashuvchi, ishtirok etuvchi* [B.303] ni ifodalaydi. Baytning ma'nosi: Zuhra esa uning yo'lida pastki pardada soz chalib, sozandalardek musiqiy kecha tashkil qildi [1:15].

Harbiy terminlar: *yoy, qilich, o'q, sipah, sipahbad, cherik.* Harbiy terminlardan eng ko'p qo'llanilgani qurol-aslaha nomlaridir. Masalan, *qilich* so'zi qo'llanilgan baytga e'tibor beraylik:

Bahrom ko'rub biyik janobin,

Tashlab **qilichin**, o'pub rikobin [2:23]

Dostonda *qalqon, qilich, o'q va yoy* kabi harbiy qurollarning bir satrda kelishi ham uchraydi:

Ham qoshig'a chekti bodpoyin,

Qalqon-u qilich-u o'q-u yoyin [2:166].

Zoologik terminlar: *gazanda, mo'r, pashsha, yilon, jamoza, jayran, qo'y;*

Forscha **ohu** termini quvush shoxli sutemizuvchilar oilasiga kiruvchi yovvoyi hayvon nomini anglatadi. Eski o'zbek tilida ham bu so'z mavjud bo'lib, u bilan birgalikda bu turdagi hayvonlarni nomlashda **kiyik, jayran, g'izol** so'zlaridan ham foydalanilgan. Masalan, Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida shunday satrlar bor:

Mushk oncha sochib bu **ohuni** Chin,

Kim, ayladi mo'ndularni mushkin [2:63].

Asarda bu hayvonni nomlashda ko'p o'rinlarda **kiyik** so'zi qo'llanilgan:

Har qumg'aki maqdami yetishib,

Bir dasht **kiyik** anga ergashib [2:143].

Ekologik terminlar: *bulog', chashma, ko'l, bodiya, abr, girdob.* Asarda qo'llanilgan terminlarning miqdor jihatidan katta guruhlardan biri ekologik terminlardir. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

- *Suv bilan bog'liq ekologik terminlar*
- *Yer (tuproq) bilan bog'liq ekologik terminlar*
- *Ob-havo bilan bog'liq ekologik terminlar*
- *Hayvonot bilan bog'liq ekologik terminlar*
- *O'simliklar bilan bog'liq ekologik terminlar.*

Tibbiyotga bilan bog'liq terminlar: *hakim, bemor, rag, qon, bo'g'un, xafaqon, yaraqon.* Tibbiyotda eng muhim atamalardan biri *shifokor* so'zidir. Asarda *shifokor tabib, hakim* so'zlari bilan ifodalangan:

Dardimg'a xayolini **tabib** et!

Jonimg'a visolini nasib et!

Tabib – tabib, shifokor [7:148]. Hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘atida *tabib* so‘zining asli arabcha ekanligi hamda “*shifokor, davolovchi*” ma’nolarini bildirishi, bemorlarni davolovchi mutaxassis ekanligi; ikkinchi ma’nosi tibbiyot ilmidan muayyan o‘quv yurtida ta’lim olmagan, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug‘ullanuvchi shaxs ekanligi aytilgan [7:627].

Astronimiya sohasiga oid terminlar: *Baqar, Zuhul, Zuhra, Mehr, Xurshid;*

Navoiy ilmi nujum, ya’ni astronomiyaga oid bir qancha terminlarni qo‘llaydi. Ulardan biri bu – *anjum* terminidir:

Aflokka sen shitob berding,

Anjum‘a bu nur-u tob berding. [2:6]

Yana bir baytda:

Ko‘k atlas-u borin zarhal etgan,

Anjum duridin mukallal etgan. [2:7]

Ta’limga oid terminlar: *maktab, dars, kitob, madrasa, hamdars*. Ta’limga oid terminlardan eng keng tarqalgani, bugungi kunda ham til iste’molida faol qo‘llanayotgan so‘z – ta’lim-tarbiya muassasasi hisoblangan *maktab* so‘zidir, bu so‘z Navoiy asarida ham xuddi shu ko‘rinishda va shu ma’noda qo‘llanilgan:

Kim, **maktab** aro xujasta farzand,

Bo‘lg‘ay bori ilmdin barumand [2:60]. Navbatdagi baytda qadimda maktab-madrasalarda juda ko‘p qo‘llanilgan anjom – *lavh* hamda o‘quv quroli bo‘lgan *qalam* so‘zlari tilga olinadi:

Kursi dog‘i **lavh** ila **qalam** ham,

Raxshi izidin bo‘lub mukarram [2:163].

Lavh – yassi taxta, yozuv taxtasi; [6:163]

O‘quv muassasasi nomi bo‘lgan *madrasa* so‘zini ham ta’limga oid termin deyish mumkin:

Bu **madrasa**da yasay visoqin,

Hujra aro soz etay yaroqin [2:289].

Faoliyat-jarayonni anglatuvchi terminlar: *bulbullik, ganjfishonlik, guharnisor, durfishonliq, jarrorliq, jafoko‘sh, jahonnamoliq;*

Xalq, millat va elat nomini ifodalovchi terminlar: *buluj, arab.*

Diniy terminlar: *Tengri, tazarru, vadiat, jaroyim;*

Tasavvufiy terminlar: *go‘shanishin, xonaqah, muraqqa‘;*

Adabiyotshunoslikka oid terminlar: *javome‘ul-kalim; rivoyat, nazm;*

Kasb-korni ifodalovchi terminlar: *zaminro‘b;*

Qon-qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi terminlar: *ibn.*

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonida bir ming besh yuzga yaqin turli sohava fan tarmoqlariga oid terminlarni qo‘llagan. Navoiy asarlarida turli sohalarga doir terminlar qo‘llanilgan bo‘lib, ularni aniqlash, tahlil qilish, izohlash Navoiy mahoratini tushunish uchun ham, tilshunoslikning terminologiyasi sohasi uchun ham katta yutuq bo‘ladi. Doston matnida qo‘llanilgan terminlarning bir qismi sof o‘zbek tiliga xos, kattaroq qismi esa arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Layli va Majnun” (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
2. Alisher Navoiy “Layli va Majnun”. -Toshkent, 2020.
3. Jalilova N.R. Badiiy matndagi qon-qarindoshlik terminlarining tipologik va struktural-grammatik tavsifi: Фалсафа доктори ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б;
4. Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari: Fan doktori...diss.avtoref. – Toshkent, 2021.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 1983.
6. Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1984.

XALQ FRAZEMALARINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATI

Hayriddinova Gulzoda JDPU talabasi

Z.SH.Jumayeva f.f.f.d.(PhD) dotsent

ANNOTATSIIYA. Maqolada iboralar xalq tafakkuri madaniyati va mentalitetining muhim xususiyatlari va qimmatli ma'lumotlar manbai sanalgani uchun, xalqimizning azaliy milliy udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlar, odob-axloq, turmush tarzi va ramzlar haqidagi tasavvurlari inobatga olinib, frazeologizmlar etnik, semantik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, frazeologizmlar, milliy, etnik frazeologizmlar, pragmatika

ANNOTATION. Comparison of phraseological units covering national values with ethno-cultural features of other languages and disclosure of their differences, similarities and lingvopragmatic features, the semantic and thematic scope and semantic-pragmatic features in the study of lingvocultural features of phraseological unities have been determined;

Key words: lingvopragmatic, phraseological, national, ethno-cultural features, pragmatic features.

АННОТАЦИЯ

Определены сопоставление фразеологизмов, охватывающих национальные ценности, с этнокультурными особенностями других языков и выявление их различий, сходств и лингвопрагматических особенностей, семантический и тематический объем и семантико-прагматические особенности при изучении лингвокультурных особенностей фразеологических единиц;

Ключевые слова: лингвопрагматические, фразеологические, национальные, этнокультурные особенности, прагматические особенности.

Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatga egaligini hisobga olib, ularni *etnofrazemalar* deb atashga asos bor, chunki ularda madaniyatning biror etnosiga tegishli lisoniy birliklari mavjud. *Etnofrazema* asoslanmagan barqaror birikma, iboralar bo'lib, xalq ma'naviy madaniyati sohalariga turlicha etimologik jihatdan bog'liq hodisa: urf-odat, an'ana, udumlar, rivoyat, belgi-alomat, e'tiqod, jonsiz narsa-buyum haqidagi farazlar va boshqalardir.

Etnofrazeologiya aniq hajmga ega bo'lgan "Olamning lisoniy tasviri"dagi zaruriy milliy ko'rsatkichlarini ifodalab beradi. U kodlangan (yashirin) atrof-muhitni o'rab turuvchi juda muhim mohiyatni taqdim etuvchi omillar bilan shug'ullanadi. Zamonaviy frazeologiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya ushbu ta'limotni milliy va umuminsoniy shakllarini aniqlashtirib beruvchi dalillar haqida izlanishlar olib bormoqda. Xususan, frazeologik birliklardagi etnokognitiv xususiyatlarni tadqiq etgan tilshunos olim M.S.Gutovskaya milliy qadriyatlarga asoslangan frazeologik birliklarni o'rganish borasidagi muammolar yechimi hali bir yagona to'xtamga kelmaganini ta'kidlaydi. U belgilangan hajmdagi milliy frazeologizmlar tushunchasi haqida turlicha farazlar mavjudligini aytadi. Unga ko'ra, bir guruh frazeolog olimlar milliy frazeologizmlarni keng qamrovli va ularda milliy bo'yoqdorlik sezilarli darajada deb hisoblashsa, boshqa bir guruhi bu fikrni rad etib, milliy frazeologizmlar tarkibida faqatgina realiyalar ishtrok etishi shart degan xulosani tan olishadi.

Milliy frazeologizmlar ma'lum bir millatning madaniyati, urf-odatlar, o'ziga xos udumlari kabi xislatlarni yorituvchi va xalqlar hayotini, dunyoqarash va turmush tarzini, etik va estetik normalarini ifodalovchi xalq frazeologizmlari orasidagi milliy qatlamdir. A.Nasirov bu qatlamga mansub materialning milliy o'ziga xosligini quyidagi jihatlarida yorqinroq namoyon bo'lishini eslatadi: a) bevosita shu xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va maishiy hayotini aks ettirishda; b) o'rganilayotgan xalqlarga xos xarakter xislatlarning ishonarli ifodalanishida; v) millatga oid toponimika, flora va faunaning ishtirok etishida; g) millatga xos urf-odat hamda marosimlarning mavjudligida; d) shu xalqlarning adabiy-badiiy tilida.

Latish olimi G.Zimanas "Millat hayotidagi o'ziga xos holatlarni milliy holatlardan farqlash lozim", deydi. "Milliy holat tushunchasi – kengroq, u millatning butun hayotini, uning barcha tomonlarini, o'ziga xos holatlar esa ushbu millatga mos bo'lgan (yoki asosan mos bo'lgan) xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, milliy madaniyat tushunchasi u yoki bu millat madaniyatidagi barcha holatlarni, o'ziga xoslik esa – boshqa millatlar madaniyatida bo'lmagan yoki deyarli bo'lmagan jihatlarni qamrab oladi".

Yana bir guruh frazeolog-tilshunos olimlar esa bunday frazeologik birliklar boshqa tildagisi bilan qiyoslangandagina milliylik ko'rsatkichi sezilishi mumkin deyishadi. V.N.Teliyaning fikricha, tilda aynan milliy-madaniy etalon stereotip va mifologem tasviriy ifodalarga asoslangan frazeologik birliklar mustahkam o'rin egallaydi va aynan ular nutqda u yoki bu mentalitetning o'ziga xos lingvokulturologik jihatini umumlashtiradi. Bu avvalambor, leksik komponentli ko'rsatkichga ega milliy frazeologizmlarga

taaluqlidir⁸. Bunday mazmun madaniy - antroponemik komponentli frazeologik birliklarda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*Daqqiyunusdan qolgan*”, “*Sulaymon o‘lib, devlar qutlibdi*” frazeologizmlari shular jumlasidandir. Milliy an‘analarga asoslangan ko‘pqirrali turmush-tarzi aks etgan etno-frazeologik birliklar ham ushbu ro‘yxatdan joy olgan: “*Ro‘mol o‘ramoq*”, “*Qulog‘ini tishlamoq*”, “*Oq kiymoq*”.

T.I.Skorobogatovaning tahliliga ko‘ra, etnofrazeologiyaning asosi bo‘lmish etnonimlar – “O‘zaro munosabatda bo‘lgan xalqlar o‘rtasidagi lingvokulturologik fikr yuritish majmuidir”. Tilshunos nazariyasiga ko‘ra, etnonim leksik birlik sifatida qabul qilinishidan avval etnik tushuncha bo‘lib shakllanadi va Olamning lisoniy tasvirida etnik belgilarni ifodalash uchun xizmat qiladi⁹.

Insoniyat har kuni o‘z nutqida iboralardan foydalanadi, chunki ular fikrimizning ta’sirchanligini oshiradi va yorqinlik baxsh etadi. Iboralar tadqiqot uchun qiziqarli ob’ekt hisoblanib, tilning va aynan xalq madaniyatining ajralmas bo‘lagi bo‘lib xizmat qiladi. Ular nutqni boyitadi va so‘zlovchining xarakter xususiyatini, maqsadini aynan yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Aynan iboralar har bir millat uchun noyob va nodir hodisa hisoblanib, ularda xalqning milliy-madaniy omillari, o‘ziga xos mental ko‘rinishlari o‘z aksini topadi.

Mentallik milliy xarakterning intellektual, ma’naviy va iroda xususiyatlarini o‘zida birlashtiradigan, ona tili kategoriyalari va shakllaridagi dunyoqarashning ko‘rinishidir. Mentallikning birligi mazkur madaniyatning konsepti hisoblanadi. A.Ya.Gurevich: “Mentallik dunyoni ko‘rish yo‘li, u g‘oya bilan o‘xshash emas, mentallik falsafiy, ilmiy yoki estetik tizimlar emas, u fikr emotsiyasidan qismlarga ajralmagan jamiyat tafakkuri manbasidir”, deydi. Xalq mentalligi tilning muhim konseptlarida dolzarblashadi.

Har bir xalqning o‘ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘taydi. Masalan, “*to‘nini teskari kiyib olmoq*” - o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq, “*do‘ppini osmonga otmoq*” - juda xursand bo‘lmoq, “*do‘ppi tor keldi*” - iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq, “*bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan*” - yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq, “*chorig‘ini sudramoq* -zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, amal-taqal qilib yashamoq, “*paytavasiga qurt tushdi*” xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik¹⁰.

Bir misol orqali etnofrazemaning milliy koloriti haqida tushuncha olishimiz mumkin: sharqda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, mahsida kirib borgan. Shuning uchun “mahsi kiymoq” turmushga chiqmoq tushunchasiga teng qo‘llanilgan. *Mahsi* so‘zi arabcha “bo‘yamoq”, “surtmoq”, “yog‘lamoq” ma’nosidagi *masaha* fe’li¹¹ asosida paydo bo‘lgan. Oyoq kiyimining bunday nomlanishi unga mas’h tortish mumkin bo‘lganidir. Mas’h tortish sharoiti va tartibi shar’iy asoslanadi¹². *Mas’h* so‘ziga nisbat qo‘shimchasi bo‘lgan -i ni qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan ushbu so‘z arab tilining o‘zida yo‘q. Shuningdek, ushbu so‘zning fors tiliga oid lug‘atlarda va “Navoiy asarlari lug‘ati”da uchramasligi uning bir qadar keyingi davrlarda arabiy asosga o‘zbek tili so‘z yasash tizimidan mustahkam o‘rin olgan, aslida arab tilidan o‘zlashgan “yoyi nisbat”ni qo‘shish bilan yasalganini ko‘rsatadi. Demak, *mahsi* so‘zining yasash asosi arab tiliga taaluqli bo‘lsa ham, so‘z yasash tizimi nuqtai nazaridan o‘z qatlamga mansub. Xorazmda unashtirilgan qiz yangi turmush qurgan joyga maxsus milliy oyoq kiyimida, mahsida kirib borgan. Shuning uchun “*mahsi kiymoq*” turmushga chiqmoq tushunchasiga teng qo‘llanilgan.

V.I.Averchenko etnonim so‘zlarni tadqiq qilishda milliy mentallik urg‘usining o‘ziga xos xususiyatlarini hosil bo‘lishi va aniqlanish usuliga ahamiyat berishni ta’kidlaydi¹³. Etnofrazeologiya esa aynan etnonim so‘zlar jamlanmasida boshqa til birliklariga nisbatan shaffof va aniq ko‘rinishga ega u yoki bu etnik jamiyat ko‘rsatkichlari bilan shug‘illanuvchi sohadir. Shunday ekan, bugungi kun frazeologlari o‘zbek etnofrazeologiya sohasining rivoji uchun manbalar talayginalini va ular orqali milliy qarashlarimizni dunyoga tanitish imkoni borligini eslatib o‘tish joiz.

Adabiyotlar:

1.Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Semanticheskii pragmaticheskii i lingvokulturologicheskii aspekt.-M.:Shkola.1996.S.-233.

⁸ Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический прагматический и лингвокультурологический аспект.-М.:Школа.1996.С.-233.

⁹ Скоробогатова Т.И. Этническая картина мира и этноидиоматика.//Вест.Православ.Свято-Тихон.гуманитар Ун-та.Сер.3:Филология.-2007.-№9.-С.97-114.

¹⁰ Усмонова Ш. Лингвокультурология.Тошкент.2019.-Б.97.

¹¹ Носиров О.,Юсупов М. Ва бошқалар.Ан-наъим.Арабча-ўзбекча луғат .-Тошкент:А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2005.-Б.783.

¹² Мухтасар. Араб тилидан Рашид Зоҳид ва Акрам Дехкон таржимаси. Тошкент: Чўлпон, 1993.

¹³ <https://elib.bsu.by/handle/123456789/207863>

- 2.Skorobogatova T.I.Etnicheskaya kartina mira i etnoidiomatika.//Vest.Pravoslav.Svyato-Tixon.gumanitar Un-ta.Ser.3:Filologiya.-2007.-№9.-S.97-114.
- 3.Usmonova Sh. Lingvokulturologiya.Toshkent.2019.-B.97.
- 4.Nosirov O.,Yusupov M. Va boshqalar.An-na'im.Arabcha-o'zbekcha lug'at .-Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2005.-B.783.
- 5.Muxtasar. Arab tilidan Rashid Zohid va Akram Dehqon tarjimasi. Toshkent: Cho'lpon, 1993.
- 6.<https://elib.bsu.by/handle/123456789/207863>

IKKINCHI SHO‘BA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

O‘ZGA TILLI (QOZOQ) GURUH TALABALARINING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA TOVUSHDOSH SO‘ZLARINING AHAMIYATI

B.Tuxtayeva NDPI

O‘zga tilli guruh talabalarining nutq jarayonida tovushdosh (paronim) so‘zlardan foydalanishi va ularning ma‘nosini farqlash jihatlari e‘tibor qaratilgan

Ilm-fan, texnik taraqqiyotning juda tez rivojlanishi sabab zamonaviy dunyo XXI asrda misli ko‘rilmagan darajada taraqqiyotning eng yuqori cho‘qqilarini egallab bormoqda. Xalq xo‘jaligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-maishiy sohalar va insonlarning turmush-tarziga yangi texnologiyalarning kamol topayotgan avlod ta‘limiga munosabatni o‘zgartirishni talab etmoqda.

Til o‘rgatish va o‘rganishda axborot texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlaridan samarali foydalanish, turli o‘quv va uslubiy materiallar, arxiv, matn va illyustratsiyalarga murojaat qilish, ta‘lim jarayonini boshqarish hamda nazorat qilishni kompyuterlashtirish, yangi o‘quv-uslubiy ishlanmalar yaratish, til ta‘limi bilan mashg‘ul mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha respublikamizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Insonning qaydarajada yetuklik darajasi va savodxonligini imlo va talaffuzi belgilaydi.

Inson fikrini so‘zlash, gapirish va yozma bayon qiladi. Boshqalarning fikrini esa eshitish yoki o‘qish vositasida tushunadi. Bularning barchasi ham nutq sanaladi.

Yozma nutqning asosiy vositasi harflar va tinish belgilari hisoblanib, so‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatish qonun-qoidalarini, imlo nazarda tutiladi.

Og‘zaki nutqning asosiy vositasi tovushlar, ohang va urg‘u hisoblanadi. So‘z va qo‘shimchadagi tovushlarni to‘g‘ri aytish, ohangdan o‘rinli foydalanish qonun-qoidalarini tushuniladi.

Ta‘lim qozoq tilida olib boriladigan muassasalarning o‘zbek tili darslarida ta‘lim oluvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish “O‘zbek tili” davlat ta‘lim standarti va dasturlarida belgilangan asosiy talablar sirasiga kiradi. Og‘zaki nutq so‘z va so‘ shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish, urg‘uga e‘tiborli bo‘lishda yaqqol ko‘rinadi. Yozma nutq so‘zlarni bexato yozish, imlo qoidalariga rioya qilish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay bilish, gap chegarasini ajrata bilishda namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutqqa qarab yozma nutq rivojlanadi, o‘z navbatida, yozma nutq og‘zaki nutqning to‘g‘ri bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra ham bular orasida uzviylik bo‘lishiga katta ahamiyat beriladi.

Qozoq tilida so‘zlovchi ta‘lim oluvchilarning o‘zbekcha yozma nutqi og‘zaki nutqqa suyanganda holda uzviylik asosida o‘stiriladi. Buning uchun quyidagilarga qat‘iy rioya qilish zarur:

-tovushlar talaffuzi bilan harflarni o‘qishdagi uzviylik;

-so‘zlar talaffuzi bilan ularni yozishdagi uzviylik;

-so‘z shakllari, so‘z shakllari asosida qo‘shimchalar talaffuzi va ularning imlosi o‘rtasidagi uzviylik;

-gaplarni mazmun tugalligida to‘xtamlar bilan talaffuz qilish va yozuvda tinish belgilari orqali ularning chegarasini ajratish bo‘rish o‘rtasidagi uzviylik kabilar.

So‘z bilan ishlash, talabaning (o‘zga tilli guruhlarda) shaxsiy so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishda tovushdosh so‘zlarning o‘rni beqiyosdir. Tovushdosh so‘zlar bir-biridan atigi bir tovush bilan farqlanuvchi turli xil ma‘nolarga ega bo‘lgan so‘zlar tushuniladi. Masalan, (*tush-tosh*)(*мыс-маc*), (*tosh-tish* yoki *tir-bir*)(*mac-mic* *яки тир-бир*), (*sir-qir*)(*сыр-қыр*)kabi so‘zlar tovushdosh so‘zlar sirasiga kiradi. “Unli va undosh tovushlar” mavzusini o‘rganishda tovushdosh so‘zlar bilan ishlashning imkoniyati keng.

Talabalar nutqida tovushdosh so‘zlar boyitishda, ayniqsa, unli yoki undosh tovush juftlari ustida olib boriladigan ishlar ham o‘z samarasini beradi. Masalan,

u – o‘, u – i, o‘ – i, u – o, p –b, v – f kabi tovush juftlari ustida ishlayotganda shunday so‘zlar hosil qilish mumkin:

un-o‘n	ун-он
ur-o‘r	ур-өр
uq-o‘q	уқ-оқ
bur-bo‘r	бур-бор
tur-to‘r	тур-тор
sur-so‘r	сур-сор
qur-qo‘r	қур-қор
qul-qo‘l	құл-қол
bur-bir	бур-бир

sur-soʻr	сўр-сop
tur-tor	тўр-тap
qur-qor	қўр-қop
bir-ber	бip-бep

va h.)ularning maʼno farqlarini sharhlash, bu soʻzlar yordamida gaplar tuzish kabi ijodiy-amaliy ishlar taʼlim tili qozoq tili boʻlgan talabalarining soʻz boyligini oshirishga xizmat qiladi.

“Fonetika” boʻlimini oʻrganishda maʼlum bir guruhdagi soʻzlar roʻyxatini tuzish, berilgan soʻzlarni maʼlum bir belgilariga qarab guruhlarga ajratish, berilgan soʻzlar roʻyxatini davom ettirish, soʻzlarning maʼnodoshlarini, uyadoshlari va qarama-qarshi maʼnolari ustida ishlash kabi ijodiy-amaliy ishturlaridan ham foydalansa boʻladi. Yana bir holat: ikki xil yozilishga ega boʻlgan, lekin bir maʼnoni ifodalaydigan soʻzlar roʻyxatini tuzish:

<i>adab-odob,</i>	<i>эден -эден</i>
<i>asta-ohista,</i>	<i>эсте -жэй</i>
<i>baravar-barobar,</i>	<i>бipдeй-бipдeй</i>
<i>kabutar-kaptar,</i>	<i>кeнтep-кeнтep</i>
<i>shohi-shoyi -</i>	<i>шай- шайы...</i>

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, taʼlim tili qozoq tili boʻlgan talabalarda soʻz boyligini oshirishning eng asosiy omili va sharti oʻzbek tili mashgʻulotlarida talabada soʻzga ehtiyoj sharoitini yaratishdan iboratdir.

TEKNIKA TERMINLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI

Maftuna Axmedova Faxriddinova

Navoiy davlat pedagogika instituti

Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrası oʻqituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada texnikaga oid terminlarning oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida berilishi, ularning struktur jihatdan tuzilishi, xalqaro terminelementli terminlarning kiritilganligi va ular asosida bir qancha terminlarni hosil qilingani tahlil qilindi. Aynan ular ishtirokida yasalagan terminlarning struktur jihatdan tuzilishi tahlil qilindi.

Kalit soʻzlar: texnika terminlari, termin, element, terminlarning yasalişi, terminlarning tuzilishi, sodda terminlar, yasama terminlar, qoʻshma terminlar, birikma terminlar, xalqaro terminelementlar.

Аннотация: В данной статье проанализировано приведение терминов, относящихся к технике, в толковых словарях узбекского языка, их структурное оформление, введение международных терминов и формирование на их основе ряда терминов. Именно с их участием была проанализирована структурная структура терминов, которые они придумали.

Ключевые слова: технические термины, термин, элемент, создание терминов, структура терминов, простые термины, производные термины, составные термины, составные термины, международные термины, элементы.

Annotation: this article analyzed the issuance of technical terms in explanatory dictionaries of the Uzbek language, their structural structure, the introduction of international terminelement terms and the formation of several terms on their basis. It was with their participation that the structural structure of the terms they made was analyzed.

Keywords: technical terms, term, element, construction of terms, structure of terms, simple terms, constructed terms, compound terms, compound terms, International terminelements.

Bugungi kunda hayotda boʻlayotgan oʻzgarishlar, zamonning tezkorlik bilan shiddatli tarzda rivojlanishi, inson omilining tabiat va u bilan bogʻliq barcha jarayonlarga aralashuvi va uning negizida texnika moʻjizalarining soat sayin yangilanib, taraqqiylashish jarayonlariga barchamiz guvoh boʻlmoqdamiz. Garchi ijtimoiy hayotga kirib kelganiga hali uncha koʻp boʻlmasa-da, inson faoliyatining ajralmas boʻlagiga, insoniyatning eng yaqin koʻmakchisiga aylanib ulgurgan texnika sohasi – ilm-fan olamida juda koʻp yutuqlarga erishmoqda. Tabiiyki, bunday ilm-fandagi oʻzgarishlar tilga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmaydi. Mazkur tadqiqotda ham aynan texnika terminlari va ularning yasalişi jarayonlariga biroz toʻxtalib oʻtmoqchimiz.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibiga kirgan texnika terminlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, terminlarning yasalişi ham ichki imkoniyat doirasida, ham tilimizga oʻzgarishsiz kirib kelgan tayyor termin va terminelementlarni koʻrishimiz mumkin. Terminlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, yasama, atoqli otlar, termin soʻz kabi turlarga boʻlinadi.

Mufta, metall, kolba, dizel, gudron, vint, vilka, blok, bolt, atom, analiz kabi terminlar sodda terminlar bo'lsa, *avia, avto, aero* kabi terminlar bilan boshlanuvchi *aviatsiya, aviator; avtogen, avtol, avtokar, avtomat; aerodrom, aeroport, aerostat, aeroflot* kabi sodda yasama terminlar ham juda ko'p ekanligini tahlilda ko'rishimiz mumkin. Shunga ko'ra sodda deb tahlil qilingan terminlarni yana ikki guruhga ajratib sodda tub va sodda yasama terminlarga bo'lishimiz mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da keltirilgan tenika sohasiga oid terminlarning aksariyati sodda terminlardir. Ya'ni bunday terminlar tarkibida hech qanday yasovchi qo'shimcha ifodalanmagan. Ularning deyarli barchasi o'zlashgan qatlam turkumiga kiruvchi terminlar hisoblanadi.

Texnikaga oid terminlarning ma'lum qismini yasovchi qo'shimchalar bilan hosil qilinganligini ham ko'rishimiz mumkin. Texnika sohasining tarmoqlangan yo'nalishlari ko'pchilikni tashkil qilishi va ularni tahlil qilishda sohalarning ma'lum bir yo'nalishga oid bo'lgan terminlarni o'rganish maqsadida, biz ko'proq kon-metallurgiya sohasiga oid texnika terminlariga murojaat qilidik.

Texnika sohasida ma'lum bir kasb egasi yoki mutaxassis ko'pincha shu texnikaga oid termin bilan boshlanuvchi qismga o'zbek tilidagi -chi, -lovchi, -shunos, -soz, rus tilidagi -ist (erkak kishiga), -istka (ayol kishiga), -voz, -ovoz, -shik kabi so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida hosil qilingan. Bularning ichida o'zbek tilidagi -chi va rus tilidagi -ist (erkak kishiga), -istka (ayol kishiga) affikslari birmuncha salmoqli o'rin egallaydi. Masalan: **avtomobilsoz, mashinasoz, mashinachi, machinist, mashinistka, metallist, metallchi, mexanist, apparatchik, vagonetkachi, zaboychi, kabelchi** kabilar. Garchi bugungi kunda tilimizning ichki imkoniyatlari doirasida yasalgan texnika terminlari ko'payib borayotgan bo'lsa-da, texnikaga oid lug'atlarda ham, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham ruscha baynalminal terminlar nisbatan ko'pchiligini hosil qilar ekan. Bundan tashqari yuqoridagi yasovchi qo'shimchalar bilan hosil qilingan texnika xodimlariga, mutaxassislariga tegishli soha va yo'nalishlar -chilik, -sozlik, -shunoslik kabi yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida hosil qilingan. Masalan: **metallshunoslik, mashinasozlik, avtomobilsozlik, vagonsozlik, kabelchilik** kabi. Terminlarning eng sarmahsul yasaliş turi bu kompozitsiya usulida yasalişdir. Bu usulda yasalgan terminlar texnika taraqqiyotining bosqichma-bosqich yuqorilab borishi bilan izohlash mumkin. Chunki bu sohadagi rivojlanish qancha ortsa, til lug'at tarkibidagi so'zlar ham tabiiyki, shunchalik ko'payadi.

Yuqorida aytilganidek, taraqqiyot natijasida ehtiyoj va zaruriyat tufayli terminologiyada qo'shma so'zlar orqali yangi termin yasash birmuncha ko'proq. Sababi, har bir predmet, jarayonning nomi, voqea va hodisalarning nomini doim ham bir so'z bilan ifodalashning imkoni bo'lmaydi. Shuning uchun ham bunday so'z va uning anglatgan ma'nosi ikki yoki undan ortiq so'z birikuvidan tashkil topgan yangi terminlarni hosil qiladi. Qo'shma terminlar ham qo'shma so'zlardek bir butun leksik ma'no – bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish – grammatik strukturasi ham yaxlitligi, fonetik butunligi bilan xarakterlanadi.¹⁴

Ma'lumki, qo'shma so'zlarning yasaliş qoliplangan bir tizim xolda ya'ni qoliplarga mos ravishda hosil qilinadi. Texnikaga oid terminlarda asosan, ot+ot **avtomashina, agrotexnik, avtonazorat, avtosaroy, avtopark, avtokorxona** shaklidagi qo'shma terminlarni uchratishimiz mumkin. 2006-yilda nashrdan chiqqan O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilgan texnikaga oid terminlarning tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, lug'atning asosiy va eng muhim jihati, unda o'zbek tiliga boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan o'zlashgan so'z va terminlarning etimologik jihatdan to'liq ma'lumot berilganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, lug'atda ilmiy-texnikaviy terminlar hosil qilishda *avia-, avto-, mikro-* kabi so'zlar ya'ni "xalqaro terminelementlar"¹⁵ bilan berilganligi terminlarning struktur jihatdan turli shakllarda bo'lishiga sabab bo'lgan.

Mana shunday xalqaro terminelementli so'zlar bilan boshlanadigan texnika terminlari kompozitsiya usulida hosil bo'lgan va o'zi anglatmoqchi bo'lgan tushunchani yanada aniqroq tasvirlash uchun ham xizmat qilgan. Mexanik-haydovchi, avtomat-telefon, avtomat-spravochnik kabi birikma terminlar ham bor. Kompozitsiya usulida termin yasalişining bunday turi texnika terminlarida ham uchraydi.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, 2006-yil
2. Madvaliyev A. O'zbek tibbiyot terminologiyasining sohasiy va izohli lug'atlarda berilişiga doir. O'zbek tili va adabiyoti. 2009-yil, 4-son, 51-b.
- 3.Madvaliyev A. Izohli lug'atda xalqaro terminelementli so'z va terminlarga munosabat masalasi. O'zbek tili va adabiyoti. 2009-yil, 2-son,38-b.

¹⁴ O'zbek tili grammatikasi. -1-jild., 33-b.

¹⁵ Madvaliyev A. Izohli lug'atda xalqaro terminelementli so'z va terminlarga munosabat masalasi. O'zbek tili va adabiyoti. 2009-yil, 2-son,38-b.

RUS TILSHUNOSLIGIDA “ONA” KONSEPTINING BADIY MATNLAR ORQALI O‘RGANILISHI

Navoiy davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

1-kurs magistranti

Safarova Nigora Fahlavon qizi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d N.J.Yarasheva

safarovaniqora82@gmail.com

tel:+99893-134-06-13

Annotatsiya: Har bir xalq o‘zi muqaddaslashtirgan, ezozlaydigan va alohida e‘tibor qaratadigan leksik tushunchalar mavjud. Ularning ko‘pchiligi konsept darajasiga ko‘tarila oladi va tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganilishi mumkin. Lekin ularning hammasi ham barcha millatlar uchun umumiy bo‘lavermaydi. Qaysidir leksema shunday umumiy ma‘no ifodalashi uchun barcha millatlar terminologiyasida aynan bir tushunchani ifodalashi kerak. Masalan, “erkinlik”, “vatan”, “ona” va boshqa shu kabi leksemalar shular jumlasidan. Ayni shu terminlarni turli til vakillari o‘z tillari ko‘lamidan kelib chiqib o‘rganishadi. Ushbu maqolada rus tilshunosligida “ona” konseptining o‘rganilishini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ona, kindik ona, xoch ona, kogneziya, mifologiya, folklor, konsept.

Abstract: Each nation has lexical concepts that it sanctifies, honors and pays special attention to. Most of them can be raised to the concept level and can be studied as an object of linguistics. But not all of them are common to all nations. In order for a lexeme to express such a general meaning, it must represent exactly the same concept in the terminology of all nations. For example, "freedom", "motherland", "mother" and other similar lexemes are among them. Representatives of different languages learn these terms based on the scope of their languages. In this article, we will consider the study of the concept of "mother" in Russian linguistics.

Key words: social mother, navel mother, godmother, cognition, mythology, folklore, concept.

Rus tilshunosligida “ona” konsepti turlicha o‘rganilgan, xususan, Komsomolsk-na-Amur texnika universiteti vakillari E.A.Shushman, O.V.Chibisovalar ushbu konsepti lingvo kulturologik jihatdan o‘rgangan bo‘lsalar, Ob-Ugr amaliy tadqiqotlar va ishlarni instituti olimasi S. A. Popova kognitiv tilshunoslik o‘rganish obyekti sifatida, Chlyabinsk davlat universiteti olimlari M.A.Andreyanova, G.A.Bagauddinova va Qrim muhandislik va pedagogika universiteti magistranti O.A.Ganiyeva o‘zining magistrlik ishida “ona” konseptini ham chastoli tarzda hamda kognitiv lingvistika obyekti sifatida o‘rganishgan.

O‘rganilish obyektining davriy ketma-ketligiga amal qilgan holda, Ob-Ugr amaliy tadqiqotlar va ishlarni instituti olimasi S. A. Popovaning ishiga nazar soladigan bo‘lsak, olima “ona” konseptining Shimoliy Mansi aholisining dunyo qarashi, folklori va mifologiyasiga asosan tadqiqot olib boradi. S.A.Popova Mansi madaniyatiga ko‘ra “ona” “hayot beruvchi” konseptual ma‘nosini ifodalashini aytadi va haligacha bu yerlarda “ona” konseptiga oid mavzular tabii shaklda saqlanib qolganligini aytib o‘tadi. Olima o‘z ishida ona mabuda *Torum-shan* haqida fikr yuritadi va bu mabuda aynan ayollar homiysi ekanligini va bu mabudaning haykalchasi topilganda, uning libosi yashil rangda ekanligiga ahamiyat beradi. Jumladan, onalar uchun Mansi madaniyatida alohida bayram mavjud bo‘lib, bu bayram dunyodagi birinchi ona *Sian* sharfiga uyushtirilishi va bu bayram aynan, aprel-may oylarida nishonlanishiga e‘tibor qaratadi. Chunki aynan shu oylarda tabiat “onadan qayta tug‘ilgandek” qaytadan bunyod bo‘ladi, rivojlanadi va aynan Mansi mifologiyasida aynan shu jihatiga ahamiyat berilganli fikrimizning dalilidir. Olima “ona” konseptini o‘rganar ekan uni farzand dunyoga keltirish va tarbiyalash ularning tabiiy va asosiy maqsadi ekanligini aytadi. Olimaning tadqiqoti orqali Mansi madaniyatidan kelib chiqib, ayol farzandli bo‘lgandan keyingina to‘la huquqli bo‘la olishini ya‘ni “farzandli ona” alohida hurmatga sazovor ekanligini ko‘rishimiz mumkin va “ona” *syn* atamasi bikan ifodalanishi va bu atama Mansi tilida “biologik ona” ma‘nosini ifodalanadi va shuga oid bir qancha terminlarni ham sanab o‘tiladi. Yana shuni aytishimiz joizki, “baxtlik” va “boylik” mazmunini ifodalovchi terminlar ham aynan shu “ona” termini bilan aloqador. Bundan kelib chiqadi Mansi folklorida ona hurmatga sazovor shaxs bo‘lib, u juda qiymatli bo‘lgan. Ona barcha millatlar kogneziyasida hayot beruvchi shaxs sifatida qaraladi. Biroq olima Mansi mifologiyasida ayolsiz inson yaratishga oid miflar mavjud bo‘lganligini ammo Tug‘ilish mubudasi unga nafas bermagunga qadar ularga jon kirmaganligini inobatga olib ayolsiz bu ish bermasligini ochib bergan. Ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Mansi mifologiyasida “Ajodlar ruhi doimo qo‘llaydi” degan qarash mavjud, ayniqsa, vafot etgan onaning ruhi hamisha avlodlarini, asosan qizlarini, qo‘llab-quvvatkashi aytiladi. Bundan tashqari “ona” termini “ona tabiat”, “ona vatan” ma‘noviy mavzularda ham uchraydi va bu mavzular “tiklovchi”, “oziqlantiruvchi” va “davolovchi” ma‘noviy ko‘lamini ochib berishga xizmat qilishi aytiladi. Mansi mifologiyasida “ona”ga

yondosh termin sifatida “buvi” termini ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ota va onani dunyoga keltirgan dastlabki ona sifatida ezozlanadi va qarorlar qabul qilishda yuqori o‘rinda turadi degan qarash ko‘rsatib o‘tiladi. Yana shunarsa qiziqki, Mansi madaniyatida, xususan rus madaniyatida, “ona” konsepti “hayvon” termini bilan birga qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mavzuviiy ko‘lam biz uchun g‘alaz tuyulishi mumkin, ammo Mansi folklorida u “Yoshi katta va tajribali ona” mazmuni ifodalabgina qolmay, unga har qanday “zaif ona” emas, balki “kuchli ona” ma’nosini ham yuklaydi. S.A.Popova o‘z ilmiy tadqiqotida *eykvarp mykhmanuv* “bizning ona xalqimiz” iborasi keltiradi va shunday iqtibos keltiradi: *“hammani ona boshqargan o‘lka va bir paytlar shu zaminda ona rahnamoligida (nazoratida) yashagan xalqimiz”*. Bunda kelib chiqadiki Mansi folklorida “ona” terminiga oid manbalar matriarxa davriga oid va o‘sha davrlardan beri saqlanib kelmoqda. Olima so‘zining isboti sifatida Mansi aholisi ona- ayol boshqaruvchiligi tuzumida yashagan va shu tuzum bilan ko‘chib kelganligi haqidagi fakti keltiradi.

S.A.Popova Mansi madaniyatida “ona” konseptini o‘rganar ekan, ularda farzand tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etishini va jamiyatda “onalar instituti” mavjud bo‘lganligini aytib o‘tadi va yana farzand uchun “biologik ona”dan tashqari farzand uchun “doya ona” va “cho‘qintirgan ona”ning o‘rni ham katta ekanligi hamda ular muayyan vazifalarni bajargandan so‘ng bolaga yaqin qarindosh bo‘la olishini aytadi. “Doya ona” terminiga to‘xtalib, uni “kindik ona” ham deb ataydi. Buning sababi, “kindik ona” bolaning kindigini kesib, yo‘ldoshdan ajratib oladi hamda embriondan bola holiga o‘tishga yordam berishini aytadi. Mansi madaniyatida “kindik ona” va “cho‘qintirgan ona”dan tashqari yana bir ona mavjud bo‘lib, bu Mansining diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lib “xoch ona” deb yuritiladi. U yangi tug‘ilgan go‘dakka xoch tutadi va shuning bilan Mansida tug‘ilgan bolada biologik onadan tashqari uchta ijtimoiy ona mavjud bo‘ladi.

Xulosa qilib shunday deyish mumkinki, barcha xalqlar uchun umumiy tushunchalar : “vatan”, “erkinlik”, “ona” kabilar bo‘lishiga qaramay, ularning ma’noviiy ko‘lami va mavzuviiy jihatlari til va millatlar xilma-xilligiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Shu jumladan, “ona” konsepti ham S.A.Popovaning ilmiy ishida nazarda tutilganidek, rus millati, xususan, Shimoliy Mansi xalqlari mifologiya va folklari namunalarida o‘zgacha mavzuviiy jihatlari farqlashini ko‘rib chiqdik. Ammo bu hali yetarli emas va kelgusida ushbu konsept doirasida yangicha yondashuvlarni ham o‘rganib chiqamiz.

ADABIYOTLAR

Abdirasulov B.A. Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni. // Science and Education Scientific Journal, 2020.

Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006

1. Shushman E.A., Chibisova O.V “MOTHER AS A LINGVOKULTURAL KONSEPT” МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ №6, 2014.81
2. М.А.Андреянова, Г.А.Багаутдинова “Реализация концепта “мать (mother)” в русском и английском языках (на материале романов М.Горького и Дж.Э.Стейнбека)_Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 17 (232). Филология. Искусствоведение. Вып. 55. С. 17–22
3. С. А. Попова “Понятие “мать” в мировоззрении и фольклоре северных манси”. Bulletin of Ugric Studies. Vol. 9, № 2. 2019

NOMILLIY GURUH TALABALARIGA ORFOGRAFIK QOIDALARNI O‘RGATISHDA QO‘SH UNDOSHLI SO‘ZNING TALAFFUZI VA IMLO USTIDA ISHLASHGA DOIR

B. Tuxtayeva NDPI o‘qituvchisi

S. Musajonov NDPI Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: imlo, talaffuz, qo‘sh undoshlar, nutq, me‘yor.

Nomilliy guruhlarda Amaliy o‘zbek tili fanini o‘tishda quyidagi vazifalarga rioya qilgan holda maqsadga erishish mumkin:

- lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini kirill alifbosi bilan qiyoslab tushuntirish;
- o‘zbek adabiy tili me‘yorlari, o‘zbek tilining imlo qoidalari, tinish belgilariga oid bilimlar berish;
- nutqiy vaziyatlarni og‘zaki ifodalash, nutqning uslubiy shakllari, matn yaratish texnikasi va matn ustida ishlashga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan mumkin.

Nutqda yonma-yon kelgan undoshli soʻzlar anchaginani tashkil etadi. Bir boʻgʻinda yonma-yon ikki xil undosh kelgan soʻzlar qator undoshli soʻzlardir.

<i>dars</i>	<i>урок</i>
<i>burch</i>	<i>обязанность</i>
<i>aks</i>	<i>отражение</i>
<i>barg</i>	<i>лист</i>
<i>dolzarb</i>	<i>актуальность</i>
<i>eksport</i>	<i>экспорт</i>
<i>elektr</i>	<i>электр</i>
<i>mulk</i>	<i>имущество</i>

kabi. Soʻz boshidagi qator undoshlar oʻrtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qoʻshib talaffuz qilinsa ham bu qisqa unli yozilmaydi:

pilaneta – **planeta**
pilatforma – **platforma**

Soʻz oxirida kelgan qator undoshlardan biri talaffuzda tushib qolishi ham mumkin, ammo ular yozuvda ifodalanadi. Masalan:

goʻsh – goʻsht – *мясо*
darax – daraxt – *дерево*
Samarqan – Samarqand – *Самарканд*

Yana shunday soʻzlar borki, *kilovatt*, *congress*, *metall*, *kilogramm* kabi soʻzlar oxirida yonma-yon kelgan undoshlar talaffuzda bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday soʻzga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qoʻshilsa, soʻz xiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar= metallar*, *kilogramm+mi= kilogrammi* kabi.

Soʻz oʻrtasida kelgan **bb, ss, ll, vv, kk, shsh** qoʻsh undoshli arabcha soʻzlarni oʻqing va boʻgʻinlarga ajrating.

Muhabbat, murabbo, takabbur, tabassum, taxallus, muallim, muallaq, tasavvur, tafakkur, tashakkur, mashshoq, qashshoq.

(shu oʻrinda bu soʻzlarning ruscha variantiga toʻxtalish lozim)

muhabbat – *любовь*
murabbo – *варенье*
takabbur – *надменный*
tabassum – *улыбка*
taxallus – *псевдоним*
muallim – *учитель*
muallaq – *висячий*
tasavvur – *воображение*
tafakkur – *интеллект*
tashakkur – *благодарность*
mashshoq – *певец*
qashshoq – *бедный*

yoki

soʻz oxirida **br, dr, tr, rq, tl, kr, ql** kabi portlovchi **-r, -l** birikmalari talaffuziga eʼtiborni qaratish lozim:

Sabr, qabr, jabr, kibr, qadr, sadr; metr, satr; qirq, turq, qurt, moʻrt, toʻrtqatl; naql, aql, shakl; faxr, shukr, zikr, fikr...

sabr – *терпение*
qadr – *достоинство*
jabr – *жертва*
kibr – *высокомерие*
metr – *метр*
satr – *строка*
qirq – *сорок*
turq – *облик(физиономия)*
qurt – *личинка*
moʻrt – *хрупкий*
toʻrt – *четыре*
qatl – *казнь*

naql –повествование

aql –разум

shakl –фигура

faxr – гордость

shukr –возблагодарить

zikr –упоминание

fikr –идея

Albatta, bu ma'lumotlarni o'rganish talabaning lug'at boyligini oshiragi, shu bilan birga o'zbek tili tarkibidagi arab tilidan o'zlashgan (tarixiy silsila sabab) so'zlar haqida muhim tushunchalarga ega bo'ladi. Har darsda imkon qadar so'zlarning nafaqar to'g'ri yozilishi va to'g'ri talaffuzi, shu qatorda so'zning ma'siga ham to'xtalib o'tish foydalidir. Ko'pincha, rusiyzabon talabalar bir xil qo'sh undoshli so'zlarni yozishda birini tashlab ketish holatlari ko'p uchraydi. Darsda shunday so'zlardan unumli foydalanishga e'tibor qaratilishi zarur. Har darsda o'n-o'n ikki so'zdan iborat diktant yozish maqsadga muvofiq.

Rus tilida ham uchraydigan qator kelgan undoshlar qatnashgan so'zlar juda ko'p, ammo ular rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan o'ziga xoslik mavjud.

Umuman olganda, har bir tilning grammatik tomondan o'xshashlik va o'ziga xoslik jihatlari dars jarayonida ta'kidlab o'tilishi har ikki tilning ham o'z jozibasi, anglatgan ma'nosi, vazifasi yana bir karra anglanadi.

UCHINCHI SHO'BA

TURKIY ADABIYOT: TARAQQIYOT BOSQICHLARI, MOHIYATI, POETIKASI

TABIAT VA SHE'RIYAT UYG'UNLIGI (Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoni asosida)

*Tohir Xo'jayev –Navoiy davlat pedagogika
instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonida gullar, ular bilan bo'liq tushunchalar, gullar turlarining qo'llanishi, bundan shoirning maqsad va vazifalari kabilar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, devon, "Favoyid ul-kibar", gul, lola, g'uncha, binafsha, oshiq, ma'shuqa.

Annotation: In this article, flowers, the concepts related to them, the use of types of flowers, the goals and tasks of the poet are covered in Navoi's book "Favoyid ul-kibar". IAT

Key words: Navoi, devan, "Favoyid ul-kibar", flower, tulip, bud, violet, lover, suitor.

Navoiy davrini bilish, qanday bo'lganini anglash xayolimni tez-tez band etadi. Insonlar, ularning qiyofasi, yurish-turishi, yashash tarzi, muomalasi, nutqi, kiyim-u yegulik taomlari, ichimliklar, binolar, yo'l, hovuz, ko'priq, ariq-u anhor, bog'lar, hayvonot va nabotot olami – hamma-hammasi qandaydir sirli, qiziq, o'ziga xosdek tuyulaveradi. Buning manbai, tasavvur uyg'otish imkoni tarixiy, ilmiy asarlar. Eng muhimi esa, shoirning o'z asarlari. Ularda tasvir bor, ishora seziladi.

Ana shulardan biri sifatida Navoiy davri gullari bilan bog'liq tushunchalar talqinidir. Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devoni asosida ayrim mulohazalar bildiriladi. Bu devon nisbiy tarzda qarilik davri bilan bog'liq, bu davrda shoirlik nigohi yanada o'tkirlashadi, atrofni, tabiatni sinchikov nazar bilan kuzatish kuchayadi. Gulga, tabiatga, go'zallikka oshuftalik bo'lgani uchun ham gul va u bilan bog'liq tushunchalar ko'p uchrashi tabiiy.

Navoiy nigohi teran shoir. U borliqdagi har bir manzara, o'zgarish va ko'rinishlar, tabiat hodisotlarini tez ilg'aydi. Va bu hayotiy tasvirlar, manzaralar shoir she'riyatida o'zining hayratomuz ifodasini topadi. Adabiyotshunos olim B.Ya. Shidfarning ta'kidicha, shoir uchun insonning ichki dunyosini yoritishning oson va qulay yo'li uni tashqi dunyo bilan, tabiat bilan qiyoslash, o'xshatish, taqqoslashdan iboratdir. Bu fikr Navoiy she'riyatida ham o'zining tugal ifodasini topadi. Shoir g'azallarini o'qir ekanmiz, unda lirik qahramon, oshiq va ma'shuqa xarakteri, holat va kayfiyati, qiyofasini yoritishda tabiiy manzaralar, hayotiy tashbeh va o'xshatishlarga keng murojaat qilganining shohidi bo'lamiz. Professor I. Haqqul to'g'ri ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, tabiat she'riyatda yo tasvir ob'ekti, ya'ni predmeti yoki poetik tasvir vositasi sifatida aksini topadi. Lekin, har ikki holda ham u inson qalbi, ruhi, ehtirosi, dard va kechinmalari bilan mustahkam birikkan bo'ladi".¹⁶ Juda o'rinli mulohaza.

Navoiy "Favoyid ul-kibar" devonida gul, uning qismlari, unga aloqador tushunchalar, gullarning turlari tez-tez ko'zga tashlanadi. Bu qarashlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Gul va u bilan bog'liq tushunchalar;
2. Gullarning xil va turlari ifodalangan baytlar;
3. Gullarning rangi, shakli, ko'rinishi, hidi va boshqalar haqidagi fikrlar.

Shu yerda bir savol tug'iladi. Navoiy she'riyatida ular qanday vazifani bajargan?

Bizningcha, shoir g'azallarida gullar bilan bog'liq baytlar quyidagi vazifalarni bajarishda vosita bo'lgan:

1. Tabiatdagi gulni ifodalash uchun ;
2. Ma'shuqani, uning ma'lum uzvlarini gulga qiyoslash maqsadida ;
3. Yorni go'zallikda guldanda ustunligini ifodalovchi baytlar ;
4. Ma'shuqaning botiniy va zohiriy sifatlarini tasvirlashda ;
5. Oshiq holat va kechinmalarini ifodalashda ;
6. Lirik qahramon kayfiyati bayonida ;
7. Davr va dahr munosabatida ;
8. Diniy-tasavvufiy ma'nolar talqinida.
9. She'rga go'zallik, zavq, kitobxonga kuchli taassurot uyg'otish va boshqalar.

Fikrlarimizni ana shu tasnif asosida bayon etamiz. "Favoyid ul-kibar" devonidagi g'azallarni o'rganish jarayonida ayon bo'ldiki, yuzdan ortiq o'rinda **gul** so'zi uchradi. Ayrim baytlarda tabiatdagi gul nazarda tutiladi:

¹⁶Ibrohim Haqqul. "Tabiatdir mening davomim..."// E'tiqod va ijod.-Toshkent: "Fan", 2007. 194-bet

Bog` ichra chu garm bo`ldi bozoring,
Yuz vajh ila bo`ldi **gul** xaridoring.¹⁷

Bu baytda ikki tushuncha mavjud. Ham hayotdagi gul, ham u guldand ustun ma`shuqa tasviri. Gul bog`da, chamanzorda bo`ladi. Xalqda bozori qizidi degan gap bor. Baytda shunga ishora seziladi. Gul – go`zal, chiroyli. Ammo ma`shuqa undan chandond ustun. Uning xaridori ko`p. Ulardan biri va eng ko`p talabgori gul.

Gul haqida gap borganda u bilan bog`liq tushunchalar ham tez-tez namoyon bo`ladi. Yigirmaga yaqin baytda **gulzor** (132,205,206,207,264,303,328,342,349,351,358 v.h. betlar), o`ttizga yaqin baytda **gulshan** (154,156,164,177,185,216,221,241...betlar), yana bir necha baytlarda **gulrang**, **guliston**, **gulbun** (gul butasi, gul tupi), **gulo** (atirgul suvi, xushbo`y suv), **gulgun** (gulrang, pushtirang), **gulguna** (yuzni qizartiradigan elik, qizil), **gulgul** (qip-qizil, guldor), **gulbiz** (gul sochuvchi), **gulposh** (gul sochuvchi), **gulrez** (gul to`kuvchi, gul sochish), **gulgarg**, **gulbong** (baland, yoqimli ovoz), **gulfom** (gulrang), **guljabin** (gulday husndor) kabilar uchradi.

Mana bu baytda hayotdagi gulzor bilan bog`liq ajoyib tashbih bor :

Orazing shavqidakim, ashkim to`kar ko`z mardumi,

Bog`bon yanglig`durkim, su ochar **gulzor** uchun. (328-bet)

Bog`bon, gul, gulzor, uni sug`orish –bu hammaga tanish manzara, hayotda mavjud holat. Shoir undan boshqacha xulosa chiqaradi. Uning ta`kidicha, ma`shuqa orazi –yuzi –gul, gulzor. Ashk –ko`z yoshi. Gulzorni sug`orish uchun suv manbai. Ko`z mardumi esa bog`bon o`rnida. Mardumning bir ma`nosi odam ekanligini bilamiz.

Gulzor bilan birga ba`zi baytlarda **gulshan**, **chaman**, **guliston** atamalari ham ishlatilgan. Mana bu baytda gulzor ma`nosida gulshan ishlatilgan :

Do`stlar, **gulshan** aro sarvi ravonimni tilang,

Topibon keltursangiz, muzdig`a jonimni tilang. (241-bet)

Lirik qahramon visolga tashna. Yorini bog`da, gulshanda ko`rishni istaydi. Bu ishni kim bajarsa, xizmati uchun (muzdiga) jonini berishga tayyor.

Ko`pgina baytlarda gul bilan aloqador qismlar ma`shuqa yuzi, og`zi, labi tavsifida keltiriladi. Yuzning chiroyliligi, qizilligi, labning ham xuddi shunday (nozikligi ham), og`izning kichikligi, qizilligi, nafisligi, kamgapligi kabilar ta`rifida ulardan foydalanilgan. « **Gulro`y** », « **gulrux** », « **gulruxsor** », « **gul uzor** », « **gulyuz** », « **gulchehr** », « **guldek kaft** » kabilar.

Devonda « **gul** » so`zidan keyin eng ko`p uchraydigani « **g`uncha** ». Ellikka yaqin baytda bu so`z ko`zga tashlandi. (17,21,154,158, 160,170,226,235,243,250,298,346,350,374 va h. betlar) Asosan, ma`shuqa og`zi ta`rifi jarayonida, oshiq holatini berishda va ko`ngilga qiyoslanganda qo`llanilgan.

Sen eding ko`nglum aro, har necha chok ettim ko`ngul,

G`unchadekkim**, har qayon ochildi –zohir bo`ldi **gul. (252 –bet)

G`unchaning gulga aylanish jarayonini yaxshi bilamiz. G`uncha qatlari ochilib-ochilib gulga aylanadi. Shu holat oshiq va uning ko`ngliga qiyoslanmoqda.

Navoiy “Favoyid ul-kibar” devonida 20 ga yaqin gullar nomini keltirib, tashbehlarining go`zal namunasi yaratadi. Devonda „lola“ (20 dan ortiq baytda), „rayhon“, „ra`no“, „sunbul“, „o`sma“, „vo`sma“ (bu o`simlikka ham gul deb qarasak), „binafsha“, „nilufar“, „nofarmon“, „nasrin“, „nastarin“, „nastaran“, vard (atirgul), „nargis“, „savsan“, „chechak“ kabi gullar nomlari uchraydi. Bularning hammasiga misol keltirish, tahlil qilish mumkin. Oshiqona (ma`shuqa ko`rinishi, a`zolari tasviri, oshiq kechinmalari tasvirida), rindona (may bilan bog`liq tasvirlarda), diniy-tasavvufiy (davr, dunyo haqidagi qarashlarda), peyzaj (hayot, tabiat tasviri, ma`shuqa va oshiq tashbehlarida) ruhidagi g`azallarda ko`p namoyon bo`ladi. She`riyatni yanada go`zal, nafosatli, ta`sirli va zavqli qilishda yordam beradi. Zero, Anvar Hojiahmedov aytganidek, “Olam bezagi bo`lmish rango-rang gullar-u, g`unchalar, muattar jambil-u rayhonlar, orombaxsh nargis-u binafshalar shoirlarga beaded zavq-u ilhom baxsh etib, bir-birlaridan nafis, betakror, ayni chog`da purmazmun va hayratomuz badiiy timsollar, teran va zebo badiiy lavhalarning yaratilishiga manba bo`lib xizmat qilgan”.¹

¹⁷ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. MAT. Yigirma tomlik. 6-tom. Toshkent: “Fan”, 1990. 237-bet. (Izoh: boshqa misollar ham shu manbadan olinib, sahifada beti ko`rsatiladi)

¹ Hojiahmedov A. Husni ta`lil san`ati. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2008. 128-bet.

“ГУЛШАН УЛ-АСРОР” ҲИКОЯТЛАРИДА МАҲМУД ҒАЗНАВИЙ ВА АМИР ТЕМУР ОБРАЗЛАРИ ТАЛҚИНИ

Жўраев Жамолiddин Аминжонович
Жиззах давлат педагогика институти доценти, филология
фанлари номзоди

Аннотация. Мақолада Ҳайдар Хоразмий томонидан “Гулшан ул –асрор” асарида икки буюк саркарда Маҳмуд Ғазнавий ва Амир Темурларга бағишланган ҳикоятларида икки хил ибратли воқеа тасвирланганлиги ўрганилган. Маҳмуд Ғазнавийга бағишланган ҳикоятда подшоҳ оддий дарвешсифат зоҳиддан ибрат олиб инсофга келган бўлса, Амир Темурга бағишланган ҳикоятда эса деворга чиқишга ҳаракат қилаётган бир ҷумолининг сабр тоқатини ўзига танбеҳ сифатида қабул қилиб олган шоҳнинг ҳаёти ижобий томонга ўзгариб кетганлигини ҳақидаги ҳикоятлар талқин қилинган.

Калит сўзлар: ҷумоли, зоҳидлик, тасаввуф, шоҳ, аскар, мустақил, озод, мажруҳ, маданият, илм, давр, шаҳар.

Аннотация

В статье произведения Хайдара Хорезми «Гулшан ул-асрар» в рассказах, посвященных двум великим полководцам Махмуду Газневи и Амиру Темуру, описаны два показательных события. В рассказе, посвященном Махмуду Газневи, царь пришел к ответственности, обучаясь у простого аскета-дервиша, тогда как в рассказе, посвященном Амиру Темуру, рассказ трактуется так, что жизнь царя изменилась в положительную сторону после того, как он принял терпение муравья. пытаюсь взобраться на стену в качестве выговора.

Ключевые слова: муравей, аскетизм, мистика, царь, солдат, независимый, свободный, раненый, культура, наука, эпоха, город.

Annotation

In the article of Haydar Khorezmi's work “Gulshan ul-asrar”, two indicative events are described in stories dedicated to two great commanders Mahmud Ghaznavi and Amir Temur. In the story dedicated to Mahmud Ghaznavi, the king came to responsibility by learning from a simple ascetic dervish, while in the story dedicated to Amir Temur, the story is interpreted to mean that the king's life changed positively after he accepted the patience of an ant. trying to climb the wall as a reprimand.

Key words: ant, asceticism, mysticism, king, soldier, independent, free, wounded, culture, science, era, city.

IX асрнинг охирига келиб Марказий Осиё мустақилликка эришди ва бу ерда араблар таъсиридан кутулган биринчи давлат – Сомонийлар ҳукмронлиги шаклланди. Сўнг бу ҳудудда Хоразмшоҳлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар давлатлари фаоллик кўрсатди. Бухоро, Самарқанд, Марв, Гурганж, Хива каби шаҳарлар ўз даврининг маданият марказлари сифатида маълум бўлди. Бу шаҳарларда савдо-сотик, ҳунармандчилик, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ҳамда маданий алоқалар, илмий марказлар ривож топди.

Маҳмуд Ғазнавий Абулқосим Маҳмуд ибн Собуктегин (967-1030) ҳақида тўхталадиган бўлсак у Ғазнада таваллуд топган туркий давлат арбоби ва ҳарбий саркарда. Ғазнавийлар давлати ҳукмдори (998-1030). Маҳмуд Ғазнавий Собуктегиннинг ўғли бўлиб, ёшлигида отасидан ҳарбий санъатни пухта эгаллаган. Маҳмуд Ғазнавий ҳукмронлиги даврида у томонидан олиб борилган кенг қўламдаги истилочилик сиёсати натижасида 1186-йилгача 200 йилдан ортиқ ҳукм сурган ва фаолиятига ғурийлар нукта қўйган буюк ғазнавийлар давлати барпо этилди.

Ижодкорлар томонидан Маҳмуд Ғазнавий образини тасвирлаш учун жуда кўп маротаба ушбу образдан фойдаланганлар. Биргина Фариiddин Атторнинг “Мантиқ ут-тайр” достонида Султон Маҳмуд ҳақида 12 та ҳикоят мавжуд. Олимжон Давлатов тадқиқотида Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” достонидаги “Султон Маҳмуднинг у дунёдаги аҳволи”ни талқини қилинган. (3: 93)

Амир Темурнинг набираси Султон Искандар мирзо ибн Умаршайх Форснинг Шероз вилоятида подшолиги даврида ижод билан машғул бўлган Ҳайдар Хоразмийнинг ижодида ҳам Маҳмуд Ғазнавийга бағишланган ҳикоят бор бўлиб, тасаввуфий руҳда ёзилган асарлардан бири ҳисобланади. Ҳикоят шундай бошланади. Маҳмуд Ғазнавийнинг киш кунларининг бирида, кенг далада хароба ичида бир қари кишини кўрмоқ учун шошади.

Киш куни Маҳмуд тафарруж қила,

Қуш сола отланди надимлар била.

Кўрди қула-туз¹⁸ ичинда бир хароб,
Шоҳ ани кўрмакка қилди шитоб. (10:476)

Шоҳ кўрасаки, у қари киши, уст боши хароб, ўзининг шу ҳолатидан маст-рози бўлиб турганлигини кўради.

Пирнинг сочлари тўзғиган ва дарвешсифат, устки кийими ҳам йўқ. Тасаввуф талабларидан бири зоҳиликка киришган инсон дунё хою-ҳавасларидан воз кетиб, ҳаттоки устки киймларига ҳам эътибор бермайди. Ҳикоят “соволу-жавоб” шаклида ифода этилади. Шоҳ унинг олдига келиб турганда унга дарвеш:

Сўрди:–Бу келмакда муродинг недур?!

Не кишисен, Ғазнада отинг недур?! (10:48а)

деб сўрайди. Шоҳ: “Мен бу ерда тоат ибодат қилишга жойларни эгаллаш учун келдим. Сен бу ерда ётиб олиб, шу тарзда тирикчилик қиляпсанми”,- деганида. Пирнинг ғазаби келиб:

Ризқ иёси ёзу қузу ва ё қиш,

Воситасиз қилди мени парвариш! (10: 48а)

Ризқ эгаси мени сендек бирор нарсага муҳтож қилиб қўймади, мени ҳеч қандай бир шериксиз ризқимни бериб қўйди.

Фақру фано давлатида ул ғани,

Қилмади муҳтож санингтеки мани! (10: 48а)

Ҳикоянинг сўнгида шоҳ айтган гапларидан пушаймон бўлиб кетади:

Шоҳ бўлиб сўзлаганидин хижил,

Қўбти-ю кетти, эвина мунфаъил. (10: 48а)

Маҳмуд Ғазнавийга бағишланган ҳикоятнинг асосий мақсади шоҳ Маҳмуд Ғазнавий Аллоҳ Таолонинг ишқи билан маст бўлган, зоҳидликда кун кечириётган киши билан бўлган суҳбати тасаввуфий оҳангда бўлиб, зоҳиднинг шоҳга берган танбеҳи орқали бу ўткинчи дунёнинг хою ҳавасларига берилмаслик тушунилади.

Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” (Шомий, 1996:517), Шарофиддин Али Яздийнинг “Зафарнома”, (Али Яздий, 1997:384) Ибн Арабшохнинг “Ажойиб ал макдир фи тарихи Темур” (“Темур ҳақидаги тақдир ажойиботлари”) (Ибни Арабшох, 1992: 124) каби асарлар Соҳибқирон Темурбек вафотидан кейин ёзилган. Лекин Мавлоно Ҳайдар Хоразмийнинг “Темурбек ҳақида ҳикоят”и ҳали Темурбек ҳаётлик даврида Искандар Султон Шерозда ҳукумронлик қилган даврлардаёқ ёзилган эди. Бу асар туркистонликлар орасида машҳур бўлмаса-да Шерозу Хуросон ва Ҳиндистон илм аҳллари орасида катта шуҳрат қозонган эди.

Ҳайдар Хоразмийнинг “Темурбек ҳақидаги ҳикояти” шундай бошланади:

Чунки Темурбек бурун этти хуруж,

Давлати топмайдур эрди уруж! (10: 48а)

Мазкур сатрларни тарихий маълумотлар билан солиштириб кўрсак гўё Ҳайдар Хоразмий шу воқеалар башида турган киши каби қисқа ва аниқ баён этганига ишонч ҳосил қиламиз. “Зафарнома” (Низомиддин Шомий), “Зафарнома” (Шарофиддин Али Яздий), “Мужмали Фасиҳий” (2:544), “Тўрт улус тарихи” (Мирзо Улуғбек, 1993:352), “Темур тузуклари” ва бошқа асарлардаги маълумотларга қараганда ёшлигидан ўз юртини мустақил ва озод кўришга орзуманд бўлган Соҳибқирон Темурбек, Амир Хожа Барлос Хуросонга қараб йўл олганда унга қараб: “Сиз Хуросон томон боришга жазм қилибсиз! Вилоят ва мамлакат ҳокимсиз ва бошлиқсиз қолиб, унга фитнаю футур йўл топмай ва зарар етмай. Агар маслаҳат кўрсангиз, мен ўз вилоятимга бориб, у жойдан подшоҳ хизматига юзланай, уни амирлари ва вазирларини кўрай, токи вилоят хароб бўлмасин”, -деб айтади. (8: 29)

Темурбекнинг Туғлуқ Темурнинг ўғли Илёсхўжа олдидан кетишига сабаб, пайғамбар авлодидан бўлган саййид ва саййидзодаларни душман қўлидан қутқариши, Илёсхўжа амирлари ва бекларга ёқмай, улар бирикиб Темурбек устидан Туғлуқ Темурга “Амир Темур бизга қарши исён туғини кўтарди” деган игволар тарқатади. Унга ишонган Туғлуқ Темур, Темурбекни ўлдириб юборишга буйруқ беради. Буйруқ тасодифан Темурбекнинг қўлига тушиб, бош олиб кетишга сабаб бўлади. Бошпанасиз ва ялғиз қолган Темурбек ҳақида шоир ёзади:

Ожизу мафлуқ кезар эрди ул зор,

Қилди ўз андишасини ошкор.

Саъй этагин тутиб ҳиммати,

Элтур эрди қойда керак давлати.- (10: 48а)

¹⁸ “Қула-туз”-кенг дала, дала-туз

сатрлари ўша қувғинда сарсону саргардон бўлиб юрган кезларини акс эттирадики, булар тарихий ҳақиқат билан бадиий ҳақиқатнинг уйғунлашиб кетганлигига ишорадир. Мана бу сатрлар “Темур тузиклари”да “Хуруш кунлари қилган бешинчи кенгашда” ёзилишича, Сеистон ҳокимининг хоинлиги туфайли рўй беради (5: 25):

Тенгри қазоси бирла ахтар гўзор,
Бу сиқув жо қилди илкин захмдор.
Кести уммед ўз тилагиндин тамом,
Кўнгли бу андишасидин бўлди хом.
Ҳиммати Олий яна берди наҳийб
Ким, не тўнғулга била қилдинг шикиб.
Зоҳир алинг топти эса бу шикаст,
Ғайб кучи берғай анга зўр даст.
Солма ўзингни талаб устида бўл
Ким, очаберғай талабинг саъй йўл! (10: 486)

Сеистон ҳокими аввал Амир Темур қўшилари озиқ-овқат билан таъминлаш эвазига душманлар тортиб олган вилоятини олиб беришга кўндиради. Темурбек “Ўзимча кенгашиб кўриб кейин Сеистон томонга қўшин тортдим. Душманлар эгаллаб олган етти қалъадан бештасини куч ва қаҳр билан қўлга киритдим. Буни кўриб Сеистон волисининг юрагига қўрқув тушди ва кечаги душманини ўзига дўст тутди. Агар Темурбек бу ерларда туриб қолар экан, Сеистон мулки кўлимиздан кетиши аниқдир, дейишиб, сипоҳ ва райят барчаси бирлашиб, менинг устимга бостириб келдилар. Сеистон волийси ваъдасига вафо қилмаганлиги учун иложсиз, йўللари тўсиб, жангу жадалга киришдим. Шу пайт бир ўқ келиб билагимга қадалди. Яна бир ўқ келиб оёғимга келиб қадалди¹⁹. (5: 25):

Сеистонликлар ва Амир Темур аскарлари ўртасида бўлиб ўтган тенгсиз жангда Темурбек гарчи ғалаба қозонса-да қўли ва оёғи бир умрга майиб бўлиб қолади. Мазкур сатрлар худди шу ҳолатни акс эттиради:

Бек яна белин боғлаб мардивор,
Бўлди қадим Тенгридин уммедвор.
Токи азал ҳукми била дасти ғайб,
Солди аёқина шикаст узра айб.
Бўлди бу кез чарх ишиндин ноумед,
Кўнгли кўтарди ўзиндин эътимед.
Бир илиги бир аёғи мубтало,
Қолди ғарибликда бу душман оро! (10: 486)

Дарбадарлик, урушу жанжаллар, иғволар туфайли ҳаётдан безган, қўли оёғи майиб бўлган Темурбек ўзининг “Тузуқлари”да ёзишича “Шундай бўлса ҳам Аллоҳнинг инояти билан охири улар устидан ғалаба қозондим. Лекин, ўша мамлакатнинг оби-ҳавоси менинг мижозимга тўғри келмаганлиги сабабли, у ердан кўчиб, яна Гармсерга бордим. Ўша вилоятда яраларим битгунча икки ой туриб қолдим”. (5: 25):

Пиримқул Қодиров “Тил ва эл” бадиаларига киритган “Амир Темур маънавияти тилимиз кўзгусида” мақолаларида ҳам шу ҳолатни эслаб ўтганлар. Муиниддин Натанзийдан олдин бу ҳодиса ҳақида юқорида эслатганимиздек Султон Искандар саройида яшаган ва Темурбекнинг барча жанглари ва ҳаётидан хабардор бўлган туркийғўй шоирларнинг улуғи. (4: 220-221)

Мавлоно Ҳайдар Хоразмий “Гулшан ул-асрор” фалсафий-ахлоқий достонида “Темурбек ҳақида ҳикоят” ида келтиргани маълум эди. Султон Искандар саройида яшаган тарихчи Натанзий шу асардан фойдаланган бўлса ажабмас. Ғарибликда душманлар аро ғариб бўлиб қолган Темурбек нима қилишни билмасдан, бир эски чордевер яқинига бориб, унинг соясида дам олмоқчи бўлиб, бу дунё ишларидан юз ўгириб кетишни ният қилиб турганида тақдир унга ўзига ўхшаш бўксаси мажруҳ мўр (чумоли)нинг жасоратини ибрат қилиб кўрсатади. Чумоли ўз эътиқодига ишонч билан киришиб, Ҳиммат камарини боғлаб мақсадга эришади. Бу ҳол ҳикоятда:

Захму жароҳат била бедасту пой,
Ҳеч киши йўқ теграсинда жуз Худой!
Кулга учун том тубинда ётиб,
Мунглиқ эди туз ичинда ётиб.
Кўрдики бир мўр аёғи али йўқ,

¹⁹ Воқеа 1362 йилда бўлган

Бўксаси мажруху ёрим бели йўқ.
Келди ва ул томға ёвушти равон,
Саъйи ҳамон эрди, йиқилмоқ ҳамон.
Ушбу йиқлғонға тўкулмади мўр,
Ёрмониб ул томға яна қилди зўр. (10: 486)

Мазкур ҳикоятда Амир Темур жангдан омадсизлик юз бериб, мушкул вазиятга тушуб, ҳаёл суруб турган вақтда деворда бир чумолини кўзи аёғи ва қўли йўқ, бўксаси мажруху ёрим бели йўқ эди. Шунга қарамасдан чумоли ҳаракатланаётган эди. Чумоли олти етти маротаба интлади. Бунда ибрат олган Амир Темур ҳам юраги кучланиб, яна ўз ишини давом эттиради.

Чикди ярим йўлга ёпушқунча тўнд,
Тирноғи сушт эди, тиши бўлди кунд.
Тушти ёна бош куйи ул томдин,
Келди ва ёвушти яна комдин. (10: 486)

Амир Темурнинг ушбу воқеасига бағишлаб қўплаб ривоятлар ва ҳикоятлар бор бўлиб, улардан бирини Б. Аҳмедов “Амир Темур ҳақида ҳикоят” китобидаги “Чўлоқ чумолининг жасорати” сарлавхали ҳикоятида шундай тасвирлаганки, Ҳайдар Хоразмийнинг ҳикоятида келтирилган воқеага ҳамоҳангдир. Ҳикояда келирилишча Амир Темур билан Амир Ҳусайн ўн бешга ҳам етмайдиган аскарлари билан туркманларнинг Маҳмудий деган овулига қочиб келади ва шу ерда асирга тушади. Уларни қоронғу ва зах ерга қамаб қўяди. Тутқунликда Амир Темурнинг назари деворга тирмашиб, тепага кўтарилаётган чумолига тушади. Чумоли туйнукдан тушаётган нур сари интиларди. Аммо қанчалик тиришиб-тирмашмасин, туйнукка етолмай ағдариларди. Лекин бўлмади. У яна кулаб тушди. Бир фурсатдан кейин яна деворга тирмашди. Лекин бу сафар у аввалги маррани ҳам эгаллай олмади. Шунга қарамай у, барибир тиришиб –тирмашеверди. Темурбек бу тиришқок махлуққа астойдил разм солди. (1:42)

Хуллас, чумоли охири ўз мақсадига эришади. Буни кўрган Амир Темур ҳам бу воқеадан ибрат олиб, ҳеч қачон тушқунликга тушмаслиг кераклигини Аллоҳнинг рамзий ишорасидан- чумолининг ҳимматидан хулоса чиқариб, Чумолининг ҳаракатидан ибрат олиб, кейинги жангларда ҳиммат камарини белига боғлаб, ўз ишини давом эттириш кераклиги тушинилади.

Ҳайдар Хоразмий томонидан икки буюк саркарда Маҳмуд Ғазнавий ва Амир Темурларга бағишланган ҳикоятларида икки хил воқеа тасвирланган. Маҳмуд Ғазнавийга бағишланган ҳикоятда подшоҳ оддий дарвешсифат зоҳиддан ибрат олиб инсофга келган бўлса, Амир Темурга бағишланган ҳикоятда эса деворга чиқолмаётган бир чумолининг ҳаракатларида ўзига танбех олиб ҳаёти яхши томонга ўзгариб кетганлигини ҳикоятларда ифодаланган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Аҳмедов. Б. Амир Темур ҳақида ҳикоялар. “Ёзувчи” нашриёти. Тошкент, 1998
2. Аҳмад, Фасих. Мужмали Фасихий: Фасих тўплами/Фасих Аҳмад ибн Жалолиддин Мухаммад аль-Хавофий. Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Ю. Юсупованики. –Т.:Фан, 2018
3. Давлатов О. Алишер Навоий шеърлярида Куръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини. Филология фанлари бўйича фалса доктори (PhD) учун ёзилган диссертацияси. 2017
4. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. Тошкент. 2011
5. Темур тузуклари. Форсча матндан Алихонтўра Соғуний ва Ҳабибулла Кароматов таржимаси. Изоҳлар Бўрибой Аҳмедов томонидан тайёрланган. Сўзбоши муаллифи ва масъул муҳаррир- Али Аҳмад. “Шарқ” нашриёти матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент. 2005
6. Инб Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдир фи тарихи Таймур/ Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи У. Уватов. Тошкент. Мехнат,. 1992 , I-II китоб
7. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таржималари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқа. тарж. /-Тошкент.: Чўлпон, 1993
8. Низомиддин Шомий. Зафарнома/ Форс тилидан ўгурувчи Юнусхон Ҳокимжонов. Таржимани қайта ишлаб тайёрловчи ва масъул муҳаррир Асомиддин Ўринбоев.- Тошкент. Ўзбекистон, 1996
- 9.Шарафуддин Али Йаздий. Зафаринома / / Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков: Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И. Шогуломов па бошқалар// Т.: Шарқ,. — 384 б. + 16 илова. 1997
10. Ҳайдар Хоразмий. Гулшанул-асрор. Франция миллий кутубхонаси. Қўлёзма. 978 инвентар рақам,1501 йил

O'ZBEK ADABIYOTIDA KOMEDIYANING O'ZIGA XOS JANR XUSUSIYATARI

Jo'rayev Murodulla Alishboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrası
mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada O'zbek adabiyotida komediya janrining paydo bo'lishi va yetuk namunalarining yaratilishi, bu jarayonda janrga xos ayrim xususiyatlarning yangilanishi hamda sujet, obraz, komik talqin masalalarining poetik jihatlarini tadqiq qilingan.

Abstract: The article examines the emergence of the comedy genre and the creation of mature examples in Uzbek literature, the renewal of certain characteristics of the genre, as well as the poetic aspects of the subject, image, and comic interpretation.

Аннотация: В статье рассматривается зарождение жанра комедии и создание зрелых образцов в узбекской литературе, обновление отдельных характеристик жанра, а также поэтические аспекты сюжета, образа и комической интерпретации.

Jahonda dastavval, "Vino xudosi Dionis sharafiga aytilgan ashula va o'yin bilan qo'shilgan bayram tomoshalari asosida komediya kelib chiqqan." [1-179]

O'zbek adabiyotida komediya janrining paydo bo'lishi va yetuk namunalarining yaratilishi badiiy-estetik tafakkur rivojida jiddiy voqea bo'lishi bilan birga tanqid-adabiyotshunoslik uchun ham muhim manba hamda tadqiq ob'ekti sanaladi. Zero, komediya janri xususiyatlari ham qotib qolgan, qat'iy o'zgarmas mezonlar bo'lmay, balki ular turli davrlarda turlicha mohiyat kasb etishi adabiy jarayonning ob'ektiv bir qonuniyati. Ijtimoiy hayot va inson o'y-kechinmalari, turfa holatlarining badiiy in'ikosi bo'lgan komediyaning ham xos janr xususiyatlari tarixan o'zgarib borishi, bu tadrijiy jarayonda ayrim belgi va jihatlarining almashinuvi, ba'zi xususiyatlarning yangicha mazmun-mohiyat kasb etishi tabiiy bir holdir.

"Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyat taraqqiyoti, insoniyat estetika tafakkuri bilan bog'liqlikda rivojlanib, o'zgarib boradi. Bu rivojlanish va o'zgarishlar esa, eng avvalo, adabiy turlar tarkibi, badiiy asarning mazmuniy hamda shakliy xossalari o'zini namoyon etadi." [2-3]

O'zbek komediyalarining tarixiy taraqqiyot tamoyillarini belgilash, ularning muvofiq adabiy-nazariy tasnif va tavsifini aniqlash maqsadida bu murakkab badiiy-estetik jarayonni o'rganishda mazkur janrning bir necha yetuk namunalariga asoslanildi. Bular – Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi", Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" va Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyalaridir. O'zbek komediyalarida shakl va mazmun uyg'unligining takomillashuvi, g'oyaviy-estetik va badiiy talqin hamda tasvirlarning izchilligi, mukammallashuvida ushbu asarlar alohida ajralib turadi. Bu asarlarning yaratilishi hamda tahlili misolida milliy komediyamizning o'ziga xos tarixiy tadrijiy rivojlanishi va uning g'oyaviy-estetik omillari, janr tabiatida yuz bergan sifat o'zgarishlarini bevosita adabiy jarayon kontekstida izchil yoritish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Qadimgi adabiy-nazariy va ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, dastlab komediya janriga past uslub namunasi sifatida qaralgan. Bunday holat Aristotelning "Poetika" asarida ham o'z ifodasini topgan. [3-14]

Adabiyotshunos olim Hafiz Abdusamatov ta'kidlaganidek, "o'quvchi va tomoshabinlarga kuladigan narsalarni topib berish, ayniqsa, ularni kuldirish oson ish emas. Ularni yig'latishdan ham ko'ra, kuldirish, komediya yozish qiyin." [4-179]

Jahon va rus adabiyotshunoslaridan A.Bushmin (Эволюция сатиры Салтиков-Шедрин.-Л: Наука. 1984 г. -340 с), B.Dzedimok (О комическом.-М: Прогресс. 1974 г. -221 с), V.Propp (Проблемы комизма и смеха.-М: Искусство. 1976. -230 с), T. Lyubimovlar (Комическое, его виды и жанры.-М: Знание.1990. -64 с.) hamda o'zbek adabiyotshunosligida H.Abdusamatov (Drama nazariyasi.-T.: Adabiyot va san'at, 2000. -288 b.), B.Imomov (Dramaturgik mahorat sirlari.-T.: 1991. -176 b), Sh.Rizayev (Jadid dramasi.-T.: Sharq.1997. -320 b.) kabilar dramaturgiya masalalari, satira va yumor, komediya hamda komik mahorat muammolarini ancha keng o'rganishgan.

Lekin bu mavzuga bag'ishlangan aksariyat tadqiqotlar mustaqillikdan ilgari yaratilgan (Jalolov G'. Hamza va xalq og'zaki ijodi. ("Maysaraning ishi" komediyasi aspektida). Fil.f.n.diss.-T.: 1961. -203 b.; Musaxojaeva S. Hamza dramaturgiyasida ijobiy qahramon problemi. Fil.f.diss.-T.: 1967. -247 b.; Hakimova H. Ulug' Vatan urushidan keyingi yillarda o'zbek komediyasi (konflikt problemasi). Fil.f.n.diss.-T.: 1964. -232 b.; Gevorkyan A. Satira Abdullil Kaxxara.-SamDU.: 1967. -27 s.; Jalolov G'. Hamza va xalq og'zaki ijodi. ("Maysaraning ishi" komediyasi aspektida). Fil.f.n.diss.-T.: 1961. -203 b.; Alimova M. O'zbek sovet bolalar dramaturgiyasi.Fil. f.n.diss.-T: 1969. -235 b.), ularda hukmron mafkura talablaridan kelib chiqib, komediyalarning g'oyaviyligi, sinfiylik va partiyaviylik mezonlariga ko'proq

e'tibor qaratilgan, asarlar tahlili ham ana shu tamoyillarga muvofiqlashtirilgan. Endilikda ularni qayta tahlil etish va badiiylik mezonlari asosida xolis baholash zarurati tug'ilmoqda.

Hamzaning "Maysaraning ishi" komediyasida deyarli barcha komik holatlar, komik vaziyatlar bosh qahramon bilan bog'lanadi va komizm yuzaga keltirishda ham Maysara bevosita va bilvosita yetakchilik qiladi. Maysara o'zini kulgili tarzda namoyon etmaydi, satiraga xos fosh etish va jazoga tortish unga nisbatan ishlatilmaydi. Bundan ko'rinadiki, ushbu komediyada komik holatlarning vujudga kelishi va syujet tuzilishi birmuncha sxematik xarakterga ega. Ammo shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, "Maysaraning ishi" komediyasi yaratilgan davr nuqtai-nazaridan, o'zbek adabiyotida birinchi janr namunasi ekanligi hamda muallifning bu sohadagi ilk tajribasi ekanligini hisobga olganda, adabiyotimiz uchun mazkur asar alohida ahamiyatga ega, deyish mumkin. O'tgan asrning 30-40-yillari o'zbek dramaturgiyasi boshqa janrlarga nisbatan u qadar rivojlanmadi. Hamzadan keyin o'zbek adabiyotida komediya janrining yuksak namunalarini yaratgan adib – Abdulla Qahhor bo'ladi.

Abdulla Qahhorning qahramon xarakteri xususiyatlarini uning tili vositasida ochib berishi, taqdir va qismatini, ichki ruhiy olamini, xarakterning rivojlanish jarayonini dialoglar orqali bera olish, voqealar rivojini, badiiy konflikt ziddiyatlarini o'zaro dialoglarda hamda monologlarda yoritish va o'ziga xos so'z qo'llash mahorati dramatik asarlarining ham shuhratiga sabab bo'lgan asosiy omillardan sanaladi.

Muallifning dramatik asarlari muvaffaqiyatini ta'minlagan muhim sabablaridan yana biri bu – o'z davridagi jamiyat muammolarini umumlashtirib, tipik xarakterlarda ko'rsatib bera olganligi hisoblanadi. Ya'ni, Abdulla Qahhor insonlar hayotida uchrayotgan muammo va kamchiliklarni, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan ixtiloflarni mahorat bilan tanqid ostiga olib, ularni kulgi va satira yordamida ochib tashlashga erishadi.

Abdulla Qahhor komediyalari komizmning yuzaga chiqishi, satirik kulgining fosh etuvchi qudrati, komik tip va xarakterlarning chuqur milliyliigi hamda mukammalligi, badiiy konfliktning hayotiyliigi, takrorlanmas xarakterga egaligi jihatlaridan olib qarganda, bemalol jahon adabiyotidagi eng sara komediyalar bilan tenglasha oladi.

Hamza Hakimzoda o'z komediyalarida komiklikni, asosan, turli xatti-harakatlar va holatlar vositasida amalga oshirsa, Abdulla Qahhor esa, bunga badiiy til bobidagi yuksak mahorati orqali erishadi. Adib o'zining ilk sahna asari "Shohi so'zana" komediyasi bilan o'z iqtidorining yangi qirralarini namoyish qildi va millionlab kitobxon va tomoshabinlarning, jumladan, xorijiy ellarning ham muhabbati va olqishiga sazovor bo'ldi.

Hamza komediyasining bosh qahramoni Maysara xarakteriga ko'ra komik xususiyatlarga ega emas. U o'zini kulgili tarzda namoyon etmaydi. Muallif Maysara vositasida komik vaziyatlarni yuzaga keltiradi. U komik konfliktni hosil qilishda hamda harakatga keltirishda asosiy kuch hisoblanadi. Komediya konflikti Maysara, Cho'pon, Oyxon boshchiligidagi ijobiy kuchlar va Qozi, Hidoyatxon kabi salbiy xarakterdagi komik personajlar ishtirokida rivojlantiriladi. Asosiy kulgili vaziyatlar komediyaning oxirgi sahnalarida sodir bo'ladi. Hamza o'z asarida konfliktni yanada keskinlashtirish maqsadida badiiy detallardan ham unumli foydalanadi. Jumladan, komediyaga bir hamyon oltin voqeasining kiritilishi voqealar rivojini tezlashtirib, konflikt hayotiyliigini ta'minlashga xizmat qilgan. Bu jihatdan "Tobutdan tovush" komediyasi, "Maysaraning ishi" asari bilan o'zaro hamoxanglik kasb etadi. Negaki "Tobutdan tovush"da ham asosiy konflikt va kolliziyaning yuzaga kelishida Suxsurovning uchastkasi badiiy detal vazifasini o'taydi hamda voqealar rivojining keskinlashuvida va salbiy tiplarning fosh bo'lishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Asar qahramoni Suxsurov Maysara kabi ijobiy xarakterdagi personajlar toifasiga kirmaydi. U o'zini hammadan aqlli sanasa-da, lekin ko'p o'rinlarda "qovun tushurib qo'yib" atrofdagilarning haqli kulgisiga sabab bo'ladi. "Tobutdan tovush"da ham "Maysaraning ishi"dagi kabi konflikt ijobiy va salbiy qutblar o'rtasida rivojlanib boradi. "Maysaraning ishi"da badiiy detalning ahamiyati konflikt rivojida unchalik sezilmaydi. "Tobutdan tovush"da esa Suxsurovning uchastkasi bilan bog'liq ziddiyat-rejalar komediya syujetining o'q tomirini tashkil etadi.

Nihoyat, keyingi yillarda o'zbek komediyana visligida yaratilgan g'oyaviy-badiiy yetuk asarlardan biri sifatida Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyasini mamuniyat bilan tilga olishimiz o'rinli bo'ladi. "Temir xotin" komediyasi g'oyaviy-badiiy quvvati, emotsional va estetik saviyasi jihatidan nafaqat muallif ijodida, balki o'zbek komediyana visligida ham o'ziga xos, betakror asarlardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbek adabiyotida mazkur komediya singari xalqimiz turmush tarzini, hayotini bor bo'yicha, murakkabliklari bilan tasvirlab bera olgan boshqa bir badiiy asarni topish mushkul bo'lsa kerak. To'g'ri, ancha yillar o'tgandan keyin va Mustaqilligimiz sharofati bilan yaratilgan ayrim asarlarda bu hayotiy haqiqat bir qator asarlarda o'zining real ifodasini topa boshladi.

Sharof Boshbekov esa "Temir xotin" komediyasida Qo'chqor xarakterini ochishda o'zgacha yo'ldan boradi. Muallif Qo'chqordagi ayrim qusurlar uchun uni keskin qoralamaydi, balki beozorgina chimdib o'tadi. Qahramondagi bu kamchiliklarning asosiy sababchisi, eng avvalo, u yashayotgan siyosiy tuzum va inson erkini bug'uvchi mash'um mafkuraviy muhit ekanligiga ishora qiladi.

Komediyada muallifning asosiy g'oyaviy-badiiy niyati Qo'chqorga, uning xatti-harakatlariga bo'lgan munosabatida yaqqol ifodalanadi. Komediyanavis Qo'chqorning yangi-yangi hayotiy xislatlarini tasvirlar ekan, bu orqali o'sha jamiyatning inson erkini bug'uvchi va ko'p jihatdan soxta bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizimini ham ochib berishga intiladi hamda Alomatxon tilidan turmushning ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarini ochiq-oydin ochib tashlaydi.

Qo'chqorning xatti-harakatlari kulgili, yashash tarzi esa achinarli. U har bir voqea-hodisani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi. Tahlil qilish, o'ylab ko'rish uning tabiatiga xos bo'lmagan xususiyatlardir. Xuddi shu soddalik uning xarakteridagi komiklikni keltirib chiqaradi. Lekin u o'z xarakterini anglab yetmaydi, shuning uchun ham Qo'chqorning xatti-harakatlari bizga kulgili ko'rinadi. Qo'chqor xarakterini, u yashayotgan davr ziddiyatlarini ko'rsatishda Alomatxon obrazi yetakchi vosita sanaladi.

Qo'chqor Suxsurov kabi poraxo'r, pastkash inson emas. U birovlarining haqqiga xiyonat qilish, o'zgalarning yaxshi yashashiga hasad bilan qarash nima ekanligini bilmaydi. Suxsurov timsolida biz inson tabiatining murakkabligini, inson xarakterini qayta tarbiyalash naqadar mushkulligini yana bir bor chuqur his etsak, Qo'chqor tabiatidagi ishonuvchanlik hamda o'ta soddalikni ko'rganda esa, hayratga tushishimiz tabiiy.

Suxsurov xudbin, u hamisha o'zim bo'lay deydi, doimo shuhratga intiladi. Qo'chqor xarakteridagi evolyusiyani ochishda esa muallif Sharof Boshbekov, asosan, uning ongiga muhit ko'rsatgan ta'sirini ta'kidlash, siyosiy tuzum ta'sirida uning dunyoqarashida yuz bergan ichki jarayonlarni ko'rsatish yo'ldan boradi. Suxsurovga esa ijobiy muhit ta'sir qilmaydi. U o'ziga o'zi poraxo'rlar muhitini yaratishga harakat qiladi. Suxsurovdan farqli ravishda Qo'chqor xarakteridagi kamchiliklar shundayki, ular g'oyaviy to'qnashuvlar darajasiga borib yetmaydi. Bu qusurlar boshqalar manfaatiga zid kelmaydi. Qo'chqor xarakteridagi ojizliklarni u yashagan muhit voyaga yetkazgan va xuddi shu ojizliklar yana o'sha muhit, ya'ni siyosiy tuzum ta'sirida qolib ketaveradi hamda o'sib, ulg'ayib boradi.

To'g'ri, bu ikki komik qahramon ham o'z zamonasi uchun o'ziga xos komik tip hisoblanadi hamda o'sha muhitga xos bo'lgan jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Abdulla Qahhor ham, Sharof Boshbekov ham ularni yaratishda o'z uslublariga xos yo'nalishdan borib, qahramonlarining betkror bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Eng muhimi shundaki, mazkur ikki komik xarakter ham o'zbek komediyanavisligining yetuk komik tiplari qatoridan o'rin oldi va bu tiplar orqali milliy komediyamizning janr tabiatida yana bir o'ziga xoslik yuzaga kelishiga sabab-omil bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, 1. O'zbek dramaturgiyasida komediyaning janr sifatida shakllanib, rivojlanishi va yetuk namunalarini yaratilgan adabiyotimizning jiddiy yutug'i. Komediyaning janr xususiyatlari turli davrlarda turlicha mohiyat kasb etishi, takomillashishi, ayrim belgi-tamoyillar o'zgarishi, yangicha mazmun va mohiyat kasb etishi tabiiydir.

2. Komediylar tabiatida real voqelik bilan bog'liq tarixiy o'zgarishlar va realistik xususiyatlari barqaror saqlanishining g'oyaviy-estetik, amaliy va nazariy asoslarini yoritish adabiyotshunoslik uchun ham muhimdir.

3. O'zbek adabiyotida komediya janri o'ziga xos tadrijiy rivojlanish bosqichlarida shakl va mazmun jihatidan turlicha o'zgarish va yangilanishlarni namoyon etadi; komediya yumoristik va satirik kulgi vositasida voqelikni keng, polifonik aks ettira olish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. -T: Adabiyot va san'at. 2000. 179-b.
2. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 1993. № 6. 3-b.
3. Aristotel Poetika. -T: G'afur G'ulom nomli Adabiyot va san'at nashri. 1980. 14-b. M. Mahmudov, U. To'ychiev tarjimai.
4. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. -T: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. 179-b.

TAXMIS MUXAMMASLARNING POETIK XUSUSIYATLARI

*Boltayeva Gulchehra Shokirovna,
NavDPI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada taxmis-muxammaslar va ularning poetik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Taxmis-muxammas va tazmin-muxammaslarning o'xshash va farqli jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: taxmis-muxammas, tazmin-muxammas, mustaqil muxammas, g'azal vazni va qofiyasi, radif.

Аннотация. В данной статье рассматриваются тахмис-мухаммасы и их поэтические особенности. Выявляются сходные и различные аспекты тахмис-мухаммасов и тазмин-мухаммасов.

Ключевые слова: тахмис-мухаммас, тазмин-мухаммас, самостоятельный мухаммас, метрика и рифма газели, редиф.

Abstract. This article discusses tahmis-mukhammas and their poetic features. Similar and different aspects of tahmis-muhammas and tazmin-muhammas are revealed.

Keywords: tahmis-mukhammas, tazmin-mukhammas, independent mukhammas, metric and rhyme of the gazelle, refren.

"Taxmis" so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, "beshtalik qilish", "beshtaga yetkazish" degan ma'noni bildiradi. Taxmisning bandlari ham mustaqil muxammaslar singari besh misradan iborat bo'ladi. Ular ikki shoirning ijod namunasidir. Dastlabki uch misra taxmis yozayotgan shoir qalamiga, keyingi ikki misra esa, o'zga shoir qalamiga mansub bo'ladi. Birgina g'azalga bir nechta taxmis yozilishi mumkin. Taxmis yozuvchi o'ziga yoqqan shoir ijodiy namunasini tanlaydi va o'z fikrlari bilan to'ldiradi. Taxmischi tanlagan g'azalini avvalgi holidan yuqori darajada chiqarib berishi zarur. G'azalning vazni, qofiyasi va g'oyasi taxmis bilan o'zaro mushtarak bo'lishi kerak. Taxmislar g'azal asosida yaratiladigan muxammas turidir.

Taxmis bog'lash bir qaraganda osondek tuyiladi, ammo uning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Masalan, o'zga shoir va taxmisning fikrlari, g'oyalari mushtarak bo'lishi zarur. Taxmischi o'zga shoir ijodidan parcha olib, unga o'z namunalarini qo'shib, oldingi ijodkordanda zo'r fikrlarni bildirib, ijod mahsuli saviyasini yanada yuqoriga ko'tarishi zarur. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov ta'kidlaganidek, "taxmis usuli har bir shoir uchun mahorat sinovi, ilhomlantiruvchi kuch yoki biror muhim fikrni ro'yobga chiqarish vositasi bo'lishi mumkin"[3].

O'zbek adabiyotida ilk taxmislar Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Navoiygacha taxmis yaratish san'ati o'zbek adabiyotida uchramaydi. Taxmisning ikkinchi shakli tazmindir. Tazminga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin.

"Tazmin" arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi bir nimani ikkinchi bir nima orasiga qo'ymoqdir. Adabiy istiloh sifatida g'azal yoki musammat she'rlarda bir shoirning ikkinchi bir shoir she'ridan parcha olib, uning izidan borib she'r yaratishidir [4;61].

Tazmin muxammaslar biror shoir yoki o'z g'azali asosida yaratiladi. Tazmin muxammaslarda g'azalning har bir bayti besh va undan ortiq misradan iborat bandga, butun g'azal esa musammatga aylanadi. Tazmin muxammaslar yaratishning imkon doirasi chegaralangan. Chunki bunda muallif tanlangan g'azalning mavzusi, g'oyaviy mazmunini davom ettirishi, vazn, qofiya, radiflarini saqlab qolmog'i lozim. Bu go'yo ijodiy hamkorlik, musobaqa singaridir. Shuning uchun shoirlar bunday musammatlarni ma'lum poetik mahoratni egallaganlaridan keyin yarata boshlaganlar.

Taxmis va tazminlarning o'xshash jihatlari ham mavjuddir. Tazminda bir shoir ikkinchi bir shoirning shohbaytini, misrasini keltirib, fikrlarni ijodiy ravishda davom ettiradi. Taxmisda ham bir shoir boshqa bir shoirning ikki misrasini olib, o'z ijodidan uch misra qo'shib uni besh misraga aylantiradi.

Istiqlol davrida taxmis bog'lashni yuqori cho'qqiga olib chiqqan ijodkorlar Erkin Vohidov, Jamol Kamollardir. To'g'ri bulardan tashqari S.Said, O.Matjon, A.Oripov, H.Xudoyberdiyeva, O.Hojiyeva, U.Azim kabi adabiyotning yetuk namoyondalari taxmis bog'lashgan. Ammo taxmis bo'g'lashni san'at darajasida ko'targan ijodkorlar E.Vohidov va J.Kamoldir.

Erkin Vohidov Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Jumakent Najmiddinov kabi ijodkorlarning g'azaliga taxmis bog'lagani ma'lum. Fikrimizni Erkin Vohidovning quyidagi muxammasi tahlili orqali asoslashga harakat qilamiz:

Ko'nglim aytur, sevgi domiga asir tayyoraman,
Der ko'zim, hijron tuni zor yig'lamoqdin qoraman

Jon degay, ot oraman, tan aytadir, ming poraman,
To muhabbat dashti bepayonida ovvoraman,
Har baliyat kelsa ishq oshubidin bechoraman [2;238].

Bir qarashda ushbu misralar ikki shoirning ijodiy namunasi emas, balki bir muallif qalamiga mansubdek. Ko‘rinadiki, ikki ijodkorning ham so‘zni zargarona qo‘llashi tahsinga sazavor, ikki so‘z ustasi ham so‘zdan mohirona foydalangan. G‘oyalar va fikrlar ham bir-biriga munosib. Muxammasda ishq kuyga solinadi. Yoridan ayrilgan mashuq hijrondan qiynalib, yorini izlash bilan ovora. Yorning dardida kuz faslidek yuzlari sariq va ishq sahrosida ovora bo‘lgan Majnun timsoli gavdalanadi. Muxammasning oxirgi bandi quyidagicha tasvirlanadi:

Xo‘blar vasli g‘animat, xizmatini ayla xo‘b,
Nuri diydang sham’ etib tut, qomatingni ayla cho‘b,
Borida qadriga yet, kerganda tuprog‘ini o‘p,
Ey Navoiy, bordi deb ahbob ta‘zir etma ko‘p,
It kabi men ergashib ul korivonga boraman [2;238].

Ushbu bandning yuqoridagi uch misrasi Erkin Vohidov qalamiga mansubdir. Qolgan ikki misra Navoiy qalamiga tegishli. Oxirgi bandda Vohidovning taxallusi, ismi keltirilmagan, faqat Navoiy taxallusi qo‘llanilgan.

Alisher Navoiy ilgari surgan g‘oya bilan bir butunlikni hosil qiladi. Mumtoz she‘riyatimizda ijodkorlar so‘zga, uning mas‘uliyati va qudratiga alohida diqqat qilganlar. Alisher Navoiyning turli badiiy tashbehlariga boy g‘azallaridan biriga Erkin Vohidov quyidagi band bilan boshlanuvchi taxmisni bitib, ustoz shoir ilgari surgan g‘oyani takomilga yetkazadi.

Ko‘z ochar gulshanda g‘uncha bulbul afg‘on aylagach,
Nega afg‘on aylay ul gul yuzni tobon aylagach.
Miski oykim, ko‘rk ochur sayri shabiston aylagach,
Husni ortar yuzda zulfin anbar afshon aylagach,
Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach [2;240].

Ushbu taxmis sodda va ravon tilda yozilgan. Misralarda yor tasvirini gavdalanitirishda tashbehlardan mohirona foydalanilgan. Navoiyning “Aylagach” radifli g‘azali mat‘lasida shamning piligi ko‘tarilib, yoyilganda yaxshiroq nur taratganidek, yorning oydek yuzida tushib turgan zulfi uning husniga husn qo‘shib, yorni yanada go‘zal qilmoqda degan fikrlar aks ettiriladi. Erkin Vohidov taxmisi boshlanmasida g‘unchaning chiroyli bo‘lib ochilishi, ko‘z ochishi, bulbulni nola qilishiga, sayrashiga majbur etadi.

So‘nggi bandda har ikki shoirning so‘z mohiyati aks etgan qarashlari bilan xulosalanadi. Taxmis g‘azaldagi his-tuyg‘u va fikrlarni kengroq, mufassalroq, chuqurroq ifodalashga, yangi mulohaza va kechinmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Oxirida ikki ijodkorning taxallusi keltirilib o‘tiladi.

Muxammasning qofiyalanish tizimi quyidagicha: *a-a-a-a-a*, *b-b-b-b-a* va hokazo. Shoir qofiyaga *afg‘on – tobon – shabiston – afshon – parishon* so‘zlarini tanlab olgan. Shoir tomonidan birinchi va ikkinchi misralarda bir so‘z orqali so‘z o‘yinini yaratgan, ya‘ni afg‘on leksemasi yordamida ikki xil ma‘no hosil qila olgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu afg‘on so‘ziga “fig‘on, nola” tarzida izoh beriladi. Birinchi misradagi fig‘on so‘zi bulbulning kuylashi ma‘nosini aks ettirsa, ikkinchi misrada ushbu so‘z fig‘on ma‘nosini namoyon qilgan. Ya‘ni shoir bir so‘z yordamida zimdan qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan. G‘uncha bulbul kuyin boshlagach ko‘z ochishi, ul gulyuzni ko‘rgach lirik qahramon fig‘on qilgani, go‘zallikda oydek, saharlarda ko‘rk ochishini, husni zulfini afshon aylagach husni ortishini, sham o‘z torlarini parishon qilgach yanada ravshan bo‘lishini aks ettirgan ushbu muxammas hali-hanuz o‘zining mutolaa qiluvchilariga egadir. Aslida muxammas oxirida shoir taxallusini keltirish ixtiyoriydir. Ushbu muxammasda shoir an‘analarga sodiq qolgan holda oxirga bandda o‘z taxallusini keltirib o‘tadi.

Nolayu afg‘oning, Erkin, dilbaringga yetmadi,
Yetsa ham yo bemehr yo zarra parvo etmadi,
Bitti ko‘p zahming va lekin ishq zahmi bitmadi,
Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglingni majruh etmadi,
Bas, nedinkim qon kelur og‘zingdan, afg‘on aylagach [2;240].

Misralar badiiyatidan anglashiladiki, Erkin Vohidov Alisher Navoiy gʻazaliga ergashgan holda goʻzal bir taxmis bogʻlagan. Bu holat Erkin Vohidov ruhiyatining ulugʻ shoir ruhiyatiga, badiiy dunyosiga yaqinligidan dalolat berib turibdi

Mustaqillikdan soʻng taxmis bogʻlash keng tarqalganini yuqorida taʼkidlab oʻtdik. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Bobur ijodi yangi oʻzbek adabiyoti vakillari uchun oʻziga xos ilhom manbayi boʻldi. Jamol Kamol ham buyuk bobolar ijodiga nazar tashlagan holda taxmis muxammaslar yaratdi. Jamol Kamol Alisher Navoiyning “Qizil, sorugʻ, yashil”, “Asru”, “Istangiz” radifli gʻazallariga, Boburning “Xazon yaprogʻi yangligʻ”, Fuzuliyning “Yo rab baloi ishq” nomli gʻazaliga, Mashrabning “Emas”, Furqatning “Bulbul” radifli gʻazaliga taxmislar bogʻlagan. Bu janrda ijod qilish ancha murakkab, ammo mana shu murakkabliklarni yengib oʻtib, yetuk taxmisni dunyoga kelishida Jamol Kamolning oʻrni juda beqiyos.

Jamol Kamolning “Asr bilan vidolashuv” saylanmasi va “Bosh ustina, bosh ustina” sheʼriy toʻplamida taxmisning mukammal namunalarini oʻrin olgan.

Ey musulmonlar, diyonati Xudodin istangiz,
Yaxshilikni yaxshidin, xayri duodin istangiz,
Benavolik boisin makr-u riyodin istangiz,
Istaganlar bizni sahroi balodin istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanodin istangiz [3;22].

Bu - Jamol Kamolning Alisher Navoiy gʻazaliga taxmis shaklida yaratilgan muxammasidir. Bu muxammas shaklan va mazmunan Alisher Navoiy gʻazaliga hamohangligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy gʻazali va taxmisning vazni ham bir xil: aruzning ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) vaznida yozilgan. Ijodkor tomanidan tanlangan qofiyalar ham taxmisning mukammalligini vujudga keltirgan.

Ikki shoir ijodidagi gʻoyaviy-badiiy yaqinlikni yaqolloq koʻrish uchun taxmisning asl variantini koʻrib chiqamiz:

Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz,
Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.
Vomuq-u, Farhod-u Majnundeklar ul vodiy aro,
Boʻlsalar paydo, meni ham ul aroda istangiz [1;151].

Alisher Navoiy “Istangiz” radifli gʻazalida “baloda”, “fanoda”, “aroda”, “qaroda”, “mubtaloda”, “vafoda” kabi qofiyalarni keltiradi. Jamol Kamol taxmisida ham “duodin”, “fanodin”, “balodin”, “arodin”, “mojarodin”, “qarodin” kabi soʻzlar asosida qofiyalar marjoni tizilgan. Bu esa ijodkor mahoratidan darak beradi. Shoirning Alisher Navoiy qalamiga mansub “Asru” nomli gʻazaliga bitilgan taxmis muxammas ham oʻziga xos badiiy jozibaga ega. Sheʼrda anafordan ham unumli foydalanilgan:

Bu gʻamning ibtidosi hazrati Insondin ermishkim,
Bu savdo ixtirosi laʼnati shaytondan ermishkim,
Bu kulfat, bu alamlar gardishi davrondan ermishkim,
Bu kim, ahli vafo noyob erurlar, ondin ermishkim,
Bu eski toq alargʻa yogʻdirur gardi balo asru [3;93].

Ushbu bandda hazrati inson deb, Odam Ato nazarda tutilgan. Bu eski toq esa dunyodir. Odam Atoni shayton yoʻldan urganligi, bu dunyoda inson shaytonning gapiga kirib alamda qolmasligi mazmuni misralar qatiga mohirona singdirilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, istiqlol davri adabiyoti mavzuviy jihatdan xilma-xil boʻlib, unda aks etgan har bir janr namunalarini kishini oʻziga rom etmay qolmaydi. Ayniqsa, muxammas janrining goʻzal namunalarini mustaqillik davri adabiyotini boyitgan manbalar hisoblanib, shoirlar tomonidan yaratilgan badiiy jihatdan yuksak muxammaslar oʻzbek nazmining boyishiga xizmat qilgan. Muxammas janrida betakror durdonalar yaratish esa shoirlarimiz uchun mahorat maydonida berilgan oʻziga xos imkoniyatdir.

Xususan, Vatan mavzusi bu davr adabiyotida yetakchi oʻrinni egalladi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Iqbol Mirzolar aynan shu mavzuda muxammaslar bitdi. Yor, muhabbat, tabiat manzaralari, shukronalik hissi yogʻrilgan muxammaslar juda koʻp yaratildi. Milliy bayram va urf-odatlarini tasvirlash haqidagi muxammaslarni ham uchratishimiz mumkin. Ana shunday mavzudagi muxammaslar Sirojiddin Sayyid, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyeva, Farid Usmonlar ijodida uchraydi. Yuqorida biz

muxammaslarni tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'ldik: taxmis va mustaqil muxammaslar. Barcha davrlarda bo'lgani kabi mustaqillik davrida ham ana shu ikki shakldagi muxammaslar yozildi. Ayniqsa taxmis usulida yaratilgan muxammaslar nisbatan kengroq taraqqiy etdi. Taxmisning keng yoyilishida mumtoz adabiyot zamin vazifasini o'tadi. Istiqlool davridagi taxmislarda zamonaviylik va mumtoz an'analar ma'lum ma'noda uyg'unlik kasb etdi.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Бадое ул-васат. Тошкент, 1990.
2. Vohidov E. O'zbekim. Toshkent, 2022.
3. Жамол Камол. Бош устина, бош устина. Янги шеърлар. Тошкент, 2016.
4. Tolibjon Ro'ziboyev. Muxammas va taxmislarning farqi, hozirgi o'zbek she'riyatidagi taxmisnavislar. <https://oyina.uz>
5. Xoliqova G. O'zbek mumtoz she'riyati janrlari. Samarqand, 2017.

ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDA RAQIB OBRAZI VA UNING RAMZIYLIK XUSUSIYATI

*Zuhra Umaraliyevna Mamadaliyeva
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ramz tushunchasi sharhlangan, ramziy obrazlar haqida so'z yuritilgan. Alisher Navoiy "Xamsa"sidagi ramziy obrazlar, xususan raqib obrazining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Obrazning folklor va mumtoz adabiyotdagi tadrijiy rivoji tahlil qilingan. Navoiy ijodi, xususan "Xamsa"dagi variantlari va ularning o'ziga xosligi o'rganilgan. Xusrav, Ibn Salom, Muqbil, Jaypur kabi obrazning real variantlaridan tashqari g'addor taqdir, inson fe'l-atvori kabi mavhum talqinlari borasida ham so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье объясняется понятие символа, рассказывается о символических образах. Обсуждались символические образы в «Хамсе» Алишера Навои, в частности, своеобразие образа противника. Анализируется постепенное развитие образа в фольклоре и классической литературе. Изучено творчество Навои, особенно его варианты в «Хамсе» и их уникальность. Помимо реалистических версий образов, таких как Хосров, Ибн Салам, Мукбил и Джайпур, также обсуждаются абстрактные интерпретации, такие как жестокая судьба и человеческий характер.

Abstract: This article explains the concept of a symbol and talks about symbolic images. The symbolic images in "Khamasa" by Alisher Navoi were discussed, in particular, the originality of the image of the enemy. The gradual development of the image in folklore and classical literature is analyzed. The work of Navoi has been studied, especially his variants in "Khamasa" and their uniqueness. Apart from realistic versions of figures such as Khusrow, Ibn Salam, Muqbil and Jaipur, abstract interpretations such as cruel fate and human character are also discussed.

Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida ramziylik tushunchasi mumtoz matnni tahlil qilishda muhim omil bo'lishi bilan birgalikda uning tarkibiy qismi, shakl va g'oyani bog'lab turuvchi unsur sifatida ham e'tiborga molikdir. Umuman, ramz – simvol istilohlari nafaqat adabiyot, balki muayyan millat va xalq umummadaniyatining ajralmas bir qismi sifatida ham ahamiyatlidir. Ramz haqida atoqli olim, akademik Izzat Sulton quyidagicha ma'lumot beradi:

"Ramz – voqelikning timsolidir. Voqelikning aynan o'zi go'zal emas, uning timsoli go'zaldir. Illo tosh emas, toshga yo'nilgan xayol go'zal. Adabiyotning ilohiy kuchi – aynan shu xayolni yorita olishda ko'rinadi. Ijod yaratishdir. Yaratish esa ilohiyotga daxldorlikdir. Yaratish zavqi barcha zavqdan, yaratish azobi barcha azobdan yuksakroqdir. Go'zallik yaratish esa – bu ilohiyotni charxlashdir" [3:106].

Ramz tasviriy va amaliy san'atda, xalq marosim va urf-odatlarida, davlat va millat, aslzodalarning oilaviy va sulolaviy belgilari sifatida ham qo'llanilgan. Ushbu maqolada esa faqat ramziy obrazlar xususida fikr yuritiladi. Masalan, "Layli va Majnun" sevgi qissasi ikki yosh o'rtaqidagi fojeali muhabbatga bag'ishlangan asar hisoblanadi. Lekin Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy kabi tasavvuf ijodkorlari o'zlarining badiiy niyatlaridan foydalanib bu qissaga ilohiy muhabbat haqidagi ma'no yukladilar. Bu o'rinda o'quvchi Laylining ilohiyot mazhari ekanligini bilsa, nur ustiga nur – hikoyaning har ikki ma'nosini tushunadi, biroq matn osti ma'nosi anglanmaganda ham o'quvchi mutlaqo bebahra qolmaydi: u Laylining

iztiroblari yoki Majnunning fojeasidan sof go‘zallik va muhabbat izlaydi, qahramonlar bilan birga quvonadi, ko‘z yosh to‘kadi, xullas ta’sirlanaveradi.

Bunday asarlarning tagma’nosi, ya’ni ramziyligini bilish esa xos adabiyot ixlosmandlarining ishi bo‘lib, danakni chaqib, mag‘izini eyishga o‘xshash ma’lum tajriba, mehnat talab qiladigan va oqibatda rohat baxsh etadigan faoliyatdir. Hozirgi kunda bunday tagma’noni bilish asarni jo‘n emas, bor ohori va go‘zalligi bilan tushunish, his etish kabi asl kitobxon uchun zarur bo‘lgan xususiyatlardan sanaladi. Shu bilan birgalikda asar ramziyligi, ramziy ma’nolarini tekshirish, tahlil qilish adabiyotshunoslikda ham hali oxiriga etmagan, dolzarb muammolardan sanaladi.

Bunday ramziy xususiyatlar Alisher Navoiy “Xamsa”sida ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. SHunday ramziylik xarakteriga ega bo‘lgan obrazlardan biri raqib obrazidir.

Raqib obrazi adabiyotda uzoq yillik takomil yo‘liga ega. Ildizi miflardagi yovuz ruhlarga, olam muvozanatini izdan chiqarishga va odamzodni tanazzulga boshlashga xizmat qiladigan turli iblis va devlarga borib taqaladi. “Avesto” mifologiyasida insonga dushmanlik qilgan, olam muvozanatini buzishga va yovuzlik g‘alabasiga xizmat qiladigan devlar nafaqat bir kishiga, balki umuminsoniyatga raqib hisoblanishgan.

Xalq og‘zaki ijodidan ma’lumki, har bir romantik ruhdagi epik ijod maxsulida, qahramon, uning yori, do‘sti va raqibi ishtirok etadi. Bu muhim to‘rtlik ishtirokida asar kompozitsiyasi tuziladi, syujeti yaratiladi va konflikti rivojlanadi. Jumladan, qadimgi ertaklarda uchar otlar, ko‘k bo‘ri, parilar, ezgu niyatli devlar qahramonga do‘stlik qilgan bo‘lsalar, yomon niyatli, ya’ni qora devlar, ajdaholar, yalmog‘iz va boshqa salbiy ottenka tashigan mifologik qahramonlar unga yovuzlik qilishgan. Niyatiga etishga to‘sqinlik qilishgan, joniga qasd etishgan. Bu obrazlar keyinchalik ancha reallashib, insoniy shakl-shamoyil ola bordi. Endi podshohning qiziga talabgorlik qilib, uning shartlarini bajarayotgan shahzodaga uning akalari, oddiy yigitga o‘zini yaqin deb bilgan odamlar raqib bo‘lishdi. Albatta, boshqa personajlar singari raqibning ham, asarda, muayyan maqsadi bo‘ladi. Bu maqsad, aksariyat hollarda, boylik, davlat, ma’shuqa, taxt va hokazolar hisoblanadi. Xalq dostonlarida raqib obrazi, xuddi do‘st obrazi singari ancha reallashdi. “Alpomish” dostonida qalmoqning qirq alpi, Maston kampir va asosan, Ultontoz kabi personajlar bu vazifani bajardilar.

Xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda xuddi do‘st obrazi singari raqib obrazining ham vazifalari shakllandi. Bular quyidagilardir:

- Raqib, avvalo bosh qahramon bilan niyatdosh bo‘lishi kerak. Bir niyatni maqsad qilmaganlar orasida raqobat bo‘lmaydi. Bu niyat ma’shuqa, taxt, boylik va boshqa ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi; raqib yovuz bo‘lishi, qahramonga nomardlarcha xalaqit berishi kerak. Unga mardlik, odamgarchilik begona. Aks holda u ijobiy qahramonga dushmanlik qila olmasdi;

- Raqib qahramonga qasd qilishi, uni o‘ldirish yoki ma’nan mahv etishi talab etiladi. Asar syujeti mana shu jarayon – qahramonning yashab qolish va niyatiga etishga intilishi, raqibning esa unga qasd qilishi, uni yashashga va niyatiga erishishiga yo‘l qo‘ymasligi jarayonida rivojlanadi;

- Raqib bitta yoki bir nechta bo‘lishi mumkin. Ular bir nechta bo‘lganida qahramonga navbatma-navbat zarba berishlari lozim bo‘ladi. Raqib qahramonga o‘zi bilmagan, xohlamagan holda ham yomonlik qilishi, xalal berishi ham mumkin. Raqib obrazi real va noreal (taqdir) timsolida ham shaxslashadi.

Mana shunday tamoyillarni qabul qilgan holda rivojlangan va og‘zaki ijoddan ta’sirlangan mumtoz adabiyotning romantik epikasida ham raqib obrazi eng muhim hamda baquvvat obrazlardan bo‘lib qoldi. Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”ida bu obraz sahro va jazirama singari tabiat kuchlari timsolida akslangan bo‘lsa, “Gul va Navro‘z”da Chin xoqoni, shayx Najdiy, qaroqchi Yaldo singari bir nechta raqibni ko‘ramiz. Ular navbatma-navbat bosh qahramon - oshiq faoliyatiga salbiy ta’sir etib, maqsadiga etish uchun xalal beradilar. Durbekka nisbat berilgan “Yusuf va Zulayho”da Zulayhoning turmush o‘rtog‘i raqib hisoblanadi. U Yusufga bevosita yomonlik qilmasa-da, uning mavjudligi Yusuf va Zulayho orasidagi hijron va judolikka sabab bo‘ladi.

Alisher Navoiy asarlarida bu obrazning vazifasi qat’iylashib, o‘rni mustahkamlandi. “Farhod va Shirin”da Eron shohi Xusrav obrazi raqiblikning hamma vazifalarini a’lo darajada bajaradi. Bu haqda adabiyotshunos olim N. Mallaev “Xusrav – yomonlikning mujassami. Xusrav bilan Farhod o‘rtasidagi konflikt dostonning bosh konflikti” [2:165], degan fikri bilan obrazning dostonidagi vazifasiga juda to‘g‘ri baho bergan. Ya’ni, Xusrav Farhodni hiyla bilan asir oladi, unga so‘z bilan kuchi etmay, ma’naviy jihatdan mag‘lub qilolmagach, jisman yo‘q qilishga kirishadi. Salosil qo‘rg‘onida bandi qiladi. SHiringa ta’sir qilib, uning ko‘nglidan Farhodga bo‘lgan ishqni yo‘qotishga intiladi. Buni ham amalga oshira olmagach, uni jisman mahv etmoqchi bo‘ladi. Makkora kampir vositasida buni amalga oshiradi, biroq bu ham uning katta xatosi edi. Bu harakati bilan u SHirinni butunlay yo‘qotib qolmay, taqdirdan qasos kelib, o‘zi ham ko‘p o‘tmay halok bo‘ldi. Obraz haqida fikr bildirgan sharqshunos E.Bertels “Bunday sharoitda Xusrav, albatta, fors an’anasi nisbat bergan barcha ijobiy xislatlardan mahrum bo‘lishi kerak. U Navoiyda makkor va zolim,

qo‘rqoq, shafqatsiz va qonxo‘r shoh. Agar Xusravning o‘limi Nizomiyda hamdardlik uyg‘otsa, bu erda u o‘quvchida chuqur qoniqlash hosil qiladi. chunki shoh haqli ravishda jazolandi” [1:238], deydi.

Istiqloldan keyin Navoiy asarlarining botiniy ma‘nosini sharhlash an‘ana tusiga kirgach, ushbu obrazning ramziy tomonlari ham topila boshlandi. Tadqiqotchi M.Ibrohimova “Bu dunyo inson ruhi va ruhi mutlaq orasida to‘siq bo‘lgani kabi, Xusrav ham oshiq va ishq mazhari o‘rtasidagi eng katta g‘ovdir. Navoiy dunyo timsolida dunyoning barcha razilliklari, chirkin tomonlari, dog‘uliklarini ko‘rsatadi”, degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, Navoiy tasviridagi raqiblarning boshqa birortasi qahramonning joniga qasd qilishgacha bormaydi. Inson hayotini kamolotga etish uchun imkoniyat va oliy qadriyat deb bilgan hazrat Navoiy Xusravning bu qilmishini “Tarixi muluki Ajam” asarida ham qoralaydi va halokatining sababini ham “falakning intiqomi” deb aholaydi.

“Layli va Majnun”dagi Ibn Salom raqib obrazining navbatdagi ko‘rinishidir. U ham xuddi Zulayhoning eri kabi bosh qahramon Majnunga hech bir xalal bermaydi. Hatto uni tanmaydi ham. Biroq uning mavjudligi va Layliga oshiqqligining o‘zi uni Majnunning raqibi bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

“Sab‘ai sayyor” asosiy hikoyatidagi Bahrom va Diloromni ajratgan real bir qahramon yo‘q. Bu o‘rinda Bahromning mastlikdagi qarori va Diloromning takabburligi sabab bo‘ladi. Demak, bu o‘rinda raqib obrazi mavhumlashadi va Navoiy lirikasida bo‘lgani kabi, taqdir, falak obrazlarida ramzlashdi. “Sab‘ai sayyor” yordamchi hikoyatlarda esa real raqiblarni ko‘ramiz. Axiyning raqibi bo‘lgan savdogarlar uning davlatini egallash niyatida joniga qasd qiladilar. Zayd Zahhobning raqiblari ham uni obro‘sizlantirib, oqibatda o‘ldirish niyatida uning fribgarligidan shohga xabar berib, zindonga soldiradilar. Ma’sudning raqiblariga ham uning davlati va erishajak mansabi kerak. “Mehr va Suhayl”dagi Suhaylning raqibi bo‘lmish Jobir buni o‘zi ham bilmaydi. Kasbi qaroqchilik bo‘lgan Jobir Suhaylga bir asir sifatida qaraydi va uni zindonga solgach, unutadi. Biroq, Jobir Suhayl sevgan qiz Mehrga ko‘ngil qo‘ygani uchun ham unga raqib hisoblanadi. “Muqbil va Mudbir” hikoyatidagi ikki hamroh ham o‘zaro hayot yo‘llarida omadga intilish, erishi yo‘lida raqibdir. Ko‘ringanidek, bu dostonida raqib obrazi talqini murakkablashdi va uning tasvir tamoyili ham kengaydi. Voqealar rivoji jarayonida Ma’sudning raqibi Ballu va Jaypur, beshinchi hikoyat qahramoni Suhaylning raqibi Jobir, oltinchi hikoyat qahramoni Muqbilning raqibi Mudbir ochiqdan-ochiq mag‘lub bo‘ladilar va qilmishlariga yarasha jazolanadilar. Biroq ettinchi hikoyat qahramoni Diloromning raqiblari bo‘lgan saroy sozandalari va Xorazm shohi uning ruhiyatidagi nazokat va jasorat tajassumi kabi tuyg‘ularni ko‘rib, unga qoyil va maftun bo‘lishadi. Bu o‘rinda yovuzlik jazolanmaydi, balki ezgulikka aylanadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida bosh qahramon Iskandarning raqiblari xuddi xalq dostonlari kabi bir nechta bo‘lib, bosh qahramonga navbatma-navbat dushmanlik qilishadi. Dastlab, Iskandarning yosh podshohligida Eron shohi Doro uni mahv etmoqchi bo‘ladi. So‘ngra Kashmir podshosi Mallu, Chin xoqoni, so‘ngra devsfat odamlar va chumolisifat maxluqlar, Ya’juj-ma’jujlar qabilasi unga qasd qilmoqchi bo‘ladilar. Bu raqiblarining hech qaysisi o‘z niyatiga etolmaydi. Iskandar dengiz safaridan so‘ng o‘zi xastalanib, vafot etadi. Demak, bu o‘rinda ham taqdir, kajraftor charxning o‘zi bosh raqib sifatida gavdalanadi.

Ushbu maqola bo‘yicha quyidagicha xulosalarga kelindi:

- xalq og‘zaki ijodidan shakllanib kelayotgan raqib obrazi miflar, afsonalar va ayniqsa ertak va dostonlarda mavhum mifologik qahramonlardan konkret personajlargacha shakllanish bosqichini bosib o‘tdi;
- folklorda shakllangan raqib obrazining xususiyatlari mumtoz adabiyotda rivojlandi. Jumladan, raqibning bitta yoki bir nechta bo‘lishi, asar qahramoniga niyatdosh ekanligi, uning joniga qasd etishi, niyatiga etishiga to‘sqinliklar qilishi kabi xususiyatlar rivojlanib, kuchayib bordi.
- Raqib obrazi folklordagi holatidayoq ramziylik kasb etib ulgurgandi. YA’ni, bosh qahramon ezgulik, go‘zallik, jasorat, matonat ramzi bo‘lgani holda uning raqibi yovuzlik, chirkinlik, qo‘rqoqlik va xiyonat ramzi sifatida maydonga chiqdi.
- Raqib obrazi Alisher Navoiy “Xamsa”sida turli xil variantlarda aks etgan bo‘lib, ularning eng mukammali “Farhod va Shirin”dagi Xusrav obrazi hisoblanadi.
- Obrazning “Xamsa”dagi boshqa variantlari ham raqiblikning barcha shartlarini bajarish bilan birga uning turfa tomonlarini aks ettirdilar.
- Navoiy “Xamsa”sida obrazning g‘addor taqdir ma‘nosida ramzlashgan mavhum timsoli ham takomillashdi. Bu, ayniqsa, “Saddi Iskandariy”da Iskandarning so‘nggi raqibi timsolida aniq va ravshan namoyon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bertels E.E. Navoiy. Tarjimon: Mirzaev I. –Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015.
2. Malliev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. –Toshkent, Adabiyot va san‘at, 2018.
3. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyatsi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.

O'ZBEK MAROSIMLARIDA MOMO KULTIGA ISHONCH IZLARI

Narzullayeva Dilfuza Saitovna,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
dotsenti (PhD)

Annotatsiya - Maqolada ayol ajdodlar ruhining homiyligi nazarda tutilgan momo kulti tushunchasi, unga ishonchning o'zbek taqvimiy va oilaviy-maishiy marosimlar folkloridagi badiiy talqini, momolar ruhining ayollarga, ularning faoliyatida, shug'ullanadigan kasb-korida hamisha yoru madadkor bo'lishi, u bilan bog'liq motiv va obrazlarning mifdan marosimga, marosimdan folklorga ko'chishi haqida fikr yuritilgan.

Abstract – It is noteworthy that in the folklore of the peoples of the world the rudiments of faith in the cult of granny are still preserved. The folklore of ceremonies formed under the influence of ancient people's beliefs about "patron forces", the aesthetic essence of customs, the definition of the artistic interpretation of the image of granny in folklore is important in terms of the history of folklore, the stages of development of mythopoetic thinking.

Dunyo xalqlari marosim folklorida momo kultiga ishonch bilan bog'liq rudimentlarning to hozirgacha saqlanib kelayotgani alohida e'tiborni tortadi. Qadimgi insonlarning "homi kuchlar" haqidagi e'tiqodiy qarashlari ta'sirida shakllangan marosimlar folklori, urf-odatlarining estetik mohiyati, xalq og'zaki badiiy ijodida momo obrazining badiiy talqin xususiyatlarini aniqlash folklor tarixini, mifopoetik tafakkur taraqqiyoti bosqichlarini asoslash imkonini berishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo, Qashqadaryo vohasida kinnachilik va emchilik bilan shug'ullanadigan ayollar, odatda, "momo" deb yuritiladi. O'zbekistonning bir qator joylarida doyalik qiluvchilar ham "momo" yoki "momo-doya" deb ataladi.

Momo-doyalarning muhim xizmati shundan iboratki, ular momolar ruhini shomon qiyofasida tug'ilish yuz berayotgan joyga chaqiradilar. Bu uchun ular chiroq – nukcha yoqqanlar. Nukcha moyga botirilgan paxtani qamishning boshiga o'rab tayyorlanadi. Momolar buni "chiroq eshish" deydi. Shu chiroq-nukcha yondirilganda, moyga botirilgan paxtaning hidi atrofga taraladi. Atrofga taralgan yoqimli moy hidi esa momolar ruhiga yetib borib, ularni shu chiroq yoqilgan joyga yetaklab kelishiga ishonilgan. Samarqand viloyatining Xo'ja qishloq guzarida homilani qabul qilish, ayolni tug'dirib olish jarayonida uchta momo: katta (Mmoi Kalon), o'rta (Mmoi Miyona) va kichik (Mmoi Xurd) bevosita ishtirok qilishgan.[1] Bunda momo doylar jamoa bo'lib harakat qilib, tug'ruq davomida chaqaloqni qabul qilishda birgalashib ish yuritganlar. Ulardan Mmoi Kalon deb yuritiluvchi doya xonaning o'ng burchagidan, Mmoi Miyona esa xonaning obrezli tomonidan, Mmoi Xurd esa eshik oldidan joy olganlar. Momo ruhlarning yordamga kelish-kelmasligi nukcha – chiroqlarning yonishiga qarab aytilgan. Jumladan, nukchaning lovillab yonishi homiy momoning yetib kelgani, past yonishi yoki o'chib qolishi homiy momoning hali yetib kelolmagani alomati sanalgan.

Xorazmda ayolni tug'dirib oluvchi doyani "enaka momo" yoki "elti momo" deb ataydilar. Ammo bu vohada Elti momoning vazifalari ko'p. Masalan, u yangi tug'ilgan chaqaloq bilan bog'liq irimlarni ado etadi, uni ilk bor beshikka bog'lab beradi, shuningdek, to'ylarda ayollarga boshchilik qiladi. Motam marosimlarida go'yandalik vazifasini bajaradi.[2] Bunda Elti momo nomini olgan ayolning yoshi muhim sanalmaydi. Chunki shomonlik va doyalik qiluvchi ayolga nisbatan momo so'zi ishlatilganda, uning yoshi inobatga olinmaydi.

Momo ruhlar ko'pincha nukchatalab va bo'ytalab, ba'zan xuntalab bo'lib qolishi aytiladi. Shunda ularga atab qurbonlik uyushtiriladi. Hech bo'lmasa, so'yilgan molning kallasi sotib olinib, kallasho'rva (xomsho'rva) qilinadi. Momolar ruhiga bag'ishlangan taomlarga achchiq narsalar solinmagan. Sababi, achchiq narsalar ruhlarni haydovchi vosita hisoblanadi.

Xalq orasida momo ruhlarga atab maxsus ritual taomlar pishirish o'ziga xos an'ana tusini olgan. Jumladan, ayollarning ko'zi yoriganda atala, "Bibiseshanba" marosimida o'moch pishiriladi. Bu taomlar **momo oshi** deb yuritiladi.[3]

Momolar oqlikni ko'ra oladilar deb, "Bibiseshanba" marosimida oq matodan supra yoyib, unga avvalo un qo'yadilar. Shuningdek, yana biror kutilmagan ko'ngilsizlik yoki xastalik yuz bersa, baxtsiz yo kasal odamning boshidan oq paxta uch marta aylantirib olinadi. Bu xatti-harakat xalq orasida "paxta silash" deb yuritiladi. Shundan so'ng boshidan paxta silab olingan kishiga momolik bilan shug'ullanuvchi

professional ayol “shamol chiroq” yoqadi. Unda ma’lum miqdorda maxsus tayyorlangan nukchalar o’ziga xos aytimlar jo’rligida birin-ketin yoqiladi va bunda, albatta, silab olingan paxta ham nukchalarni tayyorlashda ishlatib yuboriladi. Nukchalar faqat pok momo ruhlar nomiga ataladi. Bosh nukcha ayollarning birinchi vakili, Odam Atoning umr yo’ldoshi – Momo Havo nomiga yoqiladi. Momo Havoga bag’ishlangan nukcha yetti donadan iborat bo’ladi. Bu nukchalarni yoqayotganda, odatda: “Avval xudo, keyin hazrati Momo Havo va Bibi Mushkulkusho, o’zing qo’llab-quvvatla!” deya olqish aytiladi.

Nukchalar xuddi odam (momo ruhning antropomorf qiyofasi) ko’rinishida tayyorlanadi. Bir bog’lam qilingan yetti nukchani o’rtasidagi cho’p ikki yonidagi boshqa cho’plarga nisbatan uzunroq bo’ladi. Shuning uchun uning yonidagi cho’plar xuddi tanadagi qo’llar ko’rinishini beradi.

Momolarga bag’ishlab uch xil nukcha yoqiladi. Birinchisi, uchta bir xil o’lchamli, ikkinchisi esa, ikkita bir xil o’lchamli cho’pdan yoqiladi. Uchinchisi, ikkita bir xil o’lchamli cho’pni bitta uzun cho’pning ikki tomonidan birlashtirib, uni xuddi odam ko’rinishida tasvirlab ko’rsatish usulida yoqiladi. Momo ruhlarga chiroq yoqish ba’zan bir kishi tomonidan, ba’zan jamoa ko’rinishida amalga oshirilgan.

Momolarga bag’ishlab ayollar – xonadon bekaları tandir yoki o’choq ichida bot-bot chiroq yoqib turishi hozirgi kunda odat tusiga kirgan.

Momolik xalqona kasblardan biri hisoblanadi. Momo kasbini olgan ayollar, odatda, inson badaniga kirib, o’rnashib olgan yovuz ruhlarni haydab, ma’lum ob’ektlarga ko’chirish bilan shug’ullanadi. Ular ko’pincha, Xunxor momo, Shalpar momo, Shaloyim momo, Sariq momo, Qora momo, Qizil momo kabi yovuz momo ruhlarga qarshi kurashadilar.

Folklorshunos A.Musaqulov yozishicha: “Shomonlik e’tiqodiga ko’ra shomonlar o’z iqtidorini ajdodlaridan meros sifatida yoki yer, suv ilohalari va turli yovuz ruhlardan oladilar. Shu sabab ziyon keltirgan ruhlarni aniqlash, ularni yengib, bemorlarni davolash o’zbek shomonlarining ham asosiy belgisidir”. [4]

Momo ruhlar ruhiy vositachi sifatida tanlab olingan ayolga ko’zi yoriydigan xotinlarga qanday qilib doyalik qilishni, ya’ni tug’ruq vaqtida qay usulda ayollarga yordam ko’rsatish, chaqaloqni qabul qilib olishga o’rgatib turishiga ishonilgan.

Momo ruhlar hech qachon o’zlari tanlagan vositachilariga qattiq ozor yetkazmaganlar. Faqat o’zlarini eslatish, unutmazlik va o’zlariga xizmat qildirib turish kerakligini bildirish uchun ularga ogohlantiruvchi zararlilar yetkazib turganlar. Agar kimki, ularga bo’ysunmasa, ularni rad etsa, ruhlar bu xil odamlardan o’ch olishga intilganlar. O’sha odamning o’zini yoki farzandini biror xastalikka yo’liqtirganlar. Ko’pincha shol yoki ko’r qilib qo’yanlar.

Ezgu ruhlar insonga homiylik qilsa, yovuz ruhlar raqib bo’ladi. Pari, momo, muakkil, chilton, qirqqiz, sariqqiz, mullo qiz, Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod, arvoh, pir, mozor kabilar ezgu ruhlar qatoriga kiritiladi. E’tiqodlarga ko’ra, bu ezgu ruhlar odamlar orasidan o’ziga kimnidir vositachi sifatida tanlab oladi va unga qandaydir bir san’atni yoki kasbni o’rgatadi. Masalan, ishonchlarga ko’ra, parilar o’zi tanlagan kishiga shomonlikni – folbinlikni, momolar esa doyalikni, ya’ni tug’dirish ishlarini, muakkil – devlarga qarshi kurashishni, devbandlikni, azayimxonlikni o’rgatarkan.

Momolar tanloviga tushgan ayollar xalq orasida momo, momo doya, momodor, kinnachi, suqchi, chiroqchi deb yuritiladi.

Odatda, homiy ruhlar tomonidan tanlanganlar qo’l olish marosimida biror jonivorni qurbonlik qilishadi. Bunda quyidagi murojaat aytimi ijro qilinadi:

Qon so’rasang, qon berdi,
Jon so’rasang, jon berdi.

Qo’l olish marosimi Surxondaryo va Qashqadaryo hududida “chilton suvi ichish” deb yuritiladi.

Momolarga bag’ishlangan ritual tadbirlarda qon chiqarish uchun tanlangan jonzotlarning rangiga jiddiy e’tibor qilinadi. Masalan, suv bo’yida shikast topganlar Suvchi momo nomiga oq tovuq ataydi. Qora momoga esa yo qora tovuq, yo qora qo’y, yo qora echki-uloq; sariq momoga sariq, ko’k momoga ko’kish, kul momoga kulrang tusdagi jonzotliklar ataladi.

Momolik meros kasb hisoblanadi. Hatto umri davomida momolik qilib o’tgan ayrim ayollar keksayganda o’zi yaxshi ko’rgan biror ayol qarindoshiga (qiziga, keliniga yoki qiz nevarasiga) tirikligimda qo’limni ol deb, yo kaftlariga, yo og’ziga “tupurib” qo’yishgan. Bunda momolik qiluvchi ayol ish boshlashdan oldin “Maning qo’lim emas, shu kasbi korni qilib o’tganlarning qo’li, maning qo’lim emas, momo pirlarimning qo’li” deb aytadilar.

Bolalar va ayollarga xizmat ko’rsatuvchi ayollar momolik kasbini, odatda, oilasidagi katta ayollar – onasi yoki buvisidan, ammasi yoki xolasidan meros sifatida qabul qilib oladilar va uni ixlos bilan ado etishga urinadilar. Aks holda momo ruhlar ranjib, o’ziga ozor yoki shikast yetkazishi mumkinligiga ishonadilar.

Momo kasbi haqidagi qarashlar turkiy xalqlarning, shu jumladan, o'zbek urug'larining qadimiy shomonlik e'tiqodlarini ham o'zida yorqin aks ettiradi. Xalqimiz orasida momolar haqida turli shomon hikoyalari tarqalgan. Ularda qanday qilib ayol-shomonning momo tasarrufiga tushib qolgani, momo unga nima uchun homiylik qila boshlagani hikoya qilinadi.

Shomonlarni hozirgacha xalq orasida folbin, qushnoch, baxshi, paridor, **momodor**, muakkildor, sohibdor deb yuritishlari ma'lum. Xullas, momo shomonlar homiysi hisoblanadi. Odamlar momolar shomonlarga xizmat qiladi, uning turli topshiriqlarini bajaradi, deb hisoblaganlar.

Momo-shomonlar, odatda, yo tug'dirish, yo kasallikni davolash bilan shug'ullanadilar. Ular kasalning boshi atrofida alas qiladilar. Kinna, suq haydaydilar, bolalarni "qo'l-oyoq" qiladilar. Ko'z og'rig'ida xaf-uchuq, kinna-pufuchuq qiladilar, tomoq bosadilar, yurak ko'taradilar. Bular bilan ba'zi momolar alohida-alohida kasb sifatida shug'ullanadilar. Yurak ko'taruvchilarni Buxoroda "dilbardor", kinna haydovchilarni Surxondaryoda "kinnakash", tomoq bosuvchilarni "gulagir" deyilar.

Momo – doyalik bilan o'tmishda faqat ayollar shug'ullanishgan. (Hozir esa tug'ruqxonalarda erkaklar ham akusher-ginekolog kasbida ishlamoqdalar.) Lekin kinnachilik, badikxonlik bilan ayollar bilan bir qatorda erkaklar ham shug'ullanaverishadi.

Momo doylar bolani ajina va alvastidan himoya qilish, saqlab qolish uchun turli irimlarni bajaradilar: a) ona ko'kragi og'rib qolsa, uni o'lik yuvilgan qo'lqop bilan emlaydilar;[5] b) bolaga qo'yilgan birinchi ismni o'zgartiradilar; v) bolaga atab chiroq yoqadilar; g) bolani tol yoki mevali daraxt novdalari orasidan o'tkazadilar; d) alas qiladilar; ye) isiriq tutadilar va hokazo.

Doira momo-shomonlarning ekstaz holatga tushishidagi asosiy vosita sanaladi.[6] Shuning uchun xalq qo'shiqlarida ba'zan doira obrazining yonida momo obrazi ham qo'llanganligi kuzatiladi:

Doirani chaling, jon momo,
O'yinga tushsin qiz bola.[7]

Momo kultiga daxldor marosimlar asosida qadimgi ajdodlarimizning animistik tasavvur-tushunchalari, ezgu yoki yovuz ruhlar bilan bog'liq ishonchlari yotadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, momolar haqidagi qarashlar islomgacha shakllangan diniy-mifologik tushunchalar silsilasiga kiradi. Ular ta'sirida xalq orasida bir necha an'anaviy diniy-ibodat rituallari shakllangan. "Bibiseshanba" va "Bibimushkulkushod" xalqimizning momo kultiga e'tiqodini ifoda etuvchi ana shunday marosimlar sifatida alohida e'tiborni tortadi. Ular o'ziga xos folklori bilan ham qimmatlidir.

M.S.Andreev, O.A.Suxareva, Yu.V.Knorozov, G.P.Snesarev Bibi Seshanba, Bibi Mushkulkushod, Jo'mard qassob, Ambar ona, Hubbi kabilarni O'rta Osiyolik muqaddas personajlar qatoriga kiritadilar.[8] Darhaqiqat, xalqimiz orasida ularga sig'inishning alohida an'analari mavjud bo'lib, hatto bizgacha saqlanib kelayotir.

O.Murodov Bibi Seshanba hamda Bibi Mushkulkushodni kult deb ko'rsatadi va ularga ishonch O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan keng yoyilganligini alohida ta'kidlab o'tadi.[9]

Bibi Seshanba va Bibi Mushkulkushod musulmon xotin-qizlari tasavvurida kishilarning maishiy turmushdagi, kasb-koridagi mushkulini oson qiladigan avliyo xotinlar timsoli sifatida qat'iyilashgan. Ularga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimlar esa "Bibiseshanba" ("Oshibibiyon") va "Bibimushkulkushod" ("Mushkulkusho") marosimlari deb nomlanadi. Ularni o'tkazish o'ziga xos odat tusiga aylangan bo'lib, o'zbek xalqi hayotida uzoq davrlardan buyon milliy an'ana va qadriyat sifatida yashab kelmoqda.

Bibi Seshanba va Bibi Mushkulkushod obrazlari mif va afsonalarda g'orda yashaydigan oppoq ritual kiyimli nuroniy kampir ko'rinishida tasvirlanadi. Ular Olloh nomiga sig'inib, musulmon ayollarning ishlariga rivoj so'raydi.

Matriarxat (onalik hukmronligi) davrida qabilalarda keksa ayollar urug'ga boshchilik qilgan va urug'ning shomoni sifatida tan olingan. Hamma ularning maslahati va yo'l-yo'rig'iga ko'ra ish yuritgan. Xususan, qabiladagi qizlar ularning nazorati va ko'magi ostida katta hayotga yo'llanma olishgan. Shuning uchun o'sha davrlarda shakllangan marosimlarda momo kultiga sig'inish yetakchilik qiladi. Shomon murojaatlarida ham momo obraziga alohida urg'u qaratiladi. "Bibiseshanba" va "Bibimushkulkushod" marosimlari afsonasidagi homiy kuch – sehrgar kampir obrazi matriarxat davrida yashagan ona urug'boshilarning an'anaviy badiiy timsollaridan biri ekanligi anglashiladi.

Bibi yoki momolar ruhiga sig'inib o'tkaziladigan "Bibiseshanba" va "Bibimushkulkushod" marosimlarining kelib chiqish ildizlari qadimgi animistik tushunchalarga hamda magik, shomonistik qarashlarga borib taqaladi. Bundan esa ularning islomgacha shakllangan qadimiy marosimlardan biri ekanligi, faqat islom hukmronligi davrida ularning mazmuniga islomiy tushunchalar singdirilganligi va shu tarzda bu marosimlarning ma'lum o'zgarishga uchraganligi ravshanlashadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek folklorida Momo kultiga ishonchni ifoda etuvchi bir qator mifologik obrazlar mavjud bo'lib, ular qadimgi ajdodlarimizning momo homiy ruh, ona ajdod kultiga mifologik

ishonchini ifoda etadi. Momo kulti tushunchasida ayol ajdodlar ruhining homiyligi nazarda tutiladi. Ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan an'analарimiz xalqimiz ruhiga chuqur singib, hatto e'tiqod darajasiga ko'tarilganidan ularni hech bir kuch yo'qotolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сухарева О.А. Духи момо (момохо) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.18-19.
2. Фирштейн Л.А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением и воспитанием ребенка у узбеков Южного Хорезма // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978. – С. 190.
3. Қажумов О.С. Ўзбек шомон маросимлари фольклори (спецификаси, генезиси, жанрлар таркиби ва поэтикаси): Филол. фан. доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б.100.
4. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.79.
5. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадиияти: Филол. фан. док-ри...дисс. – Т., 2005.
6. Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Т.: Фан, 2010. – Б.79.
7. Наврўз: Наврўз билан боғлиқ қўшиқлар, афсоналар, одатлар ва иримлар / Тузувчилар: Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Т.: Фан, 1992. – Б.29.
8. Басилов В.Н. Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970. – С.10.
9. Муродов О. Шаманский обрядовый фольклор у таджиков средней части долины Зерафшана // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С.105.

IBRATNING NASRIY VA NAZMIY MEROSI

*Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent
Namangan davlat universiteti, (O'zbekiston)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Is'hoqxon to'ra Ibrat ijodidagi ma'naviy-axloqiy masalalarning ifodalanishi, nasriy va nazmiy merosining mavzu ko'lami xususida so'z boradi. Shuningdek, insoniy fazilatlarining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati mutafakkir ijodida alohida o'ringa egaligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: axloq, she'r, ma'naviy-axloqiy tarbiya, millat, insonparvar shoir, lirik qahramon.

Annotation: This article talks about the expression of spiritual and moral issues in Ibrat's work. It is also emphasized that the importance of spiritual and moral education in the formation of human qualities has a special place in the creativity of the thinker.

Key words: ethics, poetry, spiritual and moral education, nation, humanitarian poet, lyrical hero.

Аннотация: В данной статье говорится о выражении духовно-нравственных тем в творчестве Ibrat. Также подчеркивается, что особое место в творчестве мыслителя занимает значение духовно-нравственного воспитания в формировании человеческих качеств.

Ключевые слова: нравственность, поэзия, духовно-нравственное воспитание, нация, лирический герой.

Shoir va adib Is'hoqxon to'ra Ibratning abadiyatga dahldor nomini xalqimiz cheksiz hurmat va ehtirom bilan tilga oladi. U serqirra iste'dod sohibi bo'lishi bilan birga sermahsul ijodkor edi. Umri davomida xalq ko'ngliga yaqin ohangda qalam tebratib, o'zidan umrboqiy asarlar meros qoldirdi. Adabiyotda shunday shoir va yozuvchilarimiz borki, ular hayotining ikki umrida ham faqat ezgulik, ma'rifat va haqiqat uchun kurashadi. Is'hoqxon to'ra Ibratning hayotlik chog'ida xalq farovonligi uchun bor kuch-g'ayratini ayamay, fidoyilik bilan umrguzaronlik qilgani barcha yoshlarga ibrat maktabi bo'lsa, nazarimizda, ikkinchi bir umri o'z asarlarida yurt istiqbolini ko'rish uchun mangu yashamoqda. Uning ijodiy faoliyati, asosan, adabiy-ma'rifiy, ilmiy, diniy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ya'ni publitsistik yo'nalishda bo'lgan.

Is'hoqxon to'ra Ibratning boy adabiy merosi unga zamondosh shoir va adiblarga nisbatan mavzu ko'lami kengligi va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Ibrat o'zining 1926-yilda yaratgan "Tarixi madaniyat" asarida keyingi 20 yil ichida 14 ta adabiy, ilmiy, tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmuyi bo'lmish "Devoni Ibrat" she'rlar to'plamini jami o'n beshta asar yaratgani haqidagi ma'lumotni yozib qoldirgan. Jumladan, "... yangi asarlardan millat va maktabga foydaliklari, chunonchi,

birinchi “Tarixi Farg‘onayi umroni” nasriy, ikkinchi “Tarixi hurriyat” nazm, uchinchi “Mezon uz-zamon”, to‘rtinchi “Lug‘ati sittati alsina”, beshinchi “Jome’ ul-xutut”, oltinchi “Qo‘rboshilar zamoni”, yettinchi shul kitob “Tarixi madaniyat”, bular hammasi milliy kitoblar. Ammoki, sakkizinchi “Devoni Ibrat” nomli g‘azaliyot bahr qilgan, o‘ttiz yil ichinda jam’ bo‘lgan tarix she‘rlardurki, munda ko‘bi tarixlar va milliy qasidalar va axloqiy tanqidlar, boshimizdan o‘tgan hodisalarni jami bir g‘azaliyot kitobdurki, bu hali bosma bo‘lmagan, intishor etilmagandur. To‘qqizinchi mundin keyin “Gulshani roz”ni turkiy nazmi, o‘ninchi “Mushkulot ul-g‘aroyib” degan, o‘n birinchi “Muzabzab” degan, o‘n ikkinchi “Turkistonda turli mashaqqatlar”, o‘n uchinchi “Barzah” degan asarlarimiz inqilob davrida ta’lif bo‘ldi (yo‘qoldi). Hozirda “Tazkirayi suvaydo” degan arabiy tib kitobni turkiy qilmoqqa ishtig‘oldaman. Umr musoada qilsa, ammoki “Tarjimayi holim” tayyor bo‘lgan. Bu yaxshi tarixi sayohatnoma Afg‘oniston, Hindiston, Arabiston sayohatlaridur. O‘n beshinchi “Sayrul jibol” focho ota (Pochcha ota – O.B) sayohati va madhidurki, bir juz turkiy nazmdur”[1;1]. Is’hoqxon to‘ra Ibratdan meros qolgan quyidagi asarlar O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi va Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona fondlarida saqlanmoqda:

1) husnixat san‘ati, xattotlik sir-asrorlarini o‘rgatuvchi “San‘ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” [2;1] toshbosma asar;

2) shariat qonunlari haqida arab tilidan turkiy tilga tarjima qilingan “Fihxi Kaydoniy nazmi” [3;1] toshbosma asar;

3) “Ilmi Ibrat” [4;1] shoirning birinchi she‘rlar to‘plami. Qo‘lyozma holidagi asar;

4) “Muhradot” toshbosma asar;

5) “Manzumayi Ibrat” toshbosma asar;

6) “Majmuayi ash‘or” [5;1] qo‘lyozma holidagi asar;

7) tilshunoslikka oid “Lug‘ati sittati alsina”[6;1] toshbosma asar;

8) yozuvlar tarixiga oid “Jome’ ul xutut” [7;1] toshbosma asar;

9) “Tarixi Farg‘ona” [8;1] tarixiy, qo‘lyozma asar;

10) “Mezon uz -zamon” [9;1] ma’rifiy, qo‘lyozma asar;

11) “Tarixi madaniyat”[10;1] kabi ma’rifiy, qo‘lyozma asarlari saqlanib qolgan.

Adibning boshqa asarlari, ya’ni “Gulshani roz”ning turkiy nazmi, “Mushkulot ul-g‘aroyib”, “Muzabzab”, “Turkistonda turli mashaqqatlar”, “Barzah” nomli asarlari o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, inqilob davrida yo‘qolgan. Is’hoqxon to‘ra Ibratning “Tarixi hurriyat”, “Qo‘rboshilar zamoni”, “Devoni Ibrat”, “Tazkirayi suvaydo”, “Tarjimayi holim” va “Sayrul jibol” kabi asarlari 1937-yil qatag‘onida NKVD xodimlari tomonidan olib ketilgan. Bu kitoblarning taqdiri haligacha noma’lum. Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari Qo‘qon xonligidan to 1930-yillargacha bo‘lgan davr tarixini yoritishda asos bo‘ladi. Ibratning “Tarixi madaniyat” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, “Tarixi hurriyat” asari nazm yo‘lida 1917-yildan avval yozilgan bo‘lib, uning mazmunini adib asarda shunday keltiradi: “Mana bu vaqtlarda hurriyat olish o‘rniga Namangan boylari bir-birovi birla nizolashib, jadidi-qadim janjali avj olib, bir-birlariga boyqut e’lon qilib, muxtoriyatni ul tarafda qo‘yub, o‘zaro janjal qilib yurganlarida bular ahvollariga afsus qilib “Tarixi hurriyat” asarimizni tasnif qilgon edim. Bu asar butun ahvoli xalqqa doir masnaviy manzuma 45 sahifa erdi. Xolo tab’ bo‘lg‘oni yo‘q. Valhosilki, inqilob davrini(ng) avvalidagi hodisalar ko‘rmak bo‘lgan kishiga yaxshigina ma’lumot beradurgon asardur” [10;1]. Asarda inqilobdan oldingi voqealar qalamga olingan va asar madaniyat to‘g‘risidagi targ‘ibotlardan iborat bo‘lgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat ijodiy merosini mavzu jihatidan quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

1. Adabiy-ma’rifiy asarlar: “Ilmi Ibrat”, “Devoni Ibrat”, “Tazkirayi Suvaydo”, “Sayr ul-jibol”, “Manzumayi Ibrat”, “Muhradot”, “Majmuayi ash‘or”, “Gulshani roz”, “Mushkulot ul-g‘aroyib”, “Muzabzab”, “Barzah”.

2. Ilmiy asarlar: “Lug‘ati sittati alsina”, “San‘ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy”, “Jome’ ul-xutut”.

3. Diniy-ma’rifiy asar: “Fihxi Kaydoniy nazmi”.

4. Tarixiy asarlar: “Tarixi Farg‘ona”, “Turkistonda turli mashaqqatlar”, “Tarixi hurriyat”, “Qo‘rboshilar zamoni”.

5. Ijtimoiy-ma’rifiy asarlar: “Mezon uz-zamon”, “Tarixi madaniyat” hamda Ibratning XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalarini aks ettiruvchi matbuotda e’lon qilgan, ijtimoiy-siyosiy mazmundagi maqolalari.

Ibratning lirik merosini jamlashda uning XX asr boshlaridagi “Turkiston viloyatining gazet”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Najot” ro‘znomalari, “Al-isloh” jurnalida chop etilgan she‘rlari, O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Turli marsiya, iborat va fikriyot masalalari” jamlangan qo‘lyozmalar to‘plami, shuningdek, Ulug‘bek Dolimovning 1994-yil “Sharq” nashriyotida chop etgan “Исҳоқхон Ибрат” risolasi va 1999-yilda istiqlol qahramonlari rukni ostida “Ma’naviyat” nashriyotida chop etilgan “Ибрат. Ажзий. Сўфизода” nomli kitobi hamda 2005-yil Nurboy Jabborov hamkorligida “Ma’naviyat” nashriyotida

chop etilgan Ibratning “Танланган асарлар” kitobidagi she’rlari asos bo’ldi. Is’hoqxon to’ra Ibratning ijodiy merosi bugun va ertangi kun uchun ham birdek ahamiyatli bo’lib, xalqona ohangi va go’zal uslubi bilan adabiyot ixlosmandlarini ijodiy hamkorlikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Tarixi madaniyat. 1926-yil. O’zR FA SHI, qo’lyozma, inv. – № 11616. – B.139.
2. Is’hoqxon to’ra Ibrat. San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy. – To’raqo’rg’on: Matbaayi Is’hoqiya, 1908-yil. – 22 b (Ushbu kitobning bir toshbosma nusxasi hozirgi kunda namanganlik matnshunos Ahmad Ubaydulloh xonadonida saqlanadi).
3. Ibrat I. Fiqhi Kaydoniy nazmi. – Orenburg: Husainov, 1908-y. O’zR FA SHI 1/69–IV; O’zR FA SHI, qo’lyozma, inv. – № 20099; Inv. – № 12690; Inv. – № 16315 (Ushbu kitobning bir toshbosma nusxasi hozirgi kunda namanganlik matnshunos Ahmad Ubaydulloh xonadonida saqlanadi).
4. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Ilmi Ibrat. –To’raqo’rg’on: Matbaayi Is’hoqiya, 1909-yil. O’zR FA SHI. T., inv. – № 9987.
5. Ibrat I. Majmuayi ash’or. O’zR FA SHI. Q., inv. – № 7652.
6. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Lug’ati sittati alsina. –Toshkent: Ilin tipografiyasi, 1901-yil.
7. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Jome’ ul-xutut. – Namangan: Matbaayi Is’hoqiya, 1912-yil. O’zR FA SHI. Q., inv. – № 621.
8. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Tarixi Farg’ona, 1916 yil, O’zR FA SHI. Q., inv. – №11616; №10117; №11080.
9. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Mezon uz-zamon. 1917-1925-yil, O’zR FA SHI. Q., inv. – № 11618.
10. Is’hoqxon to’ra Ibrat. Tarixi madaniyat. 1926-yil, O’zR FA SHI. Q., inv. – № 11616.

IBRATNING QOZILIK FAOLIYATI XUSUSIDA

*Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD, dotsent
Namangan davlat universiteti
(O’zbekiston)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Is’hoqxon to’ra Ibratning qozilik faoliyati, ijodidagi ma’naviy-axloqiy masalalarning ifodalanishi xususida so’z boradi. Shuningdek, insoniy fazilatlarining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati mutafakkir ijodida alohida o’ringa egaligi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: axloq, she’r, ma’naviy-axloqiy tarbiya, millat, insonparvar shoir, lirik qahramon.

Annotation: This article talks about the expression of spiritual and moral issues in Ibrat’s work. It is also emphasized that the importance of spiritual and moral education in the formation of human qualities has a special place in the creativity of the thinker.

Key words: ethics, poetry, spiritual and moral education, nation, humanitarian poet, lyrical hero.

Аннотация: В данной статье говорится о выражении духовно-нравственных тем в творчестве Ibrat. Также подчеркивается, что особое место в творчестве мыслителя занимает значение духовно-нравственного воспитания в формировании человеческих качеств.

Ключевые слова: нравственность, поэзия, духовно-нравственное воспитание, нация, лирический герой.

Is’hoqxon to’ra Ibrat ilg’or fikrli, har bir madaniy yangilikni o’z xalqiga in’om etishga qodir, mamlakat taraqqiyoti uchun bor kuch-g’ayratini ayamaydigan fidoyi inson edi. Undagi bor ilm, madaniyat va shijoat zamondoshlaridan bir qadam ilgari yurishiga sabab bo’lgan. Diniy va dunyoviy ilmni chuqur egallagan olim har qanday og’ir sharoitda ham o’zining insonparvarlik xislatini yo’qotmadi. Bu esa uning ko’p yil qozilik faoliyatini davom ettirib, xalq manfaati yo’lida xizmat qilishiga imkon berdi. Ibrat haj safaridan qaytgach, Xonobodda, so’ngra To’raqo’rg’onda qozilik lavozimida ishlagan. Uning qozilik faoliyatini yoritishda O’zR FA SHI qo’lyozmalar fondida saqlanayotgan “Turli marsiya, iborat va fikriyot masalalari” jamlangan papkaning qozilik davridagi 12 sahifadan iborat ish yuritish daftari, 1910-yilda chop etilgan “Turkiston viloyatining gazet”idagi Ibratning “Namanganda qozilar saylovi” maqolasi, “O’lursan” radifli hamda “Qoziyi qotil” g’azali, Ulug’bek Dolimov, Alixon Xalilbekov va Komila Vohidovalarning ilmiy ishlaridan ma’lumot olish mumkin” [2; 1]. Bu manbalar Is’hoqxon to’ra Ibrat 1901-1917-yillarda uzluksiz To’raqo’rg’on qozisi lavozimida faoliyat olib borganini anglatadi. Binobarin, uni dastlab qozi deb e’tirof etilishi 1901-yil “Turkiston viloyatining gazet”idagi bir axborotda uchraydi. Ibratning “Lug’ati sittati

alsina” asari haqida yozilgan ushbu axborotda “Namangan uyezdiga tobe’ To’raqo’rg’on qozisi Is’hoqxon to’ra”, “ul janobi qozining ixtiro qilgan kitoblari”, “ul janobi qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagon lug‘at kitoblari” kabi jumlar tilga olingan[5; 1]. Undan oldin esa Is’hoqxon to’raning 1900-yil N.P.Ostroumovga yozgan murojaat maktubida qozi so’zi ishlatilmagan. Maktubda Ibrat o’zini “Is’hoqxon to’ra” [6; 1] deb tanishtirgan. Manbalarning guvohlik berishicha, Ibrat 1916-yilda yozgan “Tarixi Farg’ona” [2; 1] asarida oxirgi marotaba qozi sifatida tilga olingan. Keyingi u haqdagi manbalarda esa Ibrat “Is’hoqxon to’ra To’raqo’rg’oni” [8; 1] tarzida berilgan. Ibratning “Turli marsiya, iborat va fikriyot masalalari” jamlangan papkasi 95-107-sahifasida qozilik vaqtida amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot bor. Papkadagi Ibrat faoliyatiga oid varaqalar o’g’li Rotipxon Is’hoqov (Rotipxon Is’hoqov – Ibratning o’g’li. 1995-yil 21-martda vafot etgan) tomonidan to’plab, tartibga solingan va 1963-yil 3-iyulda O’zR FA SHI qo’lyozmalar fondiga topshirilgan. Manbada Ibrat tomonidan maishiy turmushda uchraydigan salbiy oqibatlar, jumladan, o’g’irlik, oilaviy majorolar, qo’ydi-chiqdi, kishilar orasidagi kelishmovchiliklar shariat qonuni asosida hal qilingan. Unda Ibrat tomonidan “Janobi Ibratni nikoh vajidan javobi” (95 – B), “Da’voyi haqorat” (98 – B), “Da’voyi haqorati xotun” (99 – B), “Da’voyi raiyat” (99–B), “Va’siyi Nasabnoma” (100 – B), “Xatti taloq” (96 – B) kabi muammolar ko’rib chiqilgan. Bu muammolarni hal etishda Ibrat “Fiqhi Kaydoniy nazmi” asaridan unumli foydalangan. Asar Kaydoniyning Qur’on va hadislarga asoslanib tuzgan shariat qonunlari haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Ibrat fiqhshunos olim Lutfulloh Nasafiy Fozil Kaydoniy (vaf. 749/ 1349)ning “Fiqhi Kaydoniy” asarini arab tilidan o’zbek tiliga she’riy yo’l bilan tarjima qilgan. Asar arabcha matni bilan birga 1908-yil Qozon shahridagi “Husayinov” bosmaxonasida chop etiladi. Ushbu asar 2012-yilda kirill yozuvida nashrga tayyorlanib, kitobxonlarga taqdim etilgan[10;1].

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin ham qozilik sudi saqlanib qoldi. Ushbu jarayonga adabiyotlarda: “Bu bilan mustamlakachilar o’zlarini yerli xalqqa nisbatan odil, ularning “pushti panohi” qilib ko’rsatmoqchi bo’ldilar[11; 171].”, – deya munosabat bildiriladi. Sud ishlari shariat qoidalarini asosida olib borilsa-da, ammo davlat ahamiyatiga molik ishlarni qozilik sudida ko’rish man etilgan edi.

Is’hoqxon to’ra Ibrat 20-yilga yaqin qozilik lavozimida ishlagan bo’lsa-da, xalq manfaatini ko’zlab ish olib bordi. Boshqa qozilardan farqli o’laroq xalqni talash, poraxo’rlik va o’z mansabini suiiste’mol qilish yo’lidan bormadi. Bu haqda shogirdlaridan biri mulla Iskandar domla Abduvohob o’g’li shunday hikoya qiladi: “Is’hoqxon to’ra eng odil, eng faqirparvar qozi edi. U boyni ham, kambag’alni ham bir xilda tinglar va hukm chiqarar edi. Men o’n yil to’ramning xizmatida bo’lib, biror marta pora olganini, boylarga yon bosganini bilmayman, aksincha, kambag’al, beva-bechoralarning mushkulini yengillashtirishga harakat qilardi. U faqat xalq manfaati uchungina qozilik mansabida ishlagan. Uning uyida, qozixonasida rus huquqshunosligiga oid kitoblar ham bo’lib, ruscha sud qonun-qoidalaridan xabardor edi” [1; 70].

Is’hoqxon to’ra Ibrat merosini o’rganish jarayonida uning avlodlari bilan olib borilgan uchrashuvlar va suhbatlar natijasida shu narsa aniq bo’ldiki, Ibratning qozilik davrida foydalangan ikki xil muhr hozirda To’raqo’rg’on markazidagi G’oyibnazar qozi madrasasida tashkil qilingan “Is’hoqxon to’ra Ibrat” muzeyiga topshirilgan. Bu muhrlarni Ibratning evarasi Islomxon Sulaymonov muzeyga hadya etgan.

XX asr boshlarida Ibrat kabi adolatli, xalq uchun mehnat qiladigan qozilar juda kam edi. Shoir qalami o’tkir tanqidchi sifatida “O’lursan” radifli g’azalida xalq qozisining o’ziga xos mas’uliyati borligini ta’kidlab, lavozimidan faqat o’z manfaati yo’lida foydalanuvchilarga qarata shunday nasihat qiladi:

*Bo’lma amalga muxtor ozurda jon o’lursan,
Badfikir fitnasidin dil to’la qon o’lursan*

*Vallot yoki qozi kori erur mashaqqat,
Ashrorlar so’zidan dardi nihon o’lursan.*

*Adling bo’lursa aqvi, izhor aylamas hech,
Gar zarra zulm qilsang, xalqg’a ayon o’lursan.*

*Gar ushlang shariat, pos ushlamoq mashaqqat,
Bir qo’l nizomi davlat toki omon o’lursan.*

*Ko’b bo’ldi advokatlar yo omidin vakillar,
Xufiyadin bo’lakni bilmas, fig’on o’lursan [1; 131].*

Is'hoqxon to'ra Ibrat mavjud tuzum siyosatiga befarq emasligi bois qozilikka noloyiq kimsalar haqida nafaqat she'rilarida, balki publitsistik maqolalarida ham o'z qarashlarini bayon etgan. Maqolalarida mahalliy mansabdorlarni – qozilar, mingboshilar, ellikboshilarni ayovsiz tanqid qilgan. Matbuot orqali mustamlaka tuzum illatlarini yoritib, xalqni o'z huquqini himoya qilishga chaqirgan. O'sha davrdagi siyosiy vaziyatni Komila Vohidova quyidagicha sharhlaydi: “Ma'lumki, mahalliy xalq sudining xalq oldidagi obro'si oshib borayotganligi kabi holatlar rus imperatori Nikolay II ni tashvishga solgan. 1910-yilda o'lkada mahalliy qozilik mansabiga hukumat tomonidan yangidan saylovlar o'tkazish uchun Nizom ishlab chiqilgan. Mustamlakachilar tomonidan ma'muriy qozilik mansabiga mahalliy xalqning odil, adolatpesha, imoni but vakillari saylanmasligi, mabodo saylanib qolganda ham ularni tasdiqlamaslik hollari yuz bergan. “Nizom” millatning ziyoli qatlamlari talablariga javob bera olmagan va ular tomonidan qattiq tanqid ostiga olingan” [4;46].

Is'hoqxon to'ra Ibrat ham bu mavzuda yozgan maqolalarida mahalliy mansablarga saylov o'tkazish tartibi, saylovda yuqori tabaqadagilar noqonuniy yo'llar bilan mansablarni egallab olishini tanqid qiladi. Uning “По поводу выборов должностных туземцев в Намангане” [12;1]. nomli maqolasida tuzumning illatlari; saylov o'tkazish jarayonidagi nayranglar: soxtakorlik, poraxo'rlik, shuningdek, mas'uliyatli lavozimlarga nopok va badaxloq kishilarning saylangani; har yerda bo'lgan saylovlar xususidagi betartibliklar va befikrliklar millatga oshno kishilarni nihoyatda g'ussaga solgani; chor hukumatining qozi, ellikboshi, mingboshi saylovlari qonun-qoidalarini nomuvofiqligi, ya'ni ular xalqni talash, poraxo'rlik va zo'ravonlik qilishlari; xalqning “положение”lardan norozi ekani; xalqning taqdiri laganbardor, qabih, johil, nafsining quli bo'lgan odamlarga topshirib qo'yilganligini jiddiy tanqid qilgan: “Polojeniyaning 223-bobida zikr qilingandurki, e'tibori bor, yetti kundan ziyoda hibs bo'lmagan, o'ttuz so'mdan ziyoda ishtraf to'lamagan, yoshi yigirma beshdan past emas odam (qozi) bo'lar ekan. Olim yo' o'mi, ahmoq yo' dono kishi, yo' shariat biladurgan va yoki nizom biladurgan demagan... savodi bo'lmasa ham, milliy sharorati bo'lsa ham, milliy polojeniyada ilmi kifoya qiladurg'on ham deb yozilmagandur... Ko'rasiz, kimlarni(ng) qo'llariga bu katta shariat hukmini topshiradurlar. Fikr-andisha qiladurgan kishi yo'q. Andisha qiladurgan odamni odam ham hisob qilmaydilar... Polojeniya bobig'a muvofiq ellikboshi degan kimgaki shar ko'b tushsa ani yozar ekan. Na qilsunlar, bu xil qilsalar polojeniyaga muvofiq. Polojeniyada shariat biladurgan mulladan degan emas ekan... Ularga kim va nima bo'lishi ham darkor emas ekan” [12;1].

Chor hukumati qonun-qoidalariga nisbatan aytilgan bu tanqid “Turkiston viloyatining gazetii” xodimlariga qattiq ta'sir qiladi. Gazeta idorasi maqolaga e'tiroz bildirib, quyidagi javobni ilova qilgan: “Polojeniyada xalq orasida obro' va e'tibori bor odam bo'lsun, degan, albatta. Mingboshilikka mingboshi bo'lmoqlikka munosib obro'si bo'lib va qozilikka qozi bo'lmoqqa layoqat va munosiblik obro' bo'lmoq lozimdir. Polojeniyaning mulohaza qilmoq kerak. (Idora)” [13;1].

Maqolada aks etgan fikrlarni o'qib, qozilik mas'uliyatini tushunib yetgan, huquqshunos, fiqhshunos olim Is'hoqxon to'ra Ibratning xalqparvar inson bo'lganligini yana bir bor his qilish mumkin. Chunki u qozilik faoliyati davomida fidoyilik bilan xalq manfaatini himoya qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Sharq, 1994. – B.69-70.
2. Turli marsiya, iborat va fikriyot masalalari. – B.95-107. O'zR FA SHI, qo'lyozma. inv. № 11620; Ibrat I. По поводу выборов должностных туземцев в Намангане / Туркистон вилоятининг газети. № 54. – 1910 йил, 21 март.
3. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Рухафзо, 1998. – B.149.
4. Воҳидова К. Исҳоқхон Жунайдуллохўжа ўғли Ибрат ва унинг тарихий-илмий мероси: Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – B.45-48.
5. Turkiston viloyatining gazetii. 1901. № 30. 4 avgust.
6. O'zRMDA. F-1009. 115 ro'yxat. – B.15-16.
7. Ibrat I. Tarixi Farg'ona. – 1916 yil. O'zR FA SHI, qo'lyozma, inv. № 11616. – B.1.
8. Ibrat I. Tarixi madaniyat. – 1926 yil. O'zR FA SHI, qo'lyozma, inv. № 10117. – B.106.
9. Ibrat I. Fiqhi Kaydoniy nazmi. – Qozon: Husainov, 1908., O'zR FA SHI, qo'lyozma, inv. № 20099; inv. № 12690; inv. № 16315; 1/69–IV.
10. Ибрат И. Фикҳи Кайдоний назми / Нашрга тайёрловчи: Насруллаев Н. – Тошкент: Мовароуннахр, 2012. – 96 б.
11. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – B.171.
12. Ибрат И. По поводу выборов должностных туземцев в Намангане / Туркистон вилоятининг газети. № 54. 1910 йил 21 март.

ADABIYOT DARSLARIDA RUHIYAT MASALALARIGA YANGICHA YONDASHUV

Isayeva Sh.B. f.f.n., dots.

ANNOTATSIYA. Mazkur maqola o'zbek adabiyoti fanida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuvi masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Adabiyot, ruhiyat, yondashuv, badiiy asar, yuqori samara, uslub, mahorat, ijodkor, badiiy-estetik hodisa, badiiy asar, badiiy unsurlar, takomillashuv, janrlar, badiiy tasvir vositalari.

Maqolaning kirish qismida mavzuning nazariy masalalari yoritilgan. Unda ruhiyat masalalarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mavzuga doir nazariy, ilmiy qarashlar o'z aksini topgan. Maqolada mavzuni o'qitishning pedagogik asoslari, ya'ni mavzu bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tishda ruhiyat masalalari tahlili yuzasidan topshiriqlar, amaliy mashg'ulotning metodik ta'minoti haqida mulohazalar berilgan.

Maqolada adabiyot fanida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv badiiy asarni o'rganishda talaba uchun yuqori samara berishi asoslab berilgan. U orqali talabalarning bilimi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish mumkinligi aniqlangan.

ANNOTATION

This thesis is devoted to the issues of a new approach to psychological issues in the science of Uzbek literature.

The first chapter of the work describes the theoretical issues of the topic. The chapter reflects the unique characteristics of psychological issues, as well as theoretical and scientific views on the subject. In the second chapter, the pedagogical foundations of teaching the subject, i.e., tasks related to the analysis of psychological issues during practical training on the subject, methodological support of practical training are given.

In the work of the graduation project, it is justified that a new approach to the issues of psychology in the science of literature is highly effective for the student in studying the work of art. Through it, it was determined that students' knowledge and creativity can be developed

Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili badiiylilikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u asarga jon ato etadi. Ruhiyat tahlili muallifning uslubini, tasvirda o'ziga xosligini va badiiy mahoratini belgilaydi. Adabiyotning kamoloti, uning buyukligi, eng avvalo, ruhiyat tahlilidek badiiy-estetik hodisaning qay darajada kashf etilganligi bilan, inson ruhi, inson qalbi dialektikasining qay darajada ochilganligi bilan belgilanadi.

O'zining mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan ekanligi barchamizga ma'lum.

Maqolaning maqsadi – o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv tahlilidan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish.

Maqola orqali biz quyidagi vazifalar, muammolarga yechim topishga harakat qildik:

- o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuvlar tahlilidan foydalanish kabi masalalarni tadqiq qilish;
- o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv tahlilning ahamiyati va imkoniyatlarini o'rganish;
- o'zbek adabiyoti darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv tahlilidan metodik ta'minot yaratish (sillabus, texnologik xarita, amaliy mashg'ulot materiallari);
- Akademik Izzat Sulton adabiyotda inson tasviri masalasida shunday deydi: "Odam adabiyotning tasvir predmetidir. Odam tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q, shu bilan birga "odam tasviri" demak - boricha odamning ichki dunyosi, uning kechinmalari tasviri demakdir". Ushbu nazariy ma'lumotlarning badiiy asardagi amaliy ifodasini biz Pirimqul Qodirovning "Xumoyun va Akbar" romanida ko'ramiz. Yozuvchi romanda ruhiy tahlil san'atidan o'ziga xos tarzda mahorat bilan foydalangan. U asar qahramonlarining ichki olamini turli pojetik vositalar orqali ochib berar ekan, ushbu badiiy tasvirlar asar g'oyasini ochishga, undagi badiiy mantiqni rivojlantirishga, asarning ta'sirchanligini oshirishga yo'naltiriladi. Bu borada yozuvchi ruhiy tahlilning poetik vositasi sifatida tush epizodidan ustalik bilan foydalanadi. Ushbu asar misolida psixologik portret va ichki monolog Pirimqul Qodirov talqinida bir

paytning o'zida bir nechta poetik vazifani bajarishi bilan badiiy mukammallik kasb etadi. Taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafutdinov uqtirib o'tganidek: "Adabiyot o'quvchini tarbiyalash uchun uning ongi, fikrigagina emas, qalbiga, zavqiga, tuyg'ulariga ham ta'sir etishi kerak. Shunday asarlarga chinakam san'at namunasi deb atalish huquqiga ega" {1}.

Adabiyot darslarini tashkil etishda talabani ezgu ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun ta'limning bir necha tamoyillari yetakchilik qiladi. An'anaviy ta'limda darslarning hayot bilan aloqadorligini ta'minlash o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. O'quvchining ma'naviy kamolotiga qaratilgan darslarda hayotiy hodisalar asosida fanning tushuncha va qonuniyatlarini ularning o'zlari o'zlashtiradilar, nazariyadan yana hayotga qaytadilar. O'qituvchi yo'naltiruvchi savol-topshiriqlari va vazifalari bilan bu jarayonga rahbarlik qiladi. O'quvchilar o'zlari topgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarga hurmat bilan qaraydilar. Nazariy tushunchalar mavjud borliqni anglash yo'li bilan tiniqlashadi va chuqurlashadi. O'quvchilar adabiy qahramonlar shaxsi va asarda ifodalangan narsa-hodisalarni tahlil qilish bilan o'zlari hayotda duch kelishlari mumkin bo'lgan har xil hodisalarning asosini topishga o'rganadilar.

Ta'limning hayot bilan to'laqonli aloqasi o'qitishning tashkiliy jihatlari va metodlari o'rtasida uzviylikni talab qiladi. Ta'lim tizimi amaliyotiga har xil sun'iy metod va usullarni olib kiravermay, ularning hayot, mavjud tabiiy qonuniyatlar bilan bog'liq bo'lishiga erishish kerak. O'quvchi darsda o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llasin yoki hayotda ko'rganlari asosida darsda o'z kuchi bilan ilmiy xulosa chiqarsin. Shundagina berilgan bilimlar o'quvchining xotirasigagina emas, tafakkur va ruhiyatiga o'rnatilib, uning ko'ngil mulkiga aylanadi. Maktabda bir narsani eshitib, hayotda boshqa narsani ko'rgan o'quvchida darslarda singdirilgan haqiqatlarga ishonch yo'qoladi. Eng to'g'ri yo'l – hayotiy haqiqatlar asosida tarbiyalash.

Bu o'quv fanlari oldida milliy pedagogikaning bosh maqsadi bo'lmish o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirib turmog'i lozim. Adabiyot darslarida badiiy so'z yordamida o'quvchini so'zdan ta'sirlanish, uni tuyish va undan bahra olishga o'rgatish orqali inson shaxsiyatida go'zal sifatlar, ijobiy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. Go'zal xulqli, sog'lom ma'naviyatli kishilarning so'zlari ham, ishlari ham o'zlariga munosib ekani, toza ko'ngil sohibi hamisha rag'bat va marhamatlarga munosibliyi adabiyot orqali anglashiladi. Bu ishlar bevosita badiiy asarlarni o'rganish, matnlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi;

O'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida badiiy asar tahlili jarayonida ular matnda aks etgan voqea-hodisalar, qahramon shaxsi, xatti-harakati, iztiroblari, xursandchiligi borasidagi muhokamalarda fikr aytishga, biror qarash yoki faoliyatni yoqlash yoxud qoralashga undaydi. Bu ish asar matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar ko'magida, muammoli vaziyatlar yordamida amalga oshiriladi. Savollarga javob berish asnosida o'quvchi asar matniga murojaat qiladi, izlanadi, o'rtoqlarini eshitadi, o'z qarashlarini aytadi, uni boshqalarniki bilan solishtiradi, nazorat qiladi, xulosalar chiqaradi. Mana shunday faoliyat jarayonida o'quvchi o'z ma'naviyatini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash yo'lida mehnat qiladi.

Adabiyot odoblar xazinasidir va bu xazinaga o'quvchining o'z ixtiyori bilan kirishini ta'minlash orqali adabiyot darslarida asarlar ustida ishlash, munosabat bildirish mobaynida o'z-o'zini tarbiyalashini amalga oshirish mumkin bo'ladi;

Badiiy asarga uning muallifi tomonidan singdirilgan, darslik yaratuvchilar tomonidan ilg'angan badiiy va hayotiy haqiqatlarni o'quvchi o'zi uchun o'zi kashf etishi kerak. O'quvchiga asar qahramonlariga xos ma'naviy sifatlarni matn yuzasidan tuzilgan savol-topshiriqlar ko'magida kashf etish imkonini yaratilishi lozim. Kashf etish hamisha lazzatli, o'quvchilarga ham ana shu lazzatni tuyish imkonini berish kerak. Kashf etish lazzati o'quvchini asar mohiyatiga chuqurroq kirishga, yangi-yangi topilmalar qilishga undaydi. Odam o'ziga huzur bergan ishni yana va yana qilgisi, uni chuqurlashtirib, o'sha huzurni qayta tuygisi keladi. Adabiyot darslarining insonga xos bo'lgan mana shunday tabiiy sifatlar bilan hamohang kechishi o'quvchi shaxsiyatida sog'lom ma'naviyat kishisini tarbiyalaydi; Adabiyot darslarida o'qituvchi hokim emas, balki hamkor bo'lishi kerak. Bilimlarni o'zlashtirish va tarbiyalanish o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida o'quvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. O'qituvchining darsdagi asosiy vazifalari asarni ifodali, ta'sirli o'qib berish va asar matni yuzasidan darslikda berilgan vazifalarni so'rash....

Ma'lumki, har bir asar – bir insonning ijodi mahsuli. Hatto, u xalq og'zaki ijodi namunasini ham kimdir, qachondir yaratgan. O'sha asar botiniga inson o'z dardini to'kadi, unga orzu-istaklari, hayotining iztirobli yoki quvonchli lahzalarini joylaydi. Asar yaratuvchisi ruhiyatini his etish, uning shodlik va iztiroblarini tuyish ma'naviyatni poklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlashda asar qahramonlari kechinmalari va shaxsini baholash o'quvchiga insonni o'rganish, tanish

orqali o'zligini shakllantirish imkonini beradi. O'quvchini o'z shodligi, qayg'u va izzatlariga sherik qila olgan, uni loqaydlikdan chiqarib hamdardligiga sabab bo'lgan adibni tushunish, yozganlarini o'rganish orqali uning shaxsini bilish bugungi adabiy ta'limning muhim jihatlariandir. Asar qahramonlarini baholash o'quvchilarda qilgan amallariga qarab atrofidagi odamlarga baho berish qobiliyatini shakllantiradi;

Ta'limdagi muhim yo'nalishlardan biri unga **kreativ yondashuv**dir. O'qitish kechimiga kreativ yondashuv dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib falsafa, san'at, aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni o'qitishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ta'limdagi kreativ yondashuvning asosi bo'lgan individning kreativ fikrlashi shunchaki tasodifiy g'oyalar berish tutumidan balandroq tushuncha. U insonga murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijalarga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Kreativ fikrlash ta'lim amaliyotida mustaqil va mantiqli fikrlash ko'nikmalari safida turadi. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda, xususan, ta'lim tizimida innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda va bu, o'z navbatida, mazkur sohani innovatsion va kreativ yo'nalishga solishni yanada kuchaytirmoqda.

"Kreativ" va "kreativlik" tushunchalari (*lotin va ingliz tillaridan o'girilganda "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi*) – individning yangi g'oyalarni yaratishga qodirligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilik tarkibiga kiruvchi **ijodkorlik qobiliyati**, deb baholanadi.

Avvalo, ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan pedagogning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lishi lozim. Bu uning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishiga zamin yaratadi. O'qitishning didaktik ta'minotini kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi.

O'qituvchining ta'lim jarayonidagi kreativ (ijodkor)ligi:

- o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni orttiruvchi kreativ savol va topshiriqlar tuzish;
- turli rasm, tasvir, jadval, diagramma, multimedia materiallari, elektron adabiyotlar, internet materiallari, elektron lug'atlar, kichik guruhlarda ishlash, mavzular asosida o'quv muammolari yarata bilish va o'quvchilarni ularga qiziqtirgan holda yechim sari yo'naltira bilish;
- o'quvchilarga xos bo'lgan ijodiy, mustaqil va mantiqli fikrlash qobiliyatlari va mustaqil faoliyatini farqlay olish;
- tarbiyalanuvchilarning bu kabi ko'nikmalari darajasini farqlash va munosib baholashga qodirlik kabi ish turlarida o'z aksini topadi.

Muallim tomonidan tarbiyalanuvchilarining mustaqil, mantiqli va ijodiy (kreativ) fikrlashlariga erishilishi, ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatga undash va bunday faoliyatni rag'batlantira bilishi sinfdagi boshqalarni ham shunday ijodiy faoliyatga undashga asos bo'ladi.

Ta'limga kreativ (ijodiy) yondashuv o'quvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirish asosi sifatida butun jamiyatga sezilarli innovatsiyalarning asosi hisoblanadi. Ayni zamonda, u universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir. Ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada kreativ, mustaqil va mantiqli fikrlash qobiliyatiga ega. Ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayoni bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni metakognitiv (fikrlash haqida o'ylash, bilim haqida bilish, ongni anglash qobiliyati) qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zlikni anglash hamda muammoni hal etish ko'nikmalari shakllanishiga asos bo'ladi. Bundan tashqari, ta'limga kreativ yondashuv shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi, kelajakdagi kasbiy va hayotiy muvaffaqiyatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limga kreativ yondashuv asosida individni uning kreativ fikrlashini baholashga yo'naltirilgan xalqaro tadqiqot dasturi talablari darajasida rivojlantirishga, ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Bugun PIRLS va PISA tadqiqotlari o'quvchining kreativ fikrlashi va faoliyati yo'nalishini baholashda mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositalarini ham taqdim etmoqda. Dunyo miqyosida rivojlangan davlatlarga bu borada erishilgan natijalar milliy ta'limdagi tarbiyalanuvchilarda bu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasida bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ta'limga kreativ yondashuvning asosiy vazifasi o'quvchiga jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi, bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularni rivojlantirishdan iboratdir. Bu yondashuvning asosi bo'lmish kreativ fikrlash va kreativ faoliyat bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularning doimiy tarzda

va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr ko'nikmalari"ga ega individlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi.

Ta'limga kreativ yondashuv jarayonining asosi bo'lgan ijodiy fikrlash va faol dunyo miqyosida «yangi g'oya va yechimlarni berish» kechimi deb baholanadi. Ta'limga kreativ yondashuv:

- 1) bilimlarni ta'riflash, vaziyatni kuzatish va sezish, o'zgaga hamdard bo'lish;
- 2) g'oyalar qidirish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va tadqiq qilish;
- 3) bilimlar aloqadorligini kashf etish, sohalararo o'z nuqtai nazarini taqdim etish;
- 4) noodatiy yoki kuchli g'oyalar bilan «o'ynash»;
- 5) yangi mahsulotni tasavvur qilish, ifodalash, ishlab chiqish, yaratish;
- 6) yechimning yangiligini tan olish va yangi yechimlar topish singari faoliyat turlarini nazarda tutadi.

Maktabda kreativ fikrlash va faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun ijodkor iste'dodlarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'limning kreativ yo'nalishida o'quvchilarning kreativ faoliyati ularning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlanadi. O'quvchining xayolparastligi va qiziquvchanligi kreativ ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuv vositasiga aylanadi. Maktabda o'quvchining motivatsiya (ichki ehtiyoji)si va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu o'qishga unchalik qiziqmaydigan o'quvchilarga ham yordam berishi mumkin va ularning o'z fikrini aytish, salohiyatini ochishga xizmat qilishi mumkin.

Ta'limga kreativ yondashilganda boshqa bir qator ko'nikmalar singari kreativ fikrlash va faoliyat ham ma'lum maqsadga yo'naltirilgan amaliy yondashuv orqali rivojlantiriladi. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa o'quv fanlar evaziga bo'layotgandek tuyulishi mumkin. Aslida, o'quvchilar barcha darslarda ijodiy fikrlash va faoliyatga moyil bo'ladilar.

Kreativ (ijodiy) fikrlash va faoliyat bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash, takrorlash o'rniga tadqiqotchilik va yaratuvchanlikni qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantiriladi. O'qituvchilar ijodiy faoliyatni ajrata olishlari, bunday tutumlarga mos shart-sharoitlarni yarata bilishlari va o'zlari ham o'quvchilari kabi ijodkorlikka moyil bo'lishlari, har qanday ishga ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. O'qituvchi ta'lim jarayonidagi ijodkorlik (kreativ fikrlash, kreativ faoliyat) qay tariqa vujudga kelishi borasida aniq tasavvurga ega bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar tug'ilishi uchun muayyan vaqt va sharoit talab etilishini anglashi, amalda bunga erisha olishi zarur.

Ta'limga kreativ yondashuv o'quvchilarni har qanday sohada original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib keladigan g'oyalarni yaratish, baholash hamda ularni amalda qo'llashda samarali ishtirok etish qobiliyatini egallashga yo'naltiradi.

Rivojlangan davlatlar ta'lim yo'nalishlarida yetakchilik qiluvchi yana bir yondashuv **kognitiv yondashuv** deb nomlanadi. "Kognitiv" tushunasining asosi lotincha "sognitio" so'zidan olingan bo'lib *bilish, tushunish* ma'nolarini ifodalaydi. Inglizcha "kognitiv" so'zi esa "o'rganilgan", ya'ni shaxsning bilimlarni o'zi mehnat qilib, o'zini ham aqlan, ham ruhan zo'riqtirib o'zlashtirish ko'nikma va malakalarini shakllantirishini anglatadi. Bugun milliy tarbiyashunoslik amaliyotida o'zbek tilida ming yillardan beri qo'llanib kelinayotgan tutumlarni inglizcha atama shakli (kreativ, kognitiv)da milliy ta'lim amaliyotiga go'yo yangidan olib kirish avj oldi. Bu ham mutasaddi tashkilotlar xodimlarining sohadan yiroqligi, ta'lim amaliyoti, milliy metodika ilmidan bexabarliklariga dalildir. Bu atamalar hamon "yangilik" deb qabul qilindimi (o'ng quloqni chap qo'l bilan qashish kabi), ularning talqini haqida gapirish kerak bo'ladi[1.].

Mazkur atama bilan bog'liq kognitiv grammatika, kognitiv lingvistika, kognitiv psixologiya, kognitiv ta'lim, kognitiv yo'nalish kabi bir qator so'z birikmalari mavjud. "Kognitiv" atamasi ob'ektiv voqelik (dunyo)ni bilish, inson tomonidan uni idrok etish, xotiraga muhrlash, axborotni tushuntirish, qayta ishlash kabi jarayonlar bilan bog'liq holda tushuniladi. O'quvchi faqat tinglash orqaligina emas, balki mustaqil o'qib-o'rganish natijasida o'zi uchun zarur bilimlarni izlab topadi, maksimal darajada o'zlashtiradi va bu ta'limga kognitiv (bilish, o'zlashtirishga qaratilgan) yondauv hisoblanadi. Bevosita

mutaxassislarning tili bilan aytganda, “kognitiv yondashuv”ni nutqiy faoliyatdagi bilish jarayoni tarzida tushunish mumkin²⁰. Kognitiv jarayon bilimlarni egallash bilan yakunlanadi.

Bugungi ta’lim jarayoni o’qitish kechimiga “kognitiv yondashish” deganda, o’quvchining bilimlarni nafaqat darslik yoki o’qituvchi bergan ma’lumotlardan, balki qo’shimcha adabiyotlardan izlab topish, yo’naltiruvchi savollar yordamida muayyan tushunchaga ega bo’lishga doir faoliyati orqali bilim olishini nazarda tutiladi. Bu jarayonda o’qituvchining mavzu mazmuni asosida tuzgan savol va topshiriqlari, avvalo, o’quvchiga qiziqarli bo’lishi, shu bilan birga mavzuning ongli o’zlashtirilishini ta’minlovchi, uni bu borada mustaqil izlanishga yo’naltiruvchi tarzda bo’lishi kognitiv ta’limning asosi hisoblanadi.

O’qituvchining bilimlarni har xil metod va usullardan samarali foydalangan holda o’quvchilar xotirasiga joylab qo’yishga intilishidan, tarbiyalanuvchilarning esa berilayotgan ma’lumotlarni quruq yodlab olishi yoki xotirasiga joylab olishi va takrorlashidan ko’ra, o’qituvchining yo’naltirishlari asnosida o’zi mustaqil ravishda o’rgangan bilimi uning ruhiyatidan o’rin oladi, u yerda bir umrga saqlanib qoladi.

Milliy tarbiyashunoslikda keyingi davrda “*kognitiv ta’lim*”, “*kognitiv yondashuv*” atamaları barcha o’quv fanlari ta’limi amaliyotiga kirib bormoqmoqda. Bunday ta’lim yoki ta’limga kognitiv yondashuv reproduktiv ta’limdan farqli o’laroq mustaqil bilim olishga undaydi, izlanuvchanlik asosida bilim olish yo’llarini o’rgatadi, usullarini tavsiya etadi, o’quvchini bilimlarni mustaqil egallashga yo’naltiradi.

Kognitiv ta’limning psixologiya va pedagogikaning yo’nalishlaridan biri sifatida asosiy maqsadi individning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. U o’quvchining yangi bilimlarni o’zlashtirishga moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan ta’limiy strategiyalar majmuiga asoslangan o’qitishni ilgari suradi.

Xullas, ta’lim tamoyillari va yondashuvlari, xususan, adabiyot o’qitish tamoyillari va bu kechimda o’quvchilarni har jihatdan ijodkorlikka yo’naltirish, bu jarayonda ularning bilishga, bilimlarni mustaqil egallashga undash millat va mamlakat kamoloti garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekistonda erkin va farovon yashaylik.– T.: Nashriyot uyi tasvir, 2021. –14 b.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.// Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 64 b. – 20-29-betlar.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o’qitish metodikasi. -O’quv qo’llanma, Toshkent., 2018.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o’qitish metodikasi (An’anaviylikdan zamonaviylikka). Uslubiy qo’llanma. -T., 2020
5. Mirzayev I. O’zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslubiy rang -barangligi. - Toshkent: Fan, 1983.
6. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000
7. Rasulov A. Badiiylik - bezavol yangilik. - T.: Sharq, 2007.
8. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. - T.: Yangi asr avlodi, 2004.
9. Sharafiddinov O. Xayot bilan hamnafas. - Toshkent: Yosh gvardiya, 1983;
10. Umurov X. Badiiy psixologizm va hozirgi zamon o’zbek romanchiligi. - T.: Fan, 1983.
11. Yoldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -Toshkent, O’qituvchi, 1996.
12. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrahimov A. Adabiyot o’qitish metodikasi, O’quv qo’llanma, T., O’qituvchi nashriyoti, 1992.

²⁰ Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – С-Пб.: Смысл. – 203-с.

«DEVONU LUG'OTIT TURK»DAGI KICHIK MAJOZIY SHE'RLAR

Mirzohidova Laylo Baxtiyorovna

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy tadqiqot instituti Uzluksiz kasbiy ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada «Devonu lug'otit turk»da o'z ifodasini topgan kichik majoziy she'rlar tahlilga tortilgan. Kichik she'rlarda hayvonlar va ularning o'zaro munosabati majoziy tarzda ifodalangan. Majoziy tasvirlarning hayotiy zaminga asoslanishi, estetik ta'sir kuchining yuqoriligi, devondagi she'rlarni yaratgan xalq tafakkur tarzining ham yuksakligidan dalolat berishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: munozara, masal, muhokama, qissadan hissa, kichik majoziy she'rlar, ramz, majoziy topishmoq, badiiy tasvir.

Аннотация

В данной статье анализируются небольшие метафорические стихотворения, выраженные в «Дивани лугатит турк». Животные и их взаимодействие образно выражены в коротких стихотворениях. доказано что метафорические образы основаны на реальном мире, высоком эстетическом воздействии и высоком уровне мышления людей, создававших стихи на диване.

Ключевые слова: дискуссия, притча, вклад рассказа, небольшие метафорические стихотворения, символ, метафорическая загадка, художественный образ.

Annotation

This article analyzes small metaphorical poems expressed in “Devani lugotit turk”. Animals and their interactions are expressed figuratively in simple complexities. It has been proven that imagery is based on the first world, high aesthetic impact and high level of thinking of people who created poems on the couch.

Key words: discussion, parable, debate, story contribution, short metaphorical poems, symbol, metaphorical riddle, artistic image.

Biz «Devonu lug'otit turk»dagi she'riy parchalarga masalga xos janr tabiati bilan yondashar ekanmiz, o'tmish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ko'plab kichik majoziy she'rlarning mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Devondagi kichik masallar mavzu doirasining kengligi, rang-barangligi, obrazlar tizimining boyligi, shuningdek, o'ziga xos shakli xususiyatlarga ham ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Devonda ko'zga tashlanadigan kichik majoziy she'rlarning eng birinchisi munozara xususiyatiga ega. Ma'lumki, munozara janri Sharq adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida ancha avval paydo bo'lgan va o'zining yetuk namunalariga ega bo'lgan janrlardan hisoblanadi. Janrning adabiyotimizdagi takomilini ko'rsatishdan avval devondagi munozara she'rlarni nazardan o'tkazishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, adabiyotimiz tarixida munozara janri va uning namunalari to'g'risida umumlashma fikrlar bayon etilgan. Darslik, qo'llanma va adabiy atamalar lug'atlarida bu janrning asosi tortishuv, bahslashuv tarzida qurilishi ko'rsatib o'tilgan. Munozara janrida bahslashgan obrazlarning biri mag'lub bo'lishi yoki ikki tomon kelishuvi janrning yetakchi xususiyati ekanligi ta'kidlangan.

«Munozara dunyo adabiyotidagi qadimiy janrlardan biridir, - deb yoziladi bu janr tahliliga bag'ishlangan manbalardan birida. U G'arb va Sharq, jumladan, fransuz, fors va turkiy xalqlar adabiyotida keng tarqalgan. Fors-tojik adabiyotida munozaraning birinchi yetib kelgan qadimiy namunasi «Daraxt-i asurik»dir. Bu asar pahlaviy tilida yozilgan. Unda xurmo daraxti bilan echki orasida munozara ketadi va kimning insonga ko'proq foyda berishi to'g'risida bahs yuritiladi».

Munozara janrining mukammal shakllari dastlab fors-tojik adabiyotida ko'ringan bo'lsa-da, keyinchalik bu asarning turkiy adabiyotda ham o'nlab badiiy jihatdan mukammal namunalari yuzaga keldi. Bu o'rinda Ahmadiyning «Rud va jomaning orasida munozara», Yusuf Amiriyning «Bang va chog'ir orasida munozara», Yaqiniyning «O'q va yoy orasida munozara», Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning «Bangu boda», «Sihat va maraz», shuningdek Nishotiyning «Husni dil» dostonida keltirilgan munozaralarni ko'rsatish mumkin.

Bizningcha, turkiy adabiyotda munozara janrining shakllanishi uning ildizlari xalq adabiyotida tug'ilgan, ya'ni uning zamini mavjudligidir. Sh.Xolmatov o'z tadqiqotlarida bu janrning o'zbek, umuman, Sharq adabiyotidagi yuzaga kelish evolyutsiyasi haqida fikr yuritarkan, grek masalchisi Ezop ijodida o'rin olgan ayrim masallarning syujeti, unda tasvirlangan voqeylikning o'rnini, milliy xususiyatlari Sharqqa bog'lanishi haqidagi bir munozarali fikrni ham bayon etgan edi. Olimning kuzatishicha, Ezop masallarining ba'zi syujetlari - «Laylak va Baqa», «Quyov va Baqa», «Bo'ri va Qo'zichoq», «Sher va Sichqon» kabilardagi hayvon nomlari Gretsiyada emas, balki Sharq mamlakatlarida uchraydigan xodisadir. Sh.Xolmatov bu o'rinda o'z fikrini oydinlashtirishga harakat qilarkan, Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyo mamlakatlariga yurish qilganida bu hududda yaratilgan adabiy va tarixiy merosimizga daxldor kitoblarni o'z yurtiga olib ketgani yoki u bilan birga harbiy yurishlarda bo'lgan olimlar, tarixchilar, yozuvchilar Sharq xalqlari adabiy syujetlaridan bahramand bo'lganligini eslatib o'tadi.[1;31-32]

Devondagi kichik masallar ham jahon adabiyotiga hamohangligi bilan ajralib turadi. Bu masallar mavzusi va qahramonlarning majoziylik xarakteri antik davrlarga, shu bilan birga devondan so'nggi davrlarda yaratilgan masallarga ham kelib bog'lanadi. Bo'ri zo'ravonlik, jaholat, qo'zi- o'jiz, notavon insonning obrazi sifatida jahon masalchiligida tasvirlangan. Buni biz antik davrdan grek shoiri Ezop, so'nggi davrlar masalchilaridan esa I.A.Krilov ijodida ko'ramiz. Devonda bunday majoziy qarashlarning ilk shakllari sifatida quyidagi misralar uchraydi:

Тўқли бўри йэтилсун,

Қазғу йэма савилсун.[2;130]
 Mazmuni: Qo'zi bo'ri qo'l olsin,
 Qayg'u-hasrat, g'am o'lsin.

Bu parchada qo'zi va bo'rining ahil bo'lishini orzu etish hayotda yomon insonlarning yo'qolishi, mamlakatda adolat o'rnatilishini istash ruhi, zo'ravonlik va o'jizlikning teng darajaga kelishiga umid qilish ruhini sezamiz.

Devonda keltirilgan quyidagi masalning ham xalq og'zaki ijodida bir necha ko'rinishlari mavjuddir:

Кузугда сув бар,
 Ит бурни тэгмас.[2;356]
 Mazmuni: Qudug'da suv bordir, ammo,
 Itning unga burni yetmas.

Bu masalda it majoziy obraz sifatida biror ishni qilishga harakat qiladigan, ammo unga erisha olmaydigan yoki birovning qo'lida bo'lgan taomni ko'rib suqlanuvchi, lekin unga yetisha olmaydigan kishining qiyofasini yaratadi. Xalq og'zaki ijodida «Puf sassiq» nomi bilan xuddi shunday masallar uchraydi. Tulki osilib turgan go'shtni, bir ertakda uzumni ko'radi. Uni olishga ko'p harakat qiladi, sapchiydi, lekin maqsadiga yetolmaydi. Natijada, taomga suqlanib boqqani bilan unga yetolmagach uni «puf sassiq» deb ayblaydi va yo'lida davom etadi. Devondagi it majozisi bilan bog'langan masalda ko'rinib turgan narsaga yetishaolmaslik mavzusi tulkinining holatini eslatmasdan qolmaydi. Demak, biz yuqorida keltirilgan ayrim kichik masallar devondagi majoziy obrazlar adabiyotda mavjud boshqa shu mavzuni yoritgan obrazlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Endi devondagi kichik masallarning mavzu doirasini tahlil etaylik. Agar yuqoridagi masalda Itning burni quduqdagi suvga yetmasligidan maqsad intilish, lekin yetishaolmaslikning ifodasini ko'rgan bo'lsak, devondagi boshqa bir masalda Eshak obrazida maqsadga erishishni qat'iy qo'ygan shaxsning niyati ochiladi:

Эшак айур: башим бўлса,
 Сундурида сув ичкайман.[2;438]
 Mazmuni: Eshak aytur: boshim omon bo'lsa,
 Dengizdan suv ichaman.

Bu masalda maqsadga erishish uchun harakat, ayni paytda uzoq umr ko'rishni istash ruhi ham seziladi.

Devondagi kichik masallar quyidagi majoziy obrazlar tizimi va mavzu doirasiga ega:

1. Hayotda zo'ravon kishi g'oliblikka intiladi, o'jiz odam esa unga chap berishga harakat qiladi. Bu tasvir Ovchi va Ayiq majozisi bilan berilgan:

Авчи нэча ал билса,
 Азыг анча йўл билур. [2;94]
 Mazmuni: Ovchi qancha xiyla bilsa,
 Ayiq ham shuncha qochish yo'lini bilar.

2. Quyidagi ikkilikda kuchiga ishonib, maqsadiga yetolmagan, ko'zlagan ishini bitira olmagan kishilarga kinoya qilingan:

Алин арслан тутар,
 Кўчин уйук тутмас. [2;110]
 Mazmuni: Xiyla bilan arslon tutilar,

Kuch bilan uyuq tutilmas.

Bu she'rdagi uyuq so'zi qadimigi turkiy tilda polizda qovun-torvuzlarni qo'riqlash uchun yasama tarzda o'tqazib qo'yilgan qo'g'irchoq-qo'riqchidir.

O'zidagi aybni sezmagani, lekin o'zgalarining aybidan kuluvchi, har joyda gapiruvchi g'iybatchilar Ilon majoz bilan qoralanadi. Tuva obrazi esa hayotda biroz bo'lsa-da ayb ish qilib qo'ygan kishi timsolidir.

Йилан кэнду эгрисин билмас,
Тэвай бүйнин эгри тэр. [2;147]

Mazmuni: Ilon o'z egriligini bilmas,
Tuyaning bo'yni egri der.

Hayotda ikki zo'ravon kuchning jangga kirishishi, masalan ikki mamlakatning amirlari urush e'lon qilishi, lekin ular sog' qolishib, o'rtada sipohlar o'lib ketishi majoziy obrazlar – bug'ra (erkak hayvon) va pasha orqali tasvirlanadi:

Икки буғра играшур,
Ўрта кўкагун янчилар. (I.194)

Mazmuni: Ikki bug'ra olishur,
O'rtada pasha o'lur.

Bu masalda hukmdor kuchlar Bug'ra sipohlar Pashsha obrazi orqali ifodalangan. Quyidagi she'r ham yuqoridagi mazmunni ifodalagan va ayni paytda obrazlar ham takrorlangan:

Икки буғра икашур,
Ўрта кўкагун йанчилур. [2;332]

Mazmuni: Ikki ayg'ir olishur,
O'rtada so'na o'lar.

Odam qo'lidan kelmagan ishga behuda urinmasligi kerak, o'z holiga, kuch-qudratiga yarasha ish qilishga chaqiriladi. Bu fikr uchishda o'zini **g'ozga** o'xshatgan **qarg'a** obrazi orqali beriladi:

Қарға қазға ўткўнса,
Бути синур. [2;332]

Mazmuni: Qarg'a uchishda o'zini g'ozga tenglashtirsa,
Puti yirtiladi.

Sadoqat va vafodorlik ulug'lanadi. O'z rahbariga, xo'jayiniga vafo qilmagan, uning tuzini yeb, dushmanlik qilgan kishi **qul** obrazi orqali, vafodorlik esa **it** timsolida ochiladi. Demak, qul xo'jayinning uyida yashab, uning hamma ichki sirlarini bilib, so'ngra dushmanlik qiladi. It esa nomi past bo'lgani bilan yegan taomining haqqini oqlaydi, uyni qo'riqlaydi. Majoz qiyoslash, yaxshini yomondan farqlash asosida qurilgan.

Қул ёғи, ит бўри.

Mazmuni: Qul dushman, it bo'ri. [2;324]

Quyidagi majozda ham inson xonadonidagi hayvonlar vositasida yaxshilik va yomonlik, sadoqat va mehrsizlik fazilatlarini ochiladi:

Ит чақири атқа тэґир,
Ат сақири итга тэґмас. [2;344]

Mazmuni: Chag'ir ko'zli it otga tenglashadi,
Lekin chag'ir ko'zli ot itga tenglasha olmaydi.

Masalda chag'ir ko'zli tashbehiga alohida urg'u berilgan. Hayotiy haqiqatga ko'ra chag'ir ko'zli otning ko'zi xira bo'lar ekan. Shu sababli ham bu xil otlar e'tibordan qolgan. Demak, masalning mantiqiy hukmda **it** singari fazilatli, o'zi kichik bo'lsa-da, ulug'vor kishilardan qolishmaydigan, aqli va fikri tiyran kishilar ulug'lanadi.

Ko'prik hayotda insonga biror maqsadga yetish, biror manzilga o'tish uchun vositadir. Ko'chma ma'noda qo'llaniladigan bo'lsa, ko'prik insonlarni ma'lum yo'lga, kelajakka boshlaydigan, yomon kunlarda uning xizmatiga yaraydigan shaxsning timsoliga aylanadi. Devonda shunday masal keltirilgan:

Ул кэчишни сув элти. [2;350]

Mazmuni: Ul ko'prikni suv oldi.

Masal janri fikrning majoziy tarzda ifodalanishi uslubiga ko'ra ba'zan topishmoqlarni ham eslatmasdan qolmaydi. Lekin majoziy uslub, masalda ifodalangan fikr yoki inson qiyofasidagi hayvonlar, qushlar, jonli va jonsiz predmetlarni hayotga tatbiq etish uning mazmunini chaqishga yordam beradi. Devonda shunday ikkilik keltirilgan:

Балиқ сувда,
Кўзи таштин. [2;150]

Mazmuni: Baliq suvda,

Qo'zi tashqarida.

Bu topishmoq masalda Baliq hayotda yashab, uning mohiyatini tushunmagan, biror ishni bajarishga kirishib, uni eplolmasdan, tushunmasdan lol qolgan shaxslarning timsolidir. Suv esa hayotning ko'chma ma'nodagi belgisi hisoblanadi.

Devonda Qarg'a obrazi inson hayotining turli qirralarini ifodalashga xizmat qilgan. Qarg'a bir masalda ochko'z, o'z nafsini yo'lida qurbon bo'lgan shaxsning majoziy obrazini yaratadi. Masal kichik hajmda bo'lsa-da, o'ziga xos syujetga ham ega. Masalda tasvirlanishicha, och va tashna qarg'a donni ko'rib, muzni teshishga harakat qiladi. Lekin u yerda tuzoq qo'yilganligini bilmaydi. Oqibatda ovchining to'riga tushadi:Қарға қали билса, мунгин ул буз сукар,

Авчи яшиб тузак таба мэнгга бакар. [2;401]

Mazmuni: Och ham tashna bo'lgan qarg'a muzni buzar,
Ovchi qo'ygan tuzoq sari tumshuq cho'zar.

Devondagi boshqa bir masalda ham ochko'z inson o'z nafsini uchun tumshug'idan ilinishi voqeasi qush obrazi orqali berilgan: Куш тузакка манг
учун илинър. [2;370]

Mazmuni: Qush tuzoqqa xo'rak uchun ilinadi.

Hayotda o'zi ojiz, lekin shunga qaramay o'zidan yuqori tabaqaga mansub kishilar bilan bellashishga urinadigan, uning nafsiga, jig'iga tegadigan so'zlar aytuvchi, shu harakati bilan o'zini ajal komiga olib boradigan shaxslar uchraydi. Quyidagi masalda, mushuk zo'ravonlik, sichqon ojizlikning ramziy ifodasi orqali quyidagi voqea kinoyali tarzda ifodalangan.

Олчади сичған муш ташақи қашир.

Mazmuni: O'ladigan sichqon mushukning toshog'ini qashiydi.

Hayotda jinoyatga til biriktirib harakat qilish, bironing mol-davlatini kelishilgan holda o'g'irlashga urinish hayotiy hodisadir. Bo'ri jahon adabiyotida mavjud ko'pchilik masallarda zo'ravonlik, o'g'irlik, bironing haqini yeyishga uringan shaxsning majozidir. Devonda esa **bo'rining** ana shunday qiyofasi ko'rsatilgani holda uning o'g'iriligiga **qo'zg'un** ham hamkorligi ko'rsatiladi. Quzg'un ham o'g'irlikdan quruq qolmaydi, tegishli haqini daraxtning ustiga chiqib yeydi. Masalda bunday tasvir quzg'unning yanada mug'ombir, kerak bo'lsa bo'riga ham chap beradigan shaxsligini oydinlashtiradi. Chunki quzg'un tegishli haqini daraxtning ustida yeyishi **bo'rining** daxlsizligi va umuman boshqa hayvonlarning ham daraxt ustiga chiqa olmasligidir.

Бўрининг ўртақ кузгунунг,
Йиғач бошида. [2;412]

Mazmuni: Quzg'un ovda bo'riga hamroh,
Lekin ovni daraxt boshida yeydi.

Devonda oila va maishiy mavzudagi masallar ham berilgan. O'z uyidagi xotinini unutib, o'zgalarning xotiniga yoki boshqa bir juvonga nazar tashlash quyidagicha kinoya qilinadi:

Йазидақи сўвлин эзарғали,
Эвдаги тақағу ичинма. [2;418]

Mazmuni: Qirg'ovul oviga chiqsang,
Uyingdagi tovuqni unutma.

Bu parchada tovuq - uydagi oila, ayol, qirg'ovul - tashqaridagi xushtor obrazini yaratgan.

Kuchlilik va ojizlik devondagi kichik masallarning asosiy mavzuini tashkil etadi. Jumladan, quyidagi masalda arslon – botirlik, kuchlilik, ot – qo'rqqoqlik, ojizlikning majozidir.

Арслан кўкраса,
Ат азақи тушалир. [2;171]

Mazmuni: Arslon o'kirsas, otning oyog'i chalishadi.

Mehnatda kuchlilik va ojizlik ham devondagi she'rlarda kinoyali bir mavzudur. Tuya – katta hajmli masallarda, masalan Gulxaniyning «Zarbulmasal»lida mehnatkash insonning tipik obrazi darajasiga ko'tarilgan. Quyidagi masalda **tuyaning** mehnatkashligi **eshak** bilan qiyoslanadi. Tuya yuk ko'tarishda, ya'ni mehnat qilishda undan chandon ziyoda turadi. Eshak esa bu qadar mehnatkash va yuk ko'tara olmaydi. Hatto tuya yukini tashlab, egnida qolgan gardlarni silkitsa-da, undan bir eshakning yuki chiqadi. Demak, bunday majoziy tushunchada mehnatkashlik, fidoiylilik ulug'langan.

Тэвэй силкича эшакка юк чиқар. [2;286]

Mazmuni: Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi.

Hayotda omadi chopmaydigan, qayerga borsa, yursa, faqat qarshisidan yomonlik chiqadigan odamlar bo'ladi. Yoki yovuz kuch bir kishiga, yoki xalqqa o'chakishdimi, unga orom bermaydi. Uning bunday tasviri quyidagi masalda o'z ifodasini topgan:

Йилан йарбуздин качар,
Қанча барса йарбуз ўтрў кэлур. [2;46]
Mazmuni: Ёон qochar yarbuzdan,
Yarbuz chiqar har yerdan.

Hayotda ota va farzand, ustoz va shogird tushunchalari bor. Ustoz va ota farzand va shogirdning oldida ulug‘, mo‘tabar tushunchadir. Lekin ba‘zi farzandlar, shogirdlar borki, o‘z ustozini va otasidan o‘zini ustun qo‘ymoqchi bo‘ladi. Quyidagi masalda ota yoki ustoz **tuya** orqali berilar ekan, o‘zini katta tutadigan farzand yoki shogird kinoyali tarzda tezakka o‘xshatiladi.

Тэвэй бэдук эрса,
Майаки бэдук эрмас. [2;182]
Mazmuni: Tuya buyuk erur,
Tezagi buyuk ermas.

Hayotda yovuz kuchlar ko‘p. Ular inson hayotiga, xalq boshiga ne-ne musibatlar solmaydi. Lekin yovuz kuchdan ham kuchliroq hodisalar borki, ular yovuz kuchlarni yengishga qodirdir. Masalan, biror mamlakatga boshqa mamlakat lashkarlarining yurishi shu xalqning boshiga tushgan qora bulutdir. Agar unga qarshi turgan xalq bo‘ronday kuchli bo‘lsa qora bulutni haydashi mumkin. Devonda keltirilgan bir masalda **qora bulut** – yovuzlik, uni yo‘qotish qudratiga ega bo‘lgan **bo‘ron** – yaxshilikning majoziy obrazi darajasiga ko‘tarilgan.

Қалин булутуғ тўпи сўрап,
Қаранку ишиғ урунч асар. [2;236]
Mazmuni: Osmonni bulut qora qilar,
Bo‘ron uni quvib, yo‘lni ochar.

Lekin devonda izohlanishicha, xalq o‘rtasida qora bulut – shohlar eshigidagi qorong‘u ish, ya‘ni hal bo‘lmagan muammoni hal etgan pora mazmunida qo‘llanilar ekan.

Yaqin kishilarning bir biriga birodarligi, ahilligi, birining boshiga musibat tushganida ikkinchisi hal etishga kirishishi, qayg‘urishi voqealari ham majoziy tarzda qalamga olingan. Bunday hayotiy voqea **bo‘ri** va **it** obrazi orqali berilgan:

Йазида бўри улиса,
Эвда ит бағри тартшур. [2;272]
Mazmuni: Sahroda ulisa bo‘ri,
Uydagi itning achiydi ko‘nli.

Inson kurashlarda toblanadi. Toblangan insonni har qanday qo‘rqinch, vahima qo‘rqita olmaydi. Bir masalda tegirmon galdurashi hayotdagi notinchlik mazmunini ifodalaydi. Lekin har kun shu notinchlikni ko‘rgan sichqon esa yuragini bosib oladi, chidaydi va yashash uchun o‘ziga imkon axtaradi. Shu bois hayotda yana qanday qiyinchiliklar bo‘lsa hammasiga bardosh beradi. Chunki u kurashlarda chiniqqan insondir. Bu majoz quyidagi tasvirda berilgan:

Тэгирманда туғмиш сичған,
Кўк кўкракина кўркмас. [2;297]
Mazmuni: Tegirmonda tug‘ilgan sichqon,
Momaqaldiraqdan qo‘rqmas hech qachon.

Biz Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» kitobidan o‘rin olgan ayrim kichik majoziy she‘rlarni tahlildan o‘tkazdik, xolos. Devondagi masallar hayotiy voqealar va insonga xos turli xil kechinmalarni ifodalashda rang-barang majoziy obrazlardan, jumladan, *bo‘ri, tulki, qo‘zi, arslon, tuya, ot, ilon, qarg‘a, ayiq, baliq, tovuq, qirg‘ovul* kabi hayvonlar va qushlar, shuningdek, *qozon, cho‘mich, osmon, bulut, chaqmoq, momaqaldiraq, ko‘prik* kabi jonsiz predmetlardan foydalanganligini ko‘rsatadi.

Devondagi kichik masallarni tahlil qilish jarayonida ularning mavzu doirasi kengligiga ham ishonch hosil qilamiz. Bu masallarda hayotning rang-barang ko‘rinishlari majoziy obrazlar orqali namoyon bo‘ladi, o‘quvchini axloqiy poklikka, to‘g‘rilikka, mardlikka, jasoratga chorlaydi, yomon fazilatli kishilarning qiyofasini fosh etadi. Devondagi majoziy tasvirlar poetik tafakkurning kengligidan, hayotni obrazli tarzda ifodalash mahoratli bir tarzda aks etganligini ko‘rsatadi. Bu jihatdan akademik A.Qayumovning devondagi she‘riy parchalarning umumiy qimmatini, haqidagi quyidagi fikrlari e‘tiborga loyiqdir: «Umuman bu she‘rlarning asl nusxasida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turadi; bu she‘rlarni yaratgan ijodkorlarning juda bilimliligi bo‘lgani, nafis va chuqur badiiy didga ega ekani aniq ko‘rinadi».

Devondagi she‘rlar bizningcha, bu ko‘proq xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lishi kerak. Masallar qadimiy turkiy xalqlar hayotini obrazli idrok etish, majoziy obrazlar yaratish mahoratiga usta bo‘lganligini

ko'rsatadi. Turkiy xalqlarning ijodkorlari o'rtasida bunday an'ananing kuchliligini yozma masallar ham isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ш.Холматов. Ўрта Осиё халқлари адабиётида масал жанри. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1989. -Б.31-32.
2. Қошғарий М. Девони луғотит турк. – Тошкет. Фан, 1960. I, II, III jild.
3. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. I том. Т.: Фан, 1978.
4. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. Ўқитувчи, 2003.
5. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. Ўқитувчи, 2004.
6. Адабиёт назарияси. II томлик. I том. Адабий асар. – Тошкет. Фан, 1979.
7. Қажумов А. Қадимий обидалар. – Тошкет, 1972.

TO'QTAG'UL SOTILG'ANOV IJODI VA MILLIY UYG'ONISH DAVRI FARG'ONA VODIYSI SHE'RIYATIDAGI G'OYAVIY MUSHTARAKLIK

*Barziyev Oybek Xabibullayevich ,
Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili
va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD,*

Annotatsiya

Maqolada qirg'iz xalq shoiri To'qtag'ul Sotilg'anov she'riyatida ifodalangan ijtimoiy mavzular milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoirlari: Amoniy Araboniy, G'urbat, Abdurahmon Vodiliy, Hasan maxdum Vosiliy, mulla Hoshim o'g'li Hayratiy, Alixon Mullaohun Oraziyning lirik merosida ko'tarilgan muammolar bilan qiyoslangan holda o'rganilgan. Shu bilan birga ikki millat ijodkor vakillarining she'riy asarlarida uchrovchi an'anaviy so'z qo'llash mahorati va uslub tanlash mahorati masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: To'qtag'ul Sotilg'anovning ayanchli hayot yo'li, amaldorlar, qobon (cho'chqa), qozi, hoji obrazlari, hajviya, jamiyatning salbiy illatlarini keskin fosh etish.

Аннотация

Абстрактный в статье социальные темы, выраженные в поэзии кыргызского народного поэта Тооктагула Сотилганова, систематизируются путем сопоставления их с проблемами, поднятыми в лирическом наследии поэтов Ферганской долины периода национального Возрождения: Амони Арабани, Гурбата, Абдурахмана Вадили, хасан махдум Василий, Мулла хашим хайрати, Алихан Муллаахун Орази. При этом анализируются вопросы традиционного композиционного мастерства и мастерства стиливого выбора, встречающиеся в поэтических произведениях творческих представителей двух народностей.

Ключевые слова: несчастный жизненный пкть Токтагула Сотилганова, образы чиновников, кабана 9свины), судьи, паломника, юмор, резкое обличение негативных пороков общества.

Annotation

Abstarkt in the article, the social themes e[pressed in the poetry of the Kyrgyz national poet Toktagul Sotilganov are organized by comparing them with the problems raised in the lyrical heritage of the poets of the Ferghana Valley of the national renaissance period: Amoni Arabani, Gurbat, Abdurakhman Vadili, Hasan makhdum Vasiliy, Mullah Hashim son's Khayrati, Alikhan Mullaakhun Orazi,. At the same time, the issues of traditional composition skills and style selection sills fonud in the poetic works of the creative representatives of the two nationalities are analyzed.

Key words: Toktagul Sotilganov's misereable life path, images of officials, boar (pig), judge, pilgrim, humor, sharp exposure of negative vices of society.

Qirg'iz adabiyotining yirik vakili – shoir To'qtag'ul Sotilg'anov (1864-1933) ijodida milliylik, vatanparvarlik ijtimoiy mavzuda bitilgan bir qator she'rlar uchraydi. Shoirning aksariyat she'rlari tarjimon G'ulom Shodi tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Manbalarda shoirning hayoti haqida: "Xalqparvarlik faoliyati uchun To'qtag'ul tuhmat bilan qamoqqa olinib, Sibirga surgun qilindi. Olti yildan keyingina Krugo-Boyqol temir yo'li qurilishiga ishga yuborildi, u rus muhojirlari yordamida surgundan qochib, ko'p darbadarlikdan so'ng, 1910 yilda o'z yurtiga qaytib keldi. Biroq yana qamoqqa olindi. Bu safar uni yurtdoshlari kafilga oladilar [1, 132-b]", deya izoh beriladi.

T. Sotilg'anov ijodida yurt ozodligi va uning mavjud qoloq holatini aks ettiruvchi qator she'rlar turkumi uchraydi. Ular "Qobon", "Zamona I", "Zamona II", "Eshon xalfa", "Sibirdan qochgandagi she'r", "Qochib kelayotganda" kabi nomlanib, Usmon Temur tomonidan mahorat bilan o'zbek tiliga o'girilgan.

Shoirning "Qobon" nomli she'rida satirk mazmun yetakchi sanalib, unda o'z davrining amaldorlari, davlat boshliqlari qattiq tanqid qilinadi. She'rda Ahmad, Diyqon, Otaxon, Mingboy, Egamberdi Baxtiyor, Risqulbek kabi o'z davrining realistik qahramonlari cho'chqa hayvoniga qiyoslangan holda mahalliy amaldorlar asosiy obraz sifatida tilga olinadi. Bundan tashqari Karimboy bilan Mirzaxon kabi obrazlar asosiy o'zgalarning halol mehnatidan foydalanishdagi yulg'ich tip sifatida uchraydiki, ular orqali jamiyatda urchib borayotgan yana bir salbiy illat – dehqonlardan juda erta soliqlarni undirib olishlarida "talovchi" ekanliklariga alohida urg'u beradi.

Shoirning ijodi milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining tipik vakillari: Muqimiy, Zavqiy ijodlarida uchrovchi dehqonlarning arz-dodi bilan boshlanadigan lirik asarlarini yoki soliq va uning salbiy oqibatlariga bag'ishlangan an'anaviy poetik turkumlilikni eslatadi. She'rning quyidagi bandida aks etgan g'oya Muqimiyning mashhur "Sayohatnoma" asarining "Qo'qondan Farg'onaga" nomli taassurotlarida ifodalangan nayrang qilmish sifatida tilga olingan "Yetim haqi – go'shti baliq" tavsifini yodga soladi:

Yetim-yesir, holsizga,
Qaramading, besh qobon.
Yetilsin deb sho'rlikni,
Sanamading, besh qobon.[2, 124-b]

She'rda ifodalangan amaldorlar obrazi milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoiri, Qo'qon adabiy muhitining vakili Pisandiyning "Sa'dixon qozi to'g'risida hajv", shoir G'urbat g'azallada ifodalangan mahalliy boylar timsolini va Oraziy muxammasida aks ettirilgan voqeliklarni yodga soladi.

Tanqidiy mazmun yetakchilik qilgan va mahalliy amaldorlarning avom xalqning halol kuchi va mehnatini suiste'mol qilish g'oyalarini aks ettirishga qaratilgan mazkur an'anaviy poetik turkumlilik orqali shoirlar o'z davrida ildiz otib borayotgan muammolarni yoritib berishga intilganlar.

Shoir Pisandiy hajviyasidagi qozi ham To'xtag'ul Sotilg'anov she'rida qo'llangan yetimlarning haqini yeyishda tengi yo'q sifatida mashhur:

Boylar sudiga javob hozir,
Kambag'al hukmini buzar qozi.
Xonavayron necha yetim, tullar,
Dod dastingdan, ey o'jar qozi.[3,109]

G'azalda boshdan oyoq o'zining salbiy tomonlari va illatlari bilan tanilgan hamda qozilik diniy mansabida bo'la turib o'z kasbini suiste'mol qilgan holda aholining boshiga ayovsiz kunlarni solgan Sa'dixon nomli shuhrati ketgan obraz yetakchilik qiladi.

Qo'qon adabiyoti namoyandasi G'urbat qalamiga mansub bo'lgan ijtimoiy mazmundagi g'azalda ham o'z davri amaldorlarining kirdikorlari fosh qilinadi. G'azal milliy uyg'onish davri o'zbek she'riyatida an'anavit poetik turkumlilik sifatida faol qo'llanib kelingan jamiyatda suv tanqisligi muammosi va uning natijasida vujudga kelgan bezgak kasalligini aholiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini tasnif etish bilan boshlanadi. G'azalda semiz itdek yer talashgan Rustam Jumaboy Shayton, Pirmuhammad, xo'ja Murod jinjir daqqoq, Xamroqul yag'ir, Ermuhammad sur, Sulaymonqul amin kabi realistik personajlarning qilmishlari keskin fosh qilinadi.

Shahrixonlik shoir Oraziy muxammasida ham To'xtag'ul Sotilg'anov hajv ostiga olgan, an'anaviy obraz sifatida qo'llangan, "savdo sohasida pixini yorgan" Bekturboy atrofiga birlashgan bir necha amaldorlar nomi uchraydi. Ularning boyib ketish ilinjida Bekturga qo'l berib, oqibatda savdo sohasida "singanliklari", ayanchli hayotlari realistik usulda yoritiladi. Shoir she'rlarida uchrovchi an'anaviy obrazlardan eshon halfa nomi bilan bog'liq holda uchraydi. Shoir yashab ijod etgan davrda dinni niqob qilib olgan holda mulla va eshonlar, qozi va ruhoniylar o'z mansablaridan foydalanib aholining boshiga og'ir kunlarni solganliklari ayon haqiqat edi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek she'riyatida diniy-mutaasib kishilarni hajv ostiga olish g'oyasi bilan bog'liq bir qancha she'riy turkumlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarning birida T.Sotilg'anovning lirik asarlarining tahlili xususida to'xtalinib: "U "Eshon xalfa", "Besh qobon" singari she'rlarida mahalliy amaldorlarning, nafsi o'p'qon ruhoniylarning yaramas kirdikorlarini fosh qiladi"[4,67], deya to'g'ri ta'kidlanadi.

Diniy-mutaasib ruhoniylarni hajv qilish mavzusi bilan bog'liq an'anaviy poetik turkumlar tarkibiga shoir Zokirjon Furqatning shogirdi, arab va fors tillarida ijod qilgan shoir va xattot Amoniy Araboniy (1870-1946) qalamiga mansub "Yolg'on hojilar az-Amoniy" nomli g'azali ham kiradi. G'azalda o'zlarini hojidek ko'rsatgan davr qahramonlari Solih hoji, Hokim hoji, Yunus hoji kabi realistik kishilar nomi uchraydi.

Ularning bir-biriga shunchalik yaqin, sirdoshligi, ya'ni imo-ishora bilan, pichirlab fikr almashishlari shoirning hayratini oshiradi:

Ko'rmayin bayt-ul haramni so'zloshodur hojidek,
Bir nafasda necha ming so'z gaploshodur hojidek.

Xoh hujra, xoh yo'lda qayda ko'rsa hoji der,
Bir-birini og'zi birlan shifloshodur hojidek.[5, 65-b]

G'azalning maqta' qismi shoirning hojilikni orzu qilayotgan kishilarning dardiga qo'shilishib yig'laganlik holati bilan yakunlanadi:

Yo ilohiy, asvad ul-vajhlarni yetkur Ka'baga?
Deb alar birla Amoniy yig'loshodur hojidek.

Muxtasar qilib aytganda, mashhur qirg'iz shoiri To'qtag'ul Sotilg'anovning hayot yo'li bilan tanishish asnosida tahlikali va ayanchli o'tganligining guvohi bo'lamiz. Uning hayot yo'li esa milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi shoirlari: Amoniy Araboniy, G'urbat, Abdurahmon Vodiliy, Hasan maxdum Vosiliy, mulla Hoshim o'g'li Hayratiy, Alixon Mullaovun Oraziy kabi shoirlarning ijodidagi o'z davridagi mahalliy amaldorlarning qattiq tanqid ostiga olish va aholi tarafida turib, nutq so'zlash hamda jamiyatdagi mavjud turmushni keskin fosh etish kabi jihatlari bilan g'oyaviy mushtaraklikka ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муқимов Р., Шарипов М. Қардош халқлар адабиёти. Дарслик-хрестоматия. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967.
2. Turkiy adabiyot durdonalari. Sarchashma / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Isomiddinov Z. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Асрлар нидоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
4. Suyarova A. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2016.
5. Амоний Арабоний. Баёзи махбуб ал-махбуб. (Севилганларнинг сеvimли баёзи) / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, изох ва луғатлар муаллифи: махмуд Ҳасаний. – Тошкент: “Наврўз” нашриёти, 2015.
6. Пўлотжон Домулла Қаюмий. Тазкираи Қаюмий. 3-китоб. – Тошкент: 1998.
7. Қобулов Н. Андижонлик тараққийпарвар шоирлар. – Тошкент: Фан, 1967.

“EDIGO” DOSTONINING ILMIY O'RGANILISHI TARIXI XUSUSIDA

Eshchanova Gavhar Otajonovna
filologiya fanlari homzodi,
Urganch pedagogika instituti
“Boshlang 'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi dotsenti
Xalmuratova Iroda Safarboyevna
Urganch " Ixtisoslashtirilgan san'at maktabi" o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan “Edigo” dostonining rus, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, tatar folklorshunoslari tomonidan yozib olinishi, ilmiy o'rganilishi, masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar, Erpo'lat jirov, “Edigo” «Edige», “Edigey”, «Idige», «Idiku», «Adiga» dostoni, «Tulimbii» - o'zbekcha versiya, Chingiz va Cho'qon Valixonovlar, H.Zarifov, V.M.Jirmunskiy, Q.Maqsatov, Qoraqalpoq “Edige»shunosligi, o'zbek eposshunosligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос записи, научного изучения эпоса “Эдиго”, широко распространенного среди тюркских народов, русскими, узбекскими, казахскими, каракалпакскими, татарскими фольклористами.

Ключевые слова: тюркские народы, Эрполат жиров, “Едиго”, «Едигей», “Идиге”, «Идику», эпос «Адыга», «Тулимбий» - узбекская версия, Чингиз и Чукан Валихановы, Х.Зарифов, В.М.Жирмунский, Г.Максетов, каракалпакский «Едигей», узбекский эпос.

Abstract: This article discusses the issue of recording, scientific study of the epic “Edigo”, widely spread among the Turkic peoples, by Russian, Uzbek, Kazakh, Karakalpak, tatar folklorists.

Keywords: Turkic peoples, Erpolat zhirov, "United", "Edigey", "Idige", "Idiku", the epic "Adyga", "Tulimbiy"- uzbek version, Genghis and Chukan Valikhanov, X.Zarifov, V.M.Zhirmunsky, G.Maksetov, Karakalpak "Edigey", uzbek epic.

Turkiy xalqlar folkloridan mustahkam o‘rin olib, qozoq oqinlari, qoraqalpoq jirovlari, tatar yirchilari, o‘zbek baxshilari asrlar osha kuylab kelgan «Edigo» dostonining tadqiqotchilar nazariga tushib, uning yozib olina boshlanganiga sal kam ikki asr bo‘lib qoldi. Shu davr orasida asarning taqdiri turli qarashlarga duch keldi. O‘tgan asrning 40-yillarida dostonni chop etish, kuylash taqiqlandi. Hatto uni kuylagan qoraqalpoq baxshisi Erpo‘lat jirov hibsga olinib, 70 yoshida qamoqxonada vafot etdi [1.7.]

«Edigo» dostonining nomi turkiy xalqlar orasida «Edige», «Edigey», «Idige», «Idiku», «Adiga», «Edigo», «Aytgo» tarzida turlicha aytiladi va yoziladi.

Dostonning dastlabki yozib olinishi va chop etilishi qozoq versiyasiga to‘g‘ri keladi. 1820-yilda G.I.Spasskiy tomonidan yozib olingan variant «Sibirskiy Vestnik» jurnalida bosilib chiqadi. Xodsko yozib olgan variant esa 1830-yilda Londonda ingliz tilida chop etiladi. Shundan keyin mahalliy tadqiqotchilar dostonning turli variantlarini yozib olib e‘lon qilishga kirishadilar. 1841-1842-yillarda Chingiz va Cho‘qon Valixonovlar yozib olgan variant P.T.Melioranskiy so‘z boshisi bilan chop etiladi [2.101.] Keyinchalik V.V.Radlov tomonidan Qrim tatarlari va tog‘li Oltoy xalqlari orasidan yozib olingan sakkizta variantdan ikkitasi chop etildi. [3.169] Shu tariqa N.Semyonov [4.105], G.N.Potininlar [5.C.139] yozib olgan variantlar dunyo yuzini ko‘rdi.

1907-yilda qoraqalpoq jirovlaridan «Edige»ning dastlabki varianti yozib olindi. [6.68]. Bu variant P.M. Melioranskiyning shogirdi I.A.Belyaev tomonidan amalga oshirildi.

Dostonning bir qator qozoqcha variantlarini yozib olish va chop etishda Abubakir Divayevning xizmatlari e‘tiborga loyiqdir. [7.95]

Sobiq sho‘rolar davriga kelib, dostonni yozib olish, tadqiq qilish ishlari 1940-yillargacha davom etdi.

Qozoq versiyasi bo‘yicha Q.Satbayev, S.Sayfullin va S.Muqonovlar tomonidan Valixonovlar yozib olgan variant 1927, 1934-yillarda Moskvada, 1939-yilda «Batirlar jiri»ning I tomi Olma-otada bosilib chiqdi.

Q.Ayimbetovning Erpo‘lat jirovdan yozib olgan varianti 1937 yilda Moskvada chop etildi.

Dostonning «Tulimbiy» nomi ostidagi o‘zbekcha versiyasidan parcha H.Zarifov tomonidan nashrga tayyorlangan «O‘zbek folklori» xrestomatiyasida e‘lon qilindi. [8.147] Eposning o‘zbekcha variantiga ushbu parcha e‘lon qilingandan keyin umuman, e‘tibor qaratilmadi. Faqat 2006-yildagina «Edigo»ning Robiya xalfa varianti chop etilib, kitobxonlarga taqdim etildi. [9.70- 123]

Dostonning tatar versiyasining N.Hakimov nusxasi «Sovet adabiyoti» jurnalining 1940-yil 11-12-sonlarida, boshqird versiyasi variantlari «Oktabr» jurnalining 1940-yil 6-8-sonlarida chop etilgan. Doston tazyiqqa uchraganidan keyin uning boshqird versiyasi «Agidel» jurnalining 1989-yil 1-sonida, no‘g‘ay versiyasi Maxachqal‘ada 1991-yilda bosib chiqarilgan. Tatar versiyasi 1988-yilda Qozonda, keyinchalik 1989-yilda «Qozon utlari» jurnalining 1-sonida F.Axmetova va I.Nadirovlar tomonidan e‘lon qilingan.

Dostonning qaysi xalq versiyasi e‘lon qilinishidan qat‘iy nazar, chop etilgan matnga yozilgan so‘zboshilarda bildirilgan fikrlar asarning ilmiy o‘rganilishiga yo‘l ochdi. Bu masalada aka – uka Valixonovlarning so‘zboshisi asar tadqiqi uchun debocha bo‘lib xizmat etadi. Chingiz va Cho‘qon Valixonovlar qozoq «Edige»sini ilk marta yozuvga olib, nashrga tayyorlar ekanlar, asarning tadqiq qilinishiga yo‘l ochib berishdi. Ular doston haqida muhim fikrlarni ilgari surib, dostonning genezisi, uning tarkibidagi mifologik obrazlar haqida fikr yuritishib, dostonning paydo bo‘lishida tarixiy haqiqat izlari borligini ta’kidlashadi. Qolaversa, Edige sulolasining qadimiy avlodlari karomatli, avliyo insonlar ekanligiga e‘tiborni tortishadi. [10.229-233]

Aka-uka Valixonovlar yozib olgan variantga ilova etilgan P.M.Melioranskiyning so‘zboshisida ham «Edige» haqida qimmatli fikrlar bildiriladi. Olim ushbu dostonidagi voqealarning tarixiylik bilan uzviy bog‘langanligini, jumladan, To‘xtamishning Edigey tomonidan ataylab yuzma-yuz jangda emas, balki tungi xoinona hujum paytida tasodifan o‘ldirilganligini ta’kidlaydi. [[11.121] Ushbu ishda P.M. Melioranskiy dostonidagi tarixiy voqealar bilan hayotda bo‘lib o‘tgan tarixiy ma’lumotlarni chog‘ishtirib, muayyan xulosalarga keladi.

«Edigey» haqida tadqiqot olib borgan yana bir rus sharqshunosi V.V.Bartolddir. Olim o‘zining «Otets Edigey» maqolasida dostonidagi To‘xtamish bilan Edigey orasidagi tarixiy munosabatlarga, Edigeyning shajarasiga diqqatni qaratadi. Sharqshunos olim Temur, To‘xtamish va Edigey munosabatlariga to‘xtalib, shunday yozadi: «Temur tarixida Edigey ilk marotaba 1376-yilda tilga olib o‘tiladi. Bu paytda To‘xtamish Temurning yordami va qo‘llab-quvvatlashi bilan dushman ustidan g‘alabaga erishgunga qadar

unga bir qancha hujumlar uyushtiradi. O'sha paytda O'rus xondan qochib kelgan mang'it urug'iga mansub, jo'chi ulusi amirlaridan biri bo'lgan Edigey To'xtamishxonga O'rusxonning yaqinlashib kelayotganligi haqida xabar etkazadi» [12.800].

V.V.Bartold ushbu ishida Edigeyning otasi haqida so'z yuritib, shunday yozadi: «Edigeyning otasi ilgari O'rusxonga navkar bo'lgan va u To'xtamishxonga asir tushgan. O'sha paytda To'xtamishxon unga, mening xizmatimga o't, deganida Qutliqiya bu taklifni rad qiladi. Natijada To'xtamishxon Edigeyning otasini chopib o'ldiradi». [12.804]

Sharqshunos olimning ushbu bergan ma'lumotlari dostonida ishtirok etuvchi tarixiy shaxslar o'rtasidagi nizolarning kelib chiqish sabablarini anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixda bo'lib o'tgan ko'pgina voqealar dostonida ham o'sha voqealarga ko'p tomonlama mos keladi. Edigey obrazining To'xtamishdan intiqom olishi epizodi dostonida tarixiy voqealarning aks sadosi sifatida ifoda etilishi bunga misol bo'la oladi. «Edigey» dostoni haqida tadqiqot ishlari rus olimi A.K.Borovkov tomonidan ham amalga oshirildi.

A.K.Borovkovning ta'kidlashiga qaraganda, dostonidagi obraz bilan tarixdagi Edige orasida katta tafovut mavjud. Doston voqealarida ishtirok etuvchi Edige faoliyati tarixdagi Edigening faoliyatidan ancha uzoqlashadi. Dostonida Edige haddan tashqari ideallashtirilib, avliyoning farzandi sifatida tasvirlangan. [13.77]

A.K.Borovkov ushbu fikrini qozoq, qoraqalpoq, tatar va boshqa turkiy xalqlar folkloridagi Edige obraziga nisbatan umumiy tarzda ifodalagan.

Rus olimlari orasida «Edigey» dostoniga eng katta e'tibor qaratgan tadqiqotchi V.M.Jirmunskiydir. Olim o'zining «Тюркский героический эпос» kitobida bu dostonning turkiy versiyalariga o'z munosabatini bildiradi. V.M.Jirmunskiy dostonning nashr qilingan va yozib olinib, turli ilmiy muassasalar fondlarida saqlanayotgan ko'plab variantlarini ilmiy tahlilga tortadi, ular haqida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari haqida o'z qarashlarini bayon qiladi. Shuningdek, dostonning chet ellarda, jumladan, Turkiyada Saodat Chig'atoy tomonidan 1957-yilda nashr etilgan nusxasiga e'tibor qaratib, asarning nemis tiliga tarjimasi ham kitobga ilova etilganini, umuman, muallifning tadqiqoti e'lon qilingunga qadar asarning 30 ta varianti mavjud bo'lib, ularning 15 tasi tarjima varianti ekanligini qayd qiladi. [14.354,]

V.M.Jirmunskiyning «Edige» haqidagi ushbu yirik tadqiqotida dastlab «Edige» eposining umumiy syujeti, undagi obrazlarga xarakteristika beriladi.

Epos negizida yotgan syujet tuzilishini umumiy tarzda quyidagicha beradi:

1. Edigening mo'jizaviy tug'ilishi.
2. Uning To'xtamishxon xizmatida bo'lishi va o'z hukmdorining adolatsizligi natijasida Satemir (Shohtemir) huzuriga qochib kelishi.
3. Edigening Kabardin alp dev bilan urishib, Satemirning qizini ozod qilishi.
4. Edigening o'g'li Nureddin bilan To'xtamishdan qasos olish uchun kurashga otlanishi.
5. Ota-o'g'il orasiga nizo solinishi.
6. To'xtamishning o'g'li Qodirberdining Edige va Nureddinlar ustidan g'alaba qilib, otasi taxtini egallashi.

V.M.Jirmunskiyning bergan ushbu andozasi dostonning o'zbek (Xorazm) versiyasidan boshqa barcha turkiy xalqlar folklorida deyarli o'zgarishsiz beriladi.

V.M.Jirmunskiyning tadqiqotida eposga asos bo'lgan davrning tarixiy-siyosiy ahvoli tahliliga katta o'rin ajratilgan. Ushbu tahlil jarayonida olim o'sha davr tarixini yorituvchi ko'plab asarlarga, jumladan, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natoiziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Abulg'azi Bahodirxon, Ibn Xoldun, Ibn Arabshoh va boshqalarning asarlariga o'z munosabatini bildiradi.

Arab va fors tarixchilarining Edigeni «Iskandarning muqobili», [14.377] deb ta'riflashganlari asnosida Edige haqida uning hayot paytlaridayoq tarixiy rivoyatlar yuzaga kelishiga vaziyat tug'ilganligini ta'kidlaydi. Shu jarayonda asta-sekin epik qahramon sifatida tanlangan tarixiy shaxs biografiyasini tasvirlashda folklor elementlari ishtirok etib, eposning dastlabki ko'rinishlari yuzaga kelganligi haqida fikr bildiradi.

V.M.Jirmunskiy o'z ishida ayrim tadqiqotchilarning eposdagi nomlarni noto'g'ri talqin qilganliklariga ham befarq qaramaydi. U P.M.Meliorskiyning Bobo Tullas sochli (shashli - qozoqcha) Aziz haqida gapirib, uning Shosh – Toshkent bilan aloqador ekanligiga ishora qilishini noto'g'ri, deb hisoblaydi.

V.M.Jirmunskiy eposning shakllanishida mifologiyaning katta ta'siri borligini ko'rsatib o'tib, bu elementlar asarning tarqalish doirasi kengayishi bilan tobora o'z salmog'ini oshirib borgan, degan xulosaga keladi.

Zero, V.M.Jirmunskiy ushbu keng va batafsil tadqiq ostida «Edige» eposini tarixiy voqealar asosida ko'rib chiqar ekan, tarixiy Edigening uch avlodi haqida batafsil tarixiy ma'lumot berib, o'sha tarixiy voqealar asosida yuzaga kelgan epik turkumning tarixiy va geneologik asoslarini ilmiy jihatdan isbotlab bera olgan.

Eposning O'rta Osiyo va Qozog'iston, Sibirdan tortib, Kavkaz va Qrimgacha bo'lgan katta hududga yoyilishida Edige shajarasining roli masalasi tadqiqotning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

V.M.Jirmunskiy «Edige» eposining tahlili jarayonida quyidagi xulosalarga keladi:

Eposning negizida tarixiy rivoyatlar yotgan bo'lib, ularning barchasi Oltin O'rdaning no'g'ayli davriga borib bog'lanadi. Eposdagi Edige obrazi tarixiy prototipidan farq qilib, sof epik qahramon obrazi sifatida namoyon bo'ladi.

Binobarin, Edige eposda barcha sifatlari bilan to'laligicha epik qahramon tarzida faoliyat ko'rsatadi.

V.M.Jirmunskiy ishlarini davom ettirgan yana bir rus sharqshunos olimi E.M.Meletinskiy ham turkiy xalq eposi, xususan, «Edigo» haqida ayrim fikrlarni qayd qilgan. Uning ta'kidlashicha, qozoq eposida tilga olinadigan «No'g'ay»lar ularning bitta urug'i sifatida belgilanib, ushbu atamaning ishlatilishi grek eposidagi gotlar, Shimoliy Kavkazdagi nartlar toifasiga to'g'ri keladi.

E.M.Meletinskiy «Edigo» haqida so'z yuritar ekan, eposning tarixiy ildizlari XV- XVI asrlarda no'g'ay o'rdasida hukmronlik qilgan Nuraddin, Musaxon, O'roq, Mamay, Ismoil, Yamg'urchi va Agis kabi shaxslar haqida yaratilgan tarixiy rivoyatlarga borib bog'lanishini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, eposda tarixiy rivoyatlar syujet yaratuvchilik funksiyasini bajaradi. [15.105]

«Edige» eposining o'rganilishi qozoq folklorshunosligida ham salmoqli o'rinni egallaydi.

Qozoq adabiyotshunosligining ilk avlodi tadqiqotlarida «Edige» haqida so'z yuritmagan olim kam topiladi, desak mubog'ala bo'lmaydi. XX asrning boshlaridan Ch., Sh.Valixonovlar tomonidan boshlangan bu tadqiqotlar keyinchalik M.Avezov, [16.29] A.S Orlov [17.201] , R.Berdibayev[18.10- 13] va boshqa olimlar va yozuvchilar tomonidan davom ettirildi.

Qozoq olimlari orasida «Edige»ning yirik tadqiqotchisi R.Berdibayevdir. U keyingi yillarda «Edige» to'g'risida dadil va chuqur ilmiy mulohazalar bilan tez-tez chiqa boshladi. Bu borada uning ilk takliflaridan biri shu bo'ldiki, «Alpamis», «Qobilandi», «Edige», «Er Targ'in», «Korug'li» kabi turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan dostonlarning genezisi, tarqalishi va evolyusiyasini, badiiyatini tadqiq qilishi uchun ularni qiyosiy-tipologik tarzda o'rganishni yo'lga qo'yish lozim». [19.69; 71].

Tadqiqotchining fikricha, «Edige», «Ersho'ra», «Er Sayin» kabi dostonlarning tadqiqot ishlaridan tashqarida qolishi, ayrim ilmiy maktablar bilan bog'liq (tarixiy maktab) olimlarning tarix bilan eposning bir-biriga juda yaqin deb anglashlarining natijasidir. Holbuki, epos tarixda bo'lib o'tgan voqealarning aynan takrori emas, balki uni yaratgan xalqning orzu-armonidir».

R.Berdibayevning ushbu fikrlari «Edige»ni tazyiq ostiga olgan ayrim kishilarga berilgan javob edi. Shundan keyin olim ushbu doston haqidagi ilmiy ishlarini davom ettirib, asardagi tarixiylik va badiiylik masalasini keng yoritib berdi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, Oltin O'rdaning yagona oilasidan tarqalgan qozoq, tatar, qoraqalpoq, no'g'ay, boshqird xalqlari Edige botirni yetakchi sanab, uni hamisha qadrlab kelishgan. Binobarin, «Edige batir» bir paytlari qudratli davlat barpo qilib, dunyoda o'z o'rniga, o'z salmog'iga ega bo'lib, qahramonlik qobiliyatiga putur etkazmay kelayotgan tubi bir bo'lgan qator turkiy xalqlarning ertak tarzida namoyon bo'lgan tarixiy hujjatidir». [19.48].

Umuman olganda, R.Berdibayev qozoq «Edige»sini har tomonlama tahlil qilib, ko'p masalalarda V.M.Jirmunskiy xulosalarini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga V.M.Jirmunskiy nazariga tushmagan ayrim variantlar haqida mustaqil fikrlar bildiradi. Binobarin, qozoq folklorshunosligida «Edige» dostonini qaytadan tadqiq qilish ishlari o'tgan asrning 1980-yillariga kelib boshlandi va so'nggi davr folklorshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar asosida ilmiy-nazariy tahlilga tortildi.

«Edige» eposining qoraqalpoq folklorshunosligida to'planishi, chop etilishi va tadqiq qilinishi alohida e'tiborga loyiq.

Qoraqalpoq «Edige»sini ilk marotaba 1905-yilda Moskva universitetining talabasi M.Belyayev yozib olgan. Matn rus tiliga tarjima qilinib, Ashxobodda chop etilgan. [20.C.124]

Eposning Erpo'lat jirov variantini 1929-yilda Qalli Ayimbetov yozib olgan, biroq matn ayrim sabablar bilan yo'qolib, folklorshunos, dostonni 1934 yilda o'sha jirovdan qaytadan yozib oladi. Bu variant 1937-yilda Moskvada chop etiladi.

Qoraqalpoq «Edige»sini folklorshunoslardan birinchi bo'lib Q.Ayimbetov yozib olib, tadqiqot doirasiga tortganini alohida ta'kidlash lozim. Folklorshunos olim doston bosh qahramoni Edige haqida ko'plab afsona va rivoyatlarni ham to'plab, ular haqida o'z fikrlarini bayon qilgan.

Q.Ayimbetov «Каракалпакские народные сказители» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida «Edige» dostonini qoraqalpoq eposining ikkinchi – «No‘g‘ayli» davriga to‘g‘ri kelishini ta’kidlab, eposning tili va badiiyati mukammal ishlanganligini qayd qiladi. [21.17]

Qoraqalpoq olimlari orasida «Edige» eposini tahlil qilish, chop etishda Q.Maqqetovning xizmatlari kattadir. Q.Maqqetov «Edige»ni XIV-XV asrda paydo bo‘lgan, qoraqalpoqlar «no‘g‘ayli» davriga oid epos ekanligini ta’kidlagani holda eposning ijrochilari va ularning ijro mahoratlari haqida ayrim ma’lumotlarni keltiradi. [22.58]

Q.Maqqetov «Edige» eposini tarixiy dostonlar toifasiga kiritadi. Uning shakllanishi, avlodlardan avlodga o‘tib kelishi jarayonini xalqning qadimiy orzu-istaklari bilan bog‘lab tahlil etadi. Olimning ta’kidlashicha, oddiy xalq o‘z tarixi davomida hamisha «Odil hukmdor», «Odil xon», «Odil bahodir» larni orzu qilib kelgan. «Edige» eposining bosh qahramoni bo‘lgan «Edige bahodir» ana shu orzu- armonlar yig‘indisi sifatida tarixiy shaxs qiyofasidan epik qahramon obraziga o‘tgan va uzoq yillar xalq e’zoziga sazovor bo‘lib, adolatparvarlik, insoniylik, do‘stlik, elga xizmat etuvchi bahodir timsoliga aylangan. [23.297.]

Qoraqalpoq «Edige»shunosligida salmoqli o‘rin egallagan tadqiqotlardan biri K.Allamberganovning «Edige» haqidagi doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasidir. [1.48]. Muallif monografiyada eposning genezisi, janr sifatida shakllanish yo‘llari va milliy versiyalar bilan tipologik xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumot beradi.

Monografiya muallifi rus, qozoq, qoraqalpoq olimlarining «Edige» dostonining versiyalari haqida amalga oshirgan tadqiqotlariga munosabat bildirib, V.M.Jirmunskiyning xulosalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Eposning qoraqalpoq versiyasining 10 ta varianti, boshqa versiyalarning 19 ta varianti yozib olinganini, bu variantlardan o‘n uchta chop etilganini qayd qiladi.

K.Allamberganovning e’tiroficha, «Edige» dastlab «jir» sifatida paydo bo‘lib, XIV asr oxiri XV asrning birinchi choragida lirik janrdan o‘tib, epik janrga o‘tgan. [1.39.]

O‘zbek folklorshunosligida «Edigo», «Tulumbiy», «Tulumxo‘ja» kabi turli nomlarda aytilib kelinayotgan ushbu doston haqidagi tadqiqotlar juda kam.

O‘zbek folklorshunosligining taniqli vakili Hodi Zarif dostonidan ayrim parchalarni «O‘zbek folklori» xrestomatiyasiga kiritgan va asarni «Tulumbiy» nomi bilan atagan [8.107]. Bu parchalar Xorazmda tarqalgan quliyozma nusxalarga aloqadordir.

Dostonning o‘zbek versiyasi haqida ayrim qaydlargina mavjud. Jumladan, «O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi» darsligida tarixiy dostonlar haqida so‘z yuritilib, doston haqida quyidagicha fikr bildirilgan: «Tarixiy fantastik dostonlarga «Tulumbiy», «Shayboniyxon» kabilarni kiritish mumkin. «Shayboniyxon» dostonida epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy xarakterga ega bo‘lsa, «Tulumbiy»da ayrim tarixiy shaxslar nomidan bo‘lak hech narsa qolmagan, ya’ni unda syujet tarixiy voqealik asosida emas, balki ishqiy-sarguzasht yo‘nalishda rivojlanadi. Bunday dostonlarda qachonlardir bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o‘taydi, xolos». [24.206.]

Mustaqillik yillariga kelib, mazkur dostonga qiziqish ancha kuchaydi. Dostonning ikkita nusxasi chop etildi va ularga so‘zboshilar yozildi. Shulardan biri «Tulumxo‘ja» nomi ostida nashr etildi. [25. 129.]

Dostonning yana bir nusxasi «Oshiqnoma» dostonlar majmuasida chop etildi. [26.170- 262]. Ushbu nashrdagi ma’lumotlarga qaraganda doston asosan, Xorazm vloyatining Yangibozor tumanida yashagan O‘g‘iljon xalfa nusxasiga asoslangan bo‘lsa-da, unda tushirib qoldirilgan ayrim epizodlar boshqa nusxalar yordamida to‘ldirilgan.

Ko‘rinadiki, o‘zbek folklorshunosligida «Edigo» dostoni bo‘yicha endigina ilmiy tadqiqot ishlari boshlandi. Bu borada ushbu maqola muallifining ham muayyan hissasi mavjud. [27.51; 54; 14;78; 62; 16.] Binobarin, «Edigo» dostonini chop etish, uning asosiy mundarijasini tahlil etish, tarixiy ildizlarini aniqlash, turkiy versiyalar bilan qiyosiy o‘rganish ishlari boshlanib ketdi. Darvoqe, G.Eshchanovanning ketma - ket “Eposda Edigo obrazining talqinlari” [28.162] va Edigo obrazining turkiy xalqlar eposidagi talqini” [29.158] nomli monografiyalarining nashr etilishi bu borada olg‘a tashlangan katta qadam bo‘ldi, shubhasiz. Zero, mazkur doston ham o‘zbek folklorida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish o‘zbek eposshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Алламберганов К. Каракалпак халык дастаны «Едиге», Нокис, Билим, 1995.В.-7; 48.
- 2.Записки Русское географическое общество по отделению этнографии, т. XXIX-СПб., 1904. С.-101
- 3.Радлов В.В.Образцы народной литературы тюркских племен. Ч.У, С.35-55, ч.7.С.99-121 – СПб., 1866-1907.С-169:
- 4.Семёнов Н. Туземцы Северо-Восточного Кавказа – СПб. 1895.С.105

5. Потанин Г.Н. Тюркская сказка об Идиге. // Живая старина, выпуск III-IV-СПб, 1897. С.139
6. "Сказания об Едиге и Тохтамыше. Каракалпакская народная поэма". (сообщения И.А.Беляева). // Протоколы заседания и сообщений членов закаспийского кружка любителей археологии и истории Востока, вып.3. Ашхабад, 1917. С.- 68.
7. Диваев А.А. Мурза Эдиге батыр, Ташкент, 1896; Диваев А.А. Батырлар, т.1-6, Ташкент, 1922. С.-95.
8. O'zbek folklori. "Pedinstitutlar uchun xrestomatiya". 1-tom, Toshkent, 1939. B.-107; 147.
9. Oshiqnoma, 1-kitob. Urganch, Xorazm, 2006, 70-123-betlar.
10. Валиханов Ч.. Сочинения-записки РГО, СПб, С.229-233
11. Мелиоранский П.М. Сказания об Едиге и Тохтамыша приложение к сочинения Ч.Ч. Валиханова. – записки РГО по отделению этнографии. т. XXIX СПб. 1905, С.121.
12. Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч.1., М., 1963. С. 800; 804.
13. Боровков А.К. Вопросы изучения тюркоязычного эпоса народов Средней Азии и Казахстана. // Вопросы изучения эпоса народов СССР. М.: 1958. С.77.
14. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос, Л.: Наука, 1974, С.354; 357.
15. Мелетинский Е.М. Введения в историческую поэтику эпоса и романа, М.: Наука, 1986, С.105.
16. Ауэзов М. Адебиат тарихи. Қызылорда – Ташкент, 1927. В.-29.
17. Орлов А.С. Казахский героический эпос, М.: Л.: 1945. С.-201
18. Бердибаев Р.К. проблеме историзма эпоса.// Вопросы советской тюркологии. II часть, Материалы IV Всесоюзной тюркологической конференции. Ашхабад, «Ылым», 1988, С.68-69.
19. Едиге батыр, Алматы, Билим, 1999, 48-bet
20. Сказание об Едиге и Тохтамыше, Ашхабад, типография штаба 2-го Турк. Армейского корпуса, 1917. С.124.
21. Айимбетов К. Каракалпакские народные сказители, АДД., Т., 1965, С.17.
22. Мақсетов Қ.Қарақалпақ қаҳарманлық дастанларинин поэтикасы, Ташкент, Фан, 1965, 48-58-betlar
23. Мақсетов Қ., Тажимуратов А. Қарақалпақ фольклоры. Ноқис, Қарақалпақстан, 1979, 296-297-betlar.
24. Razzoqov H., Mirzayev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T.: O'qituvchi, 1980, 205-206-betlar.
25. Tulimxo'ja. Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T.: 2006, 129. (nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev, H.Eshchanov).
26. Oshiqnoma, I kitob, Urganch, «Xorazm», 2006, 170-262-betlar. (nashrga tayyorlovchilar: S.R.Ro'zimboyev, G.O.Eshchanova, S.S.Ro'zimboyev, A.Ahmedov)
27. Eshchanova G. «Edigo» dostonidagi ot obrazining mifologik xususiyatlari. // Xorazm folklori, III tom, Xiva, 2001. B.- 49-51; o'sha muallif: Edigo obrazining mifologik asoslari, ko'rsatilgan to'plam. B.- 52-54 o'sha muallif, «Edigo» dostonining til xususiyatlari. // Xorazm folklori, IV tom, Toshkent, 2002. B.- 12-14; o'sha muallif: «Edigo» dostonining tatarcha versiyasi haqida. // Xorazm folklori, VIII tom, Urganch, 2006. B.- 72-78; o'sha muallif, «Edigo» dostonining ilmiy o'rganilishi haqida. // Филологические исследования, XI tom, Urganch, 2006, B.- 60-62; o'sha muallif, Tarixiy Edigo haqida, // Филологические исследования, XII tom, Urganch, 2006. B.- 14-16.
28. Eshchanova G. Eposda Edigo obrazining talqinlari. T., Muharrir, 2013. B.-162.
29. Eshchanova G. Edigo obrazining turkiy xalqlar eposidagi talqini. Urganch, "Xorazm yoshlari" nashriyot – matbaa uyi, 2021. B.- 158.

MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARI – YANGI O'ZBEK SHE'RIYATI TAKOMILINING ASOSI

Tajibayeva Latofat Farhodovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz adabiyot an'analari yangi o'zbek she'riyatining taraqqiy topish jarayonida asosiy adabiy-estetik zamin vazifasini bajargani ochib berilgan. Shuningdek, she'riyatning mumtoz adabiyotga xos vazn va shaklni saqlagan holda yangilana borishi, an'anaviy poetik obrazlarga yangi mazmun va g'oyalar yuklanishi, mavjud poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yo'naltirilishi, badiiy til va ifoda uslubining xalq ruhiyatiga yaqinlashuvi ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti namoyondalari ijodi orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit soʻzlar. Mumtoz adabiyot, vazn, poetik obraz, poetik shakl, poetik janr, badiiy til, aruz, barmoq.

Аннотация. В данной статье раскрывается, что классические литературные традиции послужили основной литературно-эстетической основой в процессе развития новой узбекской поэзии. Также происходит обновление поэзии при сохранении веса и формы, характерных для классической литературы, загрузка нового содержания и идей в традиционные поэтические образы, направление существующих поэтических жанров на выражение социальных проблем, приближение художественного языка и стиля выражения к психике людей есть просветление, и это проявляется в творчестве представителей современной литературы.

Ключевые слова. Классическая литература, масса, поэтический образ, поэтическая форма, поэтический жанр, художественный язык, аруз, палец.

Annotation. This article reveals that classical literary traditions served as the main literary and aesthetic ground in the process of the development of new Uzbek poetry. Also, the updating of poetry while preserving the weight and form typical of classical literature, loading new content and ideas into traditional poetic images, directing the existing poetic genres to the expression of social issues, bringing the artistic language and style of expression closer to the people's psyche is enlightenment. and it is shown through the work of the representatives of modern literature.

Keywords. Classical literature, weight, poetic image, poetic form, poetic genre, artistic language, aruz, finger.

Yangi oʻzbek sheʼriyati rivoji va badiiy takomilga erishuvda mumtoz adabiyot har bir jihatdan badiiy manba vazifasini oʻtadi. Zero, yangi oʻzbek sheʼriyati mumtoz adabiyot anʼanalari negizida oʻziga mos poetik shakl va mazmunda namoyon boʻla boshladi va buning uchun bir qancha ijodiy bosqichlarni bosib oʻtdi. Bu bosqichlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

- ✓ sheʼriyatning mumtoz adabiyotga xos vazn va shaklni saqlagan holda yangilana borishi;
- ✓ anʼanaviy poetik obrazlarga yangi mazmun va gʻoyalar yuklanishi;
- ✓ mavjud poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yoʻnaltirilishi;
- ✓ badiiy til va ifoda uslubining xalq ruhiyatiga yaqinlashuvi.

Mumtoz adabiyotga xos poetik anʼanalar, uslub, til, vazn, obrazlar va janrlar yangi oʻzbek sheʼriyatining takomilga erishuvi uchun adabiy-estetik zamin vazifasini oʻtadi. Maʼlumki, har bir novatorlik zahirida anʼana mavjud. Yangiliklar eski bir hodisa asnosida takomilga etadi. Mumtoz adabiyot anʼanalari yangi oʻzbek sheʼriyati uchun ana shunday poetik asos boʻlib xizmat qildi.

Sheʼriyatning mumtoz adabiyotga xos vazn va shaklni saqlagan holda yangilana borishi. Yangi oʻzbek sheʼriyati mumtoz aruz negizida takomilga erishgani kuzatiladi. Aruzdan barmoqqa oʻtish jarayonida dastlab ushbu vaznda yozilgan gʻazallar grafik shakllanishi orqali kechdi. Yaʼni gʻazal aruzdagi kabi bayt emas, xuddi barmoqdagi kabi band (kuplet) koʻrinishida yozila boshladi. Gʻazalning grafik jihatdan banday shakllantirilishi amalda barmoqqa oʻtish uchun tayyorgarlik bosqichi boʻldi. Masalan, Choʻlponning “Koʻngil sheʼri” quyidagi bandi grafik shakllantirilishi ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Tirixsan, oʻlmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan,
Kishan kiyma,
Boʻyin egma,
Ki, sen ham hur tugʻilgʻonsan!

Ushbu sheʼr aslida aruzning hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Taqtiʼsi quyidagicha:

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –

Agar bayt shaklida yozilsa, ijtimoiy mazmunni istisno qilganda, aynan mumtoz gʻazal koʻrinishiga ega boʻladi. Lekin Choʻlpon yangilikka intiladi. Mumtoz aruz ohangini saqlagan holda sheʼr misralarini barmoq vazni suratida shakllantiradi. Misralarni sindirish orqali poetik mazmunga alohida urgʻu beradi. “Tirixsan, oʻlmagansan” soʻzlarining alohida satrda berilishi, “Sen-da odam, sen-da insonsan” jumllarining maxsus qatorga joylanishi, “Kishan kiyma”, “Boʻyin egma” birikmalarining sinig satrlar holida keltirilishi, “Ki, sen ham hur tugʻilgʻonsan!” xitobiga urgʻu qaratilishi – barchasi shoir ijodiy niyatidan kelib chiqib, aniq badiiy-estetik maqsad asosida amalga oshirilgan. Natijada sheʼrning grafik shakllantirilishi 4+4 turoqli barmoq vazniga muvofiqlashtirilgan. Misralar sindirilishi natijasida mazmunning taʼsir kuchi bir necha baravarga oshirilishiga erishilgan.

Anʼanaviy poetik obrazlarga yangi mazmun va gʻoyalar yuklanishi. Yangi oʻzbek sheʼriyati vakillari mumtoz adabiyotdagi obrazlardan unumli foydalanish barobarida anʼanaviy obrazlar mohiyatini

yangilangani kuzatiladi. Mumtoz she'riyatda faol qo'llangan obrazlar bu davrga kelib, tamomila yangi mazmun kasb eta boshladi. Obraz jamiyatning qiyofasini, Vatan va millat boshiga tushgan kulfatlarni, ijtimoiy holatni yoritishga xizmat qila boshladi. Endi ular mumtoz an'analardan farqli yangi mazmun-mohiyatni ifodalay boshladi.

Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyoti namoyandalari hamda jadid shoir-u adiblari Alisher Navoiy ijodiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ldi. Buyuk shoir asarlarini, ulardagi obrazlar olamini teran o'rgandi. Shuning barobarida, navoiyona obrazlarni yangiladi. "Chig'atoy adabiyoti va tiliga Navoiyning qilg'an xizmati juda ulug'dir, – deb yozadi Cho'lpon. – Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir. Ba'zi bir kishilar Navoiydan ancha keyin chiqqan adib va shoirlarimizdan bir-ikkita soddaroq yozg'anlarini ushlab olib, ularni haddan tashqari ko'tarmak bilan narigini bir qadar tubanlashtirmoqchi bo'lsalar ham, Navoiy o'zbek tili va adabiyotida tegishlik yuksak mavqeini olg'andir. Usmonli adabiyotining eng ulug' vakili bo'lg'an Fuzuliyning mashhur usmonli yozg'uchisi Shamsiddin Somibek Navoiydan keyinga qo'yib ko'rsatadir. Mana bu ham Navoiyning birgina o'zbek qavmi adabiyotida emas, umumturk xalqi adabiyotida ham o'ziga yarasha joy olg'anini ko'rsatadir"[1,20]. Bu fikrlar yangi o'zbek she'riyati vakillari ular mumtoz adabiyotdagi obrazlardan tamomila yangi maqsadlarni ifodalashda foydalangani isbotidir.

Oy, *quyosh* kabi an'anaviy obrazlar mumtoz she'riyatda o'ziga xos poetik ma'no ifodalangani ma'lum. Jumladan, "G'aroyib us-sig'ar" devonida hazrat Alisher Navoiy mana bunday yozadi:

Boqqach quyosh ruxsorig'a andin qilurmen ko'z yoshi

Kim, ul musofir oyima husn ichra bas monand erur.

Quyoshga tik qarab bo'lmaydi. Agar qaralsa, uning zarrin nurlari ta'siridan ko'z yoshlanadi. Ana shu hayotiy hodisani tamsil etgan buyuk shoir buning sababini quyoshning musofir oyga – safardagi yorga o'xshash ekani bilan izohlaydi. Mumtoz she'riyatdagi husni ta'lil san'atining betakror namunasi bo'lgan ushbu baytda quyosh – mahbubi haqiqiy, oy – majoziy ma'shuqa timsolini ifoda etib kelgan.

Oy, *quyosh*, *yulduz* obrazlari mumtoz adabiyotda ana shunday poetik mazmunni ifodalab kelgan. Yangi zamon she'riyatida bu obrazlarga ijtimoiy ma'nolar yuklana boshladi. Obrazlarning ijtimoiy ma'no ifodalashi adabiyotning ijtimoiyligi asnosida ramziyligini ham kuchaytirdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu jarayon adabiyotning badiiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmadi. Yangi o'zbek she'riyati o'zining badiiyati yuqoriligi, tafakkur kashfiyotining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Bu holatni yangi o'zbek adabiyotidagi har bir shoir ijodida kuzatish mumkin. Yangicha ma'rifatparvarlik adabiyotining zabardast vakillaridan bo'lgan Furqat ijodi ham obrazlarning mazmunan yangilanish xususiyati bilan xarakterlanadi.

Mavjud poetik janrlar ijtimoiy masalalar ifodasiga yo'naltirilishi. Yangi o'zbek she'riyati janrlar takomilida ham mumtoz adabiyot xazinasiga tayandi. Endi ijodkorlar mumtoz adabiy janrlarga ham davr talabidan kelib chiqqan holda Vatan va millat hayotidagi murakkab va ziddiyatli voqelik mohiyatni singdira boshladi. Bu hol dastlab Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar singari shoirlar ijodida kuzatiladi. Jumladan, Ubaydulla Zavqiy "Ko'z ochaylik" radifli muxammasida mana bunday yozadi:

Fursat g'animat, ahhob, millatga ko'z ochaylik!

Sa'y ila jonu dilda himmatga ko'z ochaylik!

Dinu diyonat istab, g'ayratga ko'z ochaylik!

Haq amri farz birla sunnatga ko'z ochaylik!

Umr o'tdi g'aflat ila ibratga ko'z ochaylik!

Avvalo, muxammas uchun tanlangan radifga diqqat qaratilsa, unda milliy uyg'onish adabiyotining asosiy mohiyati aks etgani kuzatiladi. Qofiya bo'lib kelgan millatga, himmatga, g'ayratga, sunnatga, ibratga so'zlari tashigan ijtimoiy mazmun bu she'rning mumtoz muxammaslardan keskin farq qilishini ko'rsatadi. Demak, mumtoz she'riy janr o'zgacha ma'no kasb etyapti. Unda milliy uyg'onish, din-u diyonat va Haq amrini baland tutish g'oyasi betakror badiiy talqin etilgan.

Bu kabi holatlarga yangi o'zbek she'riyatining ilk bosqichidayoq duch kelish mumkinligiga Komil Xorazmiyning qasidaları yorqin misoldir. Bilamizki, mumtoz adabiyotda qasida o'ziga xos adabiy-estetik qonuniyatlarga asoslangan mustaqil janrdir. Yangi o'zbek she'riyatida qasidalarning yaralishi an'ana va mazmuniy yangilanishi negizida kechdi.

Badiiy til va ifoda uslubining xalq ruhiyatiga yaqinlashuvi. Yangi o'zbek she'riyati mumtoz adabiyot an'analari asnosida taraqqiy topayotgan bir davrda til, uslub, mavzuning ham mumtoz adabiyot ta'siri negizida yangilanishi jarayoni kechdi. Davr ruhi va talabidan kelib chiqqan holda, badiiy til va ifoda uslubi o'zgarishga yuz tuta boshladi. Ammo ular to'laligicha mumtoz adabiyot an'alaridan xoli emas edi. Furqatning "Vistavka xususida" she'rida yuqorida qayd etilgan barcha xususiyatlar o'z aksini topgani kuzatiladi. She'rning nomlanishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, yangi o'zbek she'riyatiga xos bo'lgan

zamonaviylik ko'zga tashlanadi. Davr talabidan kelib chiqqan holda vistavka masalasiga munosabat bildirish uchun yozilgan she'r bog' tasviri bilan boshlanadi:

Ajab bog'iki, ruhafzo havosi,
Eram rashki nasimi jon fizosi.
Oqib har soridin obi ravonlar,
Edi andog'kim ul jism ichra jonlar.
Muattar bog' sahni ochilib gul.
Tomoshobinlar erdi anda bulbul.

Garchi mavzu ma'rifatchilik adabiyoti uchun xos bo'lsa-da, she'rning masnaviy tarzida qofiyalanish tizimi, vazni, til unsurlari, ifoda tarzi, obrazlar tizimi mumtoz she'riyat an'alarini yodimizga soladi. Bu she'rni tahlil etar ekan, adabiyotshunos Ulug'bek Hamdamov ham vistavka o'tkazilayotgan bog' tasviri mumtoz she'riyatdagi jannat bog'chalari tasviriga monand ekanligini, tasvir realistik emas, aksincha an'anaviy uslubga mos kelishini yozadi. Bu asarning tili va uslubini tahlil etib, shunday fikrlar bildiradi: "Birinchi parchada arab-fors tillaridan o'zlashgan so'zlar ko'proq bo'lsa, keyingi parchalarda sof o'zbekcha va rus tilidan o'zlashgan so'zlar ko'proq. Ya'ni birinchi parcha an'anaviy she'r tiliga, keyingilari jonli so'zlashuv tiliga yaqin. Shu sabab ham birinchi parcha aruziy ohangda tabiiy o'qiladi, keyingilarining o'qilishida bir qadar sun'iylik seziladi. Buning sababini, menimcha, ifodalash ko'zda tutilgan yangicha mazmunning mavjud shaklga muvofiq emasligi bilan izohlash kerak. Mazmundagi o'zgarishlar esa, hayotdagi o'zgarishlar bilan, davrning ijtimoiy kayfiyati bilan bog'liqdir. Aslida, davr ruhi eng avval tilda aks etadi. Shu jihatdan qarasak, jadid she'riyatida tilning xalqchillashuvi barmoq tomon siljishning eng muhim sababi sifatida ko'rsatilishi mumkin. Zero, yuqorida Furqat, Muqimiy asarlarida ko'rilgan an'anaviy she'riyat tilidan chekinib, jonli tilga yaqinlashish tendensiyasi jadidchilik davriga kelib kuchaydi, jadid she'riyati uchun anglangan ijodiy prinsip bo'lib qoldi"[2,75].

Badiiy til va ifoda uslubining xalqchillashuvi, ayniqsa, Cho'lpon she'riyatida kulchiroq bo'lganini ta'kidlash kerak. "Xazon" she'rida shoir mana bunday yozadi:

Kuz chog'i... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog'i tuproqlar.
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so'ng damda yaproqlar.

Tuproqlarning gezarib qolishi – xalq tiliga juda yaqin ifoda. Yaproqlar qizorib yonishi – Cho'lpon tilining xalq ruhiga nechog'liq yaqin bo'lgani isboti. Mumtoz she'riyatga xos aks san'ati qo'llangani dastlabki satrlarda ta'sir kuchi oshishini ta'minlagan. Ushbu san'atning mohiyati: "Shoir bir misra she'r yozib, uni ikki qismga bo'lib, so'ng qismlar o'rnini almashtirib, ikkinchi misrani tiklashi"[3,80] bilan bog'liq ekani nazarda tutilsa, ushbu san'atdan mahorat bilan foydalanilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, yangi o'zbek she'riyatida an'ana va yangilanish jarayoni bir-birini taqozo etdi va uzviy bog'liqlikda kechdi. Mumtoz adabiyot an'analari yangi o'zbek she'riyatining taraqqiy topish jarayonida asosiy adabiy-estetik zamin vazifasini ado etdi.

Adabiyotlar

- 1.Чўлпон. 500 йил. /Асарлар. Тўрт жилдик, IV жилд. – Т.: "Академнашр", 2016
- 2.Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърляти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Ф.ф.д.дисс. –Т:2017
3. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. -Т.: Sharq, 2020

O'ZG'URMISH –KOMIL INSON

Ilhom Hamroyevich Jumayev

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Telefon: 90 821 28 85 e-mail: ijumayev12@gmail.com

Annotatsiya:

Bu maqolada komil inson tushunchasining azaldan insoniyatni qiziqtirib kelganligi va bu tasavvufiy manbalarda qay tarzda berilganligi haqida fikr yuritilgan. Maqolada shuningdek, ilk turkiy yozma yodgorligimiz "Qutadg'u bilig" asari muallifi Yusuf Xos Hojibning komil inson sifatlarini O'zg'urmish misolida aks ettirganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", Komil inson, O'zg'urmish, dunyo, nafs, halol va xarom.

Абстрактный:

В данной статье рассматривается, чем понятие идеального человека интересовало человечество с древнейших времен и как оно представлено в мистических источниках. В статье также анализируется тот факт, что Юсуф Хос Хаджиб, автор первого турецкого письменного памятника «Кутадгу Билиг», на примере Озгурмиша отразил качества совершенного человека.

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, «Кутадгу билиг», Совершенный человек, Озгурмиш, богатство, похоть, халяль и харам.

Abstract:

This article discusses how the concept of the perfect person has been of interest to humanity since ancient times and how it is presented in mystical sources. The article also analyzes the fact that Yusuf Khos Hajib, the author of the first Turkish written monument "Qutadgu Bilig", reflected the qualities of a perfect human being in the example of Ozgurmish.

Key words: Yusuf Khos Hajib, "Qutadgu bilig", Perfect human being, Ozgurmish, wealth, lust, halal and haram.

Komil inson tushunchasi butun bir insoniyatni azaldan qiziqtirib kelgan asosiy mavzulardan biri bo'lib, komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida ularning orzusi, istagi, ideali bo'lib kelgan. Komil insonni tarbiyalash to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan va davr o'zgarishi va zamon o'tishi bilan shakllanib borgan. Kamolotga erishgan shaxs to'g'risidagi fikrlar va xulosalar go'yo odob-axloq singari o'zgarib, rivojlanib, takomilga erishib borgan. Komil inson tushunchasi va insonparvarlik g'oyalari, jamiyat a'zolarining munosib tarbiyasi Islom dinining ham bosh maqsadi sanaladi. Chin insoniylikni targ'ib etuvchi tasavvuf ta'limotida ham kamolotga erishishning bir qator darajalari ko'rsatib berilgan bo'lib, mutasavviflarning fikricha komil inson yaxshi axloqli, nuqsonlardan holi, nafsga qarshi kurash olib borgan va uni yenggan, sabr-qanoatli, boylik va mol-mulkdan yiroq shaxsni nazarda tutganlar. N. Komilov komil inson haqida "Komil inson bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot" [6.130]

Muhyiddin Ibn al-Arabiy (1165-1240) ning fikricha, "komil insonning yerdagi timsoli hazrat Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdirlar. Ul zot vujudlarida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Payg'ambarimiz xalq va Haq muqobilida turardilar va orada vosita edilar". [6.131-132]

Yusuf Xos Hojib ham payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) ni yuksak ehtirom bilan tilga oladi:

Сэвуг савчы ыдты бағырсақ иди,
Будунда талусы, кишидэ кэди. (33)
Йула эрди халкқа қаранқу түни,
Йаруқлуқы йадты, йарутты сэни. (34)
Оқытчы ул эрди байатдын сэнэ,
Сэн өтрү көни йолқа кирдин, тоңа. (35)

Mazmuni:

Меҳрибон эгам севиқли расулни юборди,
(У) халқ орасида сараси (ва) кишилар орасида яхшиси эди.
Қоронғу тунлари (у) халққа машғал эди,
(У) ёруғлигини тарқатиб сени рўшноликка чиқарди.
У худодан сенга хабарчи эди,
Сен сўнг тўғри йўлга кирдинг, эй баҳодир. [1.68-69]

Adib "савчы" – "payg'ambar" so'zi oldidan "сэвуг" so'zini keltirgan. Bu epitet o'rnida qo'llangan so'z bo'lib, sevikli, manzur, yoqimli kabi ma'nolarni bildiradi. Ya'ni Xudo (bu so'z oldidan ham "бағырсақ" so'zi keltirigan) insoniyat uchun, aniqrog'i musulmon ahli uchun mana shunday kishini "ыдты", ya'ni jo'natdi.

Ikkinchi misrada ajratilgan silliqlovchi vazifasida kelayotgan "будунда талусы", "кишидэ кэди", ya'ni "kishilarning sarasi" va "kishilarning eng yaxshisi" demakdir.

Undagi kamolot shu darajada ediki, adib buni xalq uchun qorong'u kechadagi "йула" – "mash'ala" ga o'xshatadi. Ayni mana shu vosita atrofni yoritadi. Demak, mash'ala o'zidan nur taratib, qorong'u yerlarni yoritgani kabi, payg'ambar (s.a.v) ham o'z ma'rifati bilan johil va hech narsani (islom borasida) bilmaydigan kishilarni yoritdi, ya'ni ularning qalblarini nurlantirdi.

Байат раҳматы эрди халқы үзэ,
Қылынчы силиг эрди қылқы түз-э. (41)
Түзүн эрди алчақ қылынчы силиг,

Овутлуғ бағырсақ ақы кәң әлиг. (42)
Йағыз йәр йашыл көкдә әрди көшүш
Анар бәрди тәңри ағырлық өгүш. (43)

Mazmuni:

У худонинг халқ узра юборган раҳмати эди,
Феъл-атвори мулойим, хулқи хуш эди.
Мулойим, юмшоқ, табиатли, хушфеъл (эди),
Андишали, меҳрибон, саховатли, очиқ қўл (эди).
Бўз ерда, яшил осмонда азиз эди,
Тангри унга беҳисоб хурмат ато қилди. [1.68-69]

Uning borligi xalq uchun xudoning rahmati, marhamatidir. Zero, uning qiliqlari “силиг” – “muloyim” va “қылқы” – fe’l-atvori “түз” – to’g’ri edi. Fazilatlar sanog’i davom etadi. Endi uning haqiqatparastligi (“түзүн”); yumshoq ko’ngilligi (“қылынчы силиг”); uyat-andisha egasiligi, mehribonligi, sahovati va ochiq qo’l (“кәң әлиг”) ligi uqtiriladi. Bunday fazilatlar egasi bo’lganligi uchun u yerda ham, ko’kda ham “көшүш” – “aziz” edi. Huddi shuning uchun ham tangri unga munosib “ағырлық”, ya’ni xurmat va e’zozga munosib ko’rdi.

Көңүл бадым әмди аның йолынга
Сэвиб сөзи туттум бүтүб қавлынга. (45)
Илаҳа кәдәзгил мәниң көңлүми
Сэвуг савчы бирлә қопур қопғумы (46)

Mazmuni:

Энди мән кўнгилни унинг йўлга боғладим,
Қавлига ишониб, сэвиб сўз(лари)га амал қилдим.
Ё рабб, мәнинг кўнглимни ўзинг эҳтиёт тут,
севикли паёмбар билан турғиз. [1.70-71]

(Қиёматда)

Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) barcha musulmonlar uchun namuna, axloqan pok, kamtar va xokisor, sabr-toqatda tengsiz, yaqinlariga va umuman barcha ummatiga mehribon, bilimli, sofdil inson bo’lganlar va o’z o’rnida Yusuf Xos Hojib ham hayotdagi maqsad-muddaosini Payg’ambarimiz hayot yo’llaidan andoza olgan va so’zlariga amal qilgan holda hayot kechirishga harakat qilganligini ta’kidlaydi.

Payg’ambarimizning hayot yo’llari, aytgan so’zlari, qilgan amallari har bir musulmon uchun hayot yo’llarida dasturul amal bo’lmog’i darkor. Shu boisdan Mahmud As’ad Jo’shon Payg’ambarimizning suyuqli zavjalari Oysha (roziyallohu anho)ning fikrlariga tayanib, ul zot axloqini Qur’oni karim bilan qiyoslaydi. “Qur’oni karimning barcha oyatlari ifodalagan, ko’rsatgan g’oyalarni, maqsadlarni mahkam ushlagan, amalda qo’llab, haqiqatan hayotga tatbiq etgan bir inson edilar Hazrati Payg’ambarimiz. Mus’hafdagi satrlar Hazrati Payg’ambarimizda mujassamdir. Ularning hayotdagi tatbiqi, amaldagi hayotidirlar Payg’ambar janobimiz”. [7.131]

Yusuf Xos Hojib ham Alloh taolodan:

Ҳабиб савчы йолы мәни йэттәчи,
Ул-оқ савчы болсу әлиг туттачы. (381)
Мени (камолга) элтувчи – севимли паёмбар йўли,
Ўша паёмбарнинг ўзигина менга (иноят) қўлини узатгувчи бўлсин. [1.116-117]

deya niyat qiladi va asar qahramonlarini ham shu maqsad atrofida birlashtiradi. Dostonning har bir qahramoni o’ziga hos xislat-husuriyatga ega bo’lib, bular orasida O’zg’urmish zohid tabiatliligi va qanoat timsoli sifatida ajralib turadi. O’zg’urmish Kuntug’di elig va O’gdulmish bilan qilgan suhbatlarida faqirlikni ulug’laydi. Faqirlik – tariqatda o’nta maqomotning biri. So’fiylar nazdida ulug’vor ilohiy mohiyat kasb etish bo’lib, Xudoga bandalikni sidqidildan oliy darajada bajo keltirish, bandalikdan sharaf topish, niyozmandlik va talabgorlikda yo’ldagi tuproq misol nomu nishonsiz bo’lish, Iloh nazdida o’zini zarra, balki zarradan ham kam deb hisoblash. Va shu martabada komillik rutbasini qozonish ham. Barcha narsalar, olamu odam Allohga tegishli, insonning vujudi ham o’ziniki emas, chunki u ham Yaratganning mulkidir. Faqrni ana shunday mazmunda anglagan odam tasavvuf mohiyatiga ham etib boradi.

O’zg’urmishning o’ziga xos jihatlaridan biri bu dunyoni o’ziga g’anim deb bilishi va undan o’zini olib qochishidir. Uning qarindoshi O’gdulmishga bildirgan so’zlariga e’tibor berilsa, dunyoning barcha aybu nuqsaonlari birma-bir ko’rsatib berilgan.

Анын эдгү эрмәз бу дунйа куты,
Байатдын йыратур бу-ул дин йуты. (3478)
Байуса болур көр будун күткиси,

Чыгайлык билэ-ул көңүл кутқысы. (3479)

Mazmunı:

Шу сабадан бу дунё кути яхши эмаски,
(У) худодан узоқлаштиради, у дин офатидир.
Халк бойиса, ҳаво-кибри ортади, кўр,

Кўнгил тавозеси камбағаллик биландир. [1.546-547]

Zohid dunyoni o'ziga dushman deb biladi, chunki duyoga berilish insonni iymonidan ayiradi, Xudodan uzoqlashtiradi. Shu sababdan dunyo din ofatidir. Haqiqiy inson kambag'al insondir. Faqat uning qalbi boy bo'lsa yetarli. Shoir bu o'rinda faqirlikni maqtamoqchi emas. Aksincha boy bo'lganga yarasha kibru havodan, manmanlikdan yiroq bo'lgan, insonlarga nafi tegadigan, o'zining nafsini jilovlay olgan insonlarni ulug'lagan. Shu boisdan ham ko'ngil tavezisi kambag'allik bilandir deya sharhlab o'tgan. Ya'ni o'zi boy bo'lsada, ko'ngli faqirlikni ixtiyor etgan insonlar haqiqiy boylardir.

Insonning bu dunyoga kelishi ham ajib bir sinoat. U bu dunyoga yalang'och, hech vaqosiz keladi. Ammo hayotining deyarli barcha qismini mol-mulk, dunyo yig'ish bilan o'tkazadi. Oxir-oqibatda esa barcha yiqqanlarini tashlab bir parcha kafanlik bilan huddi tug'ilgan vaqtida qandoq bo'lsa shu holida hayotdan ko'z yumadi. Inson abadiy yashasa ekan, yiqqanlarini umri davomida sarflasa. Afsuski, bu o'tkichi dunyo ikki qutb, ya'ni tug'ilish va o'limdan iborat. Inson bu hayotga bir eshikdan kirib yana bir eshikdan chiqib ketadi. Ba'zi insonlar esa shu ikki eshik orasidagi umri davomida qimmatsiz narsalar uchun o'z din-u iymonini sotishga ham tayyor.

Zohid bu dunyoni bevafo deya mazammat qiladi va uning kirdikorlarini quyidagicha sanab o'tadi:

Көрү барса дунйа көлинкә саны,
Эдәрсә качар качса эдрәр сәни. (3488)
Бу дунйа качар ким эдәрсә аны,
Йана качса андын эдәрүр сәни. (3490)
Йана динкә өчлүг бу дунйа нәни,
Оса дунйа дин йәр бақа-ул көр муны. (3491)
Бәзәниб бу дунйа өзін көргитүр,
Этинмиш кэлин-тэг өзін йэлгитүр. (3492)
Көнул бәрдин эрсә бу куртға йүзи,
Йақанны тутар күндә кәтмәз сөзи. (3493)
Йана қылқы ирсәл қылқынчы йайығ,
Бәги бирлә тутмаз түгәл үч айығ. (3494)

Mazmunı:

Назар солсанг, дунё кўланка кабидир,
Изидан борсанг, қочади, қочсанг изингдан боради.
Ким изидан борса, бу дунё қочади,

Гумон қил, дунё диёнатни тортади, бунга (бир) назар сол.

Яна бу дунё моли динга ўчликдир,
Ўйла, дунё динни ейди, бунга назар сол.
Безаниб бу дунё ўзини кўрсатади,
Ясанган келиндек ўзини селкиллатади.
Кўнгил бериб кўйсанг, бу юзи кўҳна (қари)
Кунда ёқангни тутади, сўзи (ҳеч) тугамайди.
Яна қилиғи жафо, қилмишлари бевафоликдир,
Беги билан тугал уч ой (ҳам) турмайди. [1.546-547]

O'zg'urmish dunyoni ko'lankaga qiyos etadi. Ko'lanka bu sarob misoli, uni qo'lda ushlab ham, izidan quvib yetib ham bo'lmaydi. Ko'lankaning yana bir jihati uni yorug' bor vaqtda ko'rishingiz mumkin, ammo qorong'u tushgan ondan boshlab uni topa olmaysiz. Shu nuqsoni bilan dunyo ham bevafoidir.

Ammo dunyoni butkul o'zlariga bo'ysundirgan, uning makr va hiylalaridan forig' bo'lgan tariqat ahllariga dunyoning o'zi kelib xizmat qilishi mumkin. Bunga misol Ibrohim binni Adham va uningdek buyuk so'fiylar cho'lu saholarlarda kezarkanlar, ularga noz-ne'mat to'la dasturxon yozilganligi rivoyat qilinadi. Boshqa bir darvishga esa har ovqatlanish paytida issiq bir burda non berilarkan, uni kim keltirganini so'rashganida: "Allaqanday bir kampir keltiryapti" deya javob bergan ekan. Bu kampir esa dunyo emish. Dunyo aslida makkor bo'lsa-da, Alloh do'stlariga xizmat qiladi. Hatto shayton ham bir darvishning chirog'ini qirq yil jome' masjidiga ko'tarib borgan ekan. Zero, Quroni karimda ham shaytonning haqiqiy ixlos sohiblarini yo'ldan adashtirilmaligi ta'kidlangandir. (Hijr, 15:40) ... [5.9]

“Abu Bakr Varroq Termiziydan naql qiladilar. Bir kishi uning ziyoratiga keldi va undan nasihat qilishini so’radi. Shayx Abu Bakr unga : “Ikki jahonning yaxshiligi Alloh berganiga qanoat qilmoqdir va ikki jahonning zavoli molning ko’p bo’lmog’idir. Borgin, bu nasihatga amal qilsang ikki jahonda najot topasan”- dedi”. [4.413]

Zohid bu dunyoni o’z qiliq-raftoriga ko’ra “барығлы” ya’ni “ketuvchi”, insonni esa “йурығлы”, (yuruvchi) “көчүғли” (ko’chuvchi) deb nomlaydi va bir manzildan boshqa bir manzilga ko’chib o’tayotgan inson yo’l ustida imorat solmaydi va yiqqanlarini uyida qoldirmasligini ta’kidlaydi. Oxirat dunyosini esa “кэлиғли” deya ataydi va uning kelishi haqiqatdir, o’limdan va qazoi qadardan qochib qutulib bo’lmasligi haqiqatligiga ishora qiladi.

Қонук йа бу дунйа сәңәр бир түшүн,
Түшүндә сәвүнч тутма артук узун. (3513)
Ya’ni

Сен учун бу дунё бир меҳмонхона ёки работдир [яъни тушиб ўтадиган жойдир].
Работдан кўп, узок севинма.

Shoir bu o’rinda dunyoni safarga chiqqan insonlarning vaqtinchalik qo’nim topib, dam olib yana yo’lida davom etadigan manzili – “түшүн ” ya’ni mehmonxona, rabotga qiyos etadi. Inson bu dunyoning vaqtincha qo’nim topib o’tadigan joy ekanligini va bu dunyoda mehmon ekanligini, bir kun kelib o’zidan oldingilar ketgani kabi o’zi ham bu dunyoni tark etishini unutmasligi kerak. Shoir o’quvchiga ta’sir qilishi uchun doston tarkibiga Muso alayhissalom, Fir’avn va boshqa Qur’onda nomlari zikr qilingan insonlarning hayotini misol qilib keltiradi.

Yetuk inson bo’lishning yana bir sharti o’z nafsining asiri bo’lmaslikdir. O’zini bilgan odam nafsning asiri bo’la olmaydi. O’z nafsining asiri bo’lmagan odam har xil yomonliklardan, har xil xatolardan, har xil adolatsizliklardan va hokazolardan pokdir. O’z nafsining asiri bo’lmagan odam o’zini har tomonlama nazorat qilishni biladi. U butun umri davomida ezgulik va to’g’rilik yo’lidan yuradi va bu yo’lda o’zining yetuk inson bo’lishiga to’sqinlik qilayotgan to’siqlarni yengib, yetuk inson bo’lish sari intiladi. O’zini va o’z nafsini shunday tarbiyalab, shakllantirgan kishi o’z nafsini tarbiyalay olmaydigan va shakllantira olmaydigan nodon va yomon odamlarga berilib qolmaydi. Shu sababdan ham inson o’zini har qanday nopoklik va har qanday yomonlikdan poklashni istasa, avvalo o’z nafsini tarbiyalashi, nafsini poklashi lozim. Qisqasi, aqli, ilmi va fazilati tufayli nafsini qo’lga olib, uni doimo nazorat ostida ushlab turishi kerak.

Ҳава нафс билә көр йағы-ул улуг,
Бу экки азытур тапуғчы кулуғ. (3301)
Ҳавақа болу бәрсә тутғун болур,
Эт өз арзу булса мәни кул кылуғ. (3302)

Mazmuni:

Ҳавас билан нафс улуг ёвдир, кўр,
Хизматчи кулни бу иккиси (йўлдан) оздиради.
Ҳавасга эрк берса, киши туткун бўлади,
Тану жон орзуга етишса, мени кул қилади.
Қодир худо хуш кўрса ҳам, хуш кўрмаса ҳам,
Тоат-ибодат оти тилда атамайдиган отдир. [1.520-521]

O’zg’urmish timsolida Yusuf nafsga erk bermaslik, halollik, birovning haqini yemaslik, boriga qanoat qilib kun ko’rish, haromdan hazar qilish kabi kundalik amallarni bajarishni ommaga da’vat qilishni ilgari suradi. Insonni yo’ldan ozdiruvchi havas va nafsga erk bermaslik eng to’g’ri yo’llardan biridir. Tasavvufiy kitoblarda ham insoniyatni nafsning kirdikorlaridan ogoh qilib kelishgan.

“Ey inson, bilib qo’yki, doim yomonlikni xohlab turadigan NAFS senga shaytondan ham dushmanroqdir. Shayton nafsingning hoyu-havasi bilan bo’yingga minib olib, seni Allohning yo’lidan chiqarishi mumkin. Nafsing esa seni behuda amallar va quruq hayollar bilan aldab qo’yur! Chunki nafs tabiatan tinchlik-osudalikni, loqaydlik, g’aflat va beparvolikni yoqtiradi va umrni tanballik bilan o’tkazishni istaydi. U doimo behuda va botil (buzuq) narsalarga o’ralashadi. Behuda kibrga beriladi.” Agar nafsingdan mamnun bo’lib, uning xohishlariga yursang, manziling falokatdir, o’limdir. Yanglish hisoblar va xom hayollaringdan xabardor bo’lmasang, oxiri chokishing muqarrardir. Agar, NAFSga “to’xta!” deyishga ojizlik qilsang, u seni yong’inga olib boradi. U holda aslo yaxshilikka qaytish umidi yo’qdir. NAFS balolarning boshi, razolatlarning manbaidir. Shayton uchun gunoh xazinasi bo’lgan NAFSni yaxshi ko’rgan odam YARATGANni taniy olmaydi”. [2.9]

Бу үчдә адын йок бу дунйа нәни,
Ҳалал-ул йа шубҳа ҳарам-ул өни. (3498)

Халалқа сақыш-ул ҳарамқа ма қын,
Қалы шубҳа эрсә йэмә кәд сақын. (3500)
Бу дунёнинг (куйидаги) учтадан бошқа нарсаси йўқ,
(Бири) — ҳалол, (иккинчиси) — шубҳа, бошқа бири ҳаромдир.
Ҳалол учун ҳисоб, шунингдек, ҳаром учун азоб бор,
Агар шубҳа бўлса-чи, жуда ҳам эҳтиёт бўл. [1.548-549]

O'zg'urmish halol topib, halol yeyish, haromga yaqinlashmaslik va doimo haromdan uzoq turishni hayotining mazmuniga aylantirgan va o'z o'rnida halol topish va halol yeyish hech kimga zarar keltirmasligini isbot etishga kirishgan zohid timsolidir. Halollik- Islom dinining asoslaridan biridir. Shuning uchun ham halollikni umr mazmuniga aylantirgan va halol topib, halol yeydiganlarning boyligi daryolardek ko'p. Shunday ekan, odamlar halol topib, halol yeyish nimani anglatishini tushunishlari lozim. Abu Homid G'azzoliy ham o'zining "Saodatga eltuvchi bilim" asarida quyidagi fikrlar orqali zohidlarning halollikni qanchalik maqsad qilganini isbot etadi:

"Zohid halol molni ham faqat luzumi darajasida ishlatadi. Chunki bu ham uning uchun bir o'lik (murda) hukmidadir. Zohidlar, obidlar nazarida, harom otash darajasidadir. Qat'iyon haromni yemaydi va hech bir tarzda unga yaqinlashishni ko'nglidan ham o'tkazmaydi. O'lishga rozi bo'lsa bo'ladi, ammo haromni yeyish u yoqda tursin., unga yaqin ham yo'lamaydi. Bu maqomga erishganlarning qalbi dunyodan sovigan, ko'nglida dunyo sevgilari tamoman yo'q bo'ladi. Hidlanib qolgan murdadan jirkanganday, dunyodan nafratlanadi". [2.55]

Yusuf Xos Hojib asardagi qahramonlar timsoli orqali insoniyatga ezgu amallarni shakllantirishni maqsad qilgan. Chunki komil inson o'zgalarga ko'zgu kabidir. Insonlar unga qarab o'zlaridagi xato-kamchiliklarni tuzatadilar. Undan maslahat olib to'g'ri yo'ldan og'ishmaslikka harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Юсуф Хос Ҳожиб. "Қутадғу билиг" (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. - Т.: Фан, 1971
2. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. Toshkent: Adolat, 2002
3. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Saodatga eltuvchi ilm. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Fariddiddin Attor. "Tazkirat ul avliyo". Toshkent. G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Najmiddin Kubro. O'n usul o'n ashara. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005 .
6. N.Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movaraunnahr-O'zbekiston, 2009.
7. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va go'zallik. – Toshkent: Adolat, 2004.

O'ZBEK ERTAKLARIDA "SEMURG" OBRAZI

Jahongir Komiljonov

Namangan xalqaro universiteti o'qituvchisi,

Namangan davlat universiteti erkin tadiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq ertaklari va mifologiyasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan afsonaviy Semurg qushi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sehrli ertaklar, Semurg, "Rustam", "Semurg", "Zar kokilli yigit" ertaklari.

Abstract

This article discusses the legendary Semurg bird, which has a unique place in Eastern fairy tales and mythology.

Keywords: Magical fairy tales, Semurg, "Rustam", "Semurg", "Zar kokilli yugit" fairy tales.

Абстрактный

В данной статье речь пойдет о легендарной птице Семург, занимающей уникальное место в восточных сказках и мифологии.

Ключевые слова: Волшебные сказки, Семург, сказки «Рустам», «Семург», «Зар кокилли югит».

Ertak butun dunyo xalqlari folklorida mavjud qadimiy va keng tarqalgan janrdir. Unda umumbashariy mifologik dunyoqarash o'zining badiiy ifodasini saqlab kelmoqda.

Ertak xalq og'zaki ijodining ommalashgan epik janri bo'lganligi tufayli unda, syujet bir chiziqli bo'lishi bilan birga ko'p chiziqli bo'ladi. Syujet chizig'ida birdan ortiq ezgulik yo'lida kurashuvchi qahramonlar ishtirok etadi. Shuningdek, yovuzlik kuchlarini ifodalovchi obrazlar ham birdan ortiq bo'ladi va shu yo'sin obrazlar tizimi vujudga keladi.

Ertaklardagi qushlar obrazi asosan mistik va dualistik qarashlarning mahsuli sifatida yashab kelmqda, desak, xato bo'lmaydi. Masalan, afsonaviy Semurg' obrazining alohida o'mi bor. Chunki qadim zamonlardan bu qush ertalarimizda xalqning badiiy estetik ideali, adolat va haqiqat uchun kurash ramzi sifatida keladi.

Semurg' ishtirokida bir qancha ertaklar mavjud. Semurg' – turkiy xalqlar mifologiyasida uchraydigan va keyinchalik yozma adabiyotga ham ko'chgan mifik obrazdir. Mazkur qush ulkan qanotlarga ega bo'lgan, odatda, ertak qahramoniga yordam beradigan, qahramonni bir joydan ikkinchi joyga tezda, ya'ni ko'z ochib yumguncha yetkazadigan yordamchi va homiy sifatida tasvirlanadi. Bu sehrli qushning makoni ham afsonaviy Qof tog'i deb aytiladi.²¹ Lekin ba'zan u dunyo chetida yashaydi va olamni tutib turadi, degan qarashlar ham mavjud.²²

Uni ko'rgan odamning orzulari ushaladi. Semurg'ning turkiy xalqlarning qadimgi mifologiyasida uchraydigan qushlar: Ulgen, Humo bilan genetik aloqasi borligini ta'kidlaydigan fikrlar mavjud.²³

Islom dini kirib kelgach esa, bu qush tasavvufiy mohiyat tusini oldi. Masalan, mashhur fors shoiri Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida haqiqiy ilm ifodasi, yaratuvchanlik va yaratish ramzi sifatida keladi.

Hazrat Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida Semurg' obrazi badiiy-estetik ideal, birlik va ozodlik, olam mohiyatini birgalikdagi anglanishini ifodalaydi.

Dostonda Semurg' Xitoy shahri ustidan uchun o'tayotganda eng go'zal patidan birini tushirib yuboradi va Xitoy shahrining barcha aholisi nurga cho'madi hamda shu kundan boshlab, xitoyliklar rassomlik bilan shug'ullana boshlashadi. Ular orasidan eng mashhuri Moniy bo'ldi. Moniy esa yetuk rassom va moniylik dinining asoschisi sifatida milodning boshlarida yashagan tarixiy shaxsdir.

"Semurg'"²⁴ ertagida mazkur qushning vazifasi bir muncha boshqacharoq tarzda keltiriladi. Ertakda qush badiiy-ijtimoiylikka yaqin, lekin mifik vazifasini saqlagan holda tasvirlanadi. Buni Semurg'ning yer osti olamidagi baland daraxtda yashashi, ajdarhodan qo'rqishi tasvirlanadi.

Bir qari ovchining uch o'g'li bo'lgan ekan. Ovchi o'z bolalariga ovchilik hunarini o'rgatibdi. Kunlardan birida uch o'g'il ovga chiqishibdi. O'rmonda ov qilib charchashibdi. Kechga yaqin kattasi ovqat pishirishga urinibdi. O'rtanchasi esa kichigi bilan dam olishga yotib, uxlab qolishibdi. Katta akasi ham ovqati pishay deb qolganda, uxlab qolibdi. Yarim kechasi esa o'rmondan yalmog'iz kampir kelib, ovqatni yeb-ichib, qozonni to'ntarib ketibdi. Ertalab turib qarashsa ovqat yo'q, qozon to'ntarilgan. Katta aka hayron emish. Ertasi kuni o'rtancha o'g'il ovqat pishirishga kirishibdi. Lekin unda ham shu ahvol sodir bo'libdi. Uchinchi kuni kenja o'g'il ovqat qilishga kirishibdi. Yarim kechasi ovqat qilayotib mudroq bosib, uyqusi kelib qolgan ekan, jimjilog'ini qonatib tuz sepibdi. Shu tariqa uyqusini qochirib turganda, yalmog'iz kampir kelibdi. Kenja o'zini panaga olibdi va uni kuzata boshlabdi. Yalmog'iz qozondagi ovqatni yeya boshlabdi. Kenja bir urib yalmog'izning boshini kesib tashlabdi. Qarasa, tanasi qolib, boshi bir tomonga qarab dumalab qocha boshlabdi. Uning ortidan quvib borsa, yalmog'izning boshi bir g'orga kirib ketibdi. Kenja o'sha joyni belgilab, yalmog'iz tanasini yerga ko'mibdi va akalarning oldiga qaytibdi. Ertalab akalari uyqudan turgach, ularga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Uch og'aynilar ovqatni yeb, g'or og'ziga kelishibdi.

Yalmog'iz kampirning boshi g'orga kirib ketishida ham mazkur obrazning kaos (tartibsizlik) bilan bog'langaniga ishora bor. Qadimgi manbalarda kaosga xos xususiyatlarda yer osti dunyosida yashayotgani yozilgan²⁵. Demak, "Semurg" ertagida uch og'aynilar oldida endi yovuzlik, yani mifik obrazlar bilan kurashish turadi. Aynan shu yerda ularga himoyachi kuch sifatida Semurg' qush obrazi ertakda paydo bo'ladi.

Etrakning davomida g'orning yer ostiga chuqur kirib ketgani va u yer zulmat ekanligi tasvirlangan. G'orga tushish uchun datslab katta aka tayyorlanadi va beliga arqon bog'lab pastga tusha boshlaydi. Lekin yarmiga borganda qo'rqib qaytib chiqadi. O'rtanchasi bilan ham shunday hol yuz beradi. Oxiri kenjasi g'orga tushadi. Qarasa, haqiqatdan ham g'or chuqur, zimiston, qo'rqinchli ekan. Bu yerda ham kenja o'g'ilga alohida e'tibor berilgan. Bu esa ertaklarda kenja botir, kenja o'g'il kabi obrazlar aynan qush obrazi bilan yonma-yon keladi va qush faqat u bilan hamkorlik qiladi. Ya'ni uni o'z uyiga kiritadi, keyin ota-onasining oldiga olib boradi, baland tog'lar ustidan olib o'tadi va hokazo.

Semurg' qushi bilan bog'liq ertaklar qozoq xalq folklorida ham uchraydi. Qozog'istonlik olim S.Qasqabasovning ma'lumotlariga ko'ra, qozoq ertaklarida Samruk degan ulkan qush poloponlarini qutqargan qahramonni yerning ostidan yorug' olamga olib chiqadi va bir dona patidan beradida. "Agar

²¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Kohi_Qof

²² https://uz.wikipedia.org/wiki/Kohi_Qof

²³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Semurg>

²⁴ Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва Қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 79-83 betlar

²⁵ Qarang. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. –Toshkent. Fan.2002 yil. 10-12 betlar.

boshingga mushkul ish tushsa, shuni kuydirsang, qarshingda hozir bo‘laman”, - deydi. Ertakning davomida haqiqatdan ham bola patni kuydirish orqali Samrukni yordamga chaqiradi²⁶.

Semurg‘ bilan Samrukning o‘xshashligi ko‘p. Har ikkalasida ham qush baland daraxtda yashaydi, har ikkala qushlarning polaponlarini ajdardan ertak qahramoni qutqaradi. Keyin minnatdorchilik sifatida yer yuziga olib chiqadi. Faqat qozoqlarda pat berish va keyinchalik uni kuydirish orqali Samruk qushini yordamga chaqirish “Semurg” nomli o‘zbek ertagida yo‘q. Lekin bunday holat o‘zbek xalq ertaklarida yo‘q, degani emas. Boshqa ertaklarda qushning pat berishi va uni kuydirishi bilan bog‘liq syujet liniyasi mavjud.

“Zar kokilli yigit” ertagida bola yalmog‘izni yengib uchta ot va uchta sehrli qushni qutqatradi. Minnatdorchilik ramzi sifatida esa otlar yolidan, qushlar patlaridan berishadi. Keyingi qismda bola podshoning uch shartini bajarayotib, boshiga mushkul ish tushganda, patlarni kuydirsa, uning oldida uch qushlardan biri paydo bo‘ladi. Bolani qiyin ahvoldan chiqishiga yordam beradi va zar kokilli bola uch shartni bajaradi²⁷.

“Guliqahqah” ertagi²⁸da esa daraxtga uya qurgan qushning bolalarini ajdardan saqlab qolgan Tillo bolaga qush patidan beradi. Keyinchalik bola qush patini kuydiradi, sehrli qush yordamida oynaijahonnomada ko‘rgan qizini topadi.²⁹

Bunday ertaklardagi qush va uning pati bilan bog‘liq tasbirlar mifologik qarashlariga borib taqaladi. Masalan, ukki, boyo‘g‘li kabi qushlarning patlarini yosh bolaning do‘ppisiga taqib qo‘yish, ko‘k yo‘tal kasalligi bilan og‘rigan bolaga esa ko‘kqarg‘a patining ivitilgan suvidan ichirish, kelinchaklarning bosh kiyimiga esa qush patidan qistirish kabi udumlar qush kultiga ishonchdan kelib chiqqan. Buni professor Bahodir Sarimsaqov shunday izohlagan: patni tutatish orqali Semurg‘ qushini chaqirib olish motivining genetik asosi “o‘luvchi va qaytadan tiriluvchi” tabiat haqidagi qarashlardan o‘tib chiqqan³⁰.

Professor Mamatqul Jo‘rayev esa o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan, qush bilan bog‘liq tasvirlarni animistik dunyoqarashlar bilan bog‘laydi³¹. Darhaqiqat, “Avesto”ning “Bahran yasht” faslida Varag‘n qushi va uning sehrli pati kishiga sog‘lik berishi, dushmanlarning sehr-jodusidan asrashi, omad va baxt olib kelishi haqida quyidagilar yozilgan:

*Qanoti keng Varag‘n,
Olgin qushning patini –
Patini ol, o, Zardo‘sh
Astoydil qilib ixlos.
U bilan taning siylab
Dushmaning jodusidan
Bo‘larsan butkul xalos*³².

“Avesto”dagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Varag‘n qushining pati kimda bo‘lsa, unga omad qushi hamisha hamroh bo‘ladi, jangda omad kuladi, ishi o‘ngidan keladi.³³ Aynan shu xususiyat keyinchalik ertaklardagi qushlar obraziga ko‘chgan. Masalan, “Yaltillama sopol tovoq” ertagida Semurg‘ bolaga o‘z patidan beradi. Aytadiki, podshohning qo‘liga bir zirapcha kirgan, uni ko‘p hakimlar olishga uringan, ammo ololmagan. Podsho ko‘pdan beri azob chekadi. Shu zirapchani sen mana shu pat bilan olib tashlaysan³⁴. Haqiqatdan ham bola pat yordamida podshoni davolaydi va oynaijahonnomaga ega bo‘ladi. Demak, Semurg‘ qushining kelib chiqishi Varag‘n qushi bilan bog‘liq, degan xulosa chiqarishimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Miflarda yozilishicha nafaqat qushning pati, hatto suyagi ham sehrlidir:

*Bu pat bizga xayrli
Qudratli varag‘nning,
Kuchli qushning so‘ngagi –
U ham hatto sehrli.
Kimga madadkor bo‘lsa,
Kimga omad yor bo‘lsa,*

²⁶ Каскабосов С. Казаская волшебная сказка. – Алмата. 1990. стр – 100.

²⁷ Олтин бешик. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985 йил. 115-117 бетлар.

²⁸ Чалпак ёққан кун. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Чўлпон. 1987 йил.79-81 бетлар.

²⁹ Чалпак ёққан кун. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Чўлпон. 1987 йил.79-81 бетлар.

³⁰ Саримсақов Б. Эпик жанрлар диффузияси.// Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент. 1981.113-бет

³¹ Жўраев М., Пиримкулова М., Миф, фольклор ва адабиёт. -Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2006 йил. 16-бет.

³² Авесто. Варахна алқови. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000 йил. 2-сон. 76-бет. М. Исҳоқов таржимаси.

³³ Авесто. Варахна алқови. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000 йил. 2-сон. 76-бет. М. Исҳоқов таржимаси

³⁴ Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва Қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 275- бет.

*uni qo'llar mehr-la.
Muqaddas qushning pati.
Uni o'ldira olmas,
Hech vaqt qotilu g'addor.
Pat kimda bo'lsa, agar
U barcha yovni yengar!*³⁵

Varag'n qushi va u bilan bog'liq animistik qarashlar keyinchalik ertaklarga ko'chgan va Semurg' qushining shakllanishida boshqa mifik qarashlar bilan birga ishtirok etgan.³⁶

"Rustam"³⁷ ertagida ham Semurg' qushi ishtirok etadi va o'zining mifologik qudrati, ya'ni dunyoda bo'ladigan voqealarni bashorat qilish fazilatini namoyon qiladi. Somu Narimon ismli podshohning o'n yettita xotini bo'ladi va birorta ham o'g'li bo'lmaydi. Shundan keyin u Qo'hi Qofdan bir malikaga uylanadi va o'g'il farzand ko'radi. Ammo g'anamlari podsho o'g'li Zolni tug'ilishi bilan yo'qotib, o'rniga nonvoyning o'g'lini yotqizib qo'yishadi. Buni, ya'ni Zolning tug'ilish muddati, dunyoda tengi yo'q olim bo'lishi va ming yil yashashini Semurg' oldindan biladi. Adilar (otasi dev, onasi parilardan bo'lgan zotlar)dan bo'lgan malika o'z bolam deb, boshqa bolani emizib o'tirganda Semurg' malikaning haqiqiy bolasi – Zolni to'qaydan topib, uyiga olib keladi va uni boqadi. Zol Semurg' oshyonida o'n to'rt yil yashaydi va ilm o'rganadi. O'n to'rt yil o'qib, qirq yillik olimlar bilan teng bo'ladi.

Bir kuni podsho Somu Narimon majlis qilmoqchi bo'lib, barchani chaqiribdi. Majlisga Semurg' ham kelibdi. Podshoning oldida o'tirgan bola uning bolasi emasligini podshoga aytibdi. Turgan gapki, podsho-yu ayonlar uning so'zlariga ishonmabdi. Shunda Semurg' bola nonvoyning o'g'li ekanligini aytibdi. Podshoning jahli chiqibdi. Shunda qush bolaga otning bolasi ot, qo'yning bolasi qo'y bo'ladi, shu bolaga bir tovoq non berib uyga olib kir deb ayting, agar bola nonni qo'lda olib ketsa, sizning bolangiz, boshida olib ketsa, nonvoyning bolasi bo'ladi, debdi. Podsho o'g'lini chaqirib uyga non olib kirishni buyribdi. Bola tovoqni olib boshiga qo'yib uyga olib kiribdi.

Podsho malikaning kanizagidan bu gapning rost ekanligini bilib olibdi. Semurg' Zolni olib kelib otasiga topshiribdi. Zol uylanib o'g'il ko'ribdi va unga Rustam deb ism qo'yibdi. Lekin malikaning ahvoli og'irlashib qolibdi. Shunda Semurg' qirq hukamo bilan kelib malikani davolabdi. Keyingi voqelarda ham Semurg' Suhrobni tiriltiradi.³⁸

Mazkur ertakda Semurg' qushining yaratuvchilik qudrati, oldindan bilishi, olimlar bilan birga yurishi, insonlar hayotiga aralashib, ularni halokatdan saqlashi, tabiblik qilishi bayon qilingan. Bu esa ertak syujetining ancha kengligini va Semurg' haqida ko'proq va to'laroq ma'lumot olish imkonini beradi. Chunki bu qush orqali qadimgi odamlarning qushga bo'lgan e'tiqodi namoyon bo'lgan.

Shu o'rinda qush obrazining bugungi davrgacha yetib kelishidagi kuzatishlarning badiiy-mifologik funksiyasidagi ba'zi o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Masalan, Semurg' qushi qadimgi manbalarda qush misoli uchib yuradigan Xudoning odamga xabar yuboradigan elchisi deb hisoblangan bo'lsa³⁹, keyinchalik, u odamning yaqin yordamchisi, homiysi, og'ir paytlarda madadkori, hayotdagi nohaqliklarni to'g'rilovchi kabi ijtimoiy adolat funksiyalarida keladi. Bu esa ertakchilarning shaxsiy dunyoqarashi va ijtimoiy taraqqiyot natijasida sodir bo'lgan janr hamda tipologik modifikasiya hisoblanadi.

Adabiyotshunosligimizda mif va badiiy ijodining aloqasi, mifning badiiy adabiyotga ko'chishi va muqim saqlanib qolish shartlaridan biri ularning yangi makon va zamonga moslashishidir. Shu tariqa turli qushlar bilan bog'liq bo'lgan mifologik qarashlar, arxaik tasavvurlar ertaklarda qisman o'zgarish bilan asl mohiyatini saqlagan. To'g'ri, bunda qushlarning mifik davrdagi o'rni biroz pasayishi tabiiy. Lekin qushlarning yaratuvchilik, homiylik, madadkorlik jihatlari saqlab qoling. Bu esa mifik obrazlarning ertakdagi keyingi taraqqiyotini belgilab bergan. Ya'ni ertaklarda mavjud bo'lgan mifik asosdagi qushlar obrazi yashashi uchun, avvalgidek, ma'bud, totem, anima darajasida emas, balki, ana shu tasavvurlarning ikkinchi qismi bilan bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi. Chunki yakkaxudolik, islomiy qarashlarning shakllanishi mifik asosdagi qushlar obraziga xos yetakchi jihatlarni o'zgartirgan. Ammo jahon tan olgan ertaklarda mifik asoslarning boshlanishi bo'lgan ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, yaxshi va yomon kuchlar kurashi hamda bu tushunchalarning yaxlit shakli bo'lgan obrazlar, jumladan, qushlar obrazi diniy va

³⁵ Авесто. Варахна алқови. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000 йил. 2-сон. 76-бет. М. Исҳоқов таржимаси.

³⁶ Авесто. Варахна алқови. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000 йил. 2-сон. 76-бет. М. Исҳоқов таржимаси.

³⁷ О'zbek xalq ertaklari 3-jild M.Afzalov, X.Rasulov, Z. Husainova O'qituvchi nashriyoti 2012. 2-nashr, 249-258 betlar

³⁸ О'zbek xalq ertaklari 3-jild M.Afzalov, X.Rasulov, Z. Husainova O'qituvchi nashriyoti 2012. 2-nashr, 249-258 betlar.

³⁹ Bu haqda bilish uchun qaralsin: O'zbek mumtoz adabiyoti namunalar. –Toshkent. Fan.2002 yil. 10-12 betlar

mifologik qarashlar mahsuli sifatida ertaklarga singdirib yuborilgan. Buning yorqin misolini biz, “Qahramon” nomli ertakda ko‘rishimiz mumkin⁴⁰.

Mazkur ertakda Semurg‘ hatto devlar ham qila olmaydigan yumush – yetti zulmat ustidan uchib o‘tishi mumkinligi keltiriladi. Qizig‘i shundaki, bu ertakda ham Semurg‘ farzand dog‘ida kuygan, ajdar bilan kurashdan ilojisiz qush sifatida beriladi. Lekin asarning keyingi o‘rinlarida ulkan toshlarni yerdan ko‘tarib Qahramon kurashayotgan qirq devlar ustiga tashlaydi va bu bilan Qahramonga yordam beradi. Zulmat o‘lkasiga olib boradi. Bu yerda patsda faqat suv, tepada zulmat, yorug‘lik esa yo‘q edi.

Ertak oxirida Semurg‘ bolalari yoniga qaytadi. Qahramon esa Zubayda Zulfiqoraga uylanadi va Tinch shahrining podshosi sifatida yashaydi. Bunday baxtga Qahramon, albatta, o‘z aql-u zakovati, shuningdek, Semurg‘ qushi yordamida erishgadi. Shuning o‘ziyoq qushning totemistik mohiyatini belgilaydi. Biroq uning ajdar bilan kurasha olmagan, bolalarini ajdar yeb ketishi oldidagi ilojisizligi ham aslida mifik asosga ega. Chunki Ajdar zulmat olamining, yovuzliklarning, jabr-zulmning vakili, Semurg‘ esa ijobiy olam vakili. Ikkinchisi o‘rtasidagi kurashda odamning hal qiluvchi rol o‘ynashi “Qahramon” ertagida ochib berilgan.

Semurg‘ qushi o‘zbek xalq ertaklarida shu qadar teran ildizga egaki, uning ayiq totemi bilan aloqasi “Ayiqlar polvon” ertagida ham ochilgan⁴¹. Mazkur ertakda Ayiq va Iqbol ismli qizning o‘g‘li Semurg‘ yordamida yer yuzidagi hayot daraxtini izlab topadi.

Bu yerda dataxt ham qadimgi ajdodlarimizning animistik qarashlari ekanligi sezilib turadi. Ayiq ham o‘zbek totemistik qarashlarida homiy, yaratuvchi obraz sifatida mavjudligi ko‘rsatilgan. Biroq asosiy gap ana shu ayiqning yarmi odam, yarmi ayiq bo‘lgan o‘g‘lining devlarni yengishi va ular yordamida yer haydab, atrofni obod qilishi, turli xatarlar o‘tib hayot daraxtini topishi va ayiq hamda odamlarni o‘zaro murosaga keltirishi haqida qimmatli badiiylashgan ma’lumotlarni beradi. Bu ertakda ham Semurg‘ an’anaviy tarzda, ya’ni daraxt ustida yashaydigan, polaponlarini ajdar yeb ketadigan, odam ajdarni yengib, Semurg‘ni o‘ziga yordam beruvchiga aylantiradi. Ammo boshqa ertaklarda uchramaydigan bir jihat borki, bu Semurg‘ obrazining badiiy-mifik funksiyasi bilan bog‘liq.⁴²

Xulosa qilish mumkinki, Semurg‘ning barcha ertaklarda yer ostida yashashi, odam isini darhol bilishi uning tabiatida g‘ayriinsoniy xususiyatlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Keyinchalik ertakda u odamga yaqinlashadi. Ana shu jihat ertaklardagi qush obrazining ijtimoiy funksiyasi bilan bog‘liqdir.

Umuman olganda, mifik asosga ega ertaklar asosan tematik jihatdan doimo deyarli bir xil bo‘ladi. Masalan, dunyoning barcha xalqlarida qushlar insonga yordam beruvchi, yovuzlikka qarshi kurashuvchi, insonga omad va baxtdan xabar beruvchi obraz sifatida keladi. Bu insoniyat bosib o‘tgan yo‘l, tarixiy shart-sharoit, umumiylik jihatidan bir xil yo‘ldan kechganligi bilan izohlanadi.

Ma’lumki, dunyoning barcha xalqlari ertaklarida o‘xshash mifik obrazlar, sayyor syujetlar uchraydi. Masalan, qadimgi kelt qabilalarida qush ilohiy olam belgilarini olib keluvchi ijobiy yoki, folbinlik yo‘li orqali odamlarga yomonlik qiluvchi sehrgarlarning asosiy yordamchisi bo‘ladi. Buni keltlarda uchraydigan baxt qushi bilan, qarg‘a obrazlarining o‘zaro qarama-qarshiliklarida ko‘rish mumkin. Xitoyliklarda ko‘plab qushlar, asosan, turna, tovus, xo‘roz yaxshi taqdir va uzoq yillik hayot ramzi sanaladi. Xristianlikda qush qanotli ruh, jannatdagi ruh yoki yosh Iso alayhissalom qo‘lidagi qush timsolida keladi.

Qadimgi misrliklarning ertaklarida qush Qaqnusning o‘xshashi sifatida qayd etilgani manbalarda yozilgan. Qaqnus va Samandar qush kabi bosh obrazlarning boshqa xalqlar ertaklaridagi o‘xshashi mavjud.

Buning vujudga kelishi esa quyidagicha: Turli xalqlar tomonidan bir mavzu bo‘yicha bir xil g‘oyani ifodalovchi xilma-xil asarlar yaratilishi natijasida sayyor syujetlar vujudga keladi, ana shunday syujetlar ertak tarkibiga kirishi tufayli sayyor syujetli ertaklar paydo bo‘ladi. Biroq ertak – bu, badiiy asar. Badiiy asarda esa biror xalqning dunyosi o‘z aksini topadi. Shu jihatdan qaraganda ertakda, ma’lum bir xalqning, birinchi navbatda milliy ruhiyati va milliy xarakteri o‘ziga xos ifodalanadiki, bu shu ertakni yaratgan xalqni boshqa xalqlardan farqlaydi – o‘ziga xosligini ifodalaydi.

Faslda tadqiqotga tortilgan ertaklarning deyarli barchasida Semurg‘ qushi bolalarini o‘ylab, insonga yordam bergani ta’kidlanishi ham mazkur mifik qush obrazining badiiy-estetik g‘oyasida hayot davomchisi, avlodlari uchun fidoyi bo‘lish kabi qirralar borligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertaklaridagi Semurg‘ obrazi esa qozoq ertaklaridagi Samruk bilan atalishi va genezisi jihatdan mushtarakligini anglash qiyin emas. Shuningdek, uning “Avesto” madaniy yodgorligidagi Varag‘n qushi bilan genetik jihatdan aloqasini ko‘rsatib o‘tish lozim. Lekin yozma adabiyotga, xususan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoniga o‘tgach Semurg‘ obrazi birlik, ahillik, komillikka intilish kabi yangi badiiy vazifalarda ifodalanagan.

⁴⁰ Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва Қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 25-33 betlar.

⁴¹ Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 57-68 -betlar.

⁴² Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 57-68 -betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Зумрад ва Қиммат. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1988. 79-83 бетлар
2. Мифы древнего мира. Москва. Просвещение. 1991.
3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. –Toshkent. Fan.2002 yil. 10-12 betlar
4. Каскабосов С. Казаская волшебная сказка. Алмата. 1990. стр – 100.
5. Олтин бешик. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985 йил. 115-117 бетлар.
6. Чалпак ёққан кун. Ўзбек халқ эртаклари.-Тошкент. Чўлпон. 1987 йил.79-81 бетлар.
7. Саримсаков Б. Эпик жанрлар диффузияси.// Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. Тошкент. 1981.113-бет
8. Жўраев М., Пиримкулова М., Миф, фольклор ва адабиёт. -Тошкент. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2006 йил. 16-бет.
9. Авесто. Варахна алқови. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2000 йил. 2-сон. 76-бет. М. Исҳоқов таржимаси.

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA TARJIMA MASALALARI

Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna

*Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti, Samarqand, O'zbekiston
tursunoyeshboyeva@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy tarjima, xususan, she'riy tarjimada vazn va qofiyaning o'ziga xos tomonlari o'rganilgan. She'riy tarjimaning boshqa turdagi (sinxron, ilmiy-texnikaviy, siyosiy-publisistik, axborot-analitik materiallar tarjimasi) xususan, badiiy tarjimadan o'zaro farqli jihati xususida so'z boradi. Eng muhimi she'riy tarjimada o'ta muhim bo'lgan ijodkorlik mahorati ushbu moqalaning tahlil markazini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, ohangdorlik masalasiga katta e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, badiiy asar, tarjima, tarjimon, she'r, qofiya, ruhiyat, ilhom, mahorat, badiiy did.

Abstract: In this article, the specific aspects of weight and rhyme are studied in literary translation, especially in poetic translation. Other types of poetic translation (simultaneous, scientific-technical, political-publicistic, informational-analytical translation of materials) are discussed, in particular, the different aspects of literary translation. The most important thing is creativity, which is very important in poetic translation, which is the center of analysis of this article. In addition, great attention is paid to the issue of tone.

Keywords: literature, work of art, translation, translator, poem, rhyme, spirit, inspiration, skill, artistic taste.

She'riyat – bir dunyo. Uning markazida inson turadi. So'nggi davr she'riyatida ifoda va uslub kun sayin o'zgarmoqda. Yangicha shakl orqali insoniy kechinmalar, his-tuyg'ular, ruhiyat rang-barangligini ifodalash keng tus olmoqda. Ixchamlikka intilish va qisqa satrlarda inson kayfiyati, ruhiyatini ifoda etish hozirgi zamon she'riyatining o'zgacha ko'rinish olganligidan dalolat beradi. She'r–badiiy ijodning his-tuyg'ularga boy eng nafis namunasidir. She'riyatda xalqning ruhi, madaniyati, isti'dod va iqtidorining mavqei mujassamlangan bo'ladi. She'riy asarda shakl va mazmun bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Har bir she'riy asar o'z mazmuniga mos shakl-vazn, qofiyalanish sestemasi, ritm va intonatsiyaga ega. Asarning ohangdorligi va vaznga rioya qilish usullari masalasi she'riy tarjima nazariyasi ba tajribasining muhim muammolaridan biridir.

She'riy tarjima haqida gapirganda mazmunning qanday saqlanganiga emas, balki estetik ma'no qay darajada qayta yaratilganiga qarab baho berish lozim.

She'riy tarjima murakkab ijodiy jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Bu murakkablik, ayniqsa she'riy asarlar tarjimasida yaqqol namoyon bo'lishini kuzatamiz. Shuning uchun ham biz mazkur soha vakilini haqli ravishda shoir tarjimon deb ataymiz. Bunda tarjimon-chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli jumladan, yashirin ma'nolarini mufassal bayon qilish yo'llari orqali muallif fikrini kitobxonga aniqroq yetkazishga intiladi.

Ammo to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish tarjimondan shoirona ilhom va ulkan mahoratni talab qiladi. She'riy tarjima ham she'r kabi

ilhom kelganda, asar tarjimonga kuchli ta'sir ko'rsatganda dunyoga keladi. Ammo she'r tarjimasi ko'ngil ishi ekanini tan olmasdan ilojimiz yo'q. Chunki, tarjimon yuragiga yaqin, ko'ngliga mos keladigan, ruhiyatiga tushadigan g'azalni yoki she'migina estetik zavq bilan qayta yaratadi. Agar tarjimon o'z tarjimasidagi g'azal yoki she'rdan estetik zavq olmasa, u qilgan tarjimaning estetik ta'sirchanligi bo'lmaydi, natijada tarjima quruq va shirasiz bo'lib qoladi. She'riy tarjima lisonida (nutq) ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi she'riy tarjimaning lisoniy kognitiv tahlili tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi.

Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativ stilistik (me'yoriy uslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. She'riy tarjimada lisoniy –kognitiv metod ham mavjud.

Kognitiv so'zi inglizcha "**cognize**- bilmoq, anglamoq, tushunmoq" so'zidan olingan bo'lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog'lab, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Kognitologiya bilimning lisoniy voqilanishi jarayonini tavsiflashni gumanitar fanlar sohasidagi eng asosiy muammolar qatoriga quyadi. Ushbu muammo zamonamizda rivoj topayotgan ilmiy taqdiqotlarning muhim yunalishlarini belgilab bermoqda. Professor SH.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, unyman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir diya ta'kidlaydi. (Kognitologiya.115-b.SH Safarov.)(3.65).

Shunday ekan insonning kundalik voqea- hodisalarga munosabatati tilning kognitiv nazariyasining amalda qo'llanishi bilan uzviy bog'liqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil bo'lgan hayot tajribamiz, bilim va ko'nikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan narsa – predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlar olamiz va ana shunga tayangan holda o'zaro so'zlashuv jarayonida nutqimizning yanada ravon bo'lishiga ya'ni, bekamu ko'stligiga erishamiz.

Bizga ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezish, his etish bilan boshlanadi. Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yunalish leksik- semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga ko'ra til umumiy kognitiv mexanizm bo'lishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axbototni taqdimotimini, kod yordamida uzatish va o'zgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

She'riy asarlarni nasriy ijoddan ajratib, farqlab turadigan o'ziga xos xususiyatlari tarjima jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Har qanday she'riy asarni ko'lga olishingiz bilan dastlab ko'zga tashlanadigan narsa uning zohiriy tomoni bo'lib, hali mazmuni bilan tanishmay turib, nazmni nasrdan farqlash imkoniyatini beradi. Bu zohiriy tomon - she'riy asarlarning ma'lum tartibidagi shakli: o'lchovi, bandlanishi, kofiyasidir. Zohiriy fazilatlar she'riy asarning mazmunini ifoda qilish uslubiga (ifoda seqiqligi, obrazli uslubiy vositalarning ko'p ishlatilishi, o'ziga xos sintaksis) ta'sir qiladi.

Nazm uchun xos bo'lgan maxsus xususiyatlarning tarjima jarayonida qay tarzda va qay sifatda qayta ishlatilishi, ularning tarjima asarlarining estetik ta'sir ko'rsatadigan kuchini qayta tiklanishidagi moxiatni o'rganish tarjima nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan ma'lum qiziqish uyg'otadi.

She'riyat boshqa uslub va janrlar ichidagi eng jonli va ta'sirchan bo'lganligi, shuningdek, u qofiya, misra, band kabi qayta tartibga uchun soluvchi unsurlarga ega bo'lganligi, tufayli, undagi gaplarda so'z tartibi nasrga qaragandako'p va antiqa o'zgarishlarga uchrab turadi. Sintaktik uslubiy vositalar ham nazmda nasrdagidan ko'ra ko'proq ishlatilib, ular she'r ritmini tashkil etishda, uning ifoda kuchini oshirishda, eng muhimi, uning g'oya va mazmunini kitobxonning his-tuyg'ulariga kerakli ta'sirni o'tkazishda ishtirok etadi.

She'riy tarjima asrlar davomida filologlar, shoirlar, she'rshunos olimlar, she'riy tarjima masalalari bilan maxsus shug'ullangan mutaxassislar diqqat markazida bo'lib kelgan. She'riy tarjima nasriy tarjimadan ko'p jihatdan farq qilsa-da, ular o'rtasida mushtaraklik mavjud. Ular tillararo poetik yoki she'riy kommunikatsiyaga xizmat qiladi.

She'riy matndagi informatsiya nasriy matndagi informatsiyadan tubdan farq qiladi. She'rdagi informatsiya mazmuni turli-tuman, bir-biriga zid va hatto biri ikkinchisini inkor etishi mumkin. She'riy informatsiya o'z ichiga faktual hamda konseptual, ya'ni ma'noga bog'liq informatsiyani oladi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ayni paytda ular bir-biriga dinamik qarshi bo'ladi. Faktual va mazmuniy informatsiya tashqi real yoki noreal dunyo haqida muayyan fakt, hodisa, voqealar asosida ma'lumot beradi. Badiiy nutq sirasiga kiradigan she'riy matn tarjimasi she'r tuzilishi qonun-qoidalarini hisobga oladi. Bunda

nasr tahlilida qo'llanadigan ritm, ohang, sintaktik qurilish, badiiy obraz va boshqa badiiy unsurlar diqqat markazida bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar va atamalar she'riy matn tahlilida ham qo'llaniladi, biroq ular she'riyatning qat'iy qonun-qoidalarini asosida amalga oshiriladi. Har gal tarjimon she'riy tarjima tajribalarini o'rganish, she'riy tarjimalarining yutuq va kamchiliklarini aniqlash, she'riy tarjima tahlili natijalari asosida ba'zi tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilgan. She'riy tarjimaning eng asosiy vazifasi — yaxshi she'r tarjimada yomon she'rga aylanib qolmasligiga harakat qilish, tarjima mazmunini iloji boricha to'liq saqlab qolish, she'riy matn shakllarining she'r mazmuniga mos ravishda ham vaznini, ham ohangni saqlab qolish hisoblanadi. Tarjimaning yaxshi-yomonligini nafaqat tarjimon, balki o'quvchi ham bir o'qishda sezishi lozim. Tillar she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi. She'riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she'riy sistemasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir she'r o'ziga yarasha noyob asar sanaladi.

She'riy tarjimada asarning hamma unsurlarini to'liq saqlab qolish imkoniyati yo'q, biroq ba'zi tarjimashunos olimlarning fikriga ko'ra she'rdagi obraz, she'riy hamohanglik saqlanishi lozim. She'riy obraz va hamohanglikning qanchalik saqlanishi tarjimon mahorati bilan belgilanadi. Agar yuqorida zikr etilgan fonetik stilistik vosita va usullar fikrni chiroyli va mazmunli ifoda eta olmasa va bu tarjimada formal vazifanigina bajaradigan bo'lsa, she'r mazmuniga putur yetadi, aksariyat hollarda she'riy tarjima matni asliyat matnidano'zozqlashib qoladi. Qo'llangan ifoda vositalari badiiy taassurotni kuchaytiradigan olmasa, she'r ohangi, ritmi va asosiysi mazmuni o'zgarib qoladi, she'rdan tegishli estetik zavq olish qiyinlashib, mazmun sayozlashadi va ifoda vositalari shunchaki tovushlar yig'indisidan iborat bo'lib qolishi mumkin.

Bunda she'rning vazni, turog'i, qofiyasi, ohangi, hamohanginiginigina emas, balki she'rning turli kombinatsiyada kelgan turini, xususiyatini, muallifning individual uslubi bilan bir qatorda har bir tildagi she'r xususiyatini hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu she'r tarjimonidan chuqur bilim, ikki til an'alarini, milliy xususiyatlarini, lingvomadaniy jihatlarini, she'rdagi asosiy g'oya, obraz, stilistik vosita va usullarning qo'llanish sabablarini, she'riy informatsiyani o'quvchiga ifodali yetkazishda ishtirok etgan til unsurlari har birining vazifasi, she'r yozilgan davr xususiyatlari va shu kabilarni hisobga olish talab etiladi.

Qofiya – misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishidir. Qofiya she'rning musiqiyligi, ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi, uning yod olinishini osonlashtiradi. Qofiya mumtoz she'rshunoslikda vazn kabi she'riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo'lib, uning bayt so'ngida qo'llanilishi zaruriy talablardan biri bo'lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan - ilm i qofiyada o'z ifodasini topgan. Mumtoz adabiyotda shoirlarning badiiy salohiyati she'rda qo'llangan qofiyalarning g'oyalar mohiyati, timsollar olamini ochib berishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ohangdorligi bilan ham belgilangan. Qofiya san'atlari va turlaridan unumli foydalanish, qofiyaning boshqa she'riy unsurlar - vazn, badiiy san'atlar bilan munosabatiga e'tibor qaratish mumtoz ijodkor mahoratining muhim qirralaridan biri hisoblangan. Shu sababli o'tmishda shoirlarimiz qofiya ilmini maxsus fan sifatida alohida o'rganganlar, shu sohada yetuk ustozlardan ta'lim olganlar. Bizga ma'lumki, qofiya she'riy asarlarda ifodalanishi maqsad qilingan g'oyalarni badiiy so'z yordamida teran va ta'sirchan aks ettirishning o'ziga xos va muhim vositalaridan biridir. Har bir misra yoki bayt tarkibidagi qofiyalarda shoirning g'oyaviy badiiy niyati muayyan ma'noda o'z ifodasini topadi. 50 ta fransuzcha so'zga 9 ta qofiyadosh juftlik tug'ri keladi. 100 tasi takrirlanmaydigan 200 ta so'zdan iborat fransuzcha matnda esa bu lisoniy materialdan 37 ta qofiya yasash mumkin. Qofiya she'rda bir qancha vazifalarni bajaradi:

- a) ma'no vazifasi — qofiyadosh so'zlararo (shu bilan birga, misralar orasida) ma'no aloqasini o'rnatadi;
- b) ritmik vazifa;

Qofiya she'rning kompazitsiyon tomondan eng muxim bo'lgan nuqtasidan joy oladi, natijada she'rda ritmik vazifa xosil bo'ladi. Bu ikki vazifa xar bir shoirning qofiyalash sestimasiga xos bo'lib, o'zaro bir-biri bilan chirmashib ketadi. Mutaxassislarning kuzatishlariga qaraganda, analitik ingliz tilining qofiyaviy lug'atida 400 ga yaqin barqaror qofiya xosil qiluvchi gruppalar, ya'ni bir hil tugaydigan so'zlar turkimi mavjud. Fransuz tilida 600 ga yaqin shunday gruppa mavjud. Har bir so'z faqat o'z turkumidagi o'zga so'zlar bilan qofiyaga kirishadi, boshqa turkum so'zlari bilan qofiyalanmaydi.

Vazn arab tilida o'lchov, meyor ma'nolarini beradi. Xar bir she'rda aniq ravshda ruyobga chiqaruvchi ritm xodisasi vazn deb ataladi. Vazn she'rning asosiy hususiyati. Bu shunchaki nutq ulchovi emas. Vazn-ritmning asosi, bu she'riy sestimalarni vujudga keltiradigan zamin hisoblanadi. Jaxon she'riy sestimasining (aruz, hiyo, sillabo-tonik, aleksandiriya, metrik) hammasi vazn tabiatidan paydo bo'lgan. Vazn hususiyati esa har bir tilning fonetik qurilishidan hosil bo'ladi. Vazn muayyan tildagi ritmik imkoniyatning nazmga ko'chgan shakli. Bir hil she'riy vazn bir necha xalq adabiyoti uchun mushtarak bo'lishi mumkin. Masalan aruzda bitilgan g'azalni rus tiliga aruz bilan, sillabo-tonik she'rni o'zbek tiliga sillabo-tonik vazn

bilan berishning iloji yuq. Shunday qilib, she'rni tarjima qilganda faqat har bir adabiyotda mavjud bulgan vazndan foydalanish mumkin.

Masalan, aruzda yaratilgan asarlarni ularning janr tuzilishi va foydalanilgan bahr turiga qarab sillabotoni vazningning turli shoxobchalari orqali tarjima qilish imkoni bor. Alisher Navoiy "Xamsa"si dostonlari besh turoqli yambda (muzakkar qofiyalar bilan), g'azallari esa shu vazning 8-10 turoqli tizimida; ruboyi va tuyuqlari besh va to'rt turoqli yamb bilan tarjima qilingan. Tarjima amaliyotida kam uchrasa-da, bazida tarjimonning asliyatidagi gap tuzilishiga yetarlicha e'tibor bermaganligi tufayli, asar mazmunining notog'ri talqin qilinishi hollari ham uchrab turadi.

Xullosa qilib aytganda, tarjima qilinayotgan she'riy asar shakli va mazmuni tarjimonlar tomonidan yetarlicha chuqur his etilsa uni tarjimada ham adekvat qayta yaratish mumkin, zero har qanday asar fazilatlarini, undagi uslubiy vositalar vazifasini tarjima matnida tiklash uchun o'zbek she'riyati zahirasi yetarlicha so'z san'ati boyliklariga ega. Sintaktik vositalar tarjimada hamma vaqt ham xuddi asliyatdagi shaklda berilmasa-da mohir tarjimonlar ularning matndagi vazifasini boshqa vositalar yordamida qayta tiklash imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Bu esa asarni tarjima tili o'quvchisiga asliyatga mutanosib holda yaxlit yetkazib berish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Rustamov. Adiblar odobidan adablar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. – 108 b.
2. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – 325 б.
3. Bekova N. Navoiy she'riyatida hamd poetikasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
4. Salomov G'., Komilov N. Tarjimon mahorati. – T.: Fan, 1979. – B. 30.
5. Hamidov X., Salimova Z. O'zbek tilidan turk tiliga she'riy tarjima muammolariga doir. // Sharq tarjimashunosligi: tarixi, hozirgi kuni va kelajagi. – T.: ToshDSH, 2013
6. Xolbekova B. She'riy tarjima mezonlari. // Jahon adabiyoti. – T., 2009 11-son.
7. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 14.
8. Salomov G'., Jo'rayev K., Olimov S. Tarjima san'ati. 4-kitob. To'plovchi
9. T.Jo'rayev. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 134-bet.
10. Жирмунский В. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1972. – 407 с.
11. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/husan-maqsud-oshiqsharhi-holi-ifodasida-badiiy-sanatlarning-orni>
12. www.ziyouz.com/index
13. www.fikr.uz

ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIY TANDIQCHILIGI RIVOJIDA OZOD SHARAFIDDINOV ASARLARINING O'RNI

*Tulisheva Gulzina Ravshanovna,
Jizzax DPU o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyoti va tanqidchiligining taraqqiyot bosqichlari va bu jarayonda Ozod Sharafiddinov asarlarining o'rni hamda ahamiyati tahlilga tortilgan.

Abstract: This article analyzes the stages of development of modern Uzbek literature and criticism and the role and importance of the works of Ozod Sharafiddinov in this process.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы развития современной узбекской литературы и критики, а также роль и значение творчества Озода Шарафиддинова в этом процессе.

XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi boshidan kechirgan murakkab davrda shakllangan adabiy tanqid ruhida millatparvarlik, xolis adabiy talqinga intilish tamoyili yetakchi edi. Afsuski, sho'rolar davrida adabiyot kabi tanqid ham hukmron kommunistik mafkuraga bo'ysunib, uning "dastyori"ga aylanishga majbur bo'ldi. Totalitar jamiyatdagi mash'um siyosiy-mafkuraviy tizim ijod erkinligi, xolis va haqqoniy tahlil va talqinga imkon bermaganligi achchiq haqiqatdir. 1980-yillardagi qayta qurish jarayonlari bilan adabiy-tanqidiy tafakkurda ham oshkoralik va ijodiy shijoatkorlik sezila boshladi. Badiiy ijodda bo'lganidek, adabiyotshunoslik sohasida ham ma'naviy qadriyatlarni, adabiy va tarixiy manbalarni xolis o'rganish, ularni tahlil va talqin qilishda yangicha mezonlar asosida yondoshish imkoniyati paydo bo'ldi. Milliy mafkura va Istiqlol g'oyalarning ilm-fan, xususan, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga singib borish jarayoni badiiy asarlarning xolis, ilmiy tahlil va talqin etilishida namoyon bo'layotir. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinov ijodi muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Hozirgi paytda o'zbek tanqidchiligi uchun milliy va umuminsoniy g'oya va qadriyatlarni tarannum etish, istiqlol mafkurasiga zid g'oyalarning zararli mohiyatini

ochib berishga e'tiborni kuchaytirish zarur va bu muhim, mas'uliyatli bir vazifadir. Ozod Sharafiddinov asarlarida ta'kidlanganidek, hayot va ijodagi maxdudlik va fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara, oshkora tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishi va tafakkur erkinligiga erishish asosiy muammolardan sanaladi. [1-14]

Tanqid va adabiyotshunoslikda badiiy tahlil jarayonida ontologik va sistem tahlil usullari nisbatan yetakchilik qilishi va ilmiy-qiyosiy tahlilga e'tibor kuchaygani, Navoiy davri va Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos poetika maktabi sifatida tan olinishi, hozirgi globallashuv jarayonlarida adabiyotlararo ijodiy ta'sir va an'ana muammolarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgani va bu yo'nalishlarda salmoqli tadqiqotlar yaratilgani tanqid va adabiyotshunoslikning ijobiy tamoyili va jiddiy samarasidir. Biroq shularga qaramay, o'zbek adabiy tanqid va adabiyotshunosligining keyingi yarim asrlik faoliyati va rivoji, yutuqlari va muammolari maxsus ilmiy tadqiqot shaklida tahlil markaziga qo'yilmagan. Xususan, bu jabhada noyob iste'dodi va betakror ijodi bilan alohida ajralib turgan Ozod Sharafiddinovning boy va rang-barang adabiy-tanqidiy asarlari o'zida davr ruhi va muammolarini aks ettirishi bilan muhim tarixiy-ilmiy va ma'naviy-estetik ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Jahon adabiy-estetik tafakkur olamida alohida o'rin egallagan Aristotel, Forobiy, Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning noyob asarlari hamda keyingi asrlarda bu sohada ulkan ilmiy-adabiy meros qoldirgan Gegel, Bualo, Belinskiy, Morua, M.F.Axundov, Fitrat, Konrad, Lixachev, Baxtin, Bertels kabi allomalar ijodi adabiyotshunoslikda alohida tilga olinadi. Ana shunday buyuk siymolardan biri - O'zbekiston Qahramoni, Davlat mukofoti laureati zabardast tanqidchi va adabiyotshunos, mohir tarjimon va publitsist Ozod Sharafiddinovning serqirra ijodi ma'lum darajada o'rganilib kelinmoqda. Alloma tavalludining 70 va 80-90 yillik yubileyari munosabati bilan qator anjumanlar o'tkazildi. "Matonat va muhabbat", "Zamondoshlari xotirasida" to'plamlari bosilib chiqdi. Abdug'afur Rasulovning "Ozod Sharafiddinov" risolasi nashr qilindi. Shuningdek, XX asr adabiyoti, tanqid-adabiyotshunosligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar, monografiya va dissertatsiyalarda ham Ozod Sharafiddinov ijodiga ko'p bora murojaat qilingan. Olimning ijodiy faoliyatining muayyan qirralarini yoritishda adabiyotshunoslar -- H.Yoqubov, B.Nazarov, A.Rasulov, S.Sodiqov, I.G'afurov, N.Karimov, U.Normatov, H.Umurov, S.Umirov, N.Xudoyberganov, U.Qosimov, A.Nosirov, R.Qo'chqorov, B.Karimov, T.Yo'ldoshev, N.Yo'ldoshev, M.Qo'chqorova kabilarning ishlarini ko'rsatib o'tish lozim. Ammo ulardagi davr siyosati va hukmron mafkura talablari bilan bog'liq ayrim yuzaki qarashlar, xususan, Cho'lpon, Hamza, G'.G'ulom, Qahhor, E.Vohidov, A.Oripov, Tog'ay Murod va boshqa adiblar hayoti va ijodi bo'yicha biryoqlama talqinlar qayta baholanishi, muayyan tuzatish-o'zgartirishlar kiritilishi, bahsli fikr va xulosalarga munosabat bildirilishi hamda ayrim noaniqliklar bartaraf etilishi zarurati tug'iladi. Shu bois ham Ozod Sharafiddinovning tanqidchi-adabiyotshunoslik va tarjimonlik faoliyatini adabiy jarayon bilan bog'liqlikda o'rganishga ehtiyoj yanada ortadi.

XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. "Keyingi 50 yilda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g'ururi bo'la oladigan ijoddur." [2-12] O'zbekiston Qahramoni Abdula Oripovning bu samimiy e'tipofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyish mumkin. Bu tarixiy haqiqat birinchi Prezidentimiz I.Karimovning so'zlarida ham teran ifodasini topgan edi: "Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir". Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov tanqidchi o'z iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda va badiiy ijod olamini rivojlantirishda qanchalar ulkan rol o'ynashi va qudratli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol isbotlab bera oldi.

Ozod Sharafiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijod va estetik tafakkur rivojidagi va ayniqsa adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos xizmatlari bu olimning g'oyat serqirra va betakror bir siymo bo'lganini ko'rsatadi. O.Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqish laridayoq yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik talanti hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ilhomi umrining so'ngiga qadar susaymadi. Bu haqda O'zbekiston Qahramoni, mashur shoirimiz Erkin Vohidov aytgan samimiy fikrlar millionlab kitobxonlarning ko'nglidagi yakdil fikrlarni ham ifodalagan: "Ozod SHarafiddinov XX asr adabiy muhitida o'z ibratli shaxsiyati, mustahkam e'tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimiz ning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanilgan alloma. Bunaqa odamlarni xudoyim bizning baxtimizga, jamiyat baxti uchun beradi".

Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik iste'dodi va ijodiy salohiyati nechog'lik serqirra va samarali ekanligini tasavvur etish uchun loaqal u kishining badiiy ijod va adabiyotshunoslikning qanday dolzarb va

murakkab mavzu va muammolarini teran yoritib berganligini bir qur esga olaylik. Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olaylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotning o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarining aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligidagi yuzaga kelgan. Bu haqiqatni va ularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin. Zotan, Istiqlol tufayli bugun Cho'lponning nomini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va uni adabiyotimizning eng porloq siymalaridan biri sifatida ardoqlashimizda O.Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir.[3-62]

Munaqqidning "Iste'dod jilolari" (1976) kitobi ham uning "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962) asari singari adabiy – tanqidiy tafakkur rivojida quvonchli bir voqea bo'lgan. Ushbu asarni varaqlar ekanmiz, dastavval undagi esse – portretlarning nomlari diqqatimizni o'ziga jalb etadi: "Cho'qqi", "Daryodil shoir", "So'z san'atiga fidoyi sadoqat", "Ulkan hayotning ilk sahifalari". Darhaqiqat, mashhur shoir, buyuk qalb egasi bo'lgan G'afur G'ulomga nisbatan "Daryodil shoir" degan iboradan ko'ra ham munosibroq ta'rif bormi? G'afur G'ulom ijodi adabiyotimizning eng yuksak va porloq "cho'qqisi"ga qiyos qilingani-chi? Yoki zabardast adibimiz Oybekning so'z san'atiga bo'lgan sevgi-sadoqatini "fidoyi" deb atamaslik mumkinmi?

To'plamdagi maqolalar hajman katta emas, lekin tanqidchi ana shu ixcham maqolalarda adabiyotimizning eng yirik vakillarining hayot yo'lini yoritishga va ular ijodi va shaxsiyatining asosiy qirralarini mufassal ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Haqiqiy tanqidchilarga xos mahorat bilan u yoki bu so'z san'atkorining ijodiy yo'li qanday shakllanganligini, uning o'ziga xos va mushtarak tomonlarini, adabiyotimizga qo'shgan hissasini va shu tariqa o'sha yozuvchining adabiyot tarixida tutgan o'rnini aniqlashni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Masalan, A.Qahhorning "Sarob" romani tahliliga to'xtalib o'taylik. Kitobxonlarga ma'lumki, "Sarob" romani tanqidchilikda ko'pgina munozaralarga sabab bo'ldi. Ayrim adabiyotshunoslar asarni to'la va to'g'ri baholay olmadilar. Ular romanning o'ziga xosligini, uning g'oyaviy-badiiy Jihatlarini qandaydir "quyma qolip"lar bilan o'lchab ko'rishdi va oqibatda yozuvchi oldiga noto'g'ri talablar ham qo'yishdi. Munaqqid A.Qahhorning satirik iste'dodi va uning evolyutsiyasini tadqiq etar ekan, adib asarlarini baholashda ham jahon adabiy-estetik tafakkur me'zonlarini asosiy dasturulamal qilib oladi. "Yozuvchi ijodiga baho berganda faqat nimani aks ettirayotganini asos qilib olsagu, boshqa tomonlarini hisobga olmasak, noobyektiv, birtomonlama yo'lga kirib ketish oson. Yozuvchi ijodining qiymatini belgila ydigan eng muhim narsa uning aks ettirayotgan hodisalarga munosabatidir", - deydi olim.

"Iste'dod jilolari"ning "Sarob" romaniga nisbatan yana bir jihati bor. "Sarob"- ko'p qirrali roman. U ayni paytda egoistik talant va uning fojiali taqdiri haqidagi asar ham bo'lib, A.Qahhorning muhim adabiy-estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtirgandir. Afsuski, romanning bu jihati adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolib ketar edi. A.Qahhor Saidiydagi durustgina talantning qurboni bo'lishini realistlik lavhalarida aks ettirar ekan, u orqali go'yo "Gap faqat talantda emas balki talantning maqsad yo'nalishidadir. Talant xalqqa bag'ishlanishi, eng yuksak va oliyjanob g'oyalarning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak", degan ezgu bir haqiqatdan bizni ogoh qilganday bo'ladi. Bunday hayotiy g'oyalar bugun ham dolzarbligini yo'qotmaydi.

Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, irod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, CHo'lpon va Qahhorlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning CHo'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari asosli: "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. CHo'lponga ob'yektiv yondoshish, uning shaxsiyatini, ijodini xolisona baholash uni mutlaqo kamsitmaydi, balki bizning yuraklarga yaqinroq qiladi. CHo'lponning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalar idagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat CHo'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." [4-64]

Xulosa qilib aytganda, Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyaning ulug'lovchi fikrlar bildirgan yoxud Mayakovskiy kabi proletariat sinfi va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasiga bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda. Ozod SHarafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti qanchalar e'tiborga loyiq

bo'lsa, u kishining muharrirlik va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiroimga munosibdir. Olimning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozod Sharafiddinov. Fikr erkinligi-zarur ehtiyoj. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulga ochiq maktub. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2002 yil 14 may.
2. Ozod SHarafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T: O'zbekiston, 2007
3. Ozod SHarafiddinov. Talant xalq mulki. –T: Adabiyot va san'at, 1979.
4. Ozod SHarafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T: Sharq, 2004.

ЎЛАНЛАРДА ЎХШАТИШ, МУБОЛАҒА САНЪАТИ, АНИҚЛОВЧИ ЭПИТЕТ ВА ПОЭТИК РАМЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Гулжахон Амоновна МАРДОНОВА

Мустақил изланувчи (DSc), Қарши давлат университети

Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги Илм-фан ва инновациялар бўлими бошлиги

GulgahonOmonovna@gmail.com. Моб. 99 833 62 71

Аннотация

Мақолада ўзбек миллий никоҳ тўйи маросим фольклорининг алоҳида жанри ҳисобланган “ўлан”ларда ўхшатиш, муболаға санъати, аниқловчи эпитет ва поэтик рамз ҳамда тимсолларнинг қўлланилиши таҳлил этилган.

Таянч сўзлар: никоҳ тўйи, маросим, фольклор, ўлан.

Гулжахон Амоновна МАРДОНОВА

независимый исследователь (DSc) Каршинский государственный университет, Национальное информационное агентство Узбекистана Начальник отдела науки и инноваций

GulgahonOmonovna@gmail.com

Моб. 99 833 62 71

ИСКУССТВО СРАВНЕНИЯ, ГИПЕРБОЛЫ, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЙ-ЭПИТЕТОВ И ПОЭТИЧЕСКИХ СИМВОЛОВ В УЛАНАХ

Аннотация

В статье анализируется использование в “уланах” – отдельном жанре фольклора узбекского национального свадебного обряда – искусств сравнения, гиперболы, а также определений-эпитетов и поэтических символов.

Ключевые слова: свадьба, обряд, фольклор, улан.

Guljakhon Amonovna MARDONOVA

Independent researcher (DSc)

Karshi State University Uzbekistan National News Agency

Head of Science and Innovation Department

GulgahonOmonovna@gmail.com

Mobile number. 99 833 62 71

THE USE OF SIMILES, EXAGGERATION, DEFINING EPITHETS, AND POETIC SYMBOLS IN WEDDING SONGS

Annotation

The use of similes, exaggeration, defining epithets, and poetic symbols in “olan” (wedding song), which is a particular genre of folklore of the Uzbek national wedding ceremony, is analyzed in the article.

Keywords: wedding ceremony, ceremony, folklore, wedding song.

КИРИШ.

Инсоният ҳаётида бир даврдан иккинчи бир даврга ўтиш экзогамик никоҳ турининг пайдо бўлишига замин яратди. Шу билан бирга икки қабила вакили турмуш қурадиган бўлса келин тараф

кабила бошлиғи, гоҳо кизнинг ўзи томонидан куёв тарафга турли хилдаги шартлар айтиш ва бу шартларнинг бажарилишини назорат қилиш урфга кирди. Турли кўринишдаги беллашувлар, кейинчалик айтишувларнинг юзага келиши, унда ғолиб бўлишга интилиш ҳам шартни бажаришнинг бир кўриниши бўлган. Ўзбек никоҳ тўйи маросим фольклори жанрлари тизимида келин ва куёв тарафнинг иккинчи томонни мағлуб қилишга бўлган интилиши натижасида юзага келган ўланларнинг бадииятини таҳлил қилиш, ўландаги ўхшатиш, муболаға санъати, аниқловчи эпитет ва поэтик рамз ва тимсолларнинг қўлланилиши билан боғлиқ масалаларни аниқлаш фольклоршунослик учун муҳим илмий манба вазифасини ўтайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ:

Ўзбек никоҳ тўйи маросим фольклорининг алоҳида жанри ҳисобланган ўланларнинг ижро ўрни ва ижрочилар таркиби, айтимларда акс этадиган ўхшатиш, муболаға санъати, аниқловчи эпитет ва поэтик рамз ва тимсоллар, хусусан, “оқ”, “кўк”, “қизил”, “қора” эпитетларининг рамзий моҳиятини далиллаш ўзбек фольклоршуносларининг тадқиқот объектига айланган. Хусусан, республикаимиз фольклоршунос олимлари М.Алавия, Б.Саримсоқов, Ҳ.Раззоқов, А.Мусақулов, М.Жўраев, Ш.Турдимов, Ш.Имомназарова М.Муродова, Л.Худойкуловалар⁴³ бу мавзуда қатор китоблар нашр эттирган, илмий тадқиқотлар олиб борган. Ҳамдўстлик мамлакатлари олимлари томонидан ҳам қатор тадқиқотлар олиб борилган. А.Диваев, М.Эуезов, С.Муканов, М.Каратаев, Б.Уахатовлар⁴⁴ никоҳ тўйининг биринчи босқичида муҳим аҳамият касб этувчи “айтыс”ларнинг тарихий асослари, ижтимоий вазифаси, маросим таркибидаги ўрни ва локал хусусиятлари, “айтыс”, “ўлан” сўзининг этимологияси билан боғлиқ муаммоларни ўрганган.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Мақолада никоҳ тўйи маросим фольклорининг биринчи босқичи билан боғлиқ ўланлар, уларда қўлланиладиган ўхшатиш, муолаға санъати, аниқловчи эпитет ва поэтик рамзлар, кўзланган мақсад ҳамда олдига қўйилган вазифаси методологик жиҳатдан ёндашилган ҳолда таҳлил қилинган. Хусусан, ўланлар юзасидан олимлар томонидан билдирилган назарий қарашлар қиёсий нуқтаи назардан солиштирилди.

ТАҲЛИЛЛАР ВА НАТИЖАЛАР

Никоҳ тўйи маросим фольклори жанрлари орасида ўланлар алоҳида ўрин тутаяди. Абубакир Диваев ўланлар тўғрисидаги илк илмий фикрларни омма эътиборига ташлаб, дастлабки материалларни эълон қилган фольклоршунос олим ҳисобланади. Олим 1897 йилда Жанубий Қозоғистоннинг Чимкент ҳудудлари атрофида илмий изланишлар олиб борган. Натижада қозоқ ўланлари тўғрисида мақола эълон қилган [2]. Орадан ўн йилча вақт ўтиб ушбу материалларни рус тилига таржима қилган ва журналда эълон қилган [3]. Орадан ярим асрдан ортиқроқ вақт ўтгач, таниқли ўзбек фольклоршуноси, устоз М.Алавия бу жанрнинг генезиси, ўзига хос хусусиятлари, бадииятини таҳлил қилиб, “Ўзбек халқ маросим кўшиқлари” [1;161-184] китобининг бир фаслини “Ўлан”ларга бағишлади.

Бу жанрнинг бадиий тасвир воситалари – ҳазил-мutoйиба, кесатик, киноя, ўхшатиш, муболаға элементларининг кўп қўлланилиши билан ажралиб туради. Бу воситалар ўланнинг таъсирчанлигини оширишга хизмат қилади. “Ўхшатиш – нарса, ҳодиса ёки тушунчани маълум

⁴³ Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974.; Саримсоқов Б. Маросим фольклори //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988.; Раззоқов Ҳ. Ўзбек халқ кўшиқлари //Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Тўпловчи Ҳ.Раззоқов. – Тош: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 244 б.; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010.; Жўраев М., Худойкулова Л. Маросимнома. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 165 б.; Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020.; Имомназарова Ш.Х. Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадиияти): филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент: ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018.; Муродова М.Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (Ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): фил.ф.бўйича фалсафа доктори дисс. – Тошкент: ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018. – 149 б.; Худойкулова Л.А. Сурхондарё тўй маросим кўшиқлари: фил.ф.ном.дисс. – Тошкент: ЎзФА Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, 2011. – 157 б.;

⁴⁴ Диваев А. Оля: киргизская любовная песня //Окраина. Казань, 1897. – №27. – 116 а-116 б.; Диваев А. Оля: любовная песнь //Этнографические обозрение. – Москва, 1907. – С.96-97.; Эуезов М. Айтыс елендери // Айтыс. Т.2. – Алматы, 1965.; Муканов С. Айтыслар турады. //Айтыс. Т.1. – Алматы, 1964. – 12-13 б.; Каратаев М. Айтыс XIX – начала XX в. //История казакской литературы. Т.1. – Алмата, 1968. – 324 с.; Уахатов Б. Казактын халык олендери. – Алматы: Ғылым, 1974. – 35 б.

умумийликка, ўхшашликка эга бўлган бошқа нарса, ҳодиса ёки тушунча билан чоғиштиришдан иборатдир” [7;262].

*Қариши олдимда ўстирган Камол терак,
Бўйинг мунча ўсади шохсиз терак.
Шохсиз терак бўйингинг кераги йўқ,
Ипак бўлиб эшилган сўзинг керак [5;87].*

Мазкур қўшиқда қўпол, муомалани билмайдиган, оила тебратишга тайёрланмаган йигит шохсиз теракка қиёс қилинмоқда. Қизга унинг қуруқ сумбати эмас, балки меҳри-муҳаббати зарурлиги таъкидланмоқда.

*Ўлан айтсам, ўланам адашмайди,
Ёлғиз айтган ўланам ярашмайди.
Икков-икков айтайлик, бирдай бўлиб,
Савогидан очилган гулдай бўлиб [5;86].*

Халқда “ёлғиз отнинг чанги чиқмас, чанги чиқса ҳам донги чиқмас” деган нақл бор. Йигит-қиз бўй етиб, турмуш қуриш ёшига етганда жуфтини топиши, оила бунёд этиши керак. Қўшиқда ўхшатиш бадиий тасвир воситаси орқали инсоннинг ҳаётда ёлғиз яшаши қийинлиги, ҳаёт синовларига битта ўзи дош беролмаслиги куйланмоқда. Қиз йигитни жуфт бўлиб яшашга чорламоқда.

Ўланларда истиора санъатидан ҳам кенг фойдаланилади. Бу ўланчининг моҳирлиги, сўзларни ўрнида қўллай билиш маҳоратидан дарак беради.

*Тўй-тўй бугун, тўй бугун тўйлай келдик,
Қўша рўмол қўлга олиб ўйнай келдик.
Тўйингизга келармидик, келмасмидик,*

Ширин-шакар ўланлар тинглай келдик [5;87-88].

Ўланларда айтувчининг маҳорати ўлароқ поэтик рамз, тимсол, такрор, эпитет каби бадиий тасвирий воситаларнинг учраши табиийдир. Қадим анъанага кўра халқ томонидан тўқилган дostonларда қаҳрамонлар ҳаёти, бири-биридан қизиқ воқеа-ҳодисаларни тасвирлашда эпитетдан фойдаланилади. Фольклоршунос олима Ш.Имомназарова “Ўзбек халқ ўланларидаги эпитетлар эса ҳалигача ўрганилгани йўқ” [4;109] деб таъкидлайди ва ўз тадқиқот ишида Ўзбекистоннинг турли ҳудудларидан ёзиб олган ўлан намуналаридаги эпитетларни таҳлил қилади. “Ўланларнинг матнида белги билдирувчи сўзлар асосида доимий ёки анъанавий эпитетларнинг кенг қўлланилиши кўп кузатилган. Бу жанрга мансуб қўшиқларни матний таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, ўланларда нарса-предметларнинг ранг-тусини билдирувчи “оқ”, “кўк”, “қора”, “қизил” сингари аниқловчи эпитетлар, шунингдек, “мард”, “ботир”, “доно” сингари доимий эпитетлар самарали ишлатилади” [4;109].

Қуйидаги мисрада “оқ” эпитетидан фойдаланилган:

*Осмондаги айланган оқ сормикан,
Отиб олсам, боласи қақшармикан.
Қизлар билан баҳслашиб, ўлан айтсам,
Товушига товушим ўхшармикан [5;87].*

Ўлан қўшиқлари асосан тоғли ҳудудлар ва чорвачилик билан шуғулланувчи аҳоли ўртасида кенг ёйилгани сабаб ана шу ҳудудларда содир бўладиган воқелик тасвирланади. Юқоридаги мисрадаги “оқ” эпитети орқали сор – бургут оқлиги ва унинг чангали мустаҳкамлиги, кўркмаслигини кучайтириб баён қилиш орқали ошиқ йигит ўзига нисбат бераётир. Қолаверса, нарса-предмет-ҳодисаларнинг тусини ифодалашда кенг қўлланиладиган “оқ” лексемаси ўланларда “оқ олма”, “оқ гул”, “оқ томоқ”, “оқ бургут”, “оқ кийик” каби бирикмалар таркибида ҳам қўлланилиши билан аҳамиятлидир.

“Поэтик матнда қўлланиладиган эпитетларнинг айримлари ўзининг фақатгина бир маъноси билан нарса-предметнинг белги-хусусиятларини ифодаласа, баъзилари бир нечта сўз ёки семалар занжири орқали бадиий маъно англатишга хизмат қилади. Шунинг учун эпитетлар тузилишига кўра икки типга бўлинади: а) оддий эпитетлар; б) таркибли ёки мураккаб эпитетлар” [4;111], деганда фольклоршунос Ш.Имомназарова ҳақдир.

Ўланларда муболаға санъатидан ҳам самарали фойдаланилади. Қуйидаги ўланда “беш туя ва олти аравага ортгулик ўланам бор” деганда йигит ўзининг чечанлиги, бадиҳагўйликда унча-мунчасини ортда қолдиришига ишора қилмоқда. Иккинчи томони, халқ донишмандлиги мевалари бўлган ўланларнинг илдизи бақувватлиги, уларнинг ўлмаслигига ишора қилмоқда.

*Газмолдан бир белбоғим бор бувадиган,
Бир отим бор бияни қувадиган.*

*Беи туя, олти арава ўланим бор,
Тенг ярмиси баҳорда тувадиган [5;87]*
Ўланларда киноя, масрахалаш мотивларидан ҳам кенг фойдаланилади.
*Намангандан чопган от кўринмайди,
Тервас қизлар этаги кўринмайди.
Шоҳи билан шолпорни кийиб олса,
Қаригани ўзига билинмайди [5;87].*

Мазкур ўланнинг учинчи ва тўртинчи бандидаги айтим орқали ўз ёшига номуносиб кийинадиган аёлларга киноя қилинмоқда. Чунки шундай аёллар ҳам учрайдики, улар нафақат ёшига, балки борар даврасига мос тушмайдиган либослар кийиб олишади. Ўлан айтаётган йигит вазиятга қараб ана шундай аёлларга киноя қилмоқда.

Ўланларда поэтик рамзлардан кенг ва самарали фойдаланилади. Чунки поэтик санъатлар орасида рамзгина битта сўз орқали олам-олам маъноларни ифодалаш кучига эгадир. “Поэтик рамз қўшиқлардаги мавҳум тушунчаларни, англатиш қийин бўлган нозик туйғуларни, турли рухий ҳолатларни бир ёки бир нечта сўз орқали ифодалаш имконини беради. Қўшиқнинг оҳангдорлигини таъминлайди, бадиий қимматини оширади” [6;10].

*Дадамди оқ уйи бор, минг қўйи бор, дейди,
Дадам сенга бермайди не зўринг бор, дейди.
Ким сенга ваъда берди тегаман деб, дейди
Ўзим сени хоҳламайман совчи қўйма, дейди.*

Бу ўринда “оқ уй” рамзий бирикмасини ташкил этаётган оқ уй образи фақат уйнинг рангига даҳлдор десак хато бўлади. Қиз отасининг оқ уйини англатиш орқали унинг қудрати, кучи, имконияти, бойлигига ишора қилмоқда. “Минг қўйи бор”лигини айтиб буни янада кучайтирмоқда. Сенинг отамга тенг бўлишга кучинг етмайди, тенгингни топ қабилида жавоб бермоқда.

*Баланд тоғни бошида кийик ётур, дейди,
Тўрт оёғин бир жойга босиб ётур, дейди.
Сиздай-сиздай йигитни кўп кўрганман, дейди
Болаларин боқолмай изғиб ётур, дейди.*

Халқда “суянган товларим омон бўлсин” нақли кенг қўлланилади. Бу кўп ўринда ўғилларга нисбатан айтилади. Бегона – санги девона, болаларим турганда бегонага ишим тушмасин, деб ният қилинади. Ўландаги “баланд тоғ” рамзий бирикмаси орқали тоғ – ишонган, суянган, севган ва севиладиган киши поэтик маъносида қўлланмоқда. “Ўзбек халқ ашулла (лирик қўшиқ)лари таркибида келувчи “тоғ” образининг семантик қўлами умумий маҳражда келтирилса, ушбу мустақил ўзак маънолари аниқланади: 1.Ота-она; 2.Суянчиқ, ишонч; 3.Идеал муҳаббат (шартли, умумлашма атама)” [6;60]. Ўланда айтилган “тўрт оёғин бир жойга босиб ётган кийик” образи қизнинг қўнғилидаги севган ёри, ишонган кишиси. Бошқа биров унинг кўзига “болаларин боқолмай”диган, имкониятсиз, ночор кимсадек кўринади. Демак, ўланда поэтик рамзлардан кенг фойдаланиш уларнинг оҳангдорлигини оширибгина қолмай, бадиий-эстетик вазифасини тўлақонли бажаришига хизмат қилади.

Ўланларда мақсадни рамзий ифодалашда ранглардан фойдаланилади. Бу борада турк ишончлари ва миллий урф-одатларида ранглар масаласини тадқиқ этган Р.Ганж, “қора” сўзининг маъноларини тадқиқ этган рус тилшуноси А.Кононов, рангшунос олима Л.Н.Миронова, ўз тадқиқотларида оқ рангнинг аломатларини таҳлил қилган озарбойжон олими М.Саидов, ўзбек олимлари, профессор Х.Эгамов, С.Рўзимбоев, А.Мусақулов, И.Ҳаққулов, М.Ёқуббекова, Ш.Турдимовлар томонидан ўзбек халқ қўшиқларидаги ранглар символикаси, рамз ва тимсоллари илмий-назарий жиҳатдан чуқур таҳлил этилган. Демак, дунё олимларининг ранглар символикасини илмий таҳлил этишлари ва ўзбек олимларининг ранглардаги тимсоллар, уларнинг моҳиятининг илмий-назарий жиҳатларини таҳлил қилишга уринишлари, асрлар давомида халқ қўшиқларида ранглардан поэтик тимсол ва рамз сифатида фойдаланиб келиниши бу борада жиддий тадқиқотлар ўтказилиши зарурлигини билдиради.

*Оқ олма, қизил олма, бўйинг толма,
Тўққиз ўғлинг бўлгунча тўйдан қолма.
Тўққиз ўғлинг бўлгунча тўйдан қолсанг,
Яхши-ёмон сўйласам ёмон олма [5;86-87].*

Халқ қўшиқларида олма отиш, олманинг сувда оқиб келиши ҳолати ишқ-муҳаббатга ишорадир, яъни олма муҳаббат, севги рамзи. Бу ўринда оқ олма – муҳаббат ёшидаги йигит, қизил олма – бўйи етган қизга ишорадир. “Ҳар қандай тимсол рамз бўла олади, лекин барча рамзлар тимсол даражасига етмайди. Ўзбек фольклоридаги олма образи ана шундай тимсолга айланган кам сонли

рамзлардан биридир. Қолаверса, олма нафақат ўзбек, балки дунёдаги кўпчилик халқлар фольклорида ўзаро уйғун маънога эга тимсол ҳисобланади» [6;42].

Хулоса ўрнида таъкидлаш мумкинки, ўланлар матнида қўлланилган турли ранглар нараса-предметларнинг тусини англантишга хизмат қилибгина қолмай, ўзига хос поэтик маъно-мазмун касб этиши билан ҳам аҳамиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974.
2. Диваев А. Олян: киргизская любовная песня //Окраина. Казань, 1897. – №27. – 116 а-116 б.
3. Диваев А. Олян: любовная песнь //Этнографические обозрение. – Москва, 1907. – С.96-97.
4. Имомназарова Ш.Х. Ўзбек фольклорида ўлан жанри (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадиияти): филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент: ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018.
5. Остонаси тиллодан: тўй қўшиқлари. //Нашрга тайёрловчилар А.Мусақулов, М.Мирзаева. – Тошкент: Фан, 1992.
6. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020.
7. Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ПРОСТРАНСТВО УЛИЦЫ И ПЛОЩАДИ В ПОЭТИЧЕСКОМ МИРЕ МАРИНЫ ЦВЕТАЕВОЙ

*Шарапова Диана Риннатовна,
Преподаватель кафедры русского языка и литературы
Навоийский государственный педагогический институт*

Аннотация: В статье рассматривается своеобразие художественного пространства улицы и площади в стихотворных текстах Цветаевой, которые могут передавать душевное состояние лирической героини. Анализируется отношение лирической героини к данным пространствам и эмоции, которые они вызывают.

Ключевые слова: лирическая героиня, символ, стихия толпы, эмоции, душевные переживания.

MARINA SVETAEVANING POETIK DUNYOSIDAGI KO'CHA VA MAYDONNING BADIY MAKONI

Annotatsiya: Maqolada Svetaevaning she'riy matnlarida ko'cha va maydonning badiiy makonining o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi, bu lirik qahramonning ruhiy holatini etkazishi mumkin. Lirik qahramonning ushbu bo'shliqlarga munosabati va ular keltirib chiqaradigan his-tuyg'ular tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lirik qahramon, ramz, olomon elementi, his-tuyg'ular, hissiy tajribalar.

THE ARTISTIC SPACE OF THE STREET IN THE POETIC WORLD OF MARINA TSVETAEVA

Abstract: The article examines the originality of the artistic space of the street and the square in the poetic texts of Tsvetaeva, which can convey the state of mind of the lyrical heroine. The attitude of the lyrical heroine to these spaces and the emotions they evoke are analyzed.

Keywords: lyrical heroine, symbol, crowd element, emotions, emotional experiences.

Если говорить о художественном пространстве улицы в стихотворениях М. Цветаевой, то мы можем отметить то, что улица, символ скорее отрицательный, чем положительный. Уличное значит безнадзорное, нищее: «Ты однажды с улицы певицу – // Мокрую и звонкую, как птица – // В дом привёл»; «ребятишки уличные».

Улица разводит людей: «Несколько улиц меж нами, // Несколько слов». Улица противопоставлена дому, а дом, это символ защиты. Улица – место, где существует опасность: «Крутые улицы наклонные // Стремительные, как поток»; «Эти улицы – слишком круты». Но улица может быть опасна не сама по себе своей крутизной или транспортом. На ней творится много отрицательного и отвратительного. В стихотворении «Деревья» деревья могут лишь боязливо и брезгливо отводить крону от жизненных событий, но, к сожалению, не могут убежать. Что же видят деревья на улице, и от чего же они отклоняются? «От девушек – сплошь без стыда, // От юношей – то ж – и без лба: «От тресков, зовущихся – речь, // От лака голов, ваты плеч». Улица символизирует отвратительные явления: бесстыдство, ложь, глупость, политические выступления, оскорбления. Она, конечно, отвращает не деревья, а саму лирическую героиню, которая, тоскуя по дому, где она могла бы спрятаться от улицы, но, не имея такого надёжного – своего – дома, предсказывает: «От улицы вдали // Я за стихами кончу дни, // Как за ветвями бузины» [2].

Также в художественном мире Цветаевой пространство улицы неразрывно связано с площадью. Марина Ивановна Цветаева дала такое определение площади: «Площадь – людная пустыня» [1].

Взаимоисключающие понятия пустынности пространства и его одновременной наполненности образуют ту особенную символику площади, которую использует поэт в своём художественном мире, и которая не зафиксирована ни одним специальным словарём. Площадь, это прежде всего, символ обезличенной толпы, у которой нет ни царя, ни вождя. В трагедии «Ариадна» царь Эгей бросается со скалы в море и погибает. Хор граждан оплакивает царя: «Камнем пал // Царь наш. Наводный же площадь, // Бессыновних и безотчих // Стадо – без поводыря!» [3].

Толпой на площади руководят только низменные инстинкты. Она всегда готова надругаться над человеком, разорвать его на части. Именно так лирическая героиня видит судьбу Лжедмитрия. Она обвиняет Марину Мнишек в том, что она ничего не сделала для спасения своего мужа: «На роковой площади // От оплеух и плевков // Ты гордеца своего // Не покрывшая телом» [2]. Лирическая героиня бросает упрёк и последнему Императору, погубившему своим отречением царевича: «Княжью кровь высокородную // Бросил псам на площади» [1].

На площади доминирует господствует неконтролируемая стихия толпы. Безликая площадная толпа, бездумно управляемая кровожадными инстинктами, похожа на стаю обезумевших диких зверей. Лирическая героиня художественного мира Цветаевой боится толпы и всегда против – толпы: «С волками площадей // Отказываюсь – выть». Революции свершаются на площадях, где безумствует толпа, готовая надругаться над кем угодно и чем угодно. Двадцатый век – век кровавых войн и революций, предательства и позора – лирическая героиня называет веком площадей: «Трудно и чудно – верность до гроба! // Царская роскошь в век площадей» [1]. Лирическая героиня призывает не верить тому, кто призывает к войне или революции, и советует искать поддержку в собственных душах.

Площадь – место, где не только назревают войны и революции, но и в прошлом проводились казни, чтобы порадовать толпу и доставить ей удовольствие. Так, лирическая героиня поэмы "Поэма конца" чувствует себя казненной на площади, расставаясь со своим возлюбленным.

Таким образом, во многих стихотворениях Цветаевой площадь символизирует либо неконтролируемую толпу, либо толпу, возглавляемую и контролируемую кем-то, у кого плохие намерения, которые умело пользуются низменными инстинктами этой толпы. Однако площадь в художественном мире М. Цветаевой символ амбивалентный. Он также может иметь и положительные значения. Площадь как античная агора в древнегреческих полисах место общегражданских собраний, где совместно решаются важные общественно-политические вопросы, имеет у Цветаевой положительный смысл.

Площадь может быть свидетельницей исторических событий. Лирическая героиня показывает петербуржцу-спутнику Москву: «Я доведу тебя до площади // Видавшей отроков-царей» [1]. Чехия оккупирована немецкими войсками Гитлера: «Над мостами и площадями // Плачет, плачет двухвостый львище» [2].

Площадь может стать символом соборности всего народа: «Предстало нам – всей площади широкой – // Святое сердце Александра Блока» [1]; «Народ: на сей площади // Пусть жребий рассудит нас!» [3]; Царь-Девница велит собрать полки на площади: «Для прощального параду // Там на площади великой // Все наши полки сбирались» [3].

Площадь может означать некоторые виды свободы: передвижения, любви, действия: «По каким сейчас площадям гуляет // Твой прекрасный грех!»; «Со мною, жаркой и бездомной, // По распалённым площадям – // Шатался под луной огромной?» [1]. Площадь может означать жажду публичности. Известно, что Маяковский любил публичные выступления: «Певец площадных чудес – // Здорово, гордец чумазый!» [2]. «И вот – без шали – На площадях пою», говорит о себе лирическая героиня.

Таким образом, площадь в художественном мире Цветаевой символизирует общественно-политический интерес, историю, соборность народа, свободу и публичность в положительном смысле этого слова.

Использованная литература

1. Цветаева М. И. Стихотворения / М. И. Цветаева. Собрание соч.: в 7 т. – Москва: Эллис Лак, 1994. т. I. – 1994. 640 с.
2. Цветаева М. И. Стихотворения. Переводы. / М. И. Цветаева. Собрание соч.: в 7 т. – Москва: Эллис Лак, 1994. т. 2. – 1994. 592 с.

HAZRAT NAVOIY HIKMATLARIDA ILM VA TARBIYA UYG'UNLIGI

G'oyibboyeva E'tiborxon Ahmadjonovna,
nafaqadagi o'qituvchi, Xalq ta'limi a'lochisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ta'lim va tarbiyaga oid hikmatli so'zlari tahlil qilingan. Xususan, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning ilm olishi va hunar o'rganishi bilan bog'liq hikmatlar izohlanib, ularning bugungi kundagi dolzarbligi xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, ilm, ta'lim, tarbiya, Farhod, hunar, tifi.

Аннотация: В данной статье анализируются мудрые слова Алишера Навои об образовании и воспитании. В частности, поясняются афоризмы, связанные с обучением и профессиям Фархода в эпосе «Фарход и Ширин», и высказывается мнение об их актуальности в наши дни.

Ключевые слова: Навои, знания, образование, обучение, Фарход, профессия, ребенок.

Abstract: This article analyzes the wise words of Alisher Navoi on education and upbringing. In particular, the proverbs related to Farkhod's learning and crafting in the epic "Farkhod and Shirin" are explained, and an opinion is expressed about their relevance today.

Key words: Navoi, knowledge, education, training, Farkhod, profession, child.

Hazrat Alisher Navoiy xalqimizning buyuk farzandi, butun umrini xalqqa, Haqqa bag'ishlagan himmat sohibi, ulug' allomadir. Ul zot o'zidan ulkan, boy ummon qoldiganki, to shu kunga qadar ummondan ma'naviy ozuqa olib kelmoqdamiz. Mutafakkir shoirning asarlarini aslida hayot qomusiga o'xshatish mumkin. Chunki biror bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, shoir qalamidan chetda qolib ketgan bo'lsa! "Shoirning hikmatlari na zamonu zamin, na mazhabu din va na ijtimoiy tuzumu siyosiy turkum jihatidan cheklangan".[2,3] Hikmatlarda inson kamoloti yo'lidagi fazilatlar o'z aksini topganligini ko'ramiz.

Darhaqiqat, Navoiy asarlaridan olingan hikmatlar turli mavzularda bo'lib, katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada biz ilm, ta'lim va tarbiyaga oid hikmatli so'zlarni tahlil qilamiz.

Tifi hiyo bilmay o'qur chun savod,

Qil o'qurini zeru – zabar e'tiqod. [1, 68]

Ya'ni: Endi savodi chiqib kelayotgan yosh bola, o'qish qoidalariga rioya qilolmay o'qir ekan, uni kamsitmay, aksincha, ancha o'sib qolganini aytib, ko'nglini ko'tarish kerak.

Demak, ilm dargohiga qadam qo'ygan yosh bolani o'zlashtirishi pastligi uchun hafa qilmasdan ilm sirlariga oshno qilish barobarida tarbiya kurtaklarining shakllanishiga e'tibor qaratish lozim. Bolani bog'dagi nihol deb olsak, uni parvarishlash bog'bonning sa'yi – harakatiga bog'liq deb bilamiz. Bog' – bu maktab, ilm dargohi. Bog'bon – bu o'qituvchi, muallimdir. Bog'bon bog'idagi mevalar yaxshi hosil berishi uchun qattiq mehnat qiladi. Shundagina o'z maqsadiga erishadi. Muallim xizmatini bog'bonning mehnatiga qiyoslab bo'lmaydi. Chunki ustoz bog'bonga nisbatan ikki barobar ko'proq mehnat qilishi talab etiladi. Har bir bolaga hijjalab ilm0. sirlarini o'rgatadi. Bog'dagi hihollar tog'ri bo'lib o'sishi, ularning turli shakllarga ega bo'lishi, mevalarning turli – tumanligi bog'ning muhitiga bog'liqligi sir emas. Bog' uchun tekis joy, tuproq, suv, kerakli ozuqalar bolishi zarur. Bog'bondan esa doimiy nazorat ya'ni tarbiyalash talab qilinadi. Yillar davomida qilingan mehnat bir kun kelib o'z mevasini ko'z – ko'z qilishi aniq. Xulosa o'rinda aytish joizki, shaxs tarbiyasida maktab, ustoz va muhitning o'rni beqiyosdir. Bola shaxsiga tarbiya berish barobarida ilm sirlarini o'rgatib borish taqozo etiladi.

Ulcha erur tifi'ga shoyista ish

Bilki kichiklikda erur parvarish. [1, 71]

Ya'ni: "Bolaga loyiq ish – uni yoshligida tarbiyalashdir".

Demak, ulug' shoir bolani tarbiyalashni yoshlikdan boshlash kerakligini uqtirib o'tadi. Olimlar tarbiyani ona qornidaligidan boshlab berish kerakligini aytganlar. Demak, tarbiya uzoq vaqt davom etadigan jarayon. Bola ilk tarbiyani o'z oilasida oladi. Har bir oiladagi muhit bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bola ko'z ochib, esini tanib, oila a'zolari bilan muloqotda bo'ladi. Bolaning xulq – atvori ko'rgan, eshitgan munosabatlar asosida shakllanib boradi. Oila, undagi muhit bola tarbiyasi uchun tamal toshini qo'yadi desak, yanglishmaymiz.

Hazrat Navoiy ilmni ulug'lash, o'rganish borasida o'zining dono fikrlarini izohlab o'tadi. Navoiyning fikricha ilm inson kamolotining eng oliy cho'qqisidir. Ilmni yoshlikdan hijjalab o'rgatish zarur deb

hisoblaydi. Ilmni egallash orqali shaxs mukammal, komil inson darajasiga yetadi. Hazrat Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod misolida ilm o’rganish komil inson kamolotining cho’qqisi ekanligini ko’rsatadi.

Farhod juda ziyrak, aqlli bola bo’lib, kuchli, irodali, dilovar va ilm hamda hunarga nihoyatda ixlosmand bo’lib ulg’ayadi. Farhod yuksak iroda va fazilatlar egasi bo’lib, g’oyatda xokisor va kamtarligi barcha insoniy fazilatlarini yanada ulug’laydi.

*Agar bir qatla ko’rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo’q erdi ul varaqni. [3, 70]*

Ya’ni: “Kitob varog’ini bir marta ochib o’qigach, ikkinchi marta ochib o’qishi shart emas”.

Ko’rinadiki, Farhod fahm va farosat egasi bo’lganligi bois, ilm olish sirlarini mukammal ado eta oldi. O’qigan bir varoq sabog’ni uqib olishi uni oliyjanob fazilat egasi bo’ganligidan nishonadir. Farhodni yoshlikdan shunday yuksak insoniy fazilatlar egasi misolida tasvirlash bejiz emas, chunki Navoiy kelgusi avlodlar kamolotini ko’ra bilgan donishmanddir.

*Uqub o’tmak, uqib o’tmak shiori,
Qolib yodida safha, safha bori. [3, 70]*

Ya’ni: “O’qib, uqib olishni shior qilgani bois, kitobning bor sahifa – sahifalari yodida qoldi”.

Aytish joizki, Farhodning o’z oldiga qo’ygan shiori kamtar va xokisor shaxs qarori deyish mumkin. Kitobning o’qigan sahifalari yodda qolishi teran aql sohibi ekanligidan dalolatdir. Albatta, yuksak fazilat egasi bo’lishni Farhod uddalay olishi Hazrat Navoiy misralarida ajoyib tarzda bayon qilingan. Ma’naviy yetuk, komil inson tarbiyasi haqida qayg’urish Navoiyning ezgu maqsadidir.

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm. [3, 71]*

Ya’ni: “Jahonda u olmagan ilm qolmadi har bir ilmni hijjalab sinchiklab o’rgandi.”

Demak, Navoiy ilmni jahon miqyosida o’rganishni, ilm olishni kasb qilish borasidagi fikrlarini uqtiradi. Albatta, yoshlikda olingan ilm toshga o’yilgan naqsh kabi bir umrga qolishini nazarda tutgan. Ilm sohibi bo’lish komil insonga xos fazilatdir.

Darhaqiqat, Hazrat Navoiyning Farhod obrazini yaratish jarayonidagi orzu – istaklari, komil inson tarbiyasi bejiz tasvirlanmagan. Donishmand Navoiy Farhod timsolida shu kunning haqiqiy vorislarini ko’ra bilgan deyishga haqlimiz. Hikmatlarni o’rganish, yosh avlodlar ongu- shuuriga singdirish kunimizning dolzarb ma’naviy masalalaridan biridir.

Hozirgi kunda Alisher Navoiy hikmatlarini, jumladan ilm olishga oid fikrlarini atroflicha izohlab, ilmiy va ommabop sharhlari bilan ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish, IT mutaxassislari bilan hamkorlikda turli o’yin va ilovalar ishlab chiqish hikmatlar targ’iboti uchun dolzarb vazifadir. Shunday yo’l bilan yosh avlod orasida Navoiy muxlislari auditoriyasini kengaytirishimiz mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Aforizmlar. O’z FAN nashriyoti, Toshkent 1941 .
Nashrga tayyorlovchi: S. Mutallibov .
2. Alisher Navoiy. Hikmatli so’zlar. Toshkent, 1985. Nashrga tayyorlovchilar: Rustamov A.,
Rahmatillayeva M.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. Sakkizinchi tom. XAMSA. Farhod va
Shirin. O’zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, Toshkent 1991.
4. Alisher Navoiy. Hikmatlar. “Sharq” nashriyot –matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati,
Toshkent 2006. Nashrga tayyorlovchilar: Solih Mutallibov, Ergash Ochilov.

ҚАДИМГИ ТУРКИЙ АДАБИЁТ ШЕЪРИЯТИНИНГ ПОЭТИКХУСУСИЯТЛАРИ

*Соҳибжон Собирович Бойсинов,
катта ўқитувчи, Жиззах давлат
педагогика университети*

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада қадимги туркий адабиёт, тўртлик шаклини поэтик таҳлил қилиш, инсон маънавияти масаласи юзасидан фикр мулоҳазалар билдирилган.

Калит сўзлар: туркий адабиёт, поэтика, тўртликлар, тарихий тараққиёт, обида, қадрият, ифода,

қиёсий таҳлил.

ABSTRACT: The article presents opinions about ancient Turkic literature, poetic analysis of the quartet form, and the problem of human spirituality.

Keywords: literature, poem, quartet, historical development, monument, value, expression, comparative analysis.

Адабиёт тарихининг энг қадим намуналарини ўрганиш ҳамма вақт ҳам долзарб бўлиб келган. Бунинг бир қатор жиддий сабаблари мавжуд. Улар орасида қадимги адабиётнинг нодир намуналарида қадимги қараш ва эътиқодларнинг сақланиб келганлиги, уларда миллий-маънавий қадриятлар билан боғлиқ бўлган ўзига хос ифодаларнинг акс этиши, қолаверса, бадиийлик мезонлари ва принципларининг ўзига хос шаклларда сақланиб қолганлигини кўрсатиш мумкин. Демак, қадимги туркий адабиёт намуналари адабий ҳодисаларнинг асл манбаларини, адабий-эстетик қонуниятларнинг дастлабки намоён бўлиш шакллари ва уларнинг такомил босқичларини кузатиш имконини ҳам беради.

Адабиётимизда кенг тарқалган тўртлик шакли ҳақида ҳам шундай дейиш мумкин. “Туркий халқларнинг муштарак обидаларидан бири бўлган “Девону луғотит турк”даги шеърий шакллардан бири тўртликдир. Уни шу асарда намоён бўладиган шеърий шаклларнинг энг фаоли ва мукаммали деб айтиш ҳеч ҳам муболаға эмас. Уларнинг асосий қисми халқ оғзаки ижодига алоқадор эканлигини ҳам қайд этиш жоиз бўлади. Маҳмуд Қошғарийнинг мазкур асари XI асрда яратилган. Агар фольклор ҳодисаларнинг нисбатан консерватив ҳодиса эканлигини назарда тутадиган бўлсак, асарга жамланган тўртликларни туркий халқларнинг энг қадимги тўртликлари сирасига киритишга ҳақлимиз”. [3; 10]

Афсуски, бу тўртликлар фольклоршунослигимизда ҳам, адабиёт тарихида ҳам етарлича махсус ўрганилган эмас. Қадимги туркий халқларнинг ҳаёти, яшаш тарзи, урф-одатлари ва расм-русумлари, қолаверса, тафаккур тарзини ўрганиш учун мавжуд тўртликлар жуда катта материал бера олади.

Айни пайтда яна бир нарсани ҳам алоҳида таъкидлаш жоизки, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида олдин ҳам кейин ҳам яратилган бир қатор асарларда мазкур шаклнинг анча устувор мавқега эга эканлигини кузатиш қийин эмас. Ундан олдин яратилган бадиий ижод намуналари сирасига Будда ва Моний руҳидаги асарларни киритиш мумкин. “Кейинги даврлардаги туркий намуналар қаторида эса Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” ҳамда Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибат ул ҳақойиқ” асарлари мавжуд. Бу асарлар таркибидаги тўртлик шакли ҳам ўз маъно ва мазмун хусусиятлари, поэтик ифодасига кўра ниҳоятда ранг-барангликка эга”. [3; 15] Назаримизда, уларни типологик жиҳатдан ўрганиш, тарихий-қиёсий йўналишда тадқиқ этиш фанимиз учун кўпгина мулоҳазалар юритишга, умумлашма вахулосалар чиқаришга имкон беради.

Бунинг устига адабиёт ҳаётининг ўзига хос бадиий инъикоси сифатида ўзи мансуб бўлган халқ ҳаётининг ойинаси бўла олишини ҳам назарда тутиш керак бўлади. Шундай экан, унда миллий-маънавий қадриятларнинг ифодаси ҳам ўзига хосликларга эга. Мана шу ўзига хосликлар турли давр ва муҳитларда яратилган тўртликларда қай даражада акс этади, тарихий даврларнинг ўзгариши билан бу ўзига хосликларнинг қайси нуқталарига кўпроқ урғу тушади, қолаверса миллий қадриятларнинг бадиий талқинларидаги тадрижийликнинг рўй беришида қандай принцип ва ўзига хосликлар кузатилади? деган саволларга жавоб топиш катта долзарблик ва илмий аҳамият касб этади.

Бу жараённинг аниқ ифодасини кузатиш, унинг илмий тавсифини бериш адабиётшунослик фани олдидаги энг долзарб муаммолардан бири бўлиб турибди. Айниқса, ёзма адабиётимизнинг қадимги даврлари билан боғлиқ ҳолда бу муаммо монографик пландаги алоҳида тадқиқотлар объекти бўлган эмас. Хусусан, қадимги туркий адабиётимизнинг энг порлоқ намунаси бўлмиш “Девону луғотит турк”нинг таркибида кўплаб тўртликларнинг мавжуд бўлишига қарамай, ҳозиргача уларнинг илмий баҳоси берилмай келаётганлиги ҳам ҳақиқатдир. Шунингдек, асардаги мазкур тўртликларнинг тарихий тараққиёти, уларнинг семантикаси ва поэтикаси, қиёсий-типологик хусусиятлари ҳам ҳали ҳануз илмий-назарий жиҳатдан ўз баҳосини олганича йўқ. Шунга кўра уларнинг ҳар бирида шу тилнинг ички имкониятлари ва бойликлари билан, қолаверса тўртликлар ижодкорларининг шахсий хислатлари, дунёқарашлари, илмий-назарий ва бадиий-ижодий тайёргарликлари, касбий маҳоратлари билан боғлиқ бўлган жиҳатларнинг юзага келиши ҳам табиийдир. Шунга қарамасдан бу ҳодисанинг асл моҳияти, уларнинг поэтикасига боғлиқ ҳолдаги тадқиқи кузатилган эмас. “Агар XI асрда яратилган Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари туркий ёзма адабиёт тарихидаги илк йирик ва мукамал бадиий кашфиёт эканлигини назарда тутсак, муаммонинг шу асарга боғлиқ ҳолда тадқиқ этилиши ҳам нақадар долзарб ва муҳимлигини

тасаввур этиш мумкин бўлади”. [3; 23]

Мулоҳазаларнинг исботи сифатида Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари юзасидан кичик бир таҳлилни мисол келтирамиз. Асарда тилга олинган масалалар кўлами шунчалик кенги, уларни оддийгина санашнинг ўзиёқ бир неча саҳифаларни ташкил этади. Бу ерда айрим сарлавҳаларни келтириш билан кифояланамиз: Баҳор мадҳи; Етти сайёра ва ўн икки бурж ҳақида; Инсон фарзандларининг қадри билим ва тафаккурдадир; тилнинг фазилат ва манфаатлари ҳақида; Китоб эгасининг узи; Билим ва уқувнинг фарқи ҳақида; Ойтулдиннинг элигга бахт ҳақидаги ҳикояси; Кунтуғди элик Ойтулдига Адолат ҳақида ҳикоя қилади; Ўгдулмиш элигга бек (лашкар бошлиғи, ошпаз, хазиначи, эшик оғаси, элчи, дастурхончи...) қандай бўлиш кераклигини сўзлайди; Ўғил ва қизлар туғилса уларни қандай тарбиялаш лозимлигини айтади; Меҳмонга борганда ўзини қандай тутиш кераклигини сўзлайди; Адолатга адолат, одамгарчиликка одамгарчилик билан жавоб бериш ҳақида гапиради; Ўтган йигитликка афсус ва қариликдан шикоят; Вақтнинг бебаҳолиги ва дўстларнинг бевафолиги ҳақида; Китоб эгаси Юсуф Хос Ҳожибнинг ўз-ўзига ўғитлари... Кўриниб турибдики, “Қутадғу билиг”да тилга олинган масалаларнинг қамрови кенг. Аммо унда битта бош масала борки, шу масала бутун асар бўйлаб қизил ип бўлиб ўтади ва асарнинг яхлит бир бутунлигини таъминлайди. Бу – Инсон масаласидир.

Инсоннинг моҳияти, унинг ҳаётдаги ўрни, ижтимоий вазифаси шоир томонидан турли йўналишларда таҳлил этилади. Лекин бу йўналишларнинг ҳаммаси бирлашадиган бир нуқта борки, у ҳам бўлса инсоннинг инсон учун яшаши, инсоннинг инсоният учун хизмат қилишидир:

“Кишилар ора. Кўр, киши ул бўлур, Онингдин кишилар осиглар бўлур.” [1:337]

(Кишилар орасида (ҳақиқий) киши шу бўладики, Ундан (бошқа) кишилар манфаат топади), - дейди шоир.

Шу улуг ният билан яшаган шоир бошқалар манфаатини ўйламасдан, ўзининг тор шахсий мақсадлари орасида кўмилиб қолганларни тириклар қаторига қўшмайди, уларни тўғридан-тўғри “ўлик” деб атади:

Тирик ялигуқ ўғли тўсулган керак,

Тўсулмаз киши туғса, ўлган керак. [1: 338]

(Тирик одам боласи фойдаси тегадиган бўлиши керак,

Фойдаси тегмайдиган киши туғилса, ўлган (бўлиши) керак, яъни ўлгани яхшироқ).

Шоир демокчики, инсон туғилдими кимгадир фойдаси тегадиган бўлиб улғайиши, фойдаси тегмайдиган бўлса у ўлик билан тенглигини уқтиради.

Асарда комил инсон ҳақида гап борар экан, камолотнинг қатор белгиларига тўхталинади. Бу инсоннинг бошқалар ғами билан ҳам яшай олиши, кўпчилик манфаати учун фидойи бўла билишидир:

Кишига тўсулғу керак бу тириг,

Тирик тутса отин, кўпурса эриг. [1: 338]

(Тирик (жон) одамларга фойда келтириши керак, (Токи) отини тирик тутсинлар, кишини улугласинлар).

Худди шундай одам эзгу киши дейилишга лойиқдир. Эзгу кишининг фазилатлари фақат яхшиликка бўйсундирилган бўлади:

Ақилиқ, кишилиқ, осиг, эзгулуг

Бу эзгу кишидин келир белгулуг. [1: 338]

(Саховат, одамгарчилик, наф ва эзгуликлар Эзгу кишилардан келади, бу аниқ).

Эзгу киши бўлиш учун, эзгу фазилатлар билан зийнатланиш учун қатор шарт-шароитлар талаб қилинади. Уларнинг биринчиси билимдир. Шоир бутун асар давомида билим ҳақида фикр юритади. Асар қаҳрамонларининг билимга бўлган муносабатини алоҳида таъкидлайди.

“Қутадғу билиг”да билим ҳақида алоҳида боб мавжуд. Бу боб “Билиг уқуш адримни, асгин аюр” (“Билим ўқув-идрок фарқини, нафини айтади”) деб номланган. Бу бобда билимсизлик қоронғи зулматга, билим эса шу зулматни ёритувчи машъалага ўхшатилади. Билимнинг асосий хусусияти киши учун фойдали эканлигида, унга кадр-қиммат, ҳурмат ва эҳтиром келтиришда, деб билади шоир:

Уқушун ағар ул, билигин бедур,

Бу икки била эр ағирлиқ кўрур. [1: 338]

(Ўқув-идрок билан (киши) юксалади, билим билан улғаяди, Бу иккиси туфайли эр кадрланади).

Шоир билимга юксак баҳо беради, уни кўкларга кўтаради. Ўз фикрининг китобхонга тез ва осон сингиши учун турли поэтик санъатларни ишга солади. Шу мақсадга бўйсундирилган поэтик

санъатларнинг бири ўхшатишдир. Шоир билимни *кимё, ипор, бойлик, кишан, кийим, емиш* каби нарсаларга қиёслабди. Булар шоир фикрининг реалликка айланишида муҳим бадиий-тасвирий восита бўла олган.

Билимдон бўлиш тарбия билан чамбарчас боғлиқ. Бола қанчалик эрта тарбия қилинса, унга ёшлигиданоқ билим сингдирилса, у шунчалик тез ўрганади, тўғри йўлдан боради:

Ўрунгу сут билан кирса эзгу қилиқ,
Ўлум тутмагунча эвурмас йўриқ. [1: 339]

(Яхши қилиқ оқ сут билан кирса,
Ўлим келиб тутмагунча, ўз тарзини ўзгартирмайди).

Зеро, “сут билан кирган жон билан чиқар” деган халқ мақоли ҳам бу фикрни яна бир қарра далиллайди.

Шунга қарамай билим осонгина эгалланадиган, тайёр ҳолда бериладиган нарса эмас. Кишининг мукаммал билим олишига монелик қилувчи тўсиқлар ҳам қўп. Шоирнинг назарида кишининг ҳулқ-атворидаги айрим салбий кўринишлар: қаҳр-ғазаб, жаҳолат, ёлғон сўзлаш, сўзнинг устидан чиқмаслик, ичкиликка ружу қўйиш, қўполлик шулар жумласига қиради.

“Комил инсон доимо эзгуликка интиломоғи шарт. Йигитлик доимий эмас, аммо эзгулик абадий қолади, тиллардан-тиллarga, диллардан-дилларга кўчиб юраверади. Эзгулик учун на макон, на замон чегара эмас”. [2: 52]

Юқоридаги фикрларни келтиришдан мақсад яхшилик (эзгулик) ва ёмонликни бир-бирига қарама-қарши қўйиб, биринчисининг афзаллиги ва кейингисининг зарарли эканлигини кўрсатиш, шу орқали китобхонни яхшиликка қорлаш ва ёмонликдан ҳазар қилишга қақаришдан иборатдир.

Кишига, инсон номига келадиган энг оғир ҳақорат – билимсизлик, айниқса кишининг юзига очикдан-очик: “сен билисизсан” десалар, бундан ортиқ ҳақорат бўлмайди:

Неку бор оғунида билигга қўшуш,
Билигсиз теса эрка кўрсиз сўкуш. [1: 339]

(Жаҳонда билимдан қадрироқ нима бор,
Билимсиз деса – бу киши учун ҳунук ҳақорат).

Кишининг билимли-билимсизлиги ўз-ўзича аён бўлмайди. Бунинг кўрсаткичи сўздир. Кишининг нима ва қандай сўзлаши унинг билими ҳақида маълумот беради.

Инсон қанчалик мураккаб бўлмасин, у ўз ички дунёсини пардалай олмайди. Унинг хатти-ҳаракатлари, қилиқ-рафтори, муҳокама тарзи ва сўзлари шу киши ҳақида маълумот беради, унинг кимлигини ошкор этади. Шундай экан, киши доимо эзгулик уруғини эъмоғи керак. Бунинг учун инсон илм олмоғи, ўзининг ички маънавий оламини бойитмоғи даркор.

Билимни тинмай ўрганиш одамийлик сари элтувчи муқаррар йўлдир. Одамийликкини инсонни улуғлайди, уни муҳтарам қилади.

Йирик туркийшуносларимиз (Қуприлизода, Р.Р.Арат, Е.Е.Бертельс, А.П.Қаюмов, А.Рустамов, Ғ.Абдурахмонов, С.Муталлибов, И.В.Стеблева, Н.Раҳмонов, И.Ҳаққулов, Б.Тўхлиев) қадимги туркий адабиётнинг филологик жиҳатлари, унинг поэтикаси борасида анча жиддий ва фундаментал тадқиқотларни олиб бориш баробарида миллий қадрият, урф-одатлар, инсонийлик масалаларига ҳам атрофлича тўхталиб ўтишган.

Тўртлик шаклини фольклоршуносларимиз ҳам, адабиёт тарихчиларимиз ҳам, назариётчиларимиз ҳам жиддий тарзда тадқиқ этиб келишмоқда. Бу ўринда И.Ҳаққулов, А.Мусақулов, Ш.Турдимов, Б.Тўхлиевларнинг ишларини эслаш жоиз.

ХУЛОСА

Алоҳида таъкидлаш жоизки, тўртлик шакли билан боғлиқ равишда кўплаб илмий тадқиқотлар юзага келган бўлишига қарамасдан уларнинг қадимги туркий адабиётдаги ҳолати, уларнинг илмий муқоясаси ва шунга мувофиқ равишда реал баҳоси ҳалигача берилганича йўқ. Шу ҳолатлар бизнинг мазкур мавзунинг ўрганишга туртки бериши.

Изланишларнинг бош мақсади қадимги туркий адабиётда тўртлик шаклининг ўрнини кўрсатиш, унинг поэтикасидаги асосий хусусиятларини муайянлаштириш, бу шаклнинг тарихий тараққиёт босқичларидаги семантик, поэтик хусусиятларини янгича кашф этишдан иборат. Ушбу муаммо қадимги туркий обидалар: Будда ва Моний руҳидаги асарлар, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Аҳмад Юғнакийнинг “Ҳибат ул-ҳақойиқ” асарларида мужассамлашган тўртликлар мисолида ёритиб берилади. Бунинг учун эса бир қатор тадқиқий вазифаларни ҳал қилиш лозим бўлади. Бу эса келгуси мақолаларимиз мавзуси бўлади деган умиддамиз.

ADABIYOTLAR:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи К.Каримов. Тошкент, Фан, 1971
2. Тўхлиев Б. Билим – эзгулик йўли. Тошкент, Фан, 1990.
3. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”и ва айрим жанрлар такомили. Тошкент, 2004.

ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD” ASARINING BADIY-ILMIY TAHLILI

*Rayhona G'oyibboyeva -NamDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
Jabboraliyeva Zulhayo Alisher qizi Namangan davlat universiteti Filologiya
va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ustoz, hamfikr maslakdosh do'sti Pahlavon Muhammadga bo'lgan sadoqati, mehri, samimiyligi, ustoz-shogirdlik munosabati bayon etilgan. Maqolada yana Navoiyning badiiy san'atlardan mohirona foydalangan holda betakror va go'zal asarlar yaratganligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Navoiy, naqsh, musiqiy asar, kuy, qo'shiq, amal, ohang, qavl, so'z, gap, musiqaga solingan she'r, muammo

Annotation: This article describes Alisher Navoi's loyalty, love, sincerity, mentor-disciple relationship to Pahlavon Muhammad, his mentor and like-minded professional friend. The article also mentions that Navoi created unique and beautiful works by skillfully using artistic arts.

Key words: Navoi, pattern, musical work, tune, song, action, tone, sentence, word, sentence, poem, problem

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tarjimai holi va asarlarining g'oyaviy- badiiy-ilmiy xususiyati tahlili uchun adabiyotshunoslikda “ko'p va xo'p” ilmiy izlanishlar olib borilgan. Alisher Navoiy ijodida memuar-biografik xarakterdagi asarlar alohida o'rin tutadi. Bu turkumga Navoiyning “Hamsatul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” nomli asarlari kiradi. Alisher Navoiy ularda o'z zamonasining madaniy hayotida ulkan o'rin egallagan mashhur fan va madaniyat arboblari, unga eng yaqin bo'lgan kishilar — ustoz va murabbiylari, hamfikr, maslakdosh do'stlari — Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammadlarning ma'lum darajada ijodiy va ijtimoiy biografiyalarini yaratib, ular bilan o'zining har sohada hamkorligi, muloqotlarini ishonarli misollar, hayotiy lavhalarga asoslanib bayon etadi. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” va “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari yozilish usuli, badiiyati jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Alisher Navoiy sharq adabiyotida qadimgi an'anaga ega bo'lgan “manoqib”lardan tamomila ijodiy foydalanadi. Bu asarlarda badiiy nasrning ilk belgilovchi elementlari mavjud bo'lib, ularda ayniqsa Navoiyning badiiy portret yaratish mahoratida namoyon bo'ladi.

Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida ustoz, hamfikr maslakdosh do'sti Pahlavon Muhammad obrazi xarakterining ichki mohiyatini psixologik asosda ochib beradi. Pahlavon Muhammad muallif talqinida haqiqiy hayotdagi voqealarga faol munosabatda bo'lgan, o'zining hayoti va dunyoqarashida qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarga yo'l qo'ygan, o'z shaxsiyati va badiiy faoliyatida qator-qator fazilatlar, afzalliklarga ega bo'lgan yorqin siymolarning umumlashtiruvchi obrazi darajasiga ko'tariladi. Navoiy “ko'proq zamonning ta'b va fazl axliga foyiq va sarafroz» bo'lgan qahramonining ma'naviy dunyosini atroflicha ochib berishga harakat qiladi. Alisher Navoiy, avvalo, Pahlavon Muhammadning insoniy fazilatlarini, har sohada bilimdon ekanligini alohida ko'rsatib, ma'naviy qiyofa-tabiati ochib beradigan xususiyatlarini xarakterli misollar, maroqli lavhalar bilan asoslab, dalillab beradi. Buni Navoiy katta badiiy san'atkorlik mahorati bilan bajaradi.

Xususan, u Pahlavon Muhammadning musiqa sohasidagi ijodi borasiga alohida urg'u berib o'tadi. Musiqa san'atining inson ma'naviy dunyosida muhim ahamiyatga egaligini aynan do'sti va ustoz deb hisoblagan Pahlavon Muhammad ijodi orqali izohlab beradi. Xususan, Navoiy yozadi: “Ul jumladin advor va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo'b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg'ub. Ul daqiq fanda ko'shish va sa'y ko'rguzub, daxli tom va mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar va g'azallar tasnif qilur erdi va xo'b aytur erdi. Andoqki, eshitgan xavos va avom xushhol bo'lmoqda beixtiyor va o'rganmoqda beqaror erdilar”[1;130].

Advor- musiqashunoslik ilmi, musiqa nazariyasi

Savt- arabcha “ovoz”, “tovush”. Biror cholg’u, yoki vocal musiqa asari pardalari va kuy ohangi asosida yaratilgan kuy yoki ashula.

Mazbut- zabt etilgan, qo’lga oligan

Marg’ub- kishiga ma’qul bo’ladigan, ko’ngilga yoqadigan; matlub, yoqimli.

Molokalom – so’zsiz, qaytarilmaydigan, rad etilmaydigan. Molo – so’zining yana bir izohi “ko’p, to’la” desak, kalom hammamizga ma’lum “so’z” ma’nosida ko’p, to’la so’zli ma’nosida tushunishimiz ham o’rinlidir.

Naqsh – musiqiy asar – kuy, qo’shiq.

Amal – musiqiy asar – kuy, ashula, ohang.

Qavl – musiqiy asar – so’z, gap, musiqaga solingan she’r.

Ya’ni Navoiy Pahlavon Muhammadning musiqa san’atining turli tarmoqlarida, musiqashunos sifatida ilmi, bastakorlikda samarador va ijrochilikda mohirlik bilan faoliyat olib borgan, ijod etgan va muayyan bilimlarga ega bo’lgan shaxs sifatida e’tiborga loyqligini bayon etgan. Pahlavon Muhammadning advor ilmida ilg’orligi, uslubiyot (metodika) nuqtayi nazaridan idroklay olishi hamda bunga nisbatan harakati samarali ekanligini Navoiy uqtirib o’tadi. Bu yerda “Advor ilmi” deyilganda musiqa masalalarining tizimli joylashuvi nazarda tutilsa, Pahlavon Muhammadning bastakorlik, xonandalik sohasidagi ibratli harakatlari ta’rifini keltiradi. Xususan, “Dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar...” ya’ni dilni o’ziga tortadigan, jozibali kuylar va ohanglar va ko’ngilga xush keladigan, dil yoqtiradigan, yoqimli musiqaga solingan she’rlar kabi bir jumla bilan uning bastakorlik mahoratini ochib beradi. Pahlavon Muhammadning bastakorlik ijodiga bergan ta’rifi ichida “Mashhur amallaridan biri “chahorgoh” amalidur...” – deb keltirgan ma’lumoti mavjud. Bu bilan Navoiy, Pahlavon Muhammadning bastakorlik faoliyatidagi ijodining yorqin namunalaridan biri “Chahorgoh”, ya’ni “Chorgoh”(o’zbek klassik shashmaqom kuylaridan birining nomi) asari deb ta’kidlaydi va u Mavlono To’tiyning she’riga yozilgan, matlai quyidagicha:

Soqiyo, de rafta hastu ahvoli fardo nopadid,

Xeshro imruz xush doremu fardoro ki did?

Tarj.: Ey soqiy, qishning ikkinchi oyi ketdi-yu ertaning ahvoli noma’lum,

O’zimizni bugun hursand qilaylik, ertani esa kim ko’ribdi?

Baytda nido san’atidan foydalanilgan holda, bugungi kun bilan yashashga, bugunning qadriga yetishga da’vat qilingan.

Uning yana bir mashhur asari “Segoh”(fors.- ich o’rin, uch parda) kuyi hisoblanadi va u Mavlono Xusravning she’riga bog’lanib, boshlanish ikki misrasi quyidagichadir:

Ey zi tobi orazat sham’e ba har koshonay,

V-ey asiri purxami zulfat dili devonay

Tarj.: Chehrang toblanishidan har bir jonga sham paydo bo’ladi,

Devonalar dili jingalak buralib ketgan sochlarning asiridir.

Baytda nido, husni ta’lil va g’uluv badiiy san’atlaridan foydalanilgan holda betakror bir tasvir yaratilgan.

Shu bilan birga Alisher Navoiy “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida musiqa fani, ijrochiligi va ijodiyotida mashhurlikka yetishgan ustozlar xususida ma’lumotlar keltirib, bu bilan ustozlarning ijodi doimo zamon tafakkuri uchun ibrat bo’lishini, ta’limda esa o’rnak ekanligini uqtirib o’tadi.

Asarning davomida Navoiy: “Ul asrning bu fanda mohirlari misli: Ustod Muhammad Xorazmiy va Mavlono Nu’mon va Mavlono Sohib Balxiy va Shayx Safoyi Samarqandiy va Xoja yusuf Andijoniydek kishilarning tasnifoti muqobalasida ishlar yasabdur va naqsh va sufiya va amal va qavl va jir chorzablardek va chun o’zi alarning ko’pidan ham xushgo’yroq va ham xushxon ermish, ishlarining shuhrati ko’proq voqe’ bo’lur emish”[1; 131], - deya ul- o’rta asr Hirot madaniy hayotining faol ishtirokchilari, shoir, bastakor va sozandalar, musiqa ilmining mohir namoyondalarini eslab o’tish bilan birgalikda, Pahlavon Muhammadni ulardan ajralib turadigan sifatlariga alohida urg’u berib “xushgo’yroq va ham xushxon ermish” ya’ni go’zal va shirin so’zli, yoqimli hofiz deya ko’klarga ko’taradi.

Va she’r va muammo bobida ilmiy va amaliysida Pahlavon sohib vuquf va jald erdi, ul nav’kim, zamon shuaro sinining yuzidin biriga oncha shuur va vuquf yo’qtur va aksar nazm ahli har nav’ she’r aytsalar erdi — Pahlavon nazarig’a etqururlar erdi va aning isloh va tag’yir va tabdilin qabul qilur erdilar va o’zining dag’i she’r va muammo fannida tab’i muloyim erdi. Andoqki, bu matla Pahlavonningdurki:

Guftamash: “Dar olami ishq i tu koram bo g’am ast?”

Guft xandon zeri lab: “G’am nest, kori olam ast”

Mazmuni:

(Unga aytdimki, sening ishqing olamida ishim g’amdan iborat bo’ldi.

U kulgu aralash miyig’ida: “g’am emas, olamning ishidir”, dedi).

Baytda kulgu va g'am so'zlari tazod san'atini yuzaga keltirsa, "g'am emas, olamning ishidir" deya tajohil-u orif bilib –bilmaslikka olish san'atini yuzaga keltirgan.

Asarning bu qismida Navoiy Pahlavon Muhammadning she'r va muammo janrida ham beqiyosligini ta'kidlab, zamon shuaro si ya'ni shoirlari ham Pahlavon Muhammad o'z davrining benaziri ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, nazm aytishda ham yuksak iqtidorga egaligini aytib, Husayn Boyqaro ming oltin tanga tuhfa qilgan yuqoridagi baytni uning iqtidoriga yorqin namuna deb ko'rsatadi. Ruju san'atining beqiyos namunasidir.

Asarning davomida Navoiy Pahlavon Muhammadning yana iqtidori – muammo janrinida ham beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Muammo tariqida xud muxtari" erdi. Jam'iki muammo ayturlar, base zahmat bila bir baytdin yo bir ruboiydin bir ism hosil qilurlar. Pahlavon ustod ab'yotidinkim, qoyil muammo qasdi qilmamish bo'lg'ay, tab'i o'zi bila ismlar paydo qilib erdi va bu ko'p voqe' bo'lubturkim, holo ushshoq orasida bor. Ul jumladin, Hazrati Xoja Hofiz Sheroziyning devonining burung'i g'azalining matlaidinki, bag'oyat mashhurdir. "Ali" ism chiqoribdurki:

Alo yo ayyuhas - soqiy adir ka'san va navvilho,

Ki ishq oson namud avval, vale aftod mushkilho.

Namud (fors. — ko'rinish, namoyon bo'lish) — makom ashula yo'llarida muayyan sho'baning boshqa sho'balarda ishlatiladigan kuy tuzilmasi. Ya'ni: Qani, ey soqiy, bir kosani aylantirib, uni menga ham yetkaz, chunki ishq avval oson ko'rinish, qiyinchiliklar yuz berdi. Bu baytdagi soqiydan murod ma'rifat tarqatuvchi kishidir. Kosadan maqsad ma'rifatdir, ishq esa ma'rifat ishqidir. Binobarin, bu baytning haqiqiy mazmuni shunday bo'ladi: Ey, ma'rifat oshiqlarining ustoz, ma'rifat idroki menga avval osondek ko'ringan edi, ammo buning ko'pgina qiyinchiliklari chiqib, mening unga bo'lgan ishqimni susaytirmoqda. Shuning uchun sen davrangga yig'ilgan shogirdlaringni, jumladan, meni, ma'rifat sirlaridan bir ozgina ogoh qilib, soviyotgan ko'nglimizni qizdirgin.

Xulosa o'rnida, Navoiyning barcha asarlari kabi "Holoti Paylavon Muhammad" ham adabiyotmimg noyob durlari terilgan durdona asardir. Bu asarida ham Navoiy badiiy san'atlarning yorqin namunalari jilo topib, o'quvchiga o'zgacha lazzat bahsh etadi. Ularning ayrim jihatlarini anglashga, anglatishga harakat qildik. Alisher Navoiy "Ma'no ahli ma'noga, suvrat ahli suvratga boqar", deb aytganidek suvrat ahli bo'lib qolmaslikka harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15- tom. - Toshkent, 1992.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 9- tom. - Toshkent, 1992.
3. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 1- tom. - Toshkent: Fan, 1983.
4. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 2-tom. - Toshkent: Fan, 1983.
5. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 3-tom. - Toshkent: Fan, 1984.
6. Navoiy asarlarining izohli lug'ati. 4- tom. - Toshkent: Fan, 1985.
7. Goyibboeva Rayhonoy. THE IMAGE OF ABDURAHMON JAMI IN NAVOI'S PROSE. Germany World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 10, May, 2022 ISSN: 2749-361X
8. Goyibboeva Rayhonoy Ahmadjonovna, Mominjon Sulaymanov. TOPICS AND SPECIFIC FEATURES OF ALISHER NAVOI'S PROSE WORKS. ACADEMICIA : An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137, Vol. 11 Issue 12, DECEMBER 2021, Impact Factor: SJIF 2021.492

SHAROF BOSHBEKOV PYESALARIDA KONFLIKT VA KOLLIZYA

Xamroyeva Gulmira Tilavna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi,
Keldiyorova Dinora Islom qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

Kalit so'zlar: konflikt, kolliziya, "motor", "Tentak farishtalar", "Musofir bo'lmaguncha", ixtilof, to'qnashish, antagonistik, noantagonistik

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqotimizda Sharof Boshbekovning konflikt yaratish mahorati "Tentak farishtalar", "Musofir bo'lmaguncha" pyesalari tahlili berilgan. Konfliktning "ichki" va "tashqi" turlarining tahlili keltirilgan.

Annotation: In this scientific research, Sharaf Boshbekov's ability to create conflict in the plays "Tenky Angels" and "The Stranger Comes" is analyzed. An analysis of "internal" and "external" types of conflict is presented.

Аннотация. В данном научном исследовании анализируется способность Шарафа Бошбекова создавать конфликты в пьесах «Тентак Фаришталар» и «Пока не будет чужого». Представлен анализ «внутреннего» и «внешнего» типов конфликта.

Ko‘pincha konflikt bilan kolliziya birmi? degan savol tug‘iladi. Nazariyotchilar konflikt tarqoq ma‘noni anglatib, kolliziya terminiga yaqin turadi va ular bir-birini tez-tez almashtirib turadi, deyishadi. Dramatik asarlarda kolliziya keskinlashgan vaqtda sahna asarlarida konflikt paydo boladi. Konflikt ko‘proq keskin dramatik sujetli voqealarda ishlatiladi. Ayniqsa kuchli qahramonlar to‘qnashuvida keskin konflikt kelib chiqadi. Shu bois konflikt asar voqealarini harakatga keltiruvchi “motor” hisoblanadi. Konflikt muallifning maqsadini, tomonlarning o‘zaro aloqalar kurashini ifoda etadi.

Konflikt (lot. conflictus — ixtilof, to‘qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to‘qnashuvi; 2) adabiyot va san‘atda — badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o‘zaro to‘qnashishi, ixtilofi. Konflikt epik asarlarga nisbatan qo‘llanadi, dedektiv romanlarda esa u kolliziya, kechinma, fikr oqimi tarzida namoyon bo‘ladi.

Konfliktning 3 xil ko‘rinishi mavjud:

- asar qahramonlarining birbirlari bilan to‘qnashuvi, kurashi;
- shart-sharoit, muhit bilan to‘qnashuv;
- o‘z-o‘zi bilan ichki kurash[1]

Konfliktida yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo‘ladi. Dramaturgiyada “tashqi” konfliktga keng o‘rin beriladi, bunda qahramonlar o‘zaro bir-biri bilan ixtilofda, kurashda bo‘ladi. Jumladan, Sh.Boshbekovning “Charxpalak” kinoromani dastlab Egamqul bilan lo‘li Maryamning ziddiyatlari bilan boshlanadi va ular o‘rtasidagi konflikt vaqtinchalik murosas bilan tugagandek ko‘rinsada, ammo Maryamning Egamqul oilasini tiklash uchun, uning farzandlarini qarindoshlaridan olish uchun turli epizotik obrazlar bilan ziddiyatga boradi.

Maryam: - Manga qara, san, qo‘ng‘izning urg‘ochisi, nima diyopsan?!

Bu erkak, xaymi! Erkak gapirganda xotinlar jim turadi! San qayrerdan bilasan, bu xezalakmi-yo‘qmi? A? Bola buniki, qiz bachani mana shu odam tug‘dirib qo‘ygan, xaymi?! – degancha O‘ktamxonning ustiga vajohat bilan kela boshladi.

O‘ktamxon Saidani ham unutib, o‘ziga himoya qidirgandek ayvonga qochib chiqdi.

- Iya, bu qaysi mahalla?.. – Achavotmi?.. Achavot bizning mahallaga neprichyom!.. O‘tmaydi!.. – U yana o‘chdi.

- Odamning mana bu yeriga oshiq-moshig‘i bo‘ladi,- deb Maryam barmoqlari bilan ikki chekkasini ko‘rsatdi. – Bitta ursam, o‘sha oshiq- moshig‘ing chiqib ketdi, xaymi? Oshiq-moshig‘ chiqsa, dahaning tizzangni o‘padi! Boshingdan oyog‘inggacha yaxlit bitta og‘iz bitta og‘iz bo‘lasan-qo‘yasan, tuzukmi?![2]

Bizga ma‘lumki, konflikt ikki xil bo‘ladi antagonistik va noantagonistik konflikt. Bunday konfliktlar bir-biridan farq qiladi. Antagonistik konflikt asosida sinflar, guruhlar kurashi yotadi. Bularda manfaatlar va taraflarning keskin kurashi ifodalanadi. Ular keltirib chiqargan antagonistik ziddiyatlar isyonlar, inqiloblarni o‘zida aks ettiradi. Konfliktlar keskinligi - xarakterlar tolaqonligining badiiy namoyon bo‘lishidir. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida bosqinchilarning o‘z tizimlarini o‘rnatish uchun shafqatsizliklar qilishi, mahalliy aholining azob-uqubatlari va antagonistik ziddiyatlarning yorqin misolidir. Bosqinchilik va mahalliy aholi o‘rtasidagi to‘qnashuv o‘sha zamon uchun xarakterli ziddiyatning hayotiy namunasi bo‘lib gavdalanadi.

Ichki konfliktida qahramonning o‘z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o‘rtasidagi ziddiyat tarzida ko‘rinadi. Mazmuni, yo‘nalishi nuqtai nazaridan konfliktning maishiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va boshqa turlari mavjud. Katta, o‘tkir g‘oyalar uchun keskin kurashga asoslangan to‘qnashuvda fojiaiy ruh ustun bo‘lib, fojiaiy konfliktni tug‘diradi yoki kulgili, o‘tkir hajviy yo‘nalishdagi vaziyat, holat, voqealar kulgili ruhni hosil qiladi.

Dramaturgning “Tentak farishtalar” kinoqissasida ichki konflikt mahorat bilan tasvirlab bergan o‘rinlar bir qancha. Masalan, Oshiq G‘aribning bemahal, fojiali o‘limidan ruhiy iztirobga tushgan sevgilisi Prangi yigitning o‘limiga ishona olmaydi va ichki ziddiyat tufayli yig‘lay olmaydi.

- O‘ldimi?... dedi u o‘zidan so‘raganday.

- Ha, qizim...- Olloning irodasi...

Parangi hamon ishonolmasdi:

- Unda nega men yig‘lamayapman? Birov o‘lsa yig‘lashadiku...

Uning ojiz tasavvuridan chiqqan bu savolga hech kim javob bera olmadi.

- Meni ayab, yig'lamasinlar deb, beozorgina ketdilar? – dedi qiz atrofdagilarga jovdirab. Doim meni tashvishimni qilib yurardilar... - So'ng yalina boshladi:

- Men-ku, mayli. Sizlar yig'langlar... Hech qursa, ko'ngil uchun yig'langlar... Men yig'olmayapman, xola, qiynalib ketdim!...[3]

Xulosa shundan iboratki, voqelikdagi ziddiyatlarning badiiy ko'rinishi konfliktidir. Qarama-qarshi bo'lgan kuchlar o'zaro tarafkashlik tendensiyalari usulidagi konflikt, nomutanosib xarakterlar to'qnashuvi tarzidagi konflikt, bir-biriga zid tuyg'ular jangi –tashqi yoki ichki kolliziya yo'sindagi konflikt. Demak, murosasiz to'qnashuvlar oqibatida konflikt yuzaga keladi. Yuqorida keltirib o'tilgan Paranjining kechinmalari ichki konflikt ya'ni kolliziyadir. Qahramonlar taqdirida sodir bo'ladigan fojearlar, yuragidagi kechinmalar, iztiroblar portlab chiqadi va buni ichki konflikt deb olsak o'rinli bo'ladi.

Xarakterlar o'rtasidagi ziddiyat ichki kurashni keltirib chiqaradi. Qahramonning ongida bo'ladigan o'zgarish xoh u salbiy, xoh ijobiy bo'lsin, iztiroblar, gumonsirashlar bu konfliktning tashqi turtki natijasi sifatida ko'rinadi. Buni ichki kolliziya, deb qabul qilsa ham bo'ladi. Konfliktlar qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kolliziyasi, ong tuyg'ulari bilan bevosita boglanishi mumkin. Konflikt ikki xil qiyofaga ega, ya'ni biri ichki qiyofa, ikkinchisi tashqi qiyofa. Tashqi qiyofadagi konflikt ochiq kurash ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ichki konflikt (kolliziya) qahramonlarning ongi-ruhiyatida bo'lib o'tadi. Bu holat qahramonlarning voqealarga turli munosabatlarida, ya'ni sharhlash, tushunish, idrok qilish sharoitiga qarab ish tutish, qiyinchiliklarga duch kelishi, to'qnashuvlar in'ikosi sifatida yuzaga keladi. Bir so'z bilan aytganda, ularni nozik hissiyotlardan izlamoq kerak. Bundan xulosa shuki, ziddiyat kishi ruhiyati, psixologiyasiga borib taqaladi. Tashqi konflikt ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Hayotda shunday shaxslar uchraydiki, ularning xatti-harakati ham antaganistik, ham noantaganistik konfliktlar bilan aloqador bo'ladi. Bu o'rinda biz konfliktlarga qat'iy chegara qo'yish o'rinsiz, deb bilamiz. Konfliktga voqea va qahramonlarning o'zaro kurashuvi yig'indisi sifatida ta'rif berishni to'g'ri deb tushunamiz.

Konflikt asarda mazmun va shaklning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos ziddiyatlari g'oyaviylik bilan badiiylik o'rtasidagi konfliktni topib, asarga singdirishda muallifdan ancha mahorat talab qiladi. Masalan, "So'qmoq" kinoqissasida Sharof Boshbekov o'z ma'nifati ko'zlab xalqning bug'doyini o'g'irlagan Safarqul va ijobiy qahramon Abulqosim uning ishiga qarshi chiqishi va natijada o'zi shu o'g'irlikda ayblanib qamalib ketishi kabi konfliktni syujetga mahorat bilan singdirib yuborgan. Ushbu pyesada Sh.Boshbekov mahoratli dramaturgligi tufayli ichki kolliziya bilan tashqi konfliktning bir-biriga qorishib ketishini aniq ko'rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konflikt>
2. Sh.Boshbekov "Charxpalak" kinoroman, birinchi jild, T.: "O'zbekiston" nashryot-matbaa ijodiy uyi, 2017 – 18-19 b.
3. Sh.Boshbekov – Musofir bo'lmaguncha, "Tentak farishtalar" kinoqissa; "Yangi asr avlodi", 2011-yil. 254-bet

ALISHER NAVOIY IJODIDA SHE'RIY SAN'ATLARNI QO'LLANILISH SEHRI

Babakulova Nargiza Kurashbayevna

**Namangan viloyati, Namangan shahar 48-maktab ona tili
va adabiyoti fani o'qituvchisi**

Annotatsiya – Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodi boyligi, undagi badiiychilik pishiqligi ilmiy tadqiq etilgan. Ijodida qo'llangan she'riy san'atlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar – Siymo, quvonch, tuyg'u, tosh, haqiqat, haq, komillik, san'at, she'riyat, erk.

Аннотация - В данной статье научно исследуется богатство творчества Алишера Навои, зрелость его артистизма. Изучены поэтические искусства, использованные в его творчестве.

Ключевые слова - Образ, радость, чувство, камень, истина, истина, совершенство, искусство, поэзия, воля.

Annotation - In this article, the wealth of Alisher Navoiy's creativity, the maturity of his artistry is scientifically researched. The poetic arts used in his work were studied.

Key words - Image, joy, feeling, stone, truth, truth, perfection, art, poetry, will.

Kirish.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida borganda uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan. U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan iz aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqifoyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musulmon Sharq poetikasining tarkibiy qismlaridan biri, nutqqa bezak beruvchi san'atlar, ularning o'ziga xos jihatlari, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash usullarini o'rganuvchi soha ilmi badi' bo'lib, uning asosini mumtoz she'riyat, ba'zida nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llanilayotgan badiiy san'atlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, ilmi badi' sanoyi' ilmi deb ham yuritiladi.

Alisher Navoiy ilmi badi'ga doir maxsus asar yaratmagan bo'lsa-da, o'zining "Majolis un-nafois", "Xamsa" va boshqa ko'plab asarlarida ilmi badi'ning ba'zi nazariy jihatlariga to'xtalib o'tadi. Xususan, "Majolis un-nafois"da Atoulloh Husayniy haqida so'z yuritir ekan, uning ushbu ilmga doir risola yozganligini ta'kidlaydi: "Mir Atoulloh... Bovujudi donishmandlik, she'r va muammo va sanoe'da dag'i mahorat paydo qildi va muammog'a ko'p mashg'ul bo'lur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafo qilmas, ammo sanoe'da kitobe tasnif qilibdur. «Badoye'i Atoiyg'a» mavsumdur".

Shuningdek, Navoiy o'z asarlarida ilmi badi'ga doir ba'zi istiloh va atamalar sharhiga ham to'xtalib, munosabat bildirib o'tadi. Jumladan, maqlubi mustaviy san'ati haqida to'xtalib, shunday yozadi:

"bu misra'ki «maqlubi mustaviy» san'atida aytibdur, dalil basdurkim:

Mushi xari farrux shavam,

Darki raqam qar kard"

Navoiy she'riyatida quyidagi badiiy san'atlar qo'llanilgan:

Irsoli masal (ar. – maqol yoki matal yuborish) – baytda maqol, matal va hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at. Ilmi badi'ga doir deyarli barcha manbalarda ushbu san'at haqida ma'lumotlar keltiriladi. Irsoli masal haqidagi nisbatan to'liqroq ma'lumot Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi'" (15-a.) asarida keltirilgan bo'lib, unda ushbu san'atning ikki usul bilan hosil bo'lishi aytiladi: "Birinchi va afzali uldurkim, masalning so'z va tartibin o'zgartirmay bergaylar... Ikkinchi yo'li uldurkim, masalda o'zgarish yuz berur". Bunda muallif irsoli masal san'atining birinchi turida she'r tarkibida keltiriladigan maqol yoki hikmatli so'zning hech o'zgarishsiz berilishini, ikkinchi turida esa matnning mazmuni saqlangan holda she'r talabi bilan maqol yoki hikmatli so'zning shakli bir oz o'zgartirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Atoulloh Husayniy irsoli masal san'atining lug'aviy ma'nosiga ham e'tibor qaratib, "irsol" so'zi "yubormoq, jo'natmoq" ma'nosini bildirishini, baytda masal keltirishdan maqsad esa uni muayyan kishiga jo'natish ekanligini ham aytib o'tadi: "Irsol lug'atta yubormoqdur... Aksar baytta masal keltirish, ani mahbub yo mamduh yoki o'zga kishiga yubormoq uchun bo'lur, aning uchun bu san'atni aning arzi e'tibori bilan irsol ul-masal deb apturlar". Atoulloh Husayniy o'z fikrini davom ettrib, irsoldan murod irod (keltirish) ham bo'lishi mumkin, shu sababli bu san'at nomini irod ul-masal deb ham atashlari haqida ham ma'lumot beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

U shunday buyuk siymoki, ishqning quvonch va alamlari, bekaslik va musofirlikning og'ir ruhiy iztiroblaridan ham mahrum emas. Binobarin, bir o'rinda ana shu insoniy tuyg'ular girdobida turib oh-u nola qilsa, ikkinchi bir o'rinda osmon-u falakni larzaga soladigan darajada na'ra tortadi. Bir qarasangiz, u olam va odam naslidan hafsalasi pir bo'lib ulardan etak siltaydi; bir qarasangiz; din, hokimiyat arboblarning chirkin basharasiga ta'na toshlarini urib, podshohning giribonidan mahkam tutgan holda, uning yuziga bor haqiqatni keskin bir shaklda to'kib soladi. Shoir shaxsida yoshlik davridayoq ko'rina boshlagan mavjud muhitga tanqidiy bulish hissi davrlar o'tishi bilan, uning hayotiy tajribasi bilan bog'liq holda tobora kuchayib bordi va nihoyat, u xilma – xil shakldagi chuqur muhokamalardan keyin "olamni odam manfaatlariga mos qilib va u bilan birga odamni ham qaytadan yaratish kerak" degan buyuk xulosaga keldi.

Shuning uchun ham mazmunan g'oyaviy pafos jihatdan yuksak va badiiy barkamol bu she'riy durdonalar shoir hayotligi chog'idayoq milliy va geografik chegaralarni yoritib o'tib, Xuroson, Movarounnahr, Kichik Osiyo va Sharqiy Turkmanistonga kengayib, shuhrat qozondi.

"Badiiy san'atlarning ikkinchi bir katta guruhi bu birlamchiligiga asoslanib, badi' ilmida ma'naviy san'atlar deb yuritiladi. Y. Is'hoqov tasnifida ular istiora viy – ramziy tasvir usullari (majoz, istiora, kinoya, baroati istehlol), qiyosiy-assotsiativ usullar (tashbeh, talmeh, tansiq ul-sifot), fikrni dalillash yo'llari (husni ta'lil, tamsil, irsoli masal), emotional-mubolag'aviy tasvir usullari (mubolag'a, ruju, murojaat, savol-javob, tashbehning ayrim turlari), degan yana bir nechta turlarga bo'ladi. Tashbeh, istiora, mubolag'a kabi san'atlar nafaqat Alisher Navoiyning balki butun Sharq adabiyoti vakillarining ajralmas poetik usullaridan biri bo'ladi. Tashbeh-biron predmet yoki hodisaning xususiyatini shu xususiyat bor boshqa narsa va hodisalar orqali tasvirlashga qaratiladi"

1 Zor jismimg'a xadanging zaxmidin ortar navo,
Sozdekkin, teshsalar oni fuzun aylar sado.

Avvalo har qanday san'atni toppish oldidan baytning ma'nosini bilish kerak, albatta. Baytni quyidagicha tabdil qilsak bo'ladi: Ma'shuqa tomonidan otilayotgano'qlar oshiq oh-nolalarini orttirdi, go'yoki nayning qancha ko'p teshishsa, undan ko'p navo chiqqani kabi. Tashbeh-Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbeh san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniq, izchil, go'zal, jozibali gavdalanitirishga xizmat qilib, asarda qo'llanayotgan timsollarning ma'naviy qiyofasini yanada yorqinroq tasvirlash, shoir ifodalayotgan g'oyani o'quvchi ongiga mukammalroq, aniqroq va jozibaliroq yetkazishga imkon beradi. Ushbu matla'da shoir –dek vositasi orqali tashbeh she'riy san'atini yuzaga chiqarib, o'zini soz(nay)ga qiyos etyapti.

Tamsil "misol keltirish", "dalillash", "isbotlash", "tasdiqlash" ma'nolarini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'atdir. Birinchi misradagi fikr bilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat - mantiqiy aloqa ko'pincha qiyosiy yo'nalishda bo'lib, ijodkor diqqati ham badiiy tafakkur bilan hayotiy voqelik orasidagi o'xshashlikka qaratilgan bo'ladi. Jumladan, ushbu baytda nayning teshigi ortgani sari ko'proq navo chiqarishiga oshiqning holati qiyoslangan.

Qaddi hajrida g'amim sham'ini har devorg'a,
Kim tayabmen sarv andomi bila bo'lmish qaro.

Mazmuni: Ma'shuqaning qaddining hajrida mening g'amim shami devorga tayantirib qo'yilsa, tik devor qaro bo'ladi. Tanosub - she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamida to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi. Baytda hajr, g'am so'zlari o'zaro tanosublikni hosil qilgan.

G'unchang anfosi nasimi zavraqi jon qasdig'a
Yetkurur har dam adam daryosidin mavji fano.

Mazmuni: Labingdan chiqayotgan nafaslar nasimi jonimga qads qilib, yo'qlik daryosiga foniy mavjlarni yetkazyapti.

Istiora (arabchadan „qarzga olish“) — asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati. Bu san'at so'z ma'nolari ko'chishining bir turi bo'lib, u narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san'atiga yaqin turadi. U ko'pincha tashbihi kinoyaga, ya'ni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi.

Adabiyotshunoslikda istiora tashbihdan kuchli sanaladi. 2 Baytda esa "g'uncha" so'zi orqali lab ma'nosi ifodalangan. Bu esa istiora she'riy san'atini hosil qiladi.

Orzuyi vaslidin ranjur erur munglug' ko'ngul,
Qut uchun tazvir ila bemor bo'lg'ondek gado.

Mazmuni: Sening vasling umidida bechora ko'ngul kasal bo'ldi, go'yoki tilanchi qut (yemish) toppish maqsadida o'zini bemorga solgani kabi. Ushbu baytda Navoiy hayotiy manzaradan nazmiy ifoda yarata olgan. Baytda tamsil, tashbeh, sifatlash kabi she'riy san'atlar bor.

Nega yig'lab anbariy zulfin kesar hijron tuni,
O'lmagimni anglabon gar sham' tutmaydur azo?

Mazmuni: O'limimni ko'rib hijron tuni qora zulfini kesar ekan, sham qanday azo tutmasligi mumkin? Tajohuli orifona (arab. bi lib turib bilmaslikka olish) — mumtoz she'riyatda o'xshatish usullaridan

biri; shoir o'xshatish manbaini kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida o'sha manbaga (odatda yorga, mahbubaga) nisbatan bir yoki bir necha o'xshatish qo'llaydi, lekin go'yo o'zini nodon kishilarcha tutib, o'zini bilmaslikka solib, ushbu o'xshatishlarining to'g'ri-noto'g'riligi haqida boshqalardan so'raydi. Ushbu baytda ham shoir o'lim jarayonida barcha aza tutushini biladi, ammo bilmaslikka olib, qayta so'raydi. Tashxis (arab. — shaxslantirish) — jonlantirish badiiy san'atining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o'simliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko'chirish san'ati. Baytda tun, sham obrazlari garchi jonsiz bo'lsa-da, insonlarga xos harakatlarni bajarib, tashxis she'riy san'atini vujudga keltirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy ijodi tahlili kishini hayratga soladi. Baytlarning jim-jimadorligi, badiiy chizgilari, badiiy san'atlar mahorat bilan qo'llangani kishini mushohadaga chorlaydi. Albatta, bu xususiyatlar Navoi shaxsining komilligiga ishora desak xato bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <http://navoinatlib.uz8101> Navoiy, Alisher. Nazm ul-javohir. // Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
2. Hojiahmedov A. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" - Toshkent. "Sharq", 1998
3. Rahmonov V. "She'riy san'atlar" 1962 3 Rustamov A. "Qofiya nima?" (1976),
4. "Navoiyning badiiy mahorati" (1979).
5. Alisher Navoiy. "G'aroyib us-sig'ar"
6. Навоий шеърларида ҳамд ҳазалларнинг ўрни, "Тил ва адабиёт таълими" журнали. -Тошкент, 2003. 3-сон, 33-35-бетлар., Бекова Н.
7. "Девони Фони": исследования и издания, Преподавание языка и литературы, 2014, №3, стр. 32-35.
8. Бекова Н З. Традиция литературного наследия Навои в произведениях 9. Махтумкули. Материалы международной научно-практической конференции, посвящённой 290-летию со дня рождения Махтумкули. 19 апреля 2014г. Бухара-2014. Бекова Н.
10. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр, -Т., 2013.-Б. 60
11. Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги, Mumtoz so'z, -Т., 2011.-Б. 79

KOMIL XORAZMIY IJODIDA POETIK TASVIR: AN'ANA VA NOVATORLIK

*NamDU, Yaminova Muhayyo, magistratura yo'nalishi,
o'zbek adabiyotshunosligi ixtisosligi, 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komil Xorazmiy ijodida aks etgan an'anaviy poetik tasvirlar tadriji tahlil etilgan. Mumtoz adabiyotga oid badiiy tasvir vositalarining Komil Xorazmiy ijodidagi o'ziga xosligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: axloq, she'r, ma'naviy-axloqiy tarbiya, millat, insonparvar shoir, lirik qahramon.

Аннотация: В данной статье анализируются традиционные поэтические образы, отраженные в творчестве Камиля Хорезми. Подчеркнуто своеобразие средств художественного изображения, связанных с классической литературой, в творчестве Камиля Хорезми.

Ключевые слова: нравственность, поэзия, духовно-нравственное воспитание, нация, лирический герой.

Annotation: In this article, the traditional poetic images reflected in the works of Kamil Khorezmi are analyzed. The uniqueness of artistic image tools related to classical literature in Kamil Khorezmi's work is highlighted.

Key words: ethics, poetry, spiritual and moral education, nation, humanitarian poet, lyrical hero.

Komil Xorazmiy – ilmi bade' sirlarini chuqur egallagan, nazmda mahorat bilan qo'llay olgan salohiyatli ijodkor. Shoir lirikaning qaysi janrida yozmasin, xoh g'azal yo muxammas, xoh masnaviy yoki kichik she'riy janrlarda, teran falsafiy fikrni go'zal badiiy san'atlar bilan ziynatladi. Bu orqali o'zining poetik mahorati nechog'liq baland ekanini ko'rsatdi. Mumtoz she'riy an'analarni munosib davom ettirish barobarida unga yangicha ruh bag'ishladi. Ijodkor lirikasida badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanilgani ularni o'zaro aloqadorlikda mufassal o'rganishni taqozo etadi. Chunki "...g'azallarda obraz yaratish uchun shoir foydalangan badiiy tasvir vositalarining barchasini e'tiborga olmay turib, ularning murakkab tarzda birikishidan hosil bo'lgan fakturasini (o'ziga xos xususiyatlarini) vujudga keltirgan ma'nolar aloqadorligi va ularning tovlanish rishtalarining barchasini ajratib olish mumkin emas". Shoir lirikasida badiiy san'atlarning qo'llanish usulida ikki xil holat kuzatiladi: 1. She'rni boshdan-oxir bir san'at asosiga qurish. 2. Bir she'rda bir qancha badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanish. Tabiiyki, ushbu

tasnif ma'lum darajada shartlidir. Chunki ijodkorning ayrim lirik she'rlari asosan bir badiiy san'at asosida yaratilgani ularda parallel ravishda boshqa ko'plab badiiy san'atlar qo'llanishini istisno etmaydi. Shoir lirikasida badiiy san'atlardan istifoda etilishi masalasining ushbu tasnifga tayanib o'rganilishi, shu ma'noda, shartli ekanini ta'kidlash kerak. Tadqiqotda tahliliy fikrlarni ma'lum bir tizimga solish uchun ham shu asosda ish ko'rildi. Komil Xorazmiy devonida boshdan-oxir bir badiiy san'atga asoslangan g'azallar bir nechta ekani shoirning ushbu she'riy usuldan unumli va mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi. Jumladan, ijodkorning:

Mango qilma, ey mohi olijanob,
Itobu itobu itobu itob [1;64].

matla'li g'azali buning yorqin isbotidir. Ushbu g'azal boshdan-oxir takrir san'ati asosiga qurilgan. Atoulloh Husayniy ta'biricha, bu san'atning "...ma'noning takriri, ya'ni ani muqarraru muhaqqaq qilmoq yangliq nukta uchun lafzni takrorlamoq" ekani e'tiborga olinsa, Komil Xorazmiy ham takrirdan ayni maqsadda foydalangan ayon bo'ladi. Jumladan, mazkur g'azalning keyingi baytida shoir mana bunday yozadi:

Erur ishqing o'tig'a ko'nglum mudom,
Kabobu kabobu kabobu kabob [1;64].

Ushbu baytda "kabob" so'zining to'rt marta takrorlanishi lirik qahramon ruhiyatini, uning iztirobli kechinmalarini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Aslida, ushbu baytda boshqa badiiy san'atlar, masalan, istiora (ishq o'ti), kabi san'atlar imkoniyatidan ham ustalik bilan foydalanilgan.

Takrirning mazmunni kuchaytirish, ta'kidlash maqsadlariga xizmat qilishi, badiiy so'zning ta'sir kuchini oshirishi e'tiborga olinsa, Komilning ushbu san'atdan samarali istifoda etgani sabablari oydinlashadi. Mana bu baytda oshiq ruhiyati va mashuqaning beqarorligi tasvirlangan.

Chu kelding, ketarmen deb on qilma ko'p
Shitobu shitobu shitobu shitob [1;64].

Takrir san'ati Xorazm adabiyotida Ogahiy, Feruz, Avaz O'tar o'g'li ijodida ham keng qo'llangan. Bu san'at, birinchidan, shoir urg'u bermoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'quvchining diqqat-e'tiborini muallif ko'zda tutgan asosiy mazmunga qaratadi. Uchinchidan, g'azalda o'ziga xos ohangdorlikni ta'minlaydi:

Oshiqning javr chekishi, ma'shuqaning zulm ko'rsatishi – mumtoz adabiyotda an'anaviy tarzda davom etib kelayotgan tasvir. Lekin Feruz takrir san'ati orqali ana shu an'anaviy mazmunga yangi ruh bag'ishlaydi. Keyingi baytda "xarob" so'zining to'rt marta takrorlanishi ana shu maqsadga xizmat qilgan:

Ango ko'p ko'ngil qo'ymakim, bo'lg'ay – o'q
Xarobu xarobu xarobu xarob [1;64].

G'azalning to'qqizinchi baytiga kelib yorga bo'lgan ishq qisman ijtimoiylashib toju taxtga bo'lgan ishqqa aylanadi. Komil Xorazmiy mol dunyo sen bilan tunu kun birga bo'lsa ko'p ham fahrlanma deb begona bayt kiritadi. Bayt tarkibidagi rikob so'zi shohlar bosh kiyimi ma'nosida tushuniladi.

Sango bo'lsa ham oyu kun – qilma faxr
Rikobu rikobu rikobu rikob [1;64].

Keyingi bayt avvalgisidagi mazmunni davom ettirishi barobarida o'quvchi ko'z o'ngida obrazli tasvirni jonlantirishi jihatidan ham qimmatlidir:

Erur ji'ya dunyo oning tolibi

Kilobu kilobu kilobu kilob [1;64].

Visol – oshiqning oliy maqsadi. Barcha dardu iztirob, jabru zulmga sabr qilish zamirida ana shu maqsad yotadi. Unga erishgandagina oshiq o'zini baxtiyor hisoblaydi. G'azalning maqta'ida ana shu fikr san'atkorona ifodalangan:

Labing hajrida ichmagay Komiling

Sharobu sharobu sharobu sharob [1;64].

Ta'kidlash kerakki, ushbu g'azaldagi takror o'quvchiga zarracha malol kelmaydi. Aksincha, she'rning ohangdorligini, musiqiyligini oshirib, misralar jozibasining o'quvchi qalbiga oqib kirishini ta'minlaydi. Bu hol, o'z navbatida, Xorazmiyning nechog'liq mahoratli shoir bo'lganini ko'rsatadi.

She'rni boshdan-oxir bir san'at yani takrir san'ati ustiga qurish faqatgina bu g'azal tarkibida emas, boshqa lirik asarlari tarkibida ham uchraydi. Buning isboti uxhun takrir san'ati zamirida ijod qilingan mana bu g'azalni misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Loladek ishqingda ko'nglum, ey nigor

Dog'doru dog'doru dog'dor.

Tig'I hajringdin erurman borho

Dilfigoru dilfigoru dilfigor.

Ko'zlarim oyinadek diydoringa,

Intizoru, intizoru intizor.

Berdi sirri ishqinga qonli yoshim,
Ishtihoru, ishtihoru ishtihor.

Mehru ruhsoringdin ayru jonu dil
Beqaroru beqaroru beqaror [1;82]

G'azaldagi baytlar mazmuniga diqqat qaratilsa, har brida takrorlanib kelgan so'zlar ifoda qilinayotgan fikrni yanada kuchaytishga uning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan. Ushbu so'zlar o'quvchiga zarracha malol kelmaydi, balki baytdan baytga o'tgan sari kishining zavqini oshiradi. Shu bilan birga Komil Xorazmiyning nechog'liq usta san'atkor ekanini namoyish qiladi. Yuqoridagi g'azal tarkibida takrirdan tashqari yana bir necha badiiy tasvir vositalaridan san'atkorona foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan tashbeh (loladek ko'nglum, oyinadek diydor, qonli yosh, furqating qishi, vasling navbahori, abrdek chashmim, oy yuzung) tazod(furqating qishi, vasling navbahori) tashxis(sunbul va gul yuzing va zulfingni ko'rib sharmisor). Ushbu g'zal 11 baytdan tashkil topgan bo'lib arozning ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilgan. Bu kabi yirik hajimli g'azallar komil Xorazmiy ijodida ko'plab topiladi.

Bunday takrirlarga asoslangan asarlar nafaqat Komil Xorazmiy g'azallarida balki uning muxammaslarida ham yuksak na'munalarini uchratish mumkin. Quyidagi muxammasga diqqat qaratadigan bo'lsak undagi har bir misrada takrir san'atiga guvoh bo'lamiz.

Necha, necha necha kundan beri jahon yaksar,
Qaro, qaro, qaro erdi ko'zimga shomu sahar.
Bukun, bukun, bukun olam munavvar bo'ldi magar,
Quyosh, quyosh, quyoshoso jamolin ul dilbar.
Ochib, ochib, ochib olamni ayladi anvar [1; 203].

Muxammasning har bir bayti ayni holdagi takrirlardan iborat. Va o'z navbatida bu band mazmunini nihoyatda kuchaytirishga xizmat qilgan. Muxammasning ushbu bandi tarkibida takrirdan tashqari, tashxis va tazod she'riy san'atlaridan foydalanib, muxammas ma'nosi yanada go'zallashtirilgan. Muxammasning keyingi baytlarida ham huddi shu kabi so'z takrorini kuzatish mumkin.

Shoir ijodida so'z takroriga asoslangan yana bir san'at, mukarrar san'ati ham yetakchilik qiladi. Bu san'at "qayta-qayta", "usti-usti" ma'nolarini beradi. Baytdagi so'zning muayyan o'rinda takrorlanib, juftlanib kelishidir. Har bir baytda juft so'zlarning qo'llanishini mukarrarga xos xususiyatini shoirning quyidagi baytida ko'ramiz.

To gulshani jamoling ochar gul chaman-chaman
Zulfi muanbaring sochar anbar summan-suman [1; 135].

Komilning yuqoridagi g'azali matla' dan maqta'gacha mukarrar san'ati ustiga qurilgan. Ushbu takrorlar bayt mazmunini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Xususan, yuqoridagi baytda yor yuzining chaman-chaman gul ochishiyu, sochlaridan hushbo'y atirlar sochilishi tashbeh qilingan.

Har bir shikanga bandadur yuz shikasta dil,
To zulfi anbarin sang obo'lmish shikan-shikan [1; 135]

-deb yor sochlarini kishanga o'xshatib, uni o'rab olganini ifodalamoqda. Bundan tashqari Komil Xorazmiy ijodida tajohi orif san'atining o'rni ham katta. Xususan, shoirda boshdan oyoq shu san'atga qurilgan g'azal ham mavjud. Ushbu g'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Jon baxshi la'ling ul xol hindularmudur,

Yo chashmai hayvon uza zag' sayah mo'larmudur [1; 60].

Ushbu baytda shoir yor labi ustidagi holni dastlab hinduga so'ngra suv yuzidagi qora siyohga o'xshatib o'ziga xos tashbeh yaratadi. Bu kabi ajoyib tashbehtarlar g'azalning keying baytlarida yana ham go'zallashadi.

Bog' jamoling sahnida o'ynar ko'zing mardumlari,

Yoxud Ho'tan gulzorida sayr etgan ohularmudur? [1; 60].

Yuqoridagi baytda shoir endi yor ko'zlarining tavsifiga o'tib uni Ho'tan bog'ida sayr etib yurgan ohularga o'xshatadi. Mumtoz adabiyotimizda yor ko'zining ohularga o'xshatilishi ko'plab uchraydi. Shoir yor ko'zlarini tasvirlash bilan birga uning yuzini ham Ho'tan bog'idek go'zal ekanini aytib o'tmoqda.

Sunbul erurmu sarvg'a chirmoshib o'sgan bog' aro,

Yohud cho'lashgan haddingga shabrang gisularmudur[1; 60].

Endi navbat yorning qaddi-yu sochlariga keldi. Yor qaddini an'anaviy tarzda sarv daraxtiga qiyos etadi. Sochlarini esa qora sunbullarga o'xshatadi. Bu o'xshatish ham mumtoz adabiyotimizda ko'p qo'llanuvchi an'anaviy badiiy tasvirlardandir.

Shahlo ko'zung atrofida kipriklerinmu, yo'q esa,

Qo'rg'on kiyiklar saydiga sayyod mo'ndularmudur? [1; 60].

Yuqoridagi baytni tahlil qilar ekanmiz, yana bir betakror tashbehni ko'ramiz. "Mo'ndu" so'zi Navoiy asarlar lug'atida xandaq sanchig'i, tuzoq kabi izohlar ko'rsatilgan. Ko'zni kiyiklarga o'xshatish yuqoridagi

baytda ham kuzatildi. Ushbu baytga kelib kipriklar kiyiklarni ovlash uchun qo'yilgan sayyod (ovchi)lar tomonida qo'yilgan tuzoqlarga o'xshatilyapti. Shoir o'quvchi ko'z o'ngida o'zgacha manzarani namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Hayitmetov.A., Mo'minova V. Jaholatga yov bo'lib. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – Toshkent, 1975
- 2.Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B. 294.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA RAMZLARNING IFODALANISHI

Abduraxmonova Dilshoda,
Navoiy davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti I- kurs

Annotatsiya: Maqolada ramzlarning mumtoz adabiyotda qo'llanilishi, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Lison ut-tayr" asarlaridagi ramzlarning tasnifi o'rganib chiqildi. Tadqiqot davomida dostonlardagi barcha ramziy timsollarni tahlil qilishga, alohida to'xtalib o'tishga qaror qildik.

Kalit so'zlar: Ramz, Alisher Navoiy, "Farhod va Shirin", "Zarbulmasal", "Lison ut-tayr", "Layli va Majnun", doston, Ajdaho, Suqrot, komil inson, Samandar, Yusuf, Simurg, Humo.

Annotation: The article examines the use of symbols in classical literature, the classification of symbols in Alisher Navoi's works "Farhad and Shirin", "Layli and Majnun", "Lison ut-Tair". During the research, we decided to analyze all the symbolic symbols in the epics and to dwell on them separately.

Key words: Ramz, Alisher Navoi, "Farhad and Shirin", "Zarbulmasal", "Lison ut-tayr", "Layli and Majnun", epic, Dragon, Socrates, perfect man, Samandar, Yusuf, Simurg, Humo.

Аннотация: В статье рассматривается использование символов в классической литературе, классификация символов в произведениях Алишера Навои «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Лисон ут-Тайр». В ходе исследования мы решили проанализировать все символические символы в былинах и остановиться на них отдельно.

Ключевые слова: Ramz, Алишер Навои, «Фархад и Ширин», «Зарбулмасал», «Лисон ут-тайр», «Лейли и Меджнун», эпос, Дракон, Сократ, совершенный человек, Самандар, Юсуф, Симура, Хумо.

Barchamizga ma'lumki, bu olamda mavjud bo'lgan narsalar, o'tmish haqidagi ilk tasavvurlar, insonlarning turmush tarzi, mashg'ulotlari, marosimlari xalq og'zaki ijodi orqali yetib kelgan. Aynan shu narsa ijodkorlar e'tiborini o'ziga jalb etib, badiiy adabiyotga, xususan o'zbek nazmiga ko'chib kelgan, unda ifodalanadigan ramzlar esa badiiy ijod mahsulini yanada jozibali qilishga, yangi so'zlarni kashf etishga, tilning ifodaviy holatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ramz san'ati barcha xalqlarning adabiyotida qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar davridan to hozirgi kunga qadar ramzlardan foydalanib kelinadi. "Zarbulmasal" asari bunga misol bo'la oladi, undagi hayvonlar (*ukki-donolik, ilon-ziraklik, tulki-ayyorlik, chumoli-mehnatsevarlik, bo'ri-ochko'zlik, sher-mardlik*) ramzlar sifatida qo'llangan. O'zbek adabiyotida ramzlarga murojaat qilinishi inson bilan tabiatning aloqadorligini ifodalab keladi.

"Ramz (arab – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi" Ramzlar- yozuvchilar o'z asarlarini yanada yorqinroq qilishlari uchun foydalanadigan ko'plab adabiy vositalardan biridir.

O'zbek she'riyatiga nazar tashlasak, har bir ijodkor poeziya maydoniga yangi ramzlar, ko'hlik majozlar va betakror ko'chimlar bilan kirib kelganini ko'ramiz. Xalq og'zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Badiiy adabiyot xususan mumtoz adabiyotga nazar tashlasak ko'plab ramziy obrazlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, tasavvufiy, turli buyumlar, jonivorlar bilan bog'liq yoki o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan ramzlar ko'plab topiladi. Turkiy tilning rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan buyuk ijodkorlardan biri hazrat Alisher Navoiydir. U kishining birgina "Farhod va Shirin" dostonida aytib o'tgilan ramzlarga misollar uchraydi:

Burung'i manzil ichra ajdahoe,

Yaratqon Tengri qahridin baloe
Ikinchi manzil ichra Ahraman bil,
Anga bedodu ofat da'bu fan bil.
Uchunchida tilismi bulajab soz,
Bu ikidin dog'i mushkilrak ul roz.
Bu uch manzildin o'tkorganga mahmil.
Deyilgon tog' erur to'rtinchi manzil.
Erur g'or ichra Suqroti yagona,
Dema Suqrot, Buqroti zamona.

Yo'lumda devdur, gar ajdahodur,
Tilism ichra agar yuz ming balodur,
Yumub borchah tahoshidin ko'zumni,
Ul ofatlarga urg'umdur o'zumni.

Ushbu misralarda keltirilgan Ajdaho – nafs, Suqrot – piri komil, kamolot cho'qqisini egallagan komil inson, dev – saltanat, sher – g'azab, temir paykar – ro'yo, yolg'on dunyo ramzi sifatida tasvirlanadi

Dedi: «Bu zarfkim mar'i bo'lodur.
Samandar yog'idin bilkim to'lodur.
Ko'p otashgoh o'tidin tormisham dog'ki,
to jam' aylamishmen bu qadar yog'.
Chu ajdar birla bo'lg'ungdur hamovardki,
andin chiqqusi aflok uza gard.
Bu yog'din surtub avval o'z taningga'a,
Samandar hamlalig' xopokaningga'aki,
ajdar birla razm etgan zamonda,
Bu yog' o'tdin seni tutqay amonda

Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor bo'lib, u - ishq ramzi (Farhod badaniga surganda, ajdarhoning o'ti unga kor qilmaydi, ya'ni ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi) deya ta'riflanib, asar mohiyatini ochib berishda muhim rol o'ynagan.

Bundan tashqari hazrat Alidher Navoiyning boshqa asarlariga qaraydigan bo'lsak, xususan "Layli va Majnun" da ham turli ramzlarni ko'ramiz. Unda keltirilgan sharq adabiyotidagi Yusuf obrazi go'zallik va poklik ramziga aylanib ketgan:

Andin bo'lub ul guruh afgor,
Itgon Yusufni talabgor.
Ul dog'i qilib tarona og'oz,
Ko'rganiga bo'lub fasona pardoz.

Alisher Navoiy asarlarining gultojisi bo'lmish "Lison ut-tayr" (qush tili) dostoni sahifalari hikmatlar bilan to'la. Unda ramzlar, majoziy tasvirlar o'rni beqiyosdir. asarda olamning yaratilishi-yu undagi yaratilgan barcha ilmlardan ramzlar vositasida aniqlik bilan ifodalanadi. Misol sifatida Simurg' – ollohga yetishish yani o'zligiga topish uchun harakat qiluvchi kishilar ramzi bo'lib, 30 ta qushlar orqali ifodalanadi, shoir dostonidagi Humo qushini esa baxt, erksevarlik, oliyjanoblik, iqbol, ezgulik, tinchlik ramzi sifatida tasvirlaydi.

Kim magar Simurg' ko'rguzay liqo,
Bu fanolardin yetishkay ul baqo.
Ko'rdular o'zni qayonkim tushti ko'z,
Olloh-ollol ne ajoyibdur bu so'z
Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
2. N.Komilov "Tasavvuf", 2009 - yil, "Movarounnahr" nashriyoti.
3. A.Navoiy "Lison ut-tayr" Toshkent 1991 - yil.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. uzsmart.ru sayti

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA JADID ADABIYOTI NAMOYONDALARI IJODINI O'RGANISH

Rustamov Qalandar Ravshan o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU 4-bosqich talabasi
e-mail:rustamovqalandar618@gmail.com
Tel: +99893 764 77 04

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada umumiy o'rtata'lim maktablarida turli zamonlarda va turli davrlarda yashab ijod qilgan, asl fidoiylarimiz bo'lgan Jadidlarimiz hayoti va ijodini o'rganish va uni ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga ham o'rgatish haqida so'z boradi. Bundan tashqari maqolada ma'rifatparvar shaxslar hayoti va ularning bizga qoldirgan boy merosini o'rganishni aynan maktab davridan, hatto boshlang'ich sinfdan boshlash kerak degan g'oya ilgari surilgan va bir qancha o'rgatish metodikalari va usullari ham keltirib, izohlab o'tilgan.

KALIT SO'Z: siyosat, mamlakat, maktab, tarbiya, ma'rifat, siymo, alloma, jadidchilik, erk va ozodlik, bilm va ma'rifat, ziyoli.

ABSTRACT: This article is about studying the life and work of our ancestors, who lived and created in different times and periods in general secondary schools, and teaching it to the younger generation. In addition, the article puts forward the idea that it is necessary to start studying the lives of enlightened people and their rich heritage from school, even from primary school, and several teaching methods and methods are cited and explained.

KEY WORDS: politics, country, school, education, education, figure, scholar, struggle, liberty and freedom, knowledge and enlightenment, intellectual.

Mamlakatimiz mustaqillikka erisgandan keyin ta'lim sohasiga juda katta e'tobor qaratildi va bir qancha manfaatli va foydali dasturlar ishlab chiqarildi. Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab to bugungi kunkacha ona xalqimiz bosib o'tgan shonli tarix, va bizning shu kunlarga yetishishimiz uchun jonini fido qilgan ulug' allomalarimiz hayoti, ijodiy ishlari alohida e'tibor va sharaf bilan o'rganilib, targ'ib qilinib kelinmoqda. Birgina misol qilib Yurtboshimiz tashabbusi bila barpo etilgan ulug'yoshuvchi, shoir va allomalarimizga bag'ishlab barpo etilgan adiblar xiyobonini aytishimiz mumkin. Har bitta ijodkor sharafiga qurilgan haykallar, ularning sharaflari nomlari bilan atalgan xiyobonlar, ko'chalar, ijod uylari, uy muzeylari ham gapimizning yaqqol isbotidir. Ayniqsa so'ngi yillarda "Jadidchilik", "Jadid adabiyoti" degan tushunchalar alohida urg'u va e'tibor ostida o'rganilmoqda. Buning bosh sabablaridab biri esa aynan jadidchilik nomoyandalarining o'z zamonlarida xalqning ozodligi, ilm ma'rifatli bo'lishini istab qilgan hatti- harakatlarini va bizgacha yetib kelgan eng katta boyliklari-ularning asarlariini o'rganishdir. Undan ham oliy maqsad esa xuddi shu narsalarni yoshlarning ongiga singdirish va o'z tarixini, buyuk marifatparvar ajdodlarining shonli hayot yo'lini ularga o'rgatish va ularni aynan shu ruhda tarbiyalashdir.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.

999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda "Markaziy Osiyo 20-asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqloqlilik)" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda

AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston vaboshqamamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqloqlilik harakatlari to'g'risida jahon ilm-fanida to'plangan so'nggi xulosalar yuzasidan o'zbekistonlik hamkasblari bilan o'zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e'tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi



Bugungi kunda jadidchilik namoyondalari sifatida Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, So'fi Ollayor, Munavvarqori, Hamza Hakimzoda, Cho'lpon, I'shoqhon Ibrat, G'ulomiylar hayoti va ijodi talaba yoshlar, professor o'qituvchilar, ijodkorlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa Oliy ta'lim muassasalarida katta e'tibor va qiziqish bilan bu faoliyat olib borilmoqda. Bir qancha nufuzli oliy ta'lim muassasalarida jadichilar nomi bilan maxsus stipendiyalar joriy etilgan. Ilmiy izlanishlar olib borilib, kiroblar, qo'llanmalar, maqola va monografiyalar tayyorlanmoqda. Bu albatta juda quvonarli holat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham jadidchilik namoyondalarining hayoti va ijodi darsliklar orqali o'rgatilib boriladi. Lekin ijodkorning hayoti va bir qancha asari tahlil qilinadi holos. Aslida esa butun boshli bosib o'tilgan hayot yo'li va asarlari tahlili, shu bilan birga tarix bilan bog'liq bo'lgan muhim voqealarning hammasi maktab davridan va hatto, boshlang'ich sinfdan boshlab chuqur o'rgatilishi kerak. O'quvchilar kichik maktab yoshidan boshlab jadidchilik va jadidlar haqida yetarlicha tushunchalarga ega bo'lishlari kerak. Bu orqali ularda ajdodlariga bo'lgan hurmat va iftixor hissi shakllanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari "Jadidchilik", "Jadidlar" degan atamalarining ma'no - mazmunini tushunmasligi mumkin. Biz esa aynan shu holatning bo'lmasligi uchun harakat qilishimiz va ularga o'zlarining tilida bu atamalarining ma'nosini tushuntirib berishimiz kerak. Masalan jadidlarimizning yashab o'tgan hayot yillarida bo'lgan tarixiy voqealarini ertak yoki kichik hikoya sifatida sodda qilib ularga gapirib berishimiz kerak. Eng kamida ular Jadid adabiyoti namoyondalarining ismini bilishi va rasmlari orqali ularni tanib olishi maqsadga muvofiq. O'quvchilarda o'sha davr hayoti va bo'lib o'tgan voqea hodisalari haqida kichik tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu esa kelgusi o'qish hayotida ularda yanayam ko'proq narsa o'rganishga bo'lgan qiziqishlarining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Jadid adabiyoti namoyondalarining hayoti va ijosini chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali biz uarning o'sha davrlarda yurtimizning ozod bo'lishini va xalqimizning ma'rifatli bo'lishini qay darajada hohlaganliklarini va bu yo'lda qilgan hatti - xarakatlarini, fidoiylklarini ko'rishimiz va o'rnatishimiz mumkin. O'sib kelayotgan yosh avlodni ham aynan shu ruhda tarbiyalash orqali esa biz ularga bo'lgan hurmat va e'tirofimizni ko'rsatgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2. Risqulov Toshkent, Revolyusiya i korennoye naseleniye, Toshkent, 1926;
3. Ziyoy Sayd, O'zbek vaqtli matbuotiga oid materiallar (1870—1927), Toshkent, 1927;
4. Programmnii dokumenti musulmanskix politicheskix partiy (1917—1920), Oksford, 1985;
5. Revolyusiya v Sredney Azii glazami musulmanskix bolshevikov, Oksford, 1985;
6. Politicheskaya jizn russkix musulman do fevral'skoy revolyusii, Oksford, 1987;
7. Mustafo Cho'qay o'g'li, Istiqlol jallodlari, Toshkent, 1992;
8. Cho'lpon, Asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1994;
9. Rajabova R. va boshqalar, O'zbekiston tarixi (1917—1993-yillar), Toshkent, 1994;
10. Xo'jayev F., Buxoro inqilobining tarixiga materiallar, Toshkent, 1997;
11. Validiy, Bo'linganni bo'ri yer (Xotiralar), Toshkent, 1997;
12. Avloniy A., Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 1998;
13. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998;
14. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
15. Behbudiy M., Tanlangan asarlar, Toshkent, 1999;
16. Fitrat, Tanlangan asarlar, 1-2-jildlar, Toshkent, 2000;

ILM - MA'RIFATDAN NUR OLGAN QALBLAR

Nilufar Urinboyeva- TDPU talabasi

Ilmiy rahbar: Mubora Omonova

TDPU dotsent v.b., f.f.f.d., PhD

Annotatsiya: ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyondasiz - Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari haqida soʻz yuritiladi.

Аннотация: данная статья посвящена проявлению джадидистского движения - произведению Абдуллы Авлони «Турецкий Гулистан или Мораль».

Annotation: this article is about the manifestation of the Jadidist movement - Abdulla Avloni's work "Turkish Gulistan or Morality".

Kalit soʻzlar: jadidchilik harakati, rus-tuzem maktablari, ziyolilar, Abdulla Avloniy, darsliklar, gazeta, mutaassib-dindorlar, ijtimoiy gʻoyalar

Ключевые слова: воинственное движение, школы российской системы, интеллектуалы, Абдулла Авлони, учебники, газеты, религиозные фанатики, социальные идеи.

Key words: militant movement, schools of the Russian system, intellectuals, Abdulla Avloni, textbooks, newspapers, religious fanatics, social ideas

Xalqimizning unchalik uzoq boʻlmagan oʻtmishiga nazar solsak, ularning ilmi va savodli boʻlishi uchun gʻoyat katta jonbozliklar koʻrsatilganligining guvohi boʻlamiz. Bu harakat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida oʻzining yuqori choʻqqisiga chiqqan. Qisqa muddatni qamrab olishiga qaramasdan bir necha avlodlarga tatigullik adabiy meʼrosni oʻzida jamlagan jadidchilik adabiyoti namunalari yaratiladi. Bu ijod namunalarini Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari boʻlgan Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Isʼhoqxon Ibrat, Choʻlpon, Abdulla Qodiriy va boshqalar yuzaga chiqargan. Ular ijodida millatni uygʻotishga va ozodlikka chaqiruvchi sheʼrlar deysizmi, teatr sohasida yaratilgan dramatik asarlar deysizmi, milliy matbuotni oyoqqa turgʻazishdagi saʼy-harakatlarni aytasizmi ularning barchasi xalqni jaholat botqogʻidan olib chiqib, yorugʻ kunlarga yetkazish uchun qilingan urinishlar edi. Negaki, bu davrda adabiy jarayondagi voqea hodisalar ijtimoiy hayotga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Alalhusus, “Turkiston”, “Taraqqiy”, “Xurshid” gazetalarida chop etilgan siyosiy-didaktik maqolalar yoshlar ongiga taʼsir etmay qolmagan.

Yangicha fikrlovchi ziyolilar - jadidlarning yetishib chiqishida hududlarda tashkil qilingan rus-tuzem maktablarining ahamiyati katta boʻlgan. Yuqorida nomlari tilga olingan adiblarimizning baʼzilari ana shu maktablarda tahsil olganligi barchamizga maʼlum. Rus -tuzem maktablarida oʻqitiladigan diniy va dunyoviy ilmlar ularning tafakkuri kengayishi va dunyoqarashining boyib borishida katta turtki boʻlgan. Keyinchalik Turkistonda ham masjid va madrasalar qoshida tashkil etilgan mahalliy maktablar tub aholining ham savodli boʻlishiga imkoniyat yaratgan. Bolalarning savodini chiqarishda jonbozliklar koʻrsatgan jadidchilik namoyondalaridan biri boʻlgan Abdulla Avloniyning ham mehnati nihoyatda yuksakdir.

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyotining yirik namoyondasi 1978- yilning 12- iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida dunyoga keladi. Otasi Miravlon mayda hunarmandlik- toʻquvchilik bilan

shug'ullangan. Bozorda bo'z va chit sotib savdo qilgan. Abdulla Avloniy yoshligidan juda katta qiyinchilik bilan ulg'aygan. Ham o'qib, ham mardikorlik qilgan. Oilaviy sharoiti tufayli ishga sho'ng'ib ketdi, ammo ilm yo'lini tark etmagan.[1.268-bet] O'z ustida judda qattiq ishladi. Mehnatlarining samarasi o'laroq, xalqqa manzur bo'ladigan, ularga foyda keltiradigan asarlar yaratdi. Gazetalarda e'lon qilingan she'rlari, publisistik maqolalarida xalq manfaatlarini ko'zlab, ularni jaholat botqog'idan olib chiqish masalalarini o'rta tashladi. XX asr boshlarida "Shuhrat", "Osiyo", "Sadoyi Turkiston" gazetalarda nashr etilgan "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli 4 qismlik to'plami, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi maktab uchun yaratilgan darsliklari adibning maktab ta'limini, uni rivojlantirish va keng tomir yoyishidagi sa'y- harakatlarining dalilidir. Xususan, yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 1913-yilda bosilib chiqdi va 1917-yilda qayta nashr qilindi. Adib ushbu asarni yaratishda Shayx Sa'diy Sheroziy izidan bordi.[1.288-bet] Kitobning "Turkiy guliston yoxud axloq" deb nomlanganligi bejiz emas. Avloniy bu haqida kitobning 1917-yilgi qayta nashrida ta'kidlab o'tadi:

"Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal "Axloq" kitobining yo'qligi, afrodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi, o'zum muallimlar jumlasidan o'ldug'imdan, manga ham ochiq ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulinda yozmakni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni arodin ko'tarmakni munosib ko'rdim". [1. 288-bet]

E'tiborli jihati shundaki, asar garchi "Guliston"dan ilhomlanib bitilgan bo'lsa-da, uning takrori emas. U o'zbek tilida yozilgan ilk "Odobnoma", "Axloq fani" darsligidir.[2. 5-bet] Asar tom ma'noda inson tarbiyasi uchun, millatni qoloqlikdan olib chiqish uchun yaratilgan deyish mumkin. U faqatgina maktab o'quvchilari uchungina bo'lib qolmay, adabiyot va axloq havaskorlari uchun ham dasturulamal bo'lib xizmat qiladi. Ushbu axloq kitobida "Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi bir ilm- axloq, tarbiya" haqida fikr yuritiladi.[2. 8-bet]

Darhaqiqat, tarbiya inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. U inson tug'ilmasdanoq berib boriladi. Buni Abdulla Avloniy ham tasdiqlab o'tadi: "Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, axloqimizni go'zallanturmak, zehnimizni ravshanlanturmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilar?, Qayda qilinur?- degan savol keladur. Bu savolga "Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir". Ammo tarbiyani o'qimagan, ta'lim-tarbiya ko'rmagan ota-onalar qila olmaydi. Dindan va dunyoviy bilimlardan bexabar bo'lgan madrasa muallimlari ham bu vazifani uddalay olmaydi.[2. 12-bet]

Alhosil, tarbiya dastlab oilada ota-ona tomonidan beriladi. Bejiz xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyishmaydi. Inson bolasini yoshligidan go'zal xulqli qilib tarbiyalash oilada ko'proq onaning zimmasiga tushadi. o'z navbatida farzandning moddiy va ma'naviy tarbiyasi ota timsolida gavdalanadi. Demakki, hech qanday xat-savodi bo'lmagan ota-onalarning farzand tarbiyalashi dargumon. Adib "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida nafaqat tarbiya, balki xulq, qanoat, ilm, hilm, nafs, Vatanni suymak kabi mavzular haqida ham fikr-mulohazalar bildirgan.

Avloniy ilmsiz insonni mevasiz daraxtga o'xshatadi. Chunki bunday insonlar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, din va millatiga foyda kelturmak bir tarafda tursin, o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqcha qilomaydi. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz himmatimiz g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdir. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Zero shariatimizga ko'ra, qaysi ilmga muhtoj bo'lsangiz, shuni bilmak farzdur.[2. 25-bet]

Zero:

Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilan,

Qiyamat-u qadrin qachon bilgay oni johil yilon.[2. 26-bet]

Haqiqatda, ilm bir daryo kabidir qancha chuqur tubiga kirib borsangiz, shuncha boylik va shuhrat topasiz. Ilmsiz johil inson esa uning qadr-qimmatini hech qachon anglay olmaydi. Abdulla Avloniy ham o'z asarida mana shu fikrga urg'u qaratgan, yosh avlodning o'z kelajagi haqida o'ylashga da'vat etgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Erk va ozodlikni har narsadan ustun qo'ygan adib, unga olib boradigan birdan-bir yo'l ilm-ma'rifat deb bilgan.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, XX asr jadidchilik harakatining so'lmas darg'alaridan biri- Abdulla Avloniy yetuk va ko'p qirrali ijodkor. Negaki, adib ham shoir, ham dramaturg, ham yozuvchi, ham o'qituvchilik faoliyati bilan bir vaqtning o'zida shug'ullanadi. Xalqni, millatni, o'zligini anglashga, ong-u shuurini, saviyasini oshirishga katta jonbozliklar ko'rsatadi. Yaratgan darsliklari orqali nafaqat yoshlarni, balki xalqning ilg'or ziyoli tabaqalarini ham o'ziga jalb qila olgan. Mutaassib dindorlarning qarshiligiga qaramasdan, o'z g'oyalarini, fikr va tushunchalarini avom orasida keng targ'ib qilgan. Abdulla Avloniy

yaratgan darsliklar hozirgi zamon adabiyotida o'z o'rniga ega. Chunki bu darsliklarning tub negizida tarbiya, xulq-atvor va ilm masalalari yotadi. Ilm esa, vaqt va zamon tanlamaydi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Qosimov va b. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti". Toshkent "Ma'naviyat" – 2004. Darslik.
2. Abdulla Avloniy – "Turkiy guliston yoxud axloq". "Turon zamin" nashriyoti. Toshkent - 2023
3. <https://arboblar.uz>
4. <https://ziyouz.com>

SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" HIKOYALAR TO'PLAMIDA INSON VA RUHIYAT TASVIRI

Ma'rufaliyeva Feruzabonu Ma'rufjon qizi
Nizomiy nomidagi TDPU
O'zbek tili va adabiyoti fakultetining
4-bosqich talabasi
@mail:marufaliyevaferuzabonu@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyalar to'plamidagi eng sara namunalari tahlilga tortiladi. Ularning mavzusi, syujeti, kompozitsiyasining o'ziga xosligi xususida fikr yuritiladi.

ANNOTATSIYA: Description of human being and spirit in the collection of stories "Qorako'z majnun" by written Said Ahmad.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются лучшие образцы сборника рассказов народного писателя Узбекистана Саида Ахмеда «Каракоз Меджнун». Обсуждаются их тема, сюжет, оригинальность композиции.

KALIT SO'ZLAR: ruhiyat, tip, sadoqat, xarakter, yetakchi obraz.

KEY WORDS: spirit, kind, loyalty, character, head role.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: менталитет, тип, лояльность, характер, ведущий имидж.

O'zbek nasrida o'zining salmoqli o'rniga ega adiblardan biri Said Ahmad. U o'zining takrorlanmas mavzudagi asarlari bilan adabiyoti ihlosmandlari uchun badiiyat ideali bo'la oladi. Said Ahmad ijod olamiga kirib kelganidan to umrining so'nggiga qadar adbiyot sahnasidagi eng sara durdonalar asarlarni yarata olgan ijodkor. Nasrda ham, dramada ham tesha tegmagan istilohlari, o'rganilmagan hayotiy mavzudagi syujetlari bilan xalqning dilidan joy olgan edi. Real voqealarga asoslangan hikoyalarini ana shu davrning ko'zgusi sifatida keltirishimiz mumkin. Said Ahmad Toshkentda tug'ilib, mehnat faoliyatini barvaqt boshlagan. Hayot sinovlarida yozuvchi o'zini har sohada sinab ko'radi. Vaholangki, ijodni sevuvchi Said Ahmad adabiyot olamiga kirib keladi. Adabiyot dunyosida quloqch yoygan Said Ahmad ijodi san'at darajasiga ko'tarildi. Said Ahmad san'ati xususida adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o'zining iliq fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "Said Ahmad san'ati inson xarakteriga, uning ruhiyat olamiga chuqur kira borishdan, uning milliy ranglarini ilg'ab olishdan, uni ezgulik va yaxshilik, ahillik va oliyjanoblik sari undashdan, hajviyotni ulug'lashdan tarkib topuvchi san'atdir"⁴⁵. Said Ahmadning ustoz bo'lmish hikoyanavis Abdulla Qahhor ham o'z shogirdi haqida so'z yuritadi: "Said Ahmad bundan ko'p yillar muqaddam qo'liga adabiyot tanburini olib chertganda qo'li kelishganini ko'rib, yaxshi sozanda bo'lib, yaxshi-yaxshi chalishini orzu qilgandik. Shu orzu ushalib kelayotibdi"⁴⁶. Nafaqat o'tgan asr qolaversa bugungi kun uchun ham eskirmagan e'tiqod tushunchasini bosh g'oya qilgan Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyalar to'plamidagi namunalarni tahlilga tortamiz. "Qorako'z majnun" hikoyalar to'plami real voqealarga asoslangan, syujeti jihatidan bir-birini taqazo qiluvchi, mazmun jihatidan esa yaqin va asosiysi, insonning tarbiyasi, ruhiyatida kechayotgan his-tuyg'ular yig'indisidan yaratilgan asardir. Asar "Sarob" hikoyasi bilan boshlanadi. Dastavval, hikoyaning sarlavhasiga yuzlanamiz. Hikoyaga qo'yilgan nom yozuvchining kitobxonga yetkazib bermoqchi bo'lgan g'oyasini belgilab beradi. Hikoyada mash'um qatag'on davri va sovet tuzumi qoralangan. Ota va o'g'il munosabati buzilishining sabablaridan biri SSR davlati va'da qilgan mustaqillikning sarobga aylanishidan yuzaga keldi. Hikoyaga tanlangan epigraf ham: "Ota qarg'ishi misoli o'q-u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi"- deya bejiz tanlanmagan. Demak, inson va jamiyat o'rtasida badiiy voqelik bor. Hikoyada bosh qahramon Olimjon Rahmonov. O'z farzandidan sadoqat, mehr ko'rmagan ota timsoli sifatida keltirilgan. Otani norizo qilgan farzand esa, o'sha

⁴⁵ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.-Toshkent,2004. –B.355.

⁴⁶ Abdulla Qahhor.Haq so'zning kuchi.-Toshkent,1989. –B.217.

davr tili bilan aytganda, “Pavlik Morozov “ bu Kimsanboy Yolqinov edi. Aslida hayotda ham o‘z padarini norizo qilish keyingi taqdirining izdan chiqishiga boshlang‘ich nuqtani belgilab beradi. Hikoya syujeti lagerga yangi mahbuslarning olib kelinishi bilan boshlanadi. Demak, inson ruhiyati tasviri sarobning boshlanishi bilan gavdalanadi. O‘z ismiga mos bo‘lgan Olimjon Rahimov yuksak ilmi, teran fikrli, dunyoqarashi keng olim bo‘ladi. Ammo sovet zulmi, qiyinchiliklar bilan birga farzandidan kechirib bo‘lmas sadoqatsizlik zarbasini oladi. Yozuvchi voqealar rivoji davomida ota va o‘g‘ilni so‘lim go‘shalarda yoki ota hovlisida emas, balki qamoqda yuzlashtiradi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan mash‘um hodisa, albatta. Hikoyaning bosh qahramonlari makon va zamonda mos tarzda birlashtirilishi ham yozuvchining mahoratiga bog‘liq. Shu o‘rinda quyidagi jummalarni aytish joiz: *“Yangi kelganlar Shimol lagerlarida oylab oftob ko‘rmay, ranglari siniqqan kishilar edi. Ularni bir-ikki oygina yoz bo‘ladigan, oftob esa tuman orasidan xuddi doka orqasiga yoqilgan shamdek xira ko‘rinadigan, bizda bahor oftobi charaqlab turgan shu kezlarda ham qish bo‘roni uvillab turadigan joylardan olib kelishgan”*. Hikoyada obrazlarning yaratilishida kompozitsiya unsuri bo‘lgan kichik detal ham ma‘lum bir vazifani bajargan. Masalan, o‘sha kezlarda “Bedilxonlik” kechalari hammaning uyida ham o‘tkazilmagan. Olimjon domlani xonadonida ushbu kechaning uyushtirilishi yozuvchining obraz haqidagi dastlabki fikrlarini ifodalashiga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ota va o‘g‘il munosabatining yomonlashuviga sabab bo‘luvchi illatlarning inson ruhiyatida paydo bo‘lmasligiga ishoradir. Zero, ota har bir jamiyatda va oilada ulug‘lanadi. O‘zbek adabiyotida ota o‘g‘il, ona va farzand munosabatlari oila va uning muqaddasligiga asoslangan syujetdan iborat asarlar bisyor. Shu o‘rinda tahlilga tortadigan hikoyamiz “Qorako‘z majnun” ham oila va e‘tiqod masalalarini bosh mezon qilgan hikoyalardan biri deyish mumkin. Yuqorida keltirilgan “Sarob” hikoyasida ota va o‘g‘il munosabati tasvirlangan bo‘lsa, “Qorako‘z majnun” da mushtipar ona va o‘z dinidan kechgan o‘g‘il voqeasi tasvirlangan. Ikki hikoya davr jihatidan ham, insonlar kechinmasi bilan ham bir-biriga juda yaqin. Hikoyada Saodat aya obrazi yetakchi qahramon bo‘lib, xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Saodat aya va uning vafodor iti Qorako‘z majnun butun hikoyaning boshqa obrazlarini bir-biriga bog‘lay olgan. Ularning atrofiga baxtini topa olmagan qizi Qumri, harbiy xizmatga ketib dinidan voz kechishga botina olgan o‘g‘li Bo‘rixon, o‘g‘lining xabarini bergan nevarasi Anvar birlashishgan qahramonlar sanaladi. Hikoya avvalida Qur‘oni karimdan bir oyat keltiriladi: *“Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidandurlar va u yerda mangu qolurlar”* (Baqara surasi, 217-oyat.)

Hikoyaning ushbu jumlar bilan boshlanishi inson ruhiyatida o‘zgacha his-tuyg‘ularni jumbushga keltirishi tabiiy. Hikoyada qahramonlarni mehr-oqibat, farzand sog‘inchi, onalik hissiyoti, sadoqat bir-biriga bog‘lagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan qayg‘u, dindand chiqish va judolik zid tarzda keltiriladi. Keksayib qolgan Saodat aya bir necha yillardan beri harbiy xizmatga ketib, oilali bo‘lgan farzandi Bo‘rixonni kutadi. Mushtipar ona hayotda insonlardan mehr topmayotgan bo‘lsa-da, egasiga vafodor, sadoqatli iti Qorako‘z majnun bilan syujetda birga tasvirlanadi. Boshqa tomondan olib qaraganda, baxti ochilmagan qizi Qumriga ham dardkash ona bo‘lib kelgan. Zero, “onalar shunaqa-baxti chopmagan bolasi bilan birga bo‘ladi”. Yozuvchi Said Ahmad Saodat ayani tip darajasiga ham ko‘targan. Saodat ayada insoniylikka xos barcha xislatlar mavjud. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan bir holat bor. Ona sho‘rlik necha yillar farzandi yo‘liga ko‘zlari intiq bo‘lib o‘tirsayu, farzandi o‘z dinidan kechib ketsa. Saodat ayaning hayot qiyinchiliklariga sabr-toqat bilan chidab kelayotgan paytda, Bo‘rixonning qilgan ishidan tik turgan qaddi bukildi. Ana shu holat ushbu so‘zlar bilan tasvirlanadi: *“1970 yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindand chiqdi”*. Bu dunyoda faqat vafodor iti Qorako‘z majnundan sadoqat topgan Saodat aya hikoya so‘nggida olamdand ko‘z yumadi. Insonni hayot qiyinchiliklari emas tuyg‘ularning og‘riqlari bukar ekan. Qorako‘z majnun esa ayaning ovozlari eshitishga intiq bo‘lib, hikoyaga yakun yasaydi. Hozirgacha ham it obrazi “sadoqat timsoli” deya ulug‘lanishda davom etmoqda. Hikoya xususida buyuk adabiyotshunos Umarali Normatov fikr bildirgan: “Qorako‘z majnun” hikoyasida imon-e‘tiqodli, go‘zal inson, alomat onaxonning bu yorug‘ dunyodand amon, alam-o‘kinchlar bilan vidolashuviga sabab bo‘lgan oqpadar o‘g‘lon milliy-axloqiy qadriyatimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir”⁴⁷. O‘lim musulmonlar uchun qadar, ammo asar qahramoni Saodat aya uchun ayanchli qismat, achchiq alamlar yakuni, umidlarining iztirobli tugashi edi. Adibning ijodiy mahorati ham shu o‘rinda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Baqara surasidagi oyat bilan boshlanuvchi asar nega o‘limni oddiy qabul qiluvchi syujet linyasi bilan yakunlanmadi. Nega o‘lim haq bo‘la turib Saodat aya uchun og‘riqli qismat yakuni bo‘ldi. Demak, inson uchun imon-e‘tiqod tushunchasi hayot-mamot masalasi ekan. Yozuvchi nafaqat inson, balki jamiyat va millatning e‘tiqod masalalariga e‘tibor qaratadi bu hikoya asnosida. E‘tiqodsiz jamiyat ham, millat ham, insoniyat ham mavjud bo‘la olmasligiga ishoradir ushbu hikoya. Fikrlarimiz so‘ngida insonni ilmidand,

⁴⁷ Said Ahmad. Qorako‘z majnun. - .-Toshkent, 2001. -B.5.

ijtimoiy darajasidan ham ustun turuvchi e'tiqod tushunchasi Said Ahmad asarlarining badiiy qimmatini oshiruvchi dolzarb mavzu bo'la olganligini ta'kidlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Haq so'zning kuchi. -Toshkent, 1989.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -T.: O'zbekiston, 2002.
3. Said Ahmad. Qorako'z majnun. Hikoyalar to'plami. -Toshkent: O'zbekiston, 2001.
4. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -Toshkent, 2004.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -Toshkent: Fan, 2007.

Internet ma'lumotlari:

1. www.ziynet.com
2. www.kh-davron.uz
3. www.wikipedia.org

OYBEKNING "NAVOIY" ROMANIDAGI NAVOIY OBRAZINING TALQINI

Botirova Ozoda Jamol qizi

Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti

402 – guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Oybekning "Navoiy" romanidagi Navoiy obrazining chin insoniyligi, xalq manfaatini barcha narsadan ustun ko'rishi, ijtimoiy hayotda xalq bilan birga yashash kerakligi va shu jihatlarni boshqa insonlarga o'rgatishi yoritilgan. Romandagi ijtimoiy hayot bilan Navoiy hayoti uzviy ekanligi tahlilga tartilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подчеркивается истинная человечность персонажа Навои в романе Ойбека «Навои», он превыше всего ставит интересы народа, необходимость жить вместе с народом в общественной жизни, учит этим сторонам других людей. Анализируется, что общественная жизнь в романе и жизнь Навои неразрывно связаны.

ANNOTATION

This article highlights the true humanity of the character of Navoi in Oibek's novel "Navoi", he considers the interests of the people above all else, the need to live together with the people in social life, and teaches these aspects to other people. It is analyzed that the social life in the novel and the life of Navoi are integral.

Kalit so'zlar: Adabiyot, manfaat, insoniylik, obraz, badiiy tahlil, timsol, she'riyat.

Ключевые слова: Литература, интерес, человечность, образ, художественный анализ, символ, поэзия.

Key words: Literature, interest, humanity, image, artistic analysis, symbol, poetry.

Adabiyotshunoslik tarixida obraz yaratish va ijodkor mahoratining ifodalash usuli adib yaratgan asarlar tahlili bilan belgilanadi. Tarixiy obraz yaratishda o'tgan asrda o'ziga xos iz qoldirgan adiblarimizdan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir.

Oybek o'zining ijodi bilan barcha kitobxonlar qalbidan joy olgan. Ijodkor yoshligidan o'qishga mehri baland bo'lgan. Tahsilni eski maktabdan boshlagan Oybek Toshkentda ham o'qishni davom ettiradi. O'qish jarayonida ijod olamiga kirib kelgan ijodkor ijodini shoirlikdan boshlaydi. U ilk qalamini she'r yozishdan boshlagan bo'lsa, nasrda o'tkirlaydi. "Tuyg'ular", "Ko'ngil naylari", "Chimyon daftari" kabi she'riy to'plamlarida o'zbek she'riyatining shoh baytlarini bitdi. Bu she'rlari orqali she'riyat olamiga oybekona lirizmni olib kirdi. Nozik tuyg'ular va kechinmalar, betakror misralar bilan lirik she'riyat tilini nafasat yog'dulari bilan boyitdi. Ijodkor olim o'zini nasrda sinay boshladi va buni dostonlar yozish bilan davom etdi. "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar", "Davrim jarohati", "Guli va Navoyi" kabi dostonlari bilan birga eng yirik janr ramon yozish mahoratini ham adabiyotimiz tarixiga muhrladi. "Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiyan shabadalar", "Ulug' yo'l" kabi romanlar muallifidir. Bu asarlari orqali Oybek butun o'zbek adabiyotini bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Ularning barchasida biz ijodkorning olamini ya'ni Oybek shaxsini ko'ramiz. Asarlari bir – birini takrorlamadi, aksincha yangi – yangi g'oyalar bilan boyidi. Shu takrorlanmas asarlardan biri bu "Navoiy" romanidir.

Oybek ijodining cho‘qqilaridan biri bu “Navoiy” romanidir. Bu asar haqida bilmagan, eshitmagan kitobxon bo‘lmasa kerak. Navoiy shaxsini ko‘plab adiblar yaratdi. Ular o‘z talqinicha g‘azal mulkingning sultonini kashf qildi. Shular orasida o‘zbek adabiyotining vakili Oybek Navoiyni haqiqiy inson sifatidagi qiyofasini yaratib berdi. Asarni o‘qir ekanmiz Oybekka qoyil qolmasdan ilojimiz qolmaydi. Biz bilamizki, Navoiy yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan daholardan biri ekanligini. U iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalarining barchasida faolligini biz undan qolgan yodgorliklar orqali bilamiz. Adabiyot, san‘at va fan taraqqiy topdi. Navoiyning asarlari o‘zining jilvasi bilan butun qalblarni yoritib kelmoqda. Shunday XV asr mo‘jizasi bo‘lgan buyuk bobokalonimizni Oybek bizga yana bir bor tanitdi. Asarni o‘qir ekanmiz, Navoiy biz bilan yashayotganligini his qilamiz. Ustoz Oybekning qanchalik qalami o‘tkirligini “Navoiy” romani 20dan ortiq tilga tarjima qilinganidan ham bilishimiz mumkin. Oybek bu asarda tarixiy shaxslar bilan birga, to‘qima obrazlardan ham unumli foydalangan. Har bir to‘qima obraz Navoiyning bir qirrasini ochishga harakat qilgan. U har bir vaziyatda, ota-bola munosabatida, do‘stlar, xalq bilan bo‘lgan aloqalarda insoniylikni unutmagan holda ish ko‘radi. Oybek shu holatlarni bizga sodda tilda tushuntirishga harakat qilgan va uddalagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Navoiy” romanidagi tarixiy obraz tahlilida buyuk shaxsning insonparvarligi, xalqparvarligi, millatparvarligi, ilmparvarligi ko‘rib chiqamiz. Buyuk shaxs Navoiy qaysi sohada ish qilmasin, barchasida inson manfaatini o‘ylaydi. Navoiy uchun eng muhim narsa odamiylikdir. Romanda Navoiyning ukasi Darveshali “doru‘aiy kutubxonaiy humoyun” lavozimini egallagandan so‘ng, unga bir katta kutubxona qurishini, unda barcha ilm va fanga oid kitoblar bo‘lishini taklif etadi. Navoiy shu taklif bilan birga shundan fikrlarni bildiradi: “Ilmning ravnaqiga harakat qilg‘aylar, fikrning yangi-yangi xazinalarini ixtiro etgaylar. Ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to‘ldirsa maqsadimizga yetgan bo‘lurmiz. Darveshali, ko‘nglingiz har chog‘ el muhabbati bilan labo-lab to‘lsin, har ishga bel bog‘lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o‘zingiz uchun bir mezon, deb biling...”

Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o‘zi ulug‘ mukofotdir, himmatingiz samosini hargiz bulut qoplamasin, inim.”⁴⁸

Navoiyning yetuk shaxs sifatida qanday insonligi uning o‘zi kabi ukasini ham yaxshilikka yetaklaganida ko‘rishimiz mumkin. Uning uchun el manfaatidan ustun narsa bo‘lmagan. Yaxshilik orqali nom chiqarishning mukofoti yuqori ekanligini ukasiga uqtirmoqda. Bu hodisani ustoz Oybek ustalik bilan voqealar rivojiga kiritkanki, Navoiyning chin insonligiga guvoh bo‘lamiz. Birgina shu bo‘lib qolmay, Sultonmurod obrazi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarda ham oddiygina, faqirgina odamlarga qay yo‘sinda bo‘lmasin yordam berishga harakat qilgan nomi jahonni zabt etgan shaxsning jonkuyarligini ko‘ramiz. Sultonmurod faqirgina shoir bo‘lib, boshqalar kabi hayot kechirardi. Bir yig‘inda Sultonmurod Navoiy bilan tanishdi, uning ovozi qanchalik yuqori bo‘lishiga qaramay, o‘zi soddagina, xushfe‘l insonligidan hayratlandi. Navoiy Sultonmurodning iste‘dodi borligini bilib, unga har tarafdin ya‘ni moddiy va ma‘naviy tomondan ko‘mak berardi. U qo‘lidan kelgancha har bir kishiga, xalqqa yordam qo‘lini cho‘zishga harakat qiladi.

Navoiyning mana shunday xususiyatlarini Oybek o‘zining ijodiy qobilyati bilan asarga singdirishga harakat qilgan. Sodda tili esa asarning o‘qilishiga, Navoiyni tezroq va chuqurroq anglashga yordam beradi.

Adabiyot hech bir qobilyatni unutmaydi, uni yoddan chiqarmaydi, vaholanki, bu chuqur ildiz otgan niholning mevalari avlodlarga saboq beradigan darajada bo‘lsa. Oybek shunday ildizi chuqur nihollardan edi. Uning barcha asarlari bugun uchun saboqdir. Shu asarlardan biri “Navoiy” romani badiiy jihatdan mukammalligi, obrazlarning bir – birini takrorlamasligi va bosh obraz Navoiy tarix sahnasidagi Alisher Navoiyni jonlantira olganligi va asar voqealari makon va zamonda o‘z o‘rnida ekanligi, asarning badiiy qiymatini oshiradi. Asar tilining boyligi, ko‘rkamligi va jozibasi asarga o‘ziga xos kayfiyat baxshida etadi. Betakor tashbehlarining qo‘llanilishi, maqol va matallardan unumli foydalanish qahramonlarning xarakterini ochishda muhim vosita bo‘lsa, asarni o‘qiyotgan kitobxonga zavq beradi. Ustoz Oybek Navoiyni ulug‘ inson, do‘st-u yorlariga va xalq muhabbatiga sazavor bo‘lgan, ijod ahliga homiy, nozik qalb egasi, har bir ishda adolatli obraz sifatida gavdalanitirishga harakat qilgan. Asarda har bir obraz, Navoiy uchun muhim bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Buyuk bobomiz serqirra qobilyatga ega shaxsdir. Romanni o‘qigan kitobxon bunga amin bo‘ladi. Olim Sultonmurod, rassom Kamoliddin Behzod, xattot Sultonali, tarixchi Xondamirlar kabi ijod ahlining nozik did egalari bilan doim aloqadaligi, ularga har jihatdan ko‘mak berishi Navoiyning qanchalik bilim darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shuni alohida ta‘kidlashimiz lozimki, Oybek butun bir turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanishida jasorat ko‘rsatgan buyuk bobomizning hayot yo‘lini o‘ziga xoslik bilan kitobxonga yetqazib bera oldi. Asarning badiiy- estetik qimmat, mazmun- mohiyati, badiiy-tasviriy vositalarga boyligi, voqealar izchilligi, obrazlarning uyg‘unlasha olganligi Navoiy shaxsi bilan birga

⁴⁸ Oybek.Navoiy romani.T-2004

ijodkorning mahoratini yana bir bor ko'rsatib berdi. Bu asar ya'ni "Navoiy" romani mangu yashaydi. Olam ahli Navoiy kabi buyuk siymoni tarixda va badiiy asarda qanday inson bo'lganligini, shaxs sifatida mukammalligini anglashi o'tmishning kelajakka beruvchi eng qimmatli dasturul amaliidir. Ikkinchi renessansning bu ulug' vakili yana uzoq asrlar insoniyat uchun komillik namunasi bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижоди. – Тошкент, 1974. – 383 б.
- 2.О'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2005-yil sonlari
- 3.Murzayev S.XX asr o'zbek adabiyoti.T-2004
- 4.Oybek.Navoiy romani. T-2004
5. <https://ziyonet.uz/ru>
- 6.www.ziyouz.com
- 7.www.scopus.com
- 8.<http://www.wisc.edu>
- 9.<http://www.amazon.com>

O'TKIR HOSHIMOVNING "TUSHDA KECHGAN UMLAR" ROMANIDAGI KOMPOZITSIYA, OBRAZ, SYUJET XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Dilorom Nosir qizi
Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
4-bosqich talabasi
@abdullayevadilorom95@gmail.com

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanining kompozitsion qurilishi, obraz yaratish mahorati, syujet va kompozitsiya butunligi xususiyatlari yoritilgan. Romandagi ijtimoiy voqelikning tasvir jihatlarini tahlilga olingan.

ANNOTATION.In this article, the compositional construction, skill of image creation, features of the plot and compositional integrity of O'tkir Hashimov's novel "The things that happened in the dream" are highlighted. Image aspects of social reality in the novel are analyzed.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описываются композиционное построение, мастерство создания образа, особенности сюжета и композиционная целостность романа Откира Гашимова «Сон прошлых жизней». Анализируются имиджевые аспекты социальной реальности в романе

Kalit so'zlar: So'z san'ati, kompozitsiya, badiiy obraz, syujet, roman, qahramon.

Ключевое слово: Слово, композиция, художественный образ, сюжет, роман, герой

Keyword Word: art, composition, artistic image, plot, novel, hero

KIRISH: Inson ma'naviy dunyosining boyishiga xizmat qiluvchi eng qudratli vosita bu – so'z san'atidir. So'z san'ati esa badiiy adabiyotning nodir na'munalari orqali namoyon bo'ladi. Bugun o'zbek adabiyoti namunalari ham mavzu ko'lami ham janr nuqtai nazaridan ham boyib bormoqda. Ularning har biri milliy ma'naviyatimiz rivojiga hissa qo'shmog'i lozim. Buning uchun esa, ijodkor mahorati masalasiga adabiyotshunoslikda alohida e'tibor berilishi lozim. Chunki, badiiy asar real hayotning ijodkor tomonidan sayqallangan, qayta ishlangan aksidir. Yaratilgan asar esa ijodkorning uslubiy mahoratini belgilovchi omildir. Asar bevosida kitobxon ruhiyatiga tafakkuriga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Shu ma'noda XX asr o'zbek adabiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan, o'tgan asr nasrining zabardast vakili O'tkir Hoshimov ijodiga murojaat qilish adabiy jarayon uchun doimo o'rinli. U o'zining yozgan romanlari bilan nafaqat millatimiz balki jahon kitobxonlarining sevimli adibiga aylana olgan. Ayniqsa, uning "Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Bahor qaytmaydi" kabi bir qator asarlari o'qirmanlar qalbidan joy olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Tarix sahnasi o'z tomoshabinlari va bevosita qatnashuvchilari ongida, ba'zan baxtdan masrur quvonchli onlari, ba'zan o'tmishning eng mash'um, chirkin kunlari sahifalari sifatida yodida qoladi. O'tgan asrning 30 – 80 – yillari: "qatag'on" qilish manzaralari, Afg'oniston urushi lavhalari va shu yillari sodir bo'lgan "o'zbek ishi" mojarolari... Yuqorida keltirilgan uchta katta muthish hodisalarni o'zida jamlab, inson va jamiyat o'rtasidagi muammolarni realistlik obrazlar orqali yorqin ifodalab bergan "Tushda kechgan umrlar" romani ham tarixning eng chirkin voqealarini, uning inson ruhiyati, kelajagi, hayotiga ta'siri haqida so'zlaydi. Bu asarda o'tgan asrda insonlari ishongan, e'tiqod

qo'yg'an tuzumning barbod bo'lishi, yillar davomida suyanib, umrini shu tuzumga bag'ishlagan insonlarning ishonchi sarob bo'lib chiqishi O'tkir Hoshimovning o'tkir qalami bilan mohirona tasvir etiladi.

"Tushda kechgan umrlar" romanida voqelik bir-biriga bog'langan bir nechta obrazlar orqali ifoda etiladi. Lekin voqea bir me'yorda bir xil tempda kechmaydi. Aksincha, turli makon va zamondan turli roviylar tomonidan so'zlanadi. Romanning bu xilda yozilishida asarning kompozitsion qurilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiya – (campositio – tarkib, qurilish, tuzilish) deganda badiiy asardagi bog'liqlik va joylashish tartibi tushuniladi. U o'zida personajlar sistemasini, epizotlarni, voqea haqidagi tartibli xabarni tasvirlash usullarining o'zgarishini, tasvirlanayotgan detallar va ifoda tasvir vositalarining muvofiqligini, asarning qism, bob, bo'lim, parda, ko'rinish va shu kabilar bo'lishini jamg'aradi.⁴⁹ Umuman olganda kompozitsiya badiiy asarni tashkil etuvchi va intizomga bo'ysundiruvchi kuch. Uning vazifasi biron bir narsani chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ayni chog'da, uning bir butunlikka birikishini nazorat qilishdir... Uning maqsadi barcha bo'laklarni shunday joylashtirishki, alal oqibat asar g'oyasini to'liq ifodalashga qodir bo'lsin.⁵⁰

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Har qanday asar kompozitsiyasining markazini bosh g'oya tashkil qiladi. Kompozitsiyani tashkil etuvchi barcha vositalar g'oyaning maqsadini ochish uchun xizmat qiladi. Asardagi shunday vositalardan biri sarlavhadir. "Tushda kechgan umrlar" romanini ilk bor qo'liga olgan kitobxon tafakkurida "qanday tush?, qaysi tush?, nega tushga aylangan umrlar?" kabi savollar bo'lishi tabiiy. Asarni o'qib tugatgan kitobxon esa, haqiqatdan ham sarobga aylangan, hayoti, umri butunlay tushga aylangan insonlar haqida o'qib, "tushda kechgan umrlar!" deyishi aniq. Demak, asar sarlavhasi o'z vazifasini to'laqonli bajargan. Kompozitsiyani yuzaga chiqaradigan unsurlardan yana bir, asarning kompozitsion qurilishi hisoblanadi. Diqqat bilan o'qilganda, asar "Rustamning oxirgi kundaligidan" boshlanib, "Qurbonoy xolaning har kungi tashvishlari" bilan tugaydi. Asarning boshdan oyoq bunday tuzilishi kitobxonni zeriktirmasligini, aksincha voqealar rivojiga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Jumladan, romanda tilga olingan bosh obrazlar: Rustam – komissar – Qurbonoy xolaning hayoti o'tmishi tasviri almashib turadi. Asardagi bosh zamon 80 – yillar "Afg'on urushi" davridan 30 – yillar "qatag'on" siyosatiga, ulardan yana 80 – yillardagi "o'zbek ishi" mojarolariga mohirona o'tiladi. Hatto, asarda tasvirlangan Rustamning xatlari va o'tmishning xotirlanishi bilan bo'liq sahnalar bir biriga ko'priq vazifasini o'taydi. Masalan, romanda farrosh obrazi bilan kiritilgan Qurbonoy xola har kuni ertalabdan ko'cha supurishga chiqadi. U bilan deyarli bir vaqtda komissar sut sotib olish uchun do'konga boradi. Ularning ham o'tmishi ham buguni bir nuqtada kesishadi. Qurbonoy xolaning otasi "qatag'on" paytida qamalishiga ayni shu komissar aloqador. Komissarni ko'rgan Qurbonoy xolaning xayoli o'zi turgan makon va zamondan 50 yil ortga chekinadi. Asarning bunday tasvirlanishi komissarning ichki o'y xayollariga ulanib ketdi. Xuddi shu kabi, Rustamning kundaligidagi xotira yoziqlari va ota-onasidan kelgan maktublar bir-biriga halal bermay, aksincha bir-birini to'ldiradi. Afg'onistondagi urushdan, yaqin do'stlarining birin ketin halok bo'lishidan, oilas sog'inchidan qalbi vayron bo'layotgan Rustam ota-onasi, akasi va seviklisi Shahnozadan kelgan xatlar orqali tasalli oladi. Ulardan kuch oladi. Asarda yana e'tiborimizni tortadigan jihat shuki roman mavzusiga aloqador bo'lmagan lekin uning mohiyatini ochishga xizmat qiladigan "Qurbonoy xolaning ertaklari" nomi ostida bir nechta ertaklar berilgan. Ular asarning mazmuniga singib ketgan. 3 yoki 4 betlik voqealar Qurbonoy xola tilidan aytilgan yarim betlik ertak orqali kitobxonga anglashiladi. Ertaklardan birida haj safaridan qaytayotgan karvon va undagi ota obrazi beriladi. Karvonda uchinchi marta haj qilgan bir chol bor ekan. Chol juda donishmand, hammaga yordam beradigan nuroniy inson ekan. Bir payt, uzoqdan otda kelgan bir yigit bu cholni tarsakilab yuboradi. Hamma usha yigitga yopishib, hisob so'rayotgan vaqtda o'sha chol, bu yigit o'z o'g'li ekanligini, va bir zamonlar otasi ham bobosiga yoshlik qilib tarsaki tushirganini aytibdi. Bu chol uchun tasodif emas, duoyibat ekanligini aytib tushuntirgan ekan. Oddiy farrosh tilidan aytilgan bu ertak komissarning bugungi kunini tasvirlash uchun ajoyib ko'priq vazifasini o'taydi. Ayni kunda komissar ham, yoshlikda qilgan gunohi, aybsiz insonlarning qarg'ishi tufayli farzandlari, oilasi rohatini ko'rolmay yashaydi. Sevib, suyib o'stirgan farzandi, nabiralaridan yiroqda yashaydi. Ushbu misollar orqali, adib o'z badiiy mahoratini, qahramon yaratish usullarini namoyon etadi. Yana asar badiiyatini ochishga katta hissa qo'shgan badiiy obraz yaratish mahorati ham borki, usiz roman syujeti to'laqonli bo'lmaydi. "Tushda kechgan umrlar" romanida ham shunday badiiy obrazlar bor. Ulardan biri bosh xarakter – Rustam. Bo'y basti kelishgan, aqlli, jahli juda tez chiqsa ham mehribon. Uning xarakter sifatida ko'targan eng asosiy xususiyati – adolatli ekani. Har yerda, har borgan joyida adolat izlashga urinadi. Adolati tufayli, adolatsiz insonlardan, adolatsiz dunyodan erta ketdi. Asardagi uning atrofida birlashgan boshqa badiiy obrazlar ham uning asardagi vazifasini ochib berishga xizmat qiladi. Shahnoza, komissar G'aniyev, Qurbonoy xola, Mauzer, Rustamning

⁴⁹ Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004. –B.133-134

⁵⁰ Введение в литературоведение. М.: "Высшая школа", 1988. -Б184-185

ota-onasi, ularning barchasi asarning bosh g'oyasini ochishga yetaklaydi. Romanning kompozitsion qurilishi va syujet tasviri bir-birini davom ettiradi, to'ldiradi. Romanda Rustamning otasi tomonida yuborilgan maktub ham kompozitsion qurilishda, ham qahramon ruhiyatida katta ahamiyat kasb etadi. *"O'ylab qaragam, o'tgan umrim – umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ihirganu, tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush. O'sha "birov" qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Mana endi, uyg'onib yonverimga qaragam menga o'xshaganlar ko'p ekan"*⁵¹

XULOSA: Yuqorida asar tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, kompozitsiya va syujet asar badiiyatini ochib beruvchi eng asosiy kuchdir. Ular bir vaqtda ham bir-biridan farq qiluvchi shu bilan birga bir-birini talab qiluvchi badiiy unsurlardir. Ma'lumki har qanday asar qaysidir makon va qaysidir zamonda tasvir etiladi. Ijodkor qaysi zamonda yashamasin, tasvirlayotgan asaridagi muhitga kitobxonni jalb qila olishi kerak. O'tkir Hoshimov ham ushbu romanida vaqt masalasini ayniqsa, makon va zamon xususiyatlari aniqlik bilan yoritgan. Bir vatqning o'zida o'tmish va bugunni mohirona tasvirlaydi. Bugun tasvirida Rustamning Afg'on urushidagi jangi, otasining qamalishi, uylanishi va so'ngida vafoti haqida so'z borgan bo'lsa, o'tmishdagi "qatag'on" yillari, 14 yoshli Qurbonoyning otasi nohaq qamalgani, komissarning qilgan chirkin ishlari namoyon bo'ladi. Ba'zi obrazlarning tasviri esa ikki zamon o'rtasida parallel tarzda kichadi. O'tkir Hoshimov o'zbek xalqining asl farzandi va chinakam yozuvchi sifatida o'z xalqi boshidan o'tgan eng og'ir kunlarini, tarix haqiqatlarini badiiy go'zallik bilan yoritib bera oldi. Ushbu romanni o'qigan har bir o'quvchi chuqur mushohada qilishga chog'lanadi. Shu sababli ham asar yillar o'tsa ham kitobxonlar qo'ldan tushmay mutolaa qilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004. –B.133-134
2. Введение в литературоведение. М.: "Высшая школа", 1988. –Б184-185
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. –T.:Book media nashr,2019. –B.279-280.
4. <https://ziyonet.uz/ru>

ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDA DAVR FOJIASI VA MILLIY O'ZLIGIMIZGA YASHIRILGAN UMUMINSONIYLIK

Miyassarov Kamronbek Nurali o'g'li
Nizomiy nomidagi TDPU
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi
@miyassarovkamronbek@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanining davr va uning oddiy qatlamga ta'siri, obrazlarda aks etgan milliy g'ururimiz qisqacha yoritilgan. Romandagi ijtimoiy voqelikning tasvir jihatlarini tahlilga olingan.

ANNOTATION. In this article, the era of Abdulla Qodiri's novel "Mehrobdan Chayan" and its impact on the common people, as well as our national pride reflected in the images, are briefly discussed. Image aspects of social reality in the novel are analyzed.

АННОТАЦИЯ

В данной статье кратко освещена эпоха романа Абдуллы Кадири «Мехрабдаб Чайан» и его влияние на простых людей, а также наша национальная гордость, отраженная в образах. Анализируются имиджевые аспекты социальной реальности в романе.

Kalit so'zlar: So'z san'ati, badiiy obraz, davr fojiasi, roman, xonlik, rus podsholigi, sevgi-sadoqat, xoinlik

Keyword Word: Art of words, artistic image, period tragedy, novel, khanate, Russian kingdom, love-loyalty, betrayal

Ключевое слово: Искусство слова, художественный образ, трагедия периода, роман, ханство, Русское царство, любовь-верность, предательство

KIRISH

⁵¹ Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. –T.:Book media nashr,2019. –B.279-280.

“Adabiyot – atomdan kuchli”, – degan edi taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor. Biz ham ayni shu fikrni maqolamizning ilk jumlasini qilishni ma’qul ko’rdik. Atom bilan nari borsa, insonning jismini yo’q qilasiz, ammo so’z orqali insonning sira tark etmas ruhini yo vayrona qilasiz, yo bo’shon. Tarix bir gina so’z bilan gullagan diyorlarni, bir gina so’z bilan xaroba bo’lgan yurtlarning guvohi bo’ldi. So’zni qo’llash san’atining mohir ustalari – yozuvchi-shoirlar. Yuqoridagi iboraning davomi “ammo uni o’tin yorishga sarflamaslik kerak” jumlasiga mos ijod qilgan adib Abdulla Qodiriy haqiqiy millatparvar yozuvchi edi. Badiiy asar hayot emas, ammo uning o’zidir. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” tarixiy romanida aynan shuning guvohi bo’lamiz. Davrni keng ko’lamda tushunishimizga eng ko’p roman janri yordam beradi. Butun boshli davrni yoritishda past va yuqori tabaqani to’g’ri qo’llay olish va yaratish juda katta mahorat talab etadi. Abdulla Qodiriyning yuqoridagi asaridan tashqari, “O’tkan kunlar” romani, “Obid ketmon” qissasi, “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo’lat tajang nima deydi?” hajviy asarlari ana shunday mahorat mahsuli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi o’qig’uvchilari zamonaviy tor psixologik qatlamdan iborat asarlarni sevib o’qiydi. Ammo asl haqiqat va insonlarni asl mohiyat bilan tarixiy asarlar tanishtiradi. Tarixda reallik birmuncha yuqori bo’ladi. Real voqealardagi haqiqatlar keying avlod uchun tajriba yo ko’nikma vazifasini o’taydi. Tarixiy asarlar o’qib shu fikrlarga kela boshladim: “Reallik tarixda bor, tarixda haqiqat mavjud, haqiqat esa savlatli bo’ladi”. Bejizga T.Boboyev badiiy obrazni “inson hayotining badiiy manzarasi”⁵² deya ta’kidlamaydi. Aynan shu fikrlarimizning yorqin namoyondasi “Mehrobdan chayon” romani hisoblanadi.

Kompozitsiya tuzilishiga ko’ra obyektiv qonunlarga asoslangandir. Badiiy asar kompozitsiyasi o’z ichiga asar mazmunini, ijodiy jarayon mashaqqatini qamrab oladi, badiiy obrazni yuzaga chiqaradi va uni boshqa vositalar yordamida yaqqol ko’rsatib beradi. Bu obraz orqali asarning yaxlit ko’rinishiga obyektiv qonunlar asosida estetik va badiiy baho beradi⁵³. Romanimizda ham ayni shunday obyektiv qonunlar chizgisi sezilib turadi. Voqealikka bo’lgan obrazlarning munosabati ham juda yaqqol ochib berilgan.

Adabiy tanqidchilikda sho’ro davri o’zbek adabiyotiga munosabat masalasi ko’p bahs-munozaralarga sabab bo’lgani barchaga ma’lum. Qadriyatlarga yangicha munosabat, yaqin o’tmishda yaratilgan asarlarga tushunib yondashishga harakat tanqid tamoyillarining yangilanayotganidan dalolatdir. Bir paytlar ochiq aytishning imkoni bo’lmagan, bir qadar chetlab o’tilgan qahramonlar obrazlariga bugungi kun nuqtai nazaridan turib yondashish, ularga yuklangan g’oya, mohiyat haqida batafsil fikr yuritish imkoni tanqidiy tafakkur ko’lamini kengaytirayotgani ham sir emas⁵⁴. Ayni shunday asarlardan biri, shubhasiz, “Mehrobdan chayon” romani bo’ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asar sotib olayotgan har qanday kitobxon asar haqida qisqa ma’lumotga ega bo’lmasa, albatta, nomidan kelib chiqib tanlab oladi. Shu uchun ham har bir ijodkor o’z asarlariga sarlavha qo’yishda juda diqqatli bo’lishadi. Chunki bu yakunda asarning tez ommalashishiga olib kelishi mumkin. Bizningcha, bu asar yakunida qilinishi kerak bo’lgan eng muhim ishdir. Bugungi kun ma’lumotlariga qaraganda insonlarni jalb qilish uchun birinchi 1 daqiqada bor-yo’g’i 1.3 soniya vaqtingiz bo’ladi. Demak, o’qig’uvchilarning kitob tanlashi sarlavhaga qarab qolgan bo’lsa, bevosita kitobxonlar sarlavhaning jozibasi ortidan kitob o’qishadi. “Mehrobdan chayon” romani ham nom jihatidan, ham nomga doir ma’no jihatidan o’ta mukammal asar hisoblanadi. Mehrob (arabcha — harb joyi, janggoh;) — masjidning Makka (Ka’ba)ga qarata yo’naltirib devor ichiga ishlangan ravoq shaklli joy, sajdagoh⁵⁵. Chayon – aqrab; zaharli hasharot. O’sha yerdan chayon chiqdimi, demak bilmadim. Ichi kirligimiz, atrofimizdagi aqlli insonlarni ko’rolmasligimiz, o’zimizning ustimizda ishlash yoqmasligi, lekin birovlarini ustidan SUV ag’darishni yaxshi ko’rishimiz. Yuqoridagilarning bari aslida chayonligimiz va bu chayonlar aynan o’z mehrobimizdan, o’z yurtimizdan chiqdi, chetdan kelgani yo’q. Balki bu qon-qonimizgacha singib ketgandir. Ayni shu mazmun aks etadi asar mohiyatida.

Asarda siz va bizni qiziqtiradigan savollar bir talay: nega Anvar bu holatda ulg’aydi, nega Anvar bunday xavfga o’zini otadi kabi. Asarda kechayotgan qiyinchilik, mushkulotlarning bosh sababchilari etib turli obrazlarni keltirish mumkin. Hammasiga aybdor qilib davrni ko’rsatish eng to’g’ri tanlov bo’ladi. Bahmalbop mahallasida kambag’al Salim bo’yoqchi oilasida oltinchi farzand “chaqirilmagan mehmon” bo’lib dunyoga keladi. Salim bo’yoqchi ochliq va nochorlikka chiday olmay erta vafot etadi. Onasi Anoribibi ham 40 yoshlarga yetar-yetmas hayotdan bosh olib ketadi. Akalaridan ayrimlari yoshlik chog’idayoq vafot

⁵² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. B-42

⁵³ Abduraxmonov G’.M. Kompozitsiya asoslari. Toshkent, 2018.

⁵⁴ Azmiddin Nosirov. Davr fojiasi va badiiy talqin. Maqola, 2009.

⁵⁵ O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

etadi. Opasi Nodira uni Solih Mahdumning uyiga berib yuboradi. Shu yerda ancha katta inson bo'la boshlaydi, shu orada mahdumning qizi Ra'no voyaga yetib keladi. Nasim ismli bir eng yaqin do'stidan ham ayriladi. Yuqoridagi ma'lumotlarda Anvarning evolutsiyasi ko'rsatib berildi. Anvarning shu holatga kelishiga, otasi, onasi, akalari vafotiga ochlik, zulm sababligi yaqqol namoyon bo'ladi. Xudoyorxonning oddiy xalqqa qilayotgan zulmi aks ettiriladi. Aslida faqat xonning emas, balki unga yaqin toifaning adolatsiz siyosati davrni shu ko'rinishga keltirib qo'yadi. Dunyo tashqi siyosatda katta yutuqlarga erishayotganda bu xonning birgina qiz uchun qandaydir mirzani tinimsiz ta'qib qilishi juda kulgili aslida. Asarda go'yo "Ko'zingni och, ortingdan katta dushman kelyapti" ma'nosini beradi. Anvar aynan shu tushunchani anglagan obraz edi. Quyida uning nutqida keltirib o'tamiz: "Xudoyor yuz yil yashaydi, biz Toshkentda o'lamiz, deb o'ylaysanmi? Xayr, ko'p bo'lsa Xudoyor yana besh yil yashasin, vaholanki, uning zulmi shu yo'sin davom etganda, biz chamalagan bu fursat ham ko'p; zero, zulm naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir"⁵⁶.

Yuqoridagi parchada qiz bolaning hissiyotga berilib, onasini sog'ingani haqida milliyligimizning namoyondasi sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. Yana shu holatda o'zbek qizlariga xos go'zal inijlikka ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu holatga Anvarning sokin munosabati esa yigitlarga xos vazminlikni ochib beradi. Anvarning o'zbek yigitlariga xos sadoqati, mardligi xon Xudoyorxonning oldiga tap tortmay borishida namoyon bo'ladi. Sulton omon qolishi uchun o'zini qurbon qilmoqchi bo'ladi yo shu holatda qo'rqmay o'limga borishi uning sadoqatiga misol bo'la oladi. Kattalarga bo'lgan hurmatini mahdumga ko'rsatilgan ehtiromidan bilishimiz mumkin. "Boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pu sul monlik bilan o'lishni o'bdan bildim!" ushbu jumalardan keyin Xudoyorxon qizarib ketadi, chunki undagi qaror xato ekanligi ich-ichidan o'zi ham tan olardi. Yoki "Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz! – dedi Anvar. Birdan hammaning ko'zi Abdurahmonga tush di. – Faqat siz ifl oslik natijasida kulasiz, men... men to'g'rilik samarasini o'raman; siz ifl os vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir?" jumalarida Anvar orqali yozuvchi o'z so'zlarini xalqqa yetkazishga harakat qilgan. Bu jumalarda esa Anvardagi kuchli iroda, aql borligiga ishora mavjud.

"A.Qodiriy talantining yorqinligidan, ham qalamning mo'jizakorligidan dalolat beradi, chunki bu parchadagi haqiqat butun murakkabligi va tafsilotlari bilan o'quvchi qalbiga umrbod unutilmaydigan sevinch bo'lib, go'zallik bo'lib ko'chadi"⁵⁷. Tarixiy faktlarga kiritilgan badiiy ijod buni yaqqol ko'rsatib turadi.

Adabiyotshunos Begali Qosimov fikriga qaraganda: "Mehrobdan chayon" dagi eng maftunkor juftlik – Anvar va Ra'no obrazlari adabiyotshunoslikda ko'p muhokama qilingan. Bu muhokama, talqin va tahlillar tarixi kuzatilsa, har xil fikrlar, turli mulohazalar uchraydi"⁵⁸. Yuqoridagi Anvar va Ra'no obrazlari asar mazmunidagi eng muhim g'oyalarni yashirishga xizmat qilgan va shu bilan bir paytda ushbu obrazlar ulkan milliylikni tashiydi.

"Safar Bo'zchi – romandagi eng samimiy, eng beg'ubor obraz. Uning ma'naviyati bo'rttirib, tabiiy ravishda qabartib ko'rsatilgan. Bu obrazning ilmiy talqini bilan marksistik adabiyotshunoslikdagi sinfiylik prinsipi har doim yonma-yon keladi"⁵⁹. Yuqoridagi obraz esa quyi qatlamdagi insonning sadoqati, o'zbek mentalitetiga xos qat'iyatlilik va mardlik timsoli. Asarda eng kam uchraydigan, ammo judayam muhim obrazlardan biri qaysi desa, Safar bo'zchini ko'rsatgan ma'qil.

XULOSA

"Mehrobdan chayon" romanida nurga yo'g'irilgan hayot haqiqatlari aks etgan. Nur va hayot murakkabliklari mazkur asardagi mangu ziddiyat ko'rinishidir." Aynan shu jihatlar reallikni singdiradi. Tarixiylikning kuchliligi, isbotlangan faktlarning kiritilishi asarning qiymatini bir necha barobar ko'taradi. O'zbek adabiyotshunosligida "Mehrobdan chayon" ga munosabat Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" asari bilan boshlanganligi ta'kidlab kelinadi. Ammo romanning ilk talqini aslida ancha oldin 1929-yil "Sharq haqiqati" gazetasida Miyonbuzrukning qodiriyshunoslar ko'p ham ahamiyat bermay kelayotgan "Mehrobdan chayon" (mavzun, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirilmishdir) sarlavhali maqolasi e'lon qilindi. Aynan bu narsa shuni ifodalaydiki, asar chop etilishi bilanoq asosiy e'tibor markaziga aylanadi.

⁵⁶ Адулла Қодирий, Меҳробдан чаён. Тошкент,. "Ғафур Ғулом" номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. 141.

⁵⁷ Begali Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent., "Ma'naviyat". 2004-yil. 70.

⁵⁸ Begali Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent., "Ma'naviyat". 2004-yil. 57.

⁵⁹ Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: Tanqid, Tahlil va talqin. Toshkent., "Fan". 2006. 52.

Shunchaki mavjud tuzumga etishi mumkin bo'lgan ta'sir sababli asar keng ommaga yoyilishiga yo'l qo'yilmagan.

Asarda o'zbek xalqining asl madaniyati, ana'ana va urf-odatlariga asosiy e'tiborning qaratilishi, milliylikka urg'u berilishi asarning eng katta yutug'i. Ushbu roman o'lmas romanlardan biridir. Chunki unda kuylangan tuyg'ular nafaqat o'zbek milliylikiga xos, balki umuminsoniy fazilatlariga ham yo'g'rilganligini ko'rishimiz mumkin. Xulosa shundan iboratki, shaklan eski davrni aks ettirishga qaratilgan qilib ko'rsatilsa-da, aslida ushbu asar keyingi davr anvarlariga ibrat, keyingi zamon abdurahmonlariga saboq bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Абдулла Қодирий, Мехробдан чаён. Тошкент., "Фафур Фулом" номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994.
3. Abduraxmonov G'.M. Kompozitsiya asoslari. Toshkent, 2018.
4. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: Tanqid, Tahlil va talqin. Toshkent., "Fan". 2006.
5. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Toshkent., "Ma'naviyat". 2004-yil.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.
7. Umarov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
8. Введение в литературоведение. М.: "Высшая школа", 1988.
9. Azmiddin Nosirov. Maqola, Davr fojiasi va badiiy talqin, 2009.
10. <https://ziyonet.uz/ru>

MATYOQUB QO'SHJONOVNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

*Normamatov Diyorbek,
Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-kurs
talabasi,
Ilmiy rahbar: Do'stova Surayyo Savronovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent,
f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada Matyoqub Qo'shjonovning adabiy-tanqidiy qarashlari, tadqiqot obyektidagi adiblar, munaqqidning qiyoslashlari to'g'risida ayrim kuzatish va fikrlar yoritiladi.

Kirish so'zlar: Badiiy mahorat, badiiy matn, poetika, tanqidchi, olim, adabiyotshunos, olim, lug'at, asar.

Annotation: the article deals with some observations and opinions about the literary and critical views of Matyokub Koshjanov, the merits that have become the object of research, and the comparisons of critic.

Keywords: artistic skill, artistic text, poetics, critic, scientist, literary critic, scientist, dictionary, work.

Аннотация: В данной статье приведены некоторые наблюдения о сравнительного подхода литературного критика Матякуба Кошжанова, и мнения о писателей, ставших объектом исследования.

Ключевые слова: поэтическое мастерство, художественный текст, поэтика, критик, литературовед, словарь, произведение.

Tanqidchi olim Matyoqub Qo'shjonovning hayotiy va ilmiy faoliyati keng qamrovlidir. Faoliyati davomida olim bo'lishi bilan birga munaqqid, adabiyotshunos ham bo'lgan, bir qancha badiiy-biografik asarlarning muallifi hamdir. *"Matyoqub Qo'shjonov ikki jildlik «Adabiyot nazariyasi», besh jildlik «O'zbek adabiyoti tarixi», ikki jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati», ikki jildlik «Ruscha — o'zbekcha lug'at», bir jildlik «O'zbekcha — ruscha lug'at» va boshqa nashrlarning yaratilishiga bosh-qosh bo'lgan. Uning rahbarligida 5 ta fan doktori, 15 ta fan nomzodi yetishib chiqqan"*. [1.Ziyouz. Matyoqub Qo'shjonov]

Olimning ilmiy izlanishlariga to'xtaladigan bo'lsak, uning ilmiy asarlari mavzusi tanqid va adabiyotshunoslik muammolari, adabiyot nazariyasi, badiiy mahorat, adabiyotning rivojlanish tamoyillariga qaratilgan. Munaqqid sifatidagi qarashlari markazida o'z davrining yetuk va yetishishib chiqayotgan adabiyot vakillari turadi. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, Abdulla Oripov kabi zabardast namoyondalarimiz ijodini tadqiq qiladi. Adabiyotshunos Bahodir Karim aytishicha, *"M. Qo'shjonov uchun adabiy matn eng asosiy, eng muhim manba bo'ldi"*. [2.290].

Munaqqidning tanqidchilik faoliyatida muayyan konsepsiya bo'lib, u o'zining adabiy-tanqidiy qarashlarida bu konsepsiyaga tayanadi, bo'rttirmagan holda asarga munosabatini bildiradi. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi talqini tarixini o'rganish jarayonida Matyoqub Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati", "O'zbekning o'zligi", "Qodiriy - erksizlik qurboni" singari kitoblari maydonga keladi. "M.

Qo'shjonov Qodiriy romanlari poetikasini jiddiy tadqiq qildi; Abdulla Qodiriyning boshiga tushgan ofatlarni tushuntirdi, tanqidchilikning adibga turli munosabati tarixini kuzatdi". [2.290] B. Karim maqolasida ta'kidlanishicha, "munaqqid tarafkashlikka berilmagan".

Matyoqub Qo'shjonov «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» deb atalgan ilmiy tadqiqotida adibning «O'tkan kunlar» romani misolida uning badiiy mahoratini tahlil qilishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Olim aniq va izchil pozitsiyada turib, ana shu konkret bir asar vositasida yozuvchining ijodiy muvaffaqiyatlarini, san'atkorlik sirlarini ochib berdi.

Abdulla Qahhor ijodi haqidagi qarashlarida yozuvchi asarlaridagi qahramonlarning asardagi o'rinlari, xususiyatlarini o'zaro solishtiradi. Olim ta'biricha, "*Abdulla Qahhor asarlarida so'z uning oldida bamisoli itoatkor askar, qaysi ma'no tomon buyruq qilsa, shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turgandek edi*". Adib hikoyalarida va dramalarida, shuningdek, yana bir xusiyatni olim ta'kidlaydiki, "*hayot nafasini, zamon ruhini bexato ochish, uni faqat sezish emas, undan adib sifatida dardlanish*".

Adabiyotshunos fojeaviy asarlarga to'xtalib, Navoiydan keyin to'rt asr ichida asosiy adabiy mavzular intim-lirika, romantik bo'yoqdorlikda yuz bergani, undan keyin Abdulla Qodiriyda fojeliqni ko'rish mumkinligini aytadi. "Anor" hikoyasini olib, undagi fojeiy tomonni kuyov Turobjonning suyukli ayolining oddiy bir talabini qondira olmay, oxiri o'g'irlik qilishga majbur bo'lganida, deb biladi.

"O'tmishdan ertaklar" haqida gapira turib, asarning yozilish sabablariga nazar tashlaydi. "O'tmishga nisbatan uning ko'zini ochgan kishi A. P. Chexov bo'lgan". Bundan necha yillar muqaddam Abdulla Qahhor Chexovning asarlarini o'qib chiqqan. O'shanda bu ulug' yozuvch go'yo ko'zoynagini berib, "mana buni taqib, o'z xalqing o'tmishiga nazar sol", degandek bo'lgan [3. 32].

Abdulla Qahhor inson taqdirini tasvirlashda hamma vaqt ham bir xil emas. Uning ba'zi asarlari borki, ularni o'qiyotib kulamiz, ham yig'laymiz. Ularda fojea bilan komizm omixta, bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini izohlaydi.

Kambag'al dehqon Qobil bobining ho'kizini o'g'ri uradi. O'tmishda Turobjon ikkita anor topib xotining istagini qondira olmaslik, Uning uchun erksizlik qay darajada fojea bo'lsa, Qobil bobo uchun ham ho'kizdan ajralish shu darajada fojea edi. Dehqonning uyi kuyla, kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, osh-arava - uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi. Bu satrlarni o'qir ekanmiz, ulug' yozuvchi Gogolning asarlarini eslab ketamiz.

Aslida bu asarlarda, Matyoqub Qo'shjonov aytganidek, sezilarli darajada hajv ham bor. Hajv bilan birga yuzaga kelgan jiddiy masala Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhordek so'zni, mantiqni o'z o'rniga qo'yib qo'yadigan zabardast yozuvchilar uchun xosligini isboti bilan ko'rishimiz mumkinki, bu isbotlash munaqqid, adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov maqolalarida, adabiy-tanqidiy qarashlarida yetarlicha namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyouz.com.elektron sayti. Matyoqub Qo'shjonov
2. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. G'. G'ulom nomidagi NMIU. Toshkent - 2016. - 359 b.
3. Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1988. - 232 b.

LEV NIKOLAEVICH TOLSTOYNING IJODIYOTI

**NavDPI, Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi, talabasi
Qahramonova Malika**

***Hech nima qilmaydigan odamgina xato qilmaydi,
Holbuki uning eng katta xatosi ham shudir.
Lev Tolstoy***

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk yozuvchining qisqacha hayot yo'li va kelajak avlodga qoldirgan beqiyos boyligi ya'ni "Urush va tinchlik" asari haqida ko'plab ma'lumotlar, undan tashqari personajlarning qarama – qarshiligi, ko'plab ziddiyatlar, oilalarning kelishmovchiligi va bir paytda urushning avj olib turgan voqealari tasvirlangan.

Kalit so'zlar: Tolstoy, roman, "Urush va tinchlik", kontrast, adabiyot, muhabbat, oila, ijobiy va salbiy, kelishmovchilik.

Аннотация: В этой статье много информации о недолгой жизни великого писателя и несравненном богатстве, которое он оставил будущему поколению, то есть произведении «Война и мир». Помимо противоречий характеров, описаны множество конфликтов между персонажами, разногласия семей и в то же время события обостряющейся войны.

Ключевые слова : Толстой , роман , “Война и мир”, контраст , литература, любовь, семья, положительный и отрицательный, конфликт.

Abstract: This article contains a lot of information about the life of the great writer and the incomparable wealth that he left for the future generation, that is, the work “War and Peace”. In addition to the contradictions of characters, many conflicts between characters, family disagreements and at the same time events of an escalating war were described.

Key words: Tolstoy, novel, „War and Peace”, contrast, literature, love, family, positive and negative, conflict.

Buyuk rus namoyondalaridan biri, Lev Tolstoy dunyodagi eng mashhur yozuvchi va faylasuflardan biridir. U nafaqat dunyodagi eng buyuk yozuvchi, balki faylasuf, diniy mutafakkir va pedogogdir. Uning qarashlari va e'tiqodlari tolstovchilar deb nomlangan butun bir diniy-falsafiy oqimning asosini tashkil etdi. Yozuvchining adabiy merosi 90 jildli badiiy va publitsistik asarlar, kundalik eslatmalari va xatlaridan iborat bo'lib, uning o'zi ham bir necha bor adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti va Tinchlik uchun Nobel mukofotiga nomzod bo'lgan. Lev Nikolaevich Tolstoy 1828-yilning 9-sentabrida Tula viloyatidagi, Yasnaya Polyana qishloqchasida dunyoga kelgan. U katta zodagon oilaning, kenja farzandi, ya'ni to'rtinchi farzand edi. Tolstoy yosh bo'lishiga qaramasdan, hayotning achchiq sinovlariga duch kela boshladi, hali ikki yoshga ham to'lmagan jajji Lev Tolstoy onasidan ayriladi. To'qqiz yoshida esa otasi olamdan ko'z yumadi. Lev Tolstoyning erta bolaligidagi eng muhim va aziz xotiralari, aynan oilaviy me'ros hisoblangan, Yasnaya Polyana bilan bog'liq edi. U 1844- yilda, Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qiydi. Biroq uning ijod dunyosi ma'lum qobiqlarga sig'masdi. Tolstoy ilmiy daraja olishga ham urinmadi. Oxir oqibat 1847-yilning aprelida Lev Tolstoyning talabalik hayoti tugadi. U mulkning bir qismini, shu jumladan sevimli Yasnaya Polyana meros qilib oldi va darhol uyiga ketdi va oliy ma'lumotli ham bo'la olmadi. Oilaviy mulkda Tolstoy hayotini yaxshilashga va yozishni boshlashga harakat qildi. U o'zining ta'lim rejasini tuzdi: tillarni o'rganish, tarix, tibbiyot, matematika, geografiya, huquq, qishloq xo'jaligi, tabiiy fanlarni o'rganish. Biroq, tez orada u rejalarni amalga oshirishdan ko'ra, ularni tuzish osonroq degan xulosaga keldi. U shunday deydi: “Men to'satdan juda ko'p qoidalarni yozdim va ularning barchasiga rioya qilishni xohladim. Lekin mening kuchim buning uchun juda zaiflik qildi. Endi men o'zimga faqat bitta qoidani berib, unga amal qilishga odatlangan bo'lsamgina, boshqasini qo'shmoqchiman. Men tayinlagan birinchi qoida quyidagi: Bajarishga qaror qilgan hamma narsani bajaring.”⁶⁰

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan "Urush va tinchlik" epopeyasi haqida suhbat qilsak. “Urush va tinchlik” romani adabiyot klassikasi hisoblanib, nafaqat rus adabiyotining, balki butun jahon adabiyotining eng yaxshi asarlaridan biridir. U o'qish paytida asarda ochilgan mavzu va muammolarni tushunishda hech qanday muammo bo'lmaydi. Tolstoy buning uchun juda ko'p harakat qildi. Tolstoyning bu asari juda ko'p qahramonlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri o'z xulq atvoriga va hayotdagi o'z pozitsiyasiga ega, bundan tashqari asar juda ko'p voqealarni o'z ichiga qamrab olgan. Bu asar ko'p marta qayta nashr etilgan va uning hikoyalari asosida filmlar suratga olingan. Lev Tolstoy o'z romanida ko'plab mavzularga to'xtalib o'tgan, ota-bola munosabatlari, muhabbat mavzusi, vatan oldidagi burch, xalq va xalqning tarixdagi o'rni. Tolstoy janglarni juda aniq va qiziqarli tasvirlaydi. Butun roman davomida u oddiy xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi haqida gapiradi, partizanlarning harakatlarini tasvirlaydi. Asarda, uning hamdardligi ular tomonda ekanligi yaqqol sezilib turar edi. Asardagi personajlar ijobiy va salbiy qahramonlar bo'lib, bundan tashqari, bu yerda ularni ijobiy yoki salbiy deb tasniflash mumkinligini darhol aniqlamaydigan qahramonlar ham uchraydi. Tolstoy o'zining mashhur romanini yozishda bir qancha tarixiy faktlardan foydalangan, bu esa asarga real personajlarni kiritish imkonini bergan. Muallif qahramonlarni o'quvchiga juda tirishqoqlik bilan taqdim etadi, ammo ayol qahramonlarni alohida ta'kidlash lozim. Asarda ayollar xilma-xil ko'rinish olgan bo'lib, onalardan tortib sotsialistlargacha, shuningdek, kamtarin va juda xushchaqchaq xonimlar ham mavjud. Asarda bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan ko'plab muammolar ochib berilgan bo'lib, ulardan biri oilaviy munosabatlar muammosidir. Ushbu mavzuni yanada kengroq kengaytirish uchun muallif uni Bolkonskiylar va Rostovlar misollari yordamida ko'rsatadi. Tolstoy ularning xarakterini, hayotga munosabatini, shuningdek, oilaviy hayotini ochib beradi. Masalan, Bolkonskiylar oilasi - bu odamlar uchun sovuq fikr, his-tuyg'ularsiz, qaror qabul qilish juda muhim va Rostovlar oilasi, aksincha, his-tuyg'ular tufayli yashaydi, bu odamlar o'zlarining mehribonligi tufayli juda ishonuvchan. Asarda

⁶⁰ <http://feb-web.ru/feb/tolstoy/critics/vs1/vs1-479-.htm>

Kuraginlar oilasi ham bor, ular birinchi ikkita oilaga umuman o'xshamaydi, chunki ularni oila deb atash mumkin emas. Bu oilada har kim o'zi uchun, ya'ni unda hech kim boshqa odamlarning qiyinchiliklari va muammolari bilan qiziqmaydi. Har doim dolzarb bo'lgan urush mavzusini ham ta'kidlash kerak, urush hayotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan eng dahshatli narsa ekanligini hamma tushunadi, asarda 1812 yilgi harakatlar, Napoleon bilan urush aks ettirilgan. Roman qahramonlari ko'pincha eng oliy tuyg'u , sevgi haqida gapirishadi va buning uchun har qanday narsani qilishga tayyor bo'lishadi. Qolaversa, asarda hokimiyat va inson qiyinchiliklari, do'stlik, g'alaba va mag'lubiyat haqida so'z boradi. Bu roman kitobxonga ko'p narsani o'rgatadi, shuning uchun uni hamma o'qishi kerak deb o'ylayman!

Xulosa qilib aytganda, "Urush va Tinchlik" romani kontrastlarga boy. Yaxshilik va yovuzlikning qarama-qarshiligi , insoniy xatti-harakatlar , hatto urush va tinchlik. Holbuki , personajlarning taqdirleri shunday tasvirlanganki , o'quvchi beixtiyor , ular taqdirning bunday sovg'asiga yoki jazosiga loyiqmi deya o'ylaydi? Shuning uchun ham kitobxonning romanga qiziqishi susaymaydi. Bu avloddan-avlodga o'tib kelayotganga o'xshaydi. Ehtimol, shuning uchun roman shunday nomlangan.

TO‘RTINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI, TARIXI, MADANIYATI

“DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA ARSLONXON UNVONI HAQIDA

Sarvar Mahmudovich Qo‘ldoshev
Fanlar akademiyasi Tarix institutining tayanch
doktornati.
Elektron pochta sarvarquldashev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek davlatchiligida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasi hukmdorlarining unvoni “arslonxon” atamasining manbalarda va Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari ma‘lumotlar bilan qiyoslanadi va ularning o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatilib beriladi.

Kalit so‘z: Arslonxon, Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk”, “bug‘raxon” “tavg‘achxon”, G‘ozi Arslon tegin, Bakach arslon tekin.

Аннотация: В данной статье сравнивается титул правителей династии Караханидов, правивших в Узбекской государственности, с термином “Арслан-Хан” из источника и с Махмуда Кошгари “Диван лугаат ат-турк” указываются различия между ними.

Ключевые слова: Арслан-Хан, Махмуда Кошгари, “Диван лугаат ат-турк”, “буграхан”, “тавгачхан”, Гази Арслан Тегин, Бакач Арслан Текин.

Abstract: This article compares the title of the rulers of the Karakhanid dynasty, who ruled in the Uzbek statehood, with the term “Arslan Khan” from the source and with Mahmud Koshgari “Divan lugaat at-Turk”, the differences between them are indicated.

Keywords: Arslan Khan, Mahmud Koshgari, “Divan lugaat at-turk”, “bugrakhan”, “tavgachkhan”, Gazi Arslan Tegin, Bakach Arslan Tekin.

Turkiy xalqlarda biror kuchli hayvonni o‘ziga titul sifatida tanlab o‘zlarini shu hayvonning hislatlariga ega ekanligini namoyon etadilar. Xuddi shunday misol O‘zbek davlatchiligida hukmronlik qilgan Qoraxoniylar sulolasida ham ko‘rishimiz mumkin. Qoraxoniylar hukmdorlar o‘zlariga turli hayvon nomlarini unvon qilib olishgan. Misol uchun Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”da “to‘g‘ril” – bu kuchli yirtqich qush deb beriladi. Unga esa “er” sozini qo‘shib erto‘g‘ril – ya‘ni kuchli odam ma‘nosini beradigan ism, o‘g‘il bolalarga qo‘yilgan. Tarixda Saljuqiylar sulolasida shunday nom bilan atalgan hukmdorlar hukmronlik qilishgan[1;45]. Xuddi shunday qarash Qoraxoniylar hukmdorlarga ham xos bo‘lib ular o‘zlariga “arslonxon” “bug‘raxon” “tavg‘achxon” kabi oliy unvonlarni olishgan.

Qoraxoniylar sulola ayrim vakillari arslonxon nom bilan atalgan. Bu haqida ko‘plab tarixiy manbalarda tilga olingan.

Arslonxon nomi dastlab xitoy manbalarida uchraydi. Bu nom G‘arbiy turk xoqonligi (Ko‘kturk) shaxzodalariga nisbatan ishlatilgan[2;123]. Turk xoqonligi davrida, Buxorada ko‘tarilgan Abro‘y qo‘zg‘oloni bostirish uchun hukmdor Qora Cho‘rin og‘lini, Sheri Kishvar (El-arslon)ni yuboradi. Sheri Kishvar bu forscha bo‘lib arslon ma‘nosini beradi.

Xitoy manbalarini tadqiq qilgan Bichurinning asarida keltirilishicha 726-yilda Buxora hukmdori Xitoyga elchi sifatida yuborgan ukasinnig ismi xitoy manbalarida A-si-lan shaklida uchraydi. Bu arslon so‘zining xitoycha shaklidir. Undan tashqari boshqa xitoy manbalarida ham A-si-lan ta-kan degan Farg‘ona hukmdori ham tilga olinadi[3;312]. Boshqa bir xitoy manbasida Tohariston hukmdorlari ham I-si-lan shaklida berilgan[3;324]. Arslon unvoni Turk xoqonligi davridan beri mavjud bo‘lib turkiy hukmdorlar ba‘zilar ushbu unvonlar nomi ostida o‘z viloyatlari boshqarishgan.

Qoraxoniylarda ham bir necha xoqonlar arslonxon unvonini o‘zlariga olgan. Masalan sulola asoschisi Qul Bilga Qodirxonning o‘g‘li, islomni qabul qilgan Sotuq Bug‘raxonni otasi bo‘lmish Bozir arslonxon unvonini olganlardan birinchisi hisoblanadi[4;90]. Uning ukasi O‘gulchoq taxtga chiqmasidan oldin bug‘raxon unvonida davlatning g‘arbiy hududlarida hokimlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng arslonxon unvonini olgan.

Sotuq Bug‘roning o‘rniga taxtga o‘tirgan o‘g‘li Baytash Muso “Arslonxon” unvoniga ega bo‘lib, manbada “xonlar xoni” sifatida qayd etilgan. Uning hukmronligi davrining oxirida Bolasag‘un qo‘lga olinib,

mamlakatda birdamlik va barqarorlikka erishilgan, islom butun mamlakatda rasmiy din sifatida tan olingan[4;105].

Baytosh Arslonxonga bo'ysungan ukasi Ilig Tonga Sulaymon Tarozi va Qashqarda bo'lib, mamlakatning g'arbiy qismida Somoniylar bilan aloqalarni olib borgan. Uning davrida eng katta tarixiy voqea islom rasmiy davlat dini deb e'lon qilingan. Aynan uning davrida ikki yuz ming turk islomni qabul qilganligi to'g'risida Ibnul Aasir keltirib o'tgan[5;138].

Davlat hududlarini sharq tomon kengaytirish siyosatini olib borib Xuton hududlari, basmil, jomul, yaboqu qabilalariga qarshi urushib, ularga islom dinini olib kirgan qoraxoniylar sulolasi vakili Sulaymon ham o'ziga arslonxon unvoni olgan[6;28-30].

Ali ibn Muso yoki Ali Arslonxon, qoraxoniylarning yettinchi hukmdori. U qoraxoniylarning Alilar avlodiga asos solgan[7;104].

Muhammad ibn Sulaymon Arslonxon 1102-1130-yillarda hukmronlik qilgan u Buxoraning Darvoza mahallasida saroy va uning ichida podshohlikka xos hammom qurildi. Yana saroy darvozasi oldiga misli ko'rilmagan boshqa bir hammom ham soladi. U saroy ko'p yillar davomida Buxoro podshohining qarorgohi bo'lib turgan. Keyinroq esa Arslonxonning farmoni bilan u saroyni faqihlar uchun madrasa qilib berganlar, saroy darvozasi oldidagi hammom va birmuncha qishloqlarni u madrasaga vaqf qilib berganlar[8;18].

Qoraxoniylarning sharqiy qismida hukmronlik qilgan Arslonxon Ahmad ibn Xasan Xitoy bilan diplomatik aloqalar olib borgan[9;80-89].

Buyuk xon o'ziga arslonxon unvonini olgan. Undan keyingi o'rinda bug'raxon turgan. Agar buyuk xon – arslonxon vafot etsa uning o'rnini bug'raxon egallab arslonxon unvonini olgan[10;244].

Tadqiqotchi O Pritsakning fikricha arslonxon bu chigil urug'ining totemi bo'lgan. G'arbiy qoraxoniylar hukmdorlari ham arslonxon unvoni bilan atalgan[11;24].

Arslonxon unvoni G'arbiy turk xoqonligi davrida ham mavjudligini G'. G'aybullar Babayorov o'z izlanishlarida ko'rsatib bergan[2;123-133].

Manbalarda "arslonxon" atamasi ko'plab uchraydi. Abu Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiyn" asarida bu so'z uchraydi. Masalan Mahmud G'aznaviyning qo'mondonlaridan biri Arslon Yazib bir necha bor tilga olingan. Undan tashqari manbada g'aznaviy hukmdor Ma'sud Turk hukmdori Arslonxonga elchi yuborgani, Hirotida ko'tarilgan isyonchilar rahbarlari keyinchalik Turkiston xoqoni Arslonxon huzuriga qochib borgan, Arslonxondan kelgan elchilarni saroyda kutib olinishi va boshqa ma'lumotlar keltirilgan[12].

XI asrda yashab o'tgan Nizomulmulk ham o'zining "Siyosatnoma" asarida saljuqiylar hukmdori alp-Arslon haqida ma'lumotlar bergan[13;150]. Asarda saljuqiylar elchisi Shams ul-mulk bilan shaxmat o'ynagani keltirilgan. Muallif Shams ul-mulkni Arslon deb izohlab ketgan[14;285-286].

Ibn al-Asir ham o'zining "Al-komil fit tarix" asarida arslonxon unvoni olgan hukmdorlar haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Unda aytilishicha qoraxoniylar hukmdori To'g'on hoqon vafotidan so'ng uning ukasi Abul Muzaffarxon taxtga chiqib arslonxon bilan birga o'ziga Sharaf ud-davla unvoni ham oladi[5;184]. Shuningdek arab xalifasi Al-Mustaxir boshqa qoraxoniylar hukmdori Ahmad Arslonxonga "Nur ud-davla" unvoni berganligi to'g'risida xabar berilgan[5;188]. Ibn al-Asirning yozganlariga qaraganda qoraxoniylar hukmdorlari turkiy unvon "arslonxon" bilan birga o'zlariga islomiy unvonlarni ham olganini ko'ramiz.

Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida Arslonxon o'ziga qarshi bosh ko'targan Surajiq shahrini o'z tobeliga olganini to'g'risida ma'lumot berilgan[15;20].

Muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asarida "arslonxon" bu uyg'ur shaxzodasi sifatida berilgan[16;272].

Manbalarda "arslonxon" bu faqat hukmdor nommi tarzida berilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida esa bu atama kengroq berilgan. Arslonxon atamasi "Devon"da 14 marta tilga olingan bo'lib shulardan 4 tasi unvon haqida qolgani hayvon tasvirlangan.

Arslon, sher va qoplonlar singari kuchli ma'nosidan tashqari shohlar ham shunday atalgan. [Alin arslan tutar, kuchin sijg'on tutamas – xiyla tadbir bilan arslonni tutish mumkin bo'lsa, kuch bilan sichqonni ham tutib bo'lmaydi] bu maqolda zo'ravonlik qilmay, yaxshi tadbir ko'rishi lozim bo'lgan insonlarga nisbatan ishlatilgan[17;419]. Shundan kelib chiqadiki zo'ravonlikni qilmaydigan, adolat bilan barcha ishlarni yechimini topadigan kishilarga "Arslonxon" unvoni berilgan.

Yana bir joyda hukmdorning basmillarga qarshi kurashi tasvirlangan. G'azi Arslon tegin bilan jang qilgan Basmil askarlari haqida yozadi; Basmillar askarlarini bizga qarshi kurashga xayajonlatirdi. Hammalari to'planishdi. Arslon tomon yurishdilar. Bizni ko'rishgach, ko'zlari qorong'ulashib, boshlari aylandi[18;360]. Ushbu ma'lumot qoraxoniylar Sulaymonning sharqqa yurishlariga ishora qiladi.

Asarning yana bir yerida Bakach arslon tekin tilga olinib u yaboqlarni o'ziga tobe qilganini yozadi[19;422].

Arslonxon atamsi bo'yicha Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari boshqa manbalardan farqli jihati shundaki unda nega hukmdorlarga arslonxon atamasi berilishi haqida to'xtalib o'tgan. Boshqa manbalarda shunchaki arslonxon hukmdor sifatida berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Osman G. Özgüdenli. Selçuklular. Cilt I Büyük Selçuklu Devleti Tarihi (1040-1157). İstanbul - Ankara: İSAM Yayınları ve TDV Yayınları. 2013
2. Gaybullah Babayar. Karahanlı Hakanlığı Sikkelerinde Görülen Bazı Eski Türkçe Ünvanlar ve Onların Menşei Üzerine. Актуальные вопросы истории кыргызского народа: прошлое, настоящее и будущее. Сборник статей в честь 70 летия кыргызского историка и востоковеда Мокеева Анварбека Мокеевича. Бишкек 2019 г
3. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. II част. Москва-Ленинград. 1950.
4. Караев О. История Караханидского каганата. Фрунзе. 1983.
5. Ибн ал-Асир. Ал-каmil фи-т-тарих. Полный свод истории. Ташкент. 2006.
6. Ömer Soner Hunkan. İpek Yolu'nun Muhafızları. Bozkırlardan Kentlere Türk Hakanlığı Ordusu(Kar ah anlılar). İstanbul. 2019.
7. Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах // История Казахстана в персидских источниках. Т. I. Алматы, 2005.
8. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий БУХОРО ТАРИХИ Тошкент. 2022.
9. Dilnoza Duturaeva. Qarakhanid Roads to China. A History of Sino-Turkic Relations. Leiden | Boston. 2022.
10. Б.Д. Кочнев. Нумизматическая история караханидского каганата (991 – 1209 гг.) Часть II М. 2006.
11. Pritsak Omeljan. Dei Karachaniden (miteinergenealogischenTabel) – Der islom, 1953, №31. Heft 1
12. Абу-л-Фазл Байхаки. История Масуда (1030-1041). Перевод с перс., вступление и комментарии А. К. Арендса. Москва. 1969.
13. Nizamülmülk. Siyasetname. İstanbul. 2016..
14. Сиасет-намэ. Книга о правлении везира XII века Низам аль-Мулька. Москва. 1949.
15. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. Тошкент. 1995 йил.
16. Hudud al-alam. The regions of the world. Translated and explained by V.Minorsky. London.1937.
17. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. III том.Тошкент. 1963 й.
18. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. II том.Тошкент. 1963 й.
19. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. I том.Тошкент. 1960 й.

TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI, TARIXI, MADANIYATI

**Saidova Inoyatxon Muhammadraximovna,
Menejment va Zamonaviy texnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi**

Annotatsiya. Turkiy xalqlar etnografiyasi, tarixi va madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan manbalar bilan shug'ullanish bugungi kun tadqiqotlarida kam uchraydi. Turkiy xalqlar, shu jumladan o'zbeklarning qadimiy qadriyatlar, urf-odatlar ular dagi boy ma'lumotlarni o'rganish, yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifadir. Mazkur maqolada o'zbek xalqining etnogonik manbalari, ular ustida olib borilgan tadqiqotlar bilan yaqindandan tanishtiradi va ularning bugungi fanda tutgan o' rni masalalarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek, etnogoniya, etnogenez, etnik tarix, turkiy xalqlar, O'rxun-Yenisey yodgorliklari, folklor manbalar.

Annotation. Dealing with resources that serve to promote the ethnography, history and culture of Turkic peoples is rare in today's research. The ancient values, traditions of Turkic peoples, including Uzbeks, the study of rich information in them, the transmission to the younger generation is an urgent task. In this article, the ethnogonic sources of the Uzbek people are introduced to the research carried out on them from recently and analyze the issues of their place in today's science.

Keywords: Uzbek, ethnogony, ethnogenesis, ethnic history, Turkic peoples, O'hun-Yenisei monuments, folklore sources.

Аннотация. Работа с источниками, которые служат развитию этнографии, истории и культуры тюркских народов, редко встречается в современных исследованиях. Изучение древних ценностей, традиций тюркских народов, в том числе узбеков, изучение содержащейся в них богатой информации, доведение ее до подрастающего поколения является актуальной задачей. В данной статье подробно знакомятся с этногонными источниками узбекского народа, проводимыми на них исследованиями и анализируются вопросы их места в современной науке.

Ключевые слова: узбекский, этногония, этногенез, этническая история, тюркские народы, орхонско-ксайские памятники, фольклор источники.

KIRISH

Xalqning paydo bo'lishiga oid har qanday ma'lumotlar, ularning turli guruhlari, qabilalari shuningdek, yirik etnik birliklar yoki uyushmalar tarkibiga kiradigan kichikroq birliklari to'g'risida bilimlar beradi. Shartli ravishda xalq etnogoniyasi deb atalib kelgan xalq bilimlari sohasi azaldan tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Ushbu soha nafaqat xalq ma'naviy madaniyatining bir qismi sifatida, balki qimmatli tarixiy-etnografik manba sifatida ham muhimdir, chunki har bir xalq, qabila va urug' har doim o'z kelib chiqishi, boshqa guruhlar bilan qarindoshligi va shajarasi bilan qiziqib kelgan. Bu bo'yicha o'z g'oyalari ega bo'lib, ular ko'p asrlar davomida to'planib, saqlanib yoki og'zaki ravishda avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. O'z-o'zidan ma'mumki, bunday ma'lumotlar tadqiqotchiga tarixiy faktlar ishlash bilan bir qatorda bir-biridan ajratish, qiyoslash va tahlil qilish vazifasini yuklaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turkiy xalqlar etnogenezi, etnik tarixi va etnografiyasi bilan shug'ullangan tarixchi, elshunos, manbashunos, arxeolog olimlar K.Sh.Shoniyozov, A.A.Asqarov, B.Ahmedov, Iso Jabborov, O.Bo'riev, M.Usmonov, O'.Nosirov, A.M.Malikov, M.Sh.Usmonov va boshqa bir qator mahalliy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlarida o'zbek xalqi etnogonik manbalari xususida ma'lumotlar uchraydi. Biroq mahalliy olimlar tadqiqotlarida aynan o'zbek xalqi etnogoniyasi bevosita tadqiq etilmaydi. Uning nazariy masalalari, xalqning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi manba sifatida o'rganish yondashuvi ishlab chiqilmadi. Rus va ingliz tadqiqotchilari S.M.Abramzon, G.N.Prokofev, R.R.Gallyamov, P.Golden va boshqa tadqiqotchilar maqolalarida bu masalaga e'tibor chuqurroq berildi.

Ushbu maqolada tarixiylik, xronologik, tarixiy-qiyosiy va analitik kabi tarixiy metodlar hamda haqqoniylik tamoyili asosida yoritilgan bo'lib, o'zbek xalqi etnogonik manbalari ular ustida olib borilgan tadqiqotlar, ularning ahamiyati tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Xalq etnogoniyasi tarixiy-etnografik bilimlarning haqiqiy xazinasidir.[1] Ular xalqning etnik tarkibi va uning o'zgarishi, urug', qabilalar, kichik guruh nasabnomalari, tarixiy, ijtimoiy va etnomadaniy aloqalari to'g'risidagi haqiqiy ma'lumotlarni aks ettirishda yordam beradi. Tarixiy o'tmishlariga oid yozma dalillari kam bo'lgan xalqlarni o'rganish haqida gap ketganda, etnogoniyaning ilmiy ahamiyati juda katta. Shuning uchun o'zbek xalqning etnik tarixi bo'yicha folklor bilimlarini (etnonimiyasi, urug'lar va qabilalarning kelib chiqishi va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar) tadqiq etish, etnografik ma'lumotlarini saralash ham o'zbek xalqi etnogonik bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixiga oid bugungi kungacha bir qator tadqiqot ishlari nashr etildi. Hozirgacha tarixchi, etnograf, arxeolog, antropolog, lingvist olimlar bu sohada katta ishlarini amalga oshirib, salmoqli yutuqlarga erishdilar. O'zbekiston va unga tutash hududlarda bir talay etno-arxeologik ekspeditsiyalar o'tkazildi, ilmiy-tadqiqotlar olib borildi, yirik monografiyalar, o'quv qo'llanma va ilmiy to'plamlar, dissertatsiyalar hamda katta-kichik maqolalar chop etildi.

Xorij tadqiqotlarida turkiy xalqlar etnogoniyasini talqin etuvchi maqolalar mavjud bo'lib, jumladan, Piter Goldenning "Turklarning etnogonik ertaklari"[2] maqolasida turklarning (552 yildan 744 yilgacha) Xitoy sulolasi va boshqa tarixiy asarlarida, keyingi rasmiy tarixlarda (masalan, Tszushu, Suishu, Beyshi, Dzyu) yozilgan miflar asosida etnogoniyasini yoritadi. Uyg'urlardan ajralib chiqqan Tibetning "shimoliy xalqlar" haqidagi masalaning muhokamasi ham kiritilgan. Maqolada turk xoqonligiga asos solgan va hukmron qatlamiga aylangan Ashina-Turk guruhiga e'tibor qaratib, turli xil etnik-lingvistik aloqalarga ega bo'lgan xalq sifatida ko'rsatadi.

Mahmud Koshg'ariy davrida turklarning kelib chiqishi haqidagi bilimlar susaygan yoki bostirilgan, islomiy va yahudiy (xazarlar) nasabnomalari bilan almashtirilgan, faqat afsonaviy turkiy qahramon Alp Ar Tonga haqida qisqa ma'lumotlarga ega bo'lgan. Qoraxoniylar davridagi asarlarda, ko'pincha Eron urf-odatlarini aks ettirilgan. Turli xil turkiy xalqlarni ta'riflash haqidagi ertaklarida muqaddas tog', daraxt (hayot),

g'or (ajdodlar) bilan tanish bo'lgan "afsonaviy qarash" mavjud. Ashina-Turklar asli ertaklarida u yoki bu shaklda qo'shilgan suv va ayol hudo timsolida gavdalanadi. [2,317]

G.N.Prokofevning "Ob-Yenisey havzasi xalqlarining etnogeniyasi"[4] maqolasida Ob-Yenasoy havzasida yashagan xalqlarning etnogeniyasi masalasini umumiy ma'noda yoritib bergan.

2014 yil 19 dekabrda Olmaota shahrida "XXI asr boshlarida Yevrosiyoni o'rganishda tarix fanining yangi yondashuvlari: Amerika, Yevropa va postsovet tajribalarini qiyosiy tahlil qilish" Xalqaro ilmiy davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Al-Farobiy nomidagi Qozoq Milliy universitetining tarix, arxeologiya va etnologiya fakultetida tashkil etilgan davra suhbatida Rossiya Fanlar akademiyasi, Ufa ilmiy markazi professori R.R.Gallyamov "Etnogeniya kak sposob issledovaniya etnogeneza i ranniy etnicheskoy istorii tyurkskix narodov sentralnoy Yevrazii"[4] ma'ruzasi bilan ishtirok etdi va Markaziy Yevroosiyo turkiy xalqlarining etnogenezi va dastlabki etnik tarixini o'rganish usuli haqida fikrlarini bayon etdi.

Xalqning etnogeniyasini ifodalaydigana afsonaviy mavzular, tarixiy rivoyatlar, asotir va miflarni ma'lum darajada, tarixiy folklor deb qaralishi mumkin. Ammo ba'zida xalq etnogeniyasi haqidagi materiallarni folklorga bog'lab, xalq haqidagi ma'lum etnografik bilimlardan chetlab o'tiladi, ya'ni tarixiy fakt sifatida qaralmaydi.

O'zbek folklor asarlari o'zining hayotiyliigi, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati hamda o'ziga xos badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xalqning mashg'uloti, urf-odati, turmush sharoiti, orzu-istagi, kurash va g'alabalari, uning mohiyati va g'oyaviy mazmuni aks ettiriladi. Folklor asarlarining xalqchillik xususiyati ularning hayotiyliigi va qaysi bir dunyoqarashni himoya qilishi bilan bog'langan bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodining o'z ijodiy metodi mavjud bo'lib, uni shartli ravishda romantizm tipidagi ijodiy metod deyish mumkin, chunki folklor asarlarida fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo'lishi, yo'g'rilgan xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'ladi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi yotadi. "Avesto"ning mifologik asoslaridan, O'rxun-Yenasoy bitiklaridagi folklor mativlardan, qadimgi turkiy tarixiy doston va nasriy asarlar "O'g'uznoma", "Kitobi dadam Qo'rqu", "Qutadg'u bilig", "Hibatu-l-xaqoyiq", "Qissai Rabg'uzi"ning folklor an'analari etnogenik bilimlarni alohida olib chiqish, sohaga oid yangi bilimlarni takomillashtiradi. Qahramonlik afsonalari bo'lgan "To'maris" va "Shiroq", tarixiy voqealarning izohlanishi, rasm-rusumlar, geografik nomlar ifodalangan Qirg'iz, Guldursun, Hazorasp, Dalvarzon tepa afsonalari, xalq dostonlari: "Alpomish", "Go'r o'g'li" dostonlar turkumi, maqol va matallar, topishmoqlar, askiya va latifa, lof va og'zaki dramalar, xalq qo'shiqlari (tarixiy qo'shiqlar), o'zbek marosim folklorlarini ham etnografik g'alvirdan o'tkazish, kelajak avlodga xalqning yangi va yangicha yondashuv asosida o'rganilgan etnogenik bilimlarini beradi.

Sobiq ittifoq davrida o'zbeklarning qadimiy qadriyatlari, urf- odatlari va xalqchil g'oyalarini aks ettirgan, minglab misralari jild-jild kitoblarni tashkil etadigan folklor asarlariga zamonasozlik sinfiylik, partiyaviylik nuqtayi nazaridan baho berildi. Jumladan, xalqimizning ma'naviy qahramoniga aylangan Alpomish obrazi ham qattiq tanqid qilindi. Aniqrog'i, unga tuhmat qilindi, ta'na toshlari otildi. Bunga qadar doston ayovsiz tanqid qilinganiga qaramay, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 1952 yil 21-22 fevraldagi mafkuraviy masalalarga bag'ishlangan X plenumida "Alpomish" dostoni "tanqid qilinmayotgani va uning xalqqa qarshi qaratilgan zararli xarakteri ochib berilmaganligi" ta'kidlanib, bu – kamchilik va xato sifatida ko'rsatildi.

B.Sarimsoqov mif va ertak o'rtasidagi munosabatga epik janrlarning diffuziyasi natijasida yuzaga kelgan holatlar orqali baho beradi. Qadimgi turkiy mifologiyadagi asosiy kult – quyosh obrazi "Kenja botir" ertagidagi obrazlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. G'.Akramov ham qadimgi miflarning epos va ertakka bo'lgan munosabati haqida fikr yuritarkan, "Go'ro'g'li" turkumidagi asosiy elementlar – parilar, devlar hamda yovuz, salbiy mifologik obrazlar bilan bog'liq mifopoetik chiziqlar haqida ham to'xtalib o'tadi. J.Eshonqulovning izlanishlarida turkiy xalqlarining anaviy dunyoqarashida yer osti va g'orlar bilan bog'liq ilohiy, muqaddas joylar hamda turkiy shomonlik, mifologik tafakkur va poetik tafakkur munosabatlari haqidagi fikrlari diqqatga sazovor.

Kosmogonik miflarning, qolaversa, kosmogonik tasavvurlarning mifopoetikada alohida o'rin tutishiga e'tibor qaratish talab etiladi. Keyinroq paydo bo'lgan kalendar mif bilan (turkiy muchal haqidagi afsonalar) bog'liq marosim va kosmogonik mif klassifikatorlariga, ya'ni *ota – osmon (ko'k)*, *ona – yer, quyosh*, oy kabi obrazlarga o'tdi. Shu tariqa dunyoning paydo bo'lishi haqida yangicha tasavvurlar paydo bo'la boshladi. Masalan, qadimgi Misr, markaziy Amerika, qadimgi turkiylarda dunyoning yaratilishi haqidagi miflar shundan dalolat beradi. Xuddi shunday syujet va ma'nodoshlik shumer, akkad, grek, xitoy, veda miflarida ham kuzatiladi. Turli xalqlarga mansub ushbu miflardagi syujet, ma'no, kompozitsiyadagi mushtarak holatlar quyidagilarda ko'rinadi: a) dunyoning paydo bo'lishi xaosdan (yo'qlikdan) kosmosga (borliqqa) aylangan; b) dunyoning yagona yaratuvchisi – Tangri; v) kosmogonik miflar uchun xarakterli

holat – olamlar bo‘lingan: yer-osmon, osmon-yer yer osti (qadimgi turkiylarda, shumerlarda, qadimgi misrliklarda, hindlarda Vishnu uch olami); g) ushbu olamlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi tangrilar, ruhlar, ayrim hollarda baxshi va shomonlarning borligi; d) osmon va yer olami “dunyo markazida joylashgan muqaddas tog‘”da bir-biri bilan bog‘langan. Olamni turli xil kosmik vertikal va gorizontal zonalarga bo‘lib tasavvur qilish qadimgi kosmogonik miflarga xos xususiyatdir.

Qadimgi turkiy yodgorliklarda kosmogonik mif obrazlari va syujetlari aksariyat sinkretik holatda bo‘lgani kuzatiladi. Bu – tarixiy jarayon va badiiy tafakkurning sinkretikligi, mifologik dunyoqarashning qadimiyligi, turkiy adabiyotning genezisida alohida o‘rin tutganligi bilan izohlanadi.

samoviy kult va tasavvurlarga bag‘ishlangan.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda turk-budda she‘riyati manbalari hajm jihatidan keng bo‘lgani bois, janr xususiyati va ma‘no-mazmun ko‘lamiga ko‘ra, alohida to‘xtalishni talab qiladi. Turk-budda she‘riyati tarixiy-madaniy jarayonlardan hamda badiiy tafakkur sintezi mahsuli o‘laroq yuzaga kelgan, ular yozma yodgorliklarning genezisida alohida o‘rin tutganligi hamda ijtimoiy hayotga kuchli ta‘sir etganligi bilan diqqatga sazovor. Turk-budda she‘rlariga ma‘naviy muhitni anglatish va obrazli tafakkurni boyitish uchun samoviy kultlar bilan bog‘liq turli mifologik obrazlarning qoldiqlari singdirilgan. Masalan, Shoir Prata (Pratya- Shri)ning “Donishmandlik haqida” deb nomlangan she‘rini olaylik. She‘r, an‘anaga ko‘ra, Budda ta‘limoti, donishmandlik, Nirvanaga yetishganlar haqida. Eng muhimi, bu davrda yozilgan she‘rlarda samoviy kultlar alohida o‘rin egallaydi. She‘r ancha katta hajmda, shuning uchun uni qisqartirib ko‘rib chiqamiz: *“Donishmand, yaxshi fazilatli, xudoning marhamatiga ta‘zim bilan”* (8) *Borliqdagi (faqatgina) gunohsiz hisoblanib, sohibkaromat bo‘lib, / chunki siz go‘yo oy va yulduzlardan ham ajraldingiz, / barcha boshqa yaxshi fazilatli orasida / siz barchasidan a‘losiz, turli usullarda ko‘klarga ko‘tarilgansiz.* (10) *Xuddi Quyosh xudosi eritgani singari olovda / qor, qirov, muz eriydi va shunga o‘xshab / barcha qayg‘ular, o‘ch, og‘ir kasalliklar – / o mening otam (donishmandim)! – sizning marhamatingiz tufayli yo‘q bo‘ladi.*

XULOSA VA MUNOZARA

Etnogoniya sohasidagi xalq bilimlari o‘tgan va qisman hozirda dunyoning ko‘plab etnik jamoalari orasida keng tarqalgan. Qiyosiy-tarixiy tahlillar, etnogonik manbalar xalqning etnik tarkibi va uning o‘zgarishi, urug‘lar, qabilalar va nasabnomalari, tarixiy, ijtimoiy va etnik madaniy aloqalar to‘g‘risidagi haqqoniy ma‘lumotlarni aks ettirishini asoslaydi. Tarixiy- etnografik tadqiqotlar uchun turkiyzabon o‘zbek xalqining o‘tmishidan bugungi kunigacha, ajdodlardan-avlodlarga o‘tib, saqlanib kelayotgan tarixiy- folklor manbalarini tadqiq etish, o‘zbek xalqining etnogoniya sohasidagi ma‘lumotlarini nafaqat boyitadi, balki xalqning etnogenezi, etnik tarixi, etnografiyasiga oid bilimlarni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abramzon S.M., Potapov L.P. Xalq etnogoniyasi etnik va ijtimoiy tarixni o‘rganish manbalaridan biri sifatida (turkiyzabon ko‘chmanchilar materiali asosida) // Sovet etnografiyasi. – 1975 yil. 6-son. – B. 28-41.
2. Prokofyev G.N. Ob-Yenisey havzasi xalqlarining etnogoniyasi (Nenets, Nganasans, Enets, Selkuplar, Kets, Xanti va Mansi) // Sovet etnografiyasi. 1940. T. 3. B. 67-76.
3. Sabdenova G.E. “XXI asr boshlarida Yevrosiyoni o‘rganishda tarix fanining yangi yondashuvlari: Amerika, Yevropa va postsovet tajribasining qiyosiy tahlili” xalqaro ilmiy davra suhbat (2014 yil 19 dekabr). “Oltin O‘rda sharhi”, No 2. 2015. 237-239-betlar.
4. Jo‘raqoziev N.I. Qadimgi turkiy kosmogonik mifologiyaning o‘rganilishiga doir // O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2014. № 1/3. – B. 276-280 (10.00.00. №15).

УДК 37.013.73

SHAHOBIDDIN SUHRAVARDIY MA‘NAVIY-AXLOQIY TA‘LIMOTI VA UNING YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

*Raximova Gulora-Urganch davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: raximovagulora1976@gmail.com
tel: 914344789*

Annotatsiya

Maqolada Shihobuddin Suhravardiy milliy ahloqiy merosi, uning “Avorif ul-maorif” asaridagi ahloqiy qarashlarini bugungi kun yoshlari tarbiyasi uchun ahamiyatli jihatlari, islom tasavvufi yo‘nalishlaridan biri Shihobuddin Umar Suhravardiy nomi bilan bog‘liq “Suhravardiya” tariqati haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: Ishroq, axloq, odob, tafakkur, diniy-falsafiy tafakkur, soʻfiylik, Avorif ul-maorif, ilohiy-falsafa, intellektual qobiliyat, kompetensiya, tasavvuf tariqati, zohidlik, intuitiv.

Annotation

The article examines the national moral heritage of Shihabuddin Suhrawardi, the significance of his moral views in the work “Avorif ul-Maarif” for the education of modern youth, as well as the “Suhrawardiya” sect associated with the name of Shihabuddin Umar Suhrawardi, one of the directions of Islamic mysticism.

Keywords: ishq, morality, manners, thinking, religious and philosophical thinking, Sufism, avorif ul-maarif, theology-philosophy, intellectual abilities, competence, mysticism, asceticism, intuitive

Аннотация

В статье рассматривается национальное нравственное наследие Шихабуддина Сухраварди, значение его нравственных взглядов в произведении «Авориф уль-Маариф» для воспитания современной молодежи, а также секта «Сухравардия», связанная с именем Шихабуддина Умара Сухраварди, одного из направлений исламского мистицизма.

Ключевые слова: ишрак, мораль, манеры, мышление, религиозно-философское мышление, суфизм, авориф уль-маариф, теология-философия, интеллектуальные способности, компетентность, мистика, аскетизм, интуитивный

Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi - bu ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, o'z ichki tabiatini anglash va dunyoda o'z o'rnini topish jarayonidir. Hayotga, axloqiy tamoyillar va qadriyatlarga chuqur va ongli munosabatni shakllantirishga, shuningdek, insonning ichki dunyosi va ma'naviy o'lchovlari bilan bog'liqligini rivojlantirishga qaratilgan.

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash turli shakllarda va turli usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Ulardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'naviy an'analar va falsafiy ta'limotlarni o'rganish: Turli dinlar, falsafalar va ruhiy ta'limotlarni o'rganish yoshlarga haqiqatni izlashning turli usullari haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi va hayot yo'llarida keksalarga hurmatni kichiklarga izzatni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Meditatsiya va tafakkur amaliyoti: Meditatsiya ichki tinchlikni mustahkamlash, diqqatni jamlashni yaxshilash va ongni rivojlantirishga yordam beradigan amaliyotdir. Ichki uyg'unlik va ruhiy o'lchovdan ichki hotirjamlikni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

3. Axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish: yoshlarga odob va axloqiy tamoyillarni o'rgatish ma'naviy tarbiyaning muhim qismidir. Bu mehr-oqibat, adolat, rahm-shafqat va boshqalarga hurmatni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

4. Donishmand va ma'naviyatli kishilar bilan muloqot qilish: Donolik, ma'naviyat va odob-axloq namoyondalari bo'lgan insonlar bilan uchrashish, muloqot qilish yoshlar uchun ilhom manbai bo'lishi mumkin. Darslar, maslahatlar va umumiy tajribalar ularning ichki xotirjamligi va tushunishlarini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Mulohaza va o'z-o'zini tarbiyalash: yoshlarni o'z harakatlari, oqibatlari va qadriyatlari haqida o'ylashga undash ma'naviy tarbiyaning muhim qismidir. O'z fikrlari, harakatlari va ularning atrof-muhitga ta'siri haqida muntazam mulohaza yuritish yoshlarda o'z tanlovi uchun onglik va mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Bu usullar individual ehtiyojlar va mavjud resurslarga qarab moslashtirilishi mumkin. Yoshlar o'rtasida ma'naviyat, odob-axloqni yuksaltirishga hissa qo'shadi, ularni ongli va mazmunli hayot qurishiga ko'maklashadi.

Ma'naviy tarbiya individual jarayon ekanligini va har bir shaxs o'zining ruhiy dunyosini rivojlantirish uchun o'ziga xos yo'l va yondashuvlarni topishi mumkinligini tushunish muhimdir.

Shihobuddin Suhrawardiy XII asrda yashagan buyuk eron mutafakkiri va faylasufidir. “Avorif ul-maorif”, «ko'ngilni nur ila poklash» kabi asarlarida ko'plab masalalarga, jumladan, tarbiyaviy va axloqiy qarashlarga to'xtalgan.

Suhrawardiy yoshlar tarbiyasiga alohida ahamiyat berib, uni ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismi deb bilgan. Yosh avlod jamiyat kelajagi, ularning tarbiyasi bilim, odob-axloq va ma'naviyat qadriyatlariga asoslanishi kerak, deb hisoblagan.

Suhrawardiy ta'kidlashicha yoshlarni axloqiy tarbiyalashning asosiy jihatlaridan biri yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarini kamol toptirishdir. U ta'lim o'quvchilarda adolat, mehribonlik, rahm-shafqat va halollik kabi qadriyatlarni shakllantirish zarur deb hisoblagan. Suhrawardiy o'z asarlarida faqat axloq-odobga asoslangan tarbiya yoshlarni jamiyatning mas'uliyatli, odobli va ongli a'zosi bo'lib yetishishiga yordam berishini alohida tushuntirgan.

Suhravardiy yoshlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib bergan. U bilimdonlik va tafakkurni shaxs va butun jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi asosiy kompetensiyalar sifatida ilgari surdi. Ta'lim har bir o'quvchining intellektual salohiyatini rivojlantirishi, shaxsiy maqsadlari va hayot mazmunini ro'yobga chiqarishga yordam berishi kerak, deb hisoblagan.

Suhravardiy o'z asarlarida ma'naviy tarbiyaga ham e'tibor bergan. Ta'lim faqat aql-zakovatni rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki ma'naviy quvvat va aqlning teranligini rivojlantirishga ham yordam berishi kerak, deb hisoblagan. Yoshlarni ijodkorlik, ilhom va intuitiv bilish qobiliyati ruhida tarbiyalashga chaqirgan.

Umuman, Suhravardiyning yoshlar tarbiyasidagi tarbiyaviy-axloqiy qarashlari bilim, axloq va ma'naviyat uyg'unligiga asoslangan edi. U faqat ana shunday har tomonlama ta'lim yoshlarni jamiyat hayotida samarali ishtirok etishga, barkamol va ilg'or jamiyat barpo etishga tayyorlaydi, deb hisoblagan.

Shahobiddin Suhravardiyning ma'naviy-axloqiy ta'limoti o'z davri yoshlari tarbiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutgan va hozirgi zamonda ham dolzarbligicha qolmoqda. Uning falsafiy tizimi va haqiqatni bilishga tasavvufiy yondashuvi yoshlar tarbiyasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan qimmatli tamoyillar va axloqiy ko'rsatmalar beradi.

Suhravardiy ta'limotining asosiy jihatlardan biri ilm olishda aqliy yondashuvdan tashqari, intuitiv va tasavvufiy tushunchani rivojlantirishdir. U haqiqatni bilishga faqat oqilona fikrlash orqali erishib bo'lmaydi, balki chuqur anglash va ma'naviy manbalar bilan bog'lanishni ham talab qiladi, deb o'rgatgan. Bu yoshlarni tarbiyalash uchun mos keladi, chunki bu ularning ichki intuitsiyasini, ichki ovozlarni tinglash va ichki haqiqatni anglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Suhravardiy ta'limotida odob va axloqqa ham urg'u berilgan. Adolat, rahm-shafqat, mehr-muruvvat kabi fazilatlar muhimligini ta'kidlagan. Bu tamoyillar yoshlarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga, boshqalar bilan uyg'un munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Yoshlarni axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mas'uliyatli va axloqiy ongli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Suhravardiy ta'limotining yana bir muhim jihati tabiat va olam bilan birlikni anglashdir. U dunyoning turli jabhalarini o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri haqida ma'lumotlar keltirgan. Yoshlarni atrof-muhit, tabiat va butun tirik sayyora bilan bog'liqligini qabul qilishga undaydi. Atrof-muhit ongini va atrof-muhit uchun mas'uliyatni rivojlantirish yoshlarni tabiatni qadrlashga, unga g'amxo'rlik qilishga va barqaror rivojlanishga intilishga o'rgatishi mumkin.

Shahobiddin Suhravardiy ta'limotining yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni ular o'z-o'zini va dunyo haqidagi tushunchalarini kengaytirish, sezgi, axloq-odob, jamiyat va tabiat oldidagi mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Suhravardiy falsafiy tamoyillari hayotga chuqur va dono qarashni taklif qiladi, yoshlarning tarbiyasi va o'z-o'zini tarbiyalashiga turtki bo'ladi.

Albatta, yoshlar tarbiyasi murakkab jarayon bo'lib, Suhravardiy ta'limoti ko'p imkoniyatlardan faqat bittasidir. Ammo, uning falsafiy donoligi va qadriyatlari yoshlar uchun muhim ilhom va tushunish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki ular dunyoda o'z o'rnini izlaydilar va o'zlarining axloqiy kompaslarini shakllantiradilar.

ADABIYOTLAR:

1. Buxoro Davlat muzeyi qo'riqxonasi 21125/11 raqamli "Avorif al-Maorif" asar qo'lyozmasi. 1133-hijriy Milodiy 1721 yil, Abulg'oni Xattot.
2. Ozod Shomansur "Shayx Zayniddin kuyi Orifon Toshkandiy" risola. T: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2006.-B 35-36.
3. Shodmon Vohidov, Alisher Qodirov "Sharqning mashhur sulolalari" T: Akadem nashr. 2013.-B.
4. Eflaki, Menakibul-Orifn, Neshr. Tahsin Yazici, Anqara, 1947, gr.1, s. 45.
5. Ez-Zehabi, Tarix, c.IV, b. 98; Alamun-Nubel, taxminan. XXII, p. 375; Suxreverdi, Avorif, (Girish) b. XVII
6. Ibn Xallikon, Vefoyat, c.II, b. 345; Corbin, Henri, La 2 Faylasuf Shahoboddin Sohravardi Maktool, Parij, 1935, p. 21; Cebecioglu, "Avarif", 1.5, s.12, s.1; Uolbridge, Jon, Tasavvufiy Sharq hikmatlari: Suhravardiy va Platonik sharqshunoslik, Nyu-York universiteti nashriyoti, Nyu-York, 2001, bet.
7. Abed Al-Jabri, Muhammad, Arab-islom falsafasi: zamonaviy tanqid, fransuz tilidan Aziz Abbosiy tomonidan tarjima qilingan, Texas universiteti, Ostin, TX, 1999, p. 62; Houtsma, M.T., E.J. Brillning Islomning Birinchi Ensiklopediyasi, 1913-1936, Van Der Berg, "Suhravardi" Brill Akademik Publishers, Leiden-Nyu-York-Köln, 1993, p. VII, 506-7-bet;

TURK VA O'ZBEK MAQOLLARIDA ONANING ULUG'LANISHI

Sheraliyeva Rohatoy
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ayol, unga berilgan ta'rif hayotda, jamiyatda, oilada tutgan beqiyos o'rni haqida atroflicha fikr yuritilgan. Turk va o'zbek maqollarida ona timsolining ulug'lanishi, maqollarning bir – biriga mushtarakligi qiyoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ayol, ona, maqom jamiyat, xotin – qizlar, mansab, sarishta, fidoyi, g'amxo'rlik, e'tibor, qadr – qimmat, farzand, faxrlanish, ulug'lash, mas'uliyat, insoniy, huquq, manfaat, himoyalash.

Аннотация: В статье подробно рассматривается женщина, данное ей определение, ее ни с чем не сравнимая роль в жизни, обществе, семье. Сравняется прославление образа матери в турецких и узбекских пословицах и общность пословиц.

Ключевые слова: Женщина, мать, статус, общество, жена-девушка, карьера, блондинка, преданная, забота, внимание, ценность-дорого, ребенок, гордость, похвала, ответственность, человек, право, интерес, защита.

Annotation: In the article, the woman, the definition given to her, her incomparable role in life, society, and family are discussed in detail. The glorification of the image of the mother in Turkish and Uzbek proverbs and the commonality of the proverbs are compared.

Key words: Woman, mother, status, society, wife - girls, career, blonde, dedicated, care, attention, value - expensive, child, pride, praise, responsibility, human, right, interest, protection.

Ayol – hayot davomchisi. Ayol – olam quvonchi. Ayol – oilaning chirog'i. Ayol degan ushbu so'zni tarifu – tasnifi yo'q. Bu so'zni hech kim ta'riflay olmagan, olmaydi ham. Ayolga bo'lgan ehtirom hech bir davrda bo'lmay qolmagan. Doimo ular e'zozlangan, ardoqlangan. Ayol bor ekan bizning buyuk bobokolonlarimiz ilmda dunyoni lol qoldirganlar. Ularni sanab sanog'iga yetolmaymiz. Ularning nomlari kim tufayli bir umr tarix zarvaraqlaridan o'rin oldi. Albatta, "ona" sabab. Demak, ona hayot davomchi, olam quvonchi, oila chirog'i. Onaning faxri cheksiz. Ona go'zal insoniy fazilatlar bilan hayotni davom ettiradi. .

Mamlakatimizda kundan -kunga xotin – qizlarga bo'lgan e'tibor yanada oshirilmoqda. Xotin – qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning jamiyatdagi o'rni, mavqeini yanada yuksaltirish borasida olib borilayotgan barcha yutuqlar bevosita davlatimiz rahbari g'amxo'rligining samarasi deb aytishimiz joizdir. Bu esa har bir ayoldagi faxrlanish hissini uyg'otibgina qolmay, balki ulardagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Ayol hamisha hayotimizning har bir bo'g'inida yuksak insoniy fazilatlardan saboq beradi deb baralla ayta olamiz. Xotin – qizlarga ko'rsatilayotgan bunday g'amxo'rlikni faqatgina bizning farovon yurtdagina ko'ramiz desak mubolag'a emas. Mamlakatimiz rahbari ayol va uning qadri haqida ko'p qayg'uradi, boshqalarni ham ularni avaylashga undaydi.

Demak, bizning tinch va farovon mamlakatimizda onalar hamisha ardoqda desak, aslo yanglishmaymiz. Bobomiz Abdurahmon Jomiy aytganlaridek: " Hammadan balanddir ona mansabi". Hikmatlar kitobi, 236 –bet.) Ona mansabidan balandroq mansab yo'q, chunki ularsiz hech bir kunni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz xotin – qizlari jamiyatning siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy sohalari rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning bu xizmatlari hukumatimiz tomonidan qo'llab – quvvatlanib, qadrlanmoqda. Bu esa osoyishta mamlakatimizda ayol mansabi, mavqei, o'rni, qadr –qimmatini ulug'lashning asosiy mezonlaridan

Bizga ma'lumki, xalq maqollari asrlar, yillar davomida xalqning hayot kechinmalari asosida yaratilib, xalq og'zaki ijodi namunalarining bir bo'lagi hisoblanadi. Maqollar sayqallanib tildan – tilga ko'chgan. Xalq maqollari faqat aytilibgina qolmay balki, tarbiya manbayi bo'lgan. Xalq maqollaridan insonlar ma'naviy ozuqa olganlar. Umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda maqollar poydevor vazifasini o'tagan desak, mubolag'a emas.

Jamiyatda, oilada ayolning tutgan o'rni haqidagi maqollar beqiyos kuch ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayol oilaning bezagi deb aytilish barobarida bu gapning tag zamirida juda katta mas'uliyat borligini his qilish kerak. Oilada har doim ham ayolning yuki og'ir ekanligini ma'lum. Farzand dunyoga kelgach emas, balki ona qornida ekanligida tarbiya berish haqida ko'p olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Bu onaning zimmasidagi eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ham ayol deb atalmish hilqat o'zi barchaga namuna bo'la oladigan xulq – atvorga ega bo'lmog'i zarur. Onaning jamiyatda, oilada bola tarbiyasida, ayniqsa qiz bola tarbiyasida o'rni dolzarbligini ko'ramiz. Ona oilaning oynagi, gultoji. Ona har tamonlama ideal, yuksak insoniy fazilatlar egasi bo'lishi lozim. Xalq maqollarida ona timsolining ulug'lanishiga e'tiborni qaratamiz

Turk maqoliga quyidagicha ifodalangan:

Kadının iyisi,

Ailenin meleği(dir) (Aynur Öz Özcan, 2009:34 s)

O'zbek xalq maqolida esa:

“*Ayolning sarishtasi* –

Ro'zg'orning farishtasi.” (O'zbek xalq maqollari, I tom, 1987. 43 b.)

Yoki: “*Xotinning sarishtasi* –

Odamning farishtasi.” (O'zbek xalq maqollari. 1978. 116 b)

Ko'rinib turibdiki, har ikkala xalq maqollarida onaning oilada, ro'zg'orda tutgan o'rni, qadr –qimmatini ulug'lanmoqda. Saranjom sarishta bo'lsa ro'zg'orning farishtasi emas balki, odamning farishtasi ekanligi uqtirilmoqda. “Farishtasi” deyish bilan ilohiy farishta qiyoslanmoqda. Ayol sarishtaligi nafaqat ro'zg'orning butligini balki, uning iqtisodiy tomondan mustahkamligini ta'minlaydi. Saramjonlik, sarishtalik, beozorlik, muloyimlik ayolning takrorlanmas hilqat ekanligini ko'rsatadi.

Turk xalq maqolida:

Becerekli kadın kar yakıp kazan kaynatar. (Aynur Öz Özcan, 2009:30 s)

Maqolda

O'zbek xalq maqolida:

“*Epchil xotin qor qalab qozon qaynatar.*” (O'zbek xalq maqollari, II tom, 1988. 172 b.)

Har bir xalq maqolida ayolning fidoiyligi, oilaparvarligi, mehnatsevarligi haqida aytiladi. Oiladagi o'rni, o'zi uchun belgilangan vazifani chuqur his qilishi, sidqi – dildan ado etishi ko'rsatilgan. Ayol dilgirliги, epchilligi bois, majoziy ma'noda o'tin o'rnida qorni yoqishi, qozon qaynatish darajasiga borishi ta'kidlangan. Ayol oilasi, farzandi uchun har qanday vaziyatda ham kuch topa bilishi uqtirilgan. Ayol ana shunday yuksak onalik maqomiga ega. Barcha insoniy fazilatlarining mukammalligi ona degan buyuk hilqatni namoyon etibgina qolmaydi. Balki, hayotning davom ettiruvchi shaxs sifatida ko'z o'ngimizda gavdalandiradi.

Maqollarda ona timsoliga turlicha chizgilar berilsa - da, onani ulug'lash borasida so'zlar uyg'unligi o'rni – o'rnida ishlatilganligini ko'ramiz.

Masalan turk maqolida:

“*Ana, dunyonin mutlug'udur.*” (Aynur Öz Özcan, 2009:63 s)

Ya'ni: “*Ona olam quvonchi.*”

ekanligi haqida fikr bildirilmoqda. Olamning quvonchi onalar bilan. Oilaning, farzandning quvonchi onalar tufayli. Demak, onalar quvonchi, olam charog'onligi.

O'zbek xalq maqolida esa quyidagicha:

“*Ona – olamning faxridir.*” (O'zbek xalq maqollari. I tom, A-O 1987. 311b.)

Har ikkala xalq maqolidagi fikr uyg'unligi bitta. Olamda faxr bilan yashash onalar tufayli. Ona bilan olam, jamiyat, oila quvonchga to'ladi. Ona kulsa olam kuladi. Jamiyat yuksak taraqqiy etadi. Oila gullab yashnaydi. Olam, jamiyat, oila – bir – biri bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, olam quvonchligi ona bilan, olamda faxr va g'urur bilan yashash ona bilan. Ona quvonchi, faxri farzandga har doim kuch bag'ishlaydi. Farzandning onadan faxrlanishi, g'urulanishi uning qobil, ilmi ekanligidan darak beradi.

Quyidagi maqollarga e'tibor beramiz:

“*Kadın evin işiği(dir.)*” (Aynur Öz Özcan, 2009:38 s)

Ushbu maqolda: (xotin uyning chirog'i) deb aytilgan bo'lsa:

O'zbek xalq maqolida ham:

“*Xotin uyning chirog'i.*”

(O'zbek xalq maqoli. II tom, P – H 1988. 131 b.

Har ikki maqolda ham fikr takroriyiligini ko'ramiz. Maqollar har bir xalqning o'z turmush tarzidan kelib chiqqan holda yaratilganligi sir emas. Xalqlarning turmush tarzi ham bir – biriga yaqin. Uy – ya'ni oilaning yashash joyi, o'rni, makoni ona tufayli charog'on. Chunki, yoritib turuvchi chiroq – ona. Bilasiz, agar uyda chiroq yonmasa hayot to'xtab qoladi, nazarimizda. Agar hayotda, uyda ona bo'lmasa – chi? Hech bir so'z bilan ifodalay olmaymiz. Hayotda, uyda hamisha onalar bor bo'lsin. Ona bor ekan hayotimiz tinch, farovon va sermazmundir

Yana maqollar mushtarakligiga e'tibor beramiz:

Turk maqolida: “*Kadın, evin gülü*

Çocuk, gönülün.” (Aynur Öz Özcan, 2009:38 s)

O'zbek maqolida: “*Xotin - uyning guli,*

Bola - dilning.” (O'zbek xalq maqoli. II tom, P – H. 1988. 131b.)

Maqollarda onaning o'zni haqida fikr bildirilyapti. Demak, oilada, uyda ona gulga qiyoslanmoqda. Gul atrofga qanchalik go'zallik baxsh etib, iforini taratsa, onaning ham qiladigan yumushi gulnikidan kam emas ekan. Darhaqiqat, oilada ona oila a'zolarining har birining diliga yo'l topa oladi. Har vaqt ham oila tilsimini qo'lga olib, qo'rg'on mustahkamligini ta'minlaydi. Ona tufayli tinch – totuv yashash baxtiga muyassar bo'lamiz. Doimo onalar hayotda gul misol ochilib yashasalar, bu jamiyat va oila barqarorligining negizidir.

Maqollarda ona va uning insoniy fazilatlari turlicha bayon etilganligini ko'ramiz. Onalar behisob fazilat egalaridir. Hech bir so'z yoki jumla bilan ularni ta'riflashga so'z o'jiz. Onalar baxti, oila, farzandlar quvonchidir.

Maqollarda onaning farzandni duyoga keltirishi, unga hayot baxsh etishi haqida ham ko'satib o'tilganligini ko'ramiz.

Turk maqolida: “Çocuk çamur, ana çömləkçi.” (Aynur Öz Özcan, 2009:68 s)

“Bola – loy, ona - kulol” - degan fikr aytilmoqda.

O'zbek xalq maqoli: “Bola – loy, ona – kulol.” (O'zbek xalq maqollari.

I tom, A – O. 1987. 95 b.)

Yuqorida keltirilgan maqollarda endi onaning boshqa bir fazilati haqida fikr yuritilyapti. Tasavvur qiling bola loy bo'lsa ona kulol vazifasini bajaryapti. Zahmatkash onaning mansabi qanchalar o'g'ir. Lekin shu og'ir yukni og'irligini u hech qachon bilmagan, bilmaydi ham. Loydan farzand dunyoga keltiraman deb, hursandligining cheki – chegarasi bo'lmaydi. Ona har bir o'tgan kunini sanaydi. O'tgan kunlarning shukronasini hech kimga bildirmay ichdan quvonadi. Qanday mashaqqatlar bo'lmasin unga tik boqadi. Kulol ona jismidagi norasida uchun jonini hech qachon ayamaydi. Kulol ona oylar davomida go'dak zuvolasini pishitish barobarida, farzand deb atalmish oila davomchisini dunyoga keltiradi. Xo'sh, kulol ona tarbiyasi qanchalar buyuk ekanligi shunda emasmi? Onalar farzand tarbiyasi uchun mas'ul – degan jumlaning zahirida mehnat yashiringani ma'lum. Ayol borki, o'zining bunday jasorat maydonida bel bog'lab, hayotidan mamnun yashayotganligi uchun faxrlanadi.

Darhaqiqat, “ona” deb atalmish hilqatni dunyoda hech bir so'z bilan ta'rifini topa olmaymiz. Bu so'zga hozirgi kunga qadar hech bir qalam ustasi, shoir yoku, yozuvchi ta'rif - u, tasnif topolmagan, topa olmaydi ham. Onalar bor hayot davom etadi. Onalar bor olam nurga to'ladi. Onalar bor jamiyat taraqqiy etib, gullab yashnaydi. Oila onalar mehri bilan metin, mustahkam. Ona bor- ki, farzand kulgusi olamni jaranglatadi. Onalar tufayli otalarimizning ko'ksi butun, qaddi baland. Onalar bor ekan, otalarimiz beka mu – ko'st, tinch va farovon hayot kechiradilar.

Demak, ona degan maqomning berilishi bejiz emas. Onalar bu berilgan buyuk nomga loyiqdirlar. Bu buyuk zot oldida bosh egish biz uchun burch. Ona hamisha ardoqlangan va ardoqlanib qoladi. Ona o'z maqomi bilan har qanday tahsinga loyiq, albatta.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Aynur Öz Özcan. Kadınlarla ilgili özbek atasözleri. Anqara-2009. b.
2. Aksoy, Ö. A., Atasözleri ve deyimler sözlüğü, İstanbul. İnkilap kitapevi, 1974.
3. Mirzayev. T. Sarimsoqov. B. | O'zbek xalq maqollari: 1 –jild. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1987. 43 – 311 b.
4. Mirzayev. T. Sarimsoqov. B. O'zbek xalq maqollari: II-jild. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1987. 172 b.
5. Xudoyberganov. S. Afzalov. M. Ibrohimov. S. O'zbek xalq maqollari: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent – 1978. 116 b.
6. Ahmad Muhammad Tursun. Hikmatlar kitobi: Hilol – nashr” nashriyoti, Toshkent – 2013. 236 b.

SUKUT – DISKURS TO'LAQONLIGINI TA'MINLOVCHI VOSITA

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna -

Buxoro davlat universiteti o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası
professori, pedagogika fanlari nomzodi, O'zbekiston
g-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com

Annotatsiya. Milliy til va milliy tafakkur mushtarakligidan kelib chiqqan holda har bir nutqiy hodisaning kognitiv, ekspressiv, akkumulyativ jihatlarini tekshirish o'zbek tilshunosligi uchun nisbatan yangi bo'lgan lingvokognitologiya yo'nalishining asosiy vazifalaridan sanaladi. Zotan, har bir tilni o'sha til egasining nutqi, nutqiy sharoiti, madaniyati, ma'naviyati bilan birga ijtimoiy muhit, milliy mentalitet, milliy etiket kabi omillar uyg'unligida tahlil etish muhim.

Kalit so'zlar: *nutqiy muloqot, diskurs, verbal vosita, nonverbal vosita, sukut, ohang*

МОЛЧАНИЕ – ПОЛНОТА ДИСКУРСА ПОСТАВЛЯЮЩИЙ ФАКТОР

Аннотация. Исходя из общности национального языка и национального мышления, исследование когнитивных, экспрессивных, аккумулятивных сторон каждого речевого явления является одной из основных задач сравнительно новой для узбекского языкознания отрасли лингвокогнитологии. Ведь важно анализировать каждый язык в сочетании с такими факторами, как социальная среда, национальный менталитет, национальный этикет, а также речь, речевые условия, культура и духовность носителя этого языка.

Ключевые слова: *речевое общение, дискурс, вербальные средства, невербальные средства, молчание, тон*

SILENCE – IS THE COMPLETENESS OF DISCOURSE SUPPLY FACTOR

Annotation. Based on the commonality of the national language and national thinking, the study of the cognitive, expressive, accumulative aspects of each speech phenomenon is one of the main tasks of the branch of linguocognitology, which is relatively new for Uzbek linguistics. After all, it is important to analyze each language in combination with such factors as the social environment, national mentality, national etiquette, as well as speech, speech conditions, culture and spirituality of the speaker of this language.

Key words: *verbal communication, discourse, verbal means, non-verbal means, silence, tone*

Mavzuning dolzarbligi.

Til tizimida bir hodisa uchun bir necha birlik mavjud ekan, bu o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Mazkur birliklar qaysidir jihati bilan bir-biridan farqlanishi tabiiy hol, albatta. Odatda, mana shu farq doimiy ravishda lisoniy tizim, lisoniy ma'no, lisoniy qiymat bilan aloqador bo'lmaydi: nima sababdan "muayyan holatda" ma'lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo'lgan bir necha teng qiymatli hodisalardan aynan "shunisi" qo'llanilgani ko'p hollarda nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, nutqiy sharoit, nutq obyekti, nutq subyekti, muloqot jarayonining maqsadi, so'zlovchi va tinglovchining kontakt hamda distant vaziyati, so'zlovchi yoki tinglovchining ruhiy holati, o'zaro munosabati, milliy-madaniy saviyasi, ijtimoiy ahvoli, yoshi, jinsi, diniy e'tiqodi kabi qator jihatlar bilan bog'liq bo'lishi ma'lum.

Ekstralingvistik, paralingvistik, umumiy holatda nolisoniy, nolingvistik hodisa sifatida baholangan ohang, sukut kabi nutqiy birliklarga yetarli e'tibor berilmadi [7]. Tabiiyki, mazkur nutqiy vositalar kommunikasiya jarayonida, ya'ni amaliy faoliyatda ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan lisoniy vosita(fonema, morfema, frazema, qolip)lardan ko'ra ko'proq samara beradi, nutqiy birliklari(nutq tovushlari, morfemalar, ibora, so'z birikmasi yoki gaplar)dan ko'ra ko'proq ahamiyat va qiymat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili.

Jahon tilshunosligida matnni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Substansial yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iborat bo'lgan bo'lsa, antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur deb qaraladi. Zero, rus adibi S.Dovlatov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil etadi". Shu bois "inson aqlini, insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi". (V.A.Maslova)

Yaqin yillargacha o'zbek tilshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etmagan, yetarli o'rganilmagan nutqiy vositalarga antoposentrik yo'nalish e'tibor bera boshladi. Zero, tilning voqelanishi bo'lgan nutqqa e'tibor qaratish, nutqiy faoliyat jarayonini tadqiq obyekti sifatida tanlanishi zarurligi Praga lingvistik maktabi a'zolari tomonidan 1929-yillarda e'tirof etishgan edi [2]. Darhaqiqat, istalgan til hech qachon vakuum holatida yashashi mumkin emas, odatda, til muayyan ijtimoiy sharoitda jamiyat kishilari orasida aloqalarlashuv quroliga aylangandagina o'z mohiyatini saqlaydi. Demak, tilning asl mohiyati uning nutqiy pragmatikasida to'la namoyon bo'ladi.

Bilamizki, til informatsiyasining ichki va tashqi tomoni mavjud, ichki tomoni til strukturasi o'ld bo'lsa, tashqi tomoni nutq vaziyatiga tegishlidir. Aynan, til informatsiyasining tashqi tomoni diskursda verbal birliklar bilan bir qatorda naverbal vositalarni ham taqozo etadi. Zotan, diskurs ularsiz to'laqonli bo'lmaydi.

"O'zbek tilining paralingvistik vositalari" (A.Nurmonov); "Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi" (M.Saidxonov); "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari"

(S.Mo'minov); "Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi" (B.Axmedov); "O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi" (M.Barotova) kabi tadqiqotlarda nutqni ifodalashga qaratilgan xatti-harakatlar tahlilga tortildi. Mazkur ishlarda nutqiy muloqotda zaruriy fikrni to'laqonli ifodalash uchun noverbal vositalardan foydalanish nihoyatda zarurligi, verbal vosita noverbal vosita bilan bog'lanishda qo'llanilgandagina ko'zlangan maqsadga, samaradorlikka erishish mumkinligi dalillandi.

A.Nurmonov tilning kommunikativ vazifasidan kelib chiqqan holda fikr ifodalashda tilga yondosh bo'lgan, funksional jihatdan uni kompensatsiya qiluvchi paralingvistik vositalar haqida to'xtalib, aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo'lgan ohang(ovoz)ning sifatiy, miqdoriy xususiyatlari, shuningdek, imo-ishoralar tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi [3]. Haqiqatan, har qanday tilning markazida inson omili turarkan, diskurs adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlardan tarkib topar ekan, tilni uning doimiy foydalanuvchisi bo'lgan inson bilan birga o'rganilishi maqsadga muvofiq. Shu o'rinda aloqa-aralashuvda nihoyatda ahamiyatli bo'lgan sukut hodisasini ham ohang, imo-ishoralar bilan teng barobar o'rganilishi zarurligini ta'kidlash ahamiyatli.

Tadqiqot metodologiyasi:

Zotan, pragmalingsvistik yo'nalishda nutqiy bosqichga tegishli jarayonlarni o'rganish sukut, ohang kabi birliklar tadqiqini ham taqozo etadi. Zero, pragmalingsvistik tilshunoslik fanlari orasidagi o'rni, pragmatik sistema tushunchasining o'zi, uning tarkibiy qismlari orasidagi munosabat, pragmatik tizimning unga aloqador boshqa sistemalar bilan assosiativligi, diskursda sukut, ohang kabilar nutqiy birlikka xosmi yoki ular muloqot birligi sifatida baholanishi kerakmi, degan savollarga hamon to'liq javob berilgan emas.

Aslida, sukut ham muloqotning asosiy maqsadi bilan bevosita aloqador bo'lgan, o'rni kelganda, yangi bir axborot beradigan qismidir. Mazkur ishimizda sukutni suhbat fenomeni sifatida unda ichki nutq voqelanishining ba'zi qirralarini tahlilga tortamiz.

Tahlillar va natijalar:

Muloqot jarayonida sukut insonga xos bo'lgan quyidagi ichki holatlarni yuzaga chiqaradi:

1) **ikkilanish** (ba'zan kishining muayyan fikr, tushuncha yoki voqelik yuzasidan muqim bir qarorga kela olmasligi; turli xayollarda bo'lishi; shubhalanish holatida bo'lishi kabi ma'nolarni voqelantiradi):

"Shu ish bahona bo'lib Asadbekni yo'qotish kerak! Bu shaharga xo'jayinlik qilish faqat sizga yarashadi..."

*Bu gapdan keyin oraga **sukut** cho'kdi. Qilichning ko'z oldiga miyig'ida kulimsirab turgan Hosilboyvachcha keldi. Asadbekning qanotida yurgan odamdan bunday gapni eshitish Hosilboyvachcha uchun tushunarsiz, zavod boshqoni chin dildan aytyaptimi yo ig'vo boshlayaptimi – unga qorong'i edi.* (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob)

Mazkur misolda suhbatdoshlardan biri – so'zlovchi aytgan gapining ta'sir kuchini kutib jim turgan bo'lsa, tinglovchi shubhalanish, ikkilanish holatida sukut saqlamoqda.

2) **o'ng'aysizlik** (Odatda, xijolatga soladigan; xijolatli; o'ng'aysiz holat; noqulay ahvol kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi):

*Homidning zaruratsiz ayb tekshirishi majliska yotroq tuyilgan bo'lsa kerak bir-birlariga qarashib oldilar. Bu o'rinsiz tekshirish majlisni biroz **sukutka yubordi**-da, so'ngra Akram hoji savolida davom etti...* (A.Qodiriy. O'tkan kunlar) Keltirilgan misolda ziyoli, bama'ni kishilar davrasiga tasodifan qo'shilib qolgan, xotinboz laqabi bilan tanilgan Homidning o'ylamasdan aytgan gapi o'tirganlarni noqulay ahvolga soldi, bunday paytda "bema'ni suhbatdosh"ning gapiga shu asnoda javob qaytarish aqlli odamning ishi emas. Mazkur vaziyatda eng to'g'ri yo'l – sukut saqlash. Sukut qilish, bir tomondan, xijolatli vaziyatni ifodalasa, ikkinchi tomondan, o'ng'aysiz holatdan chiqib ketishga ko'maklashuvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

3) **tahqirlash** (nafratlanish, jirkanish; mensimaslik, haqoratlash; kamsituvchi, xo'rllovchi gap-so'z yoki harakat qilish kabi ma'nolarni voqelantiradi):

*Otabek bu cho'ltoq supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. Ul bundan so'ngg'i ko'rguligini tamom ma'nosi bilan onglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'turishdan **sukutni** xayrlik topdi. Go'yo o'zining bu **sukuti** bilan Musulmonqulga ma'nolik bir javobni ifoda qilar edi. Chindan ham Musulmonqul bu **sukutdan** tahqirlandi, tutuni ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi:*

–Nega javob bermaysan?! (A.Qodiriy. O'tkan kunlar)

Asar personaji bo'lgan Musulmonqul qonxo'rli, bezbetligi, rahmsizligi bilan xalqqa tanilgan. Musulmonqul uning oldida hamma titrab, qo'l qovushtirib, yerni o'pib turishiga, uning bergan har bir savoliga darhol javob qaytarilishiga odatlangan. Shu o'rinda Otabekning sukut saqlashi uni chin ma'noda tahqirladi, asablarini chatnatib yubordi. Otabekning sukutida nafratlanish, jirkanish, qarshisida turgan nusxani mensimaslik ifodasi bor edi.

4) **xotiralarga berilish** (bunday holatlarda kishi o'tgan umrining yoki umri davomidagi biror voqea-hodisani eslab xotiralar girdobida bo'lish kabi ma'nolarni yuzaga chiqaradi):

– *Vatani yo‘qning imoni yo‘qtur... – Ismoilbey shunday deb boshini egdi, **sukutga cho‘mdi**. Eti ustixoniga yopishib, uzun burni yanada beo‘xshovlik kasb etgan, ko‘zlari kirtayib qolgan qariya bu **sukut** chodiriga o‘ralib, nimalarni o‘yladi ekan? Bu gapdan yuragi hapriqqan Zelixon-chi? U nima uchun jim? U nimalarni o‘ylayapti. Ismoilbeyning choy quyib o‘tirgan o‘g‘li Ahadbey-chi? Ahadbey Zelixonning tengquri. Taqdirning zolimligi bo‘lmasa biri tog‘lar bag‘rida, biri dengiz sohilida tug‘ilib o‘sib, shu yerda uchrasharmidi? Ular qishloqqa oldinma-keyin ko‘chib kelishdi. Ismoilbey urushdan qaytgach, temiryo‘lga ishga kirib, oilasini shu yerga ko‘chirib keldi. Zelixonning otasi esa urushdan qaytmadi, u yetim holicha qishloqda rizqini terib yuraverdi. (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob. 160-b.)*

Insonning umri davomidagi muayyan voqea-hodisalar unda yoqimli xotiralar qoldirishi ham yoki achchiq iztiroblar muhrlashi ham mumkinligi sir emas. Keltirilgan misolda suhbatdoshlarni sukutga cho‘mdirgan holat – vatansizlik. Vatandan yiroqda yashashga majburlik iztirobi.

5) **ichki munojot** (Munojot, aslida, arabcha so‘z bo‘lib, fikrimizcha, o‘zbek tiliga Mavaraunnahrda islom dini o‘rnashgandan keyin o‘zlashgan va faollashgan. Munojot iltijo, maxfiy suhbat demakdir.) Ba‘zan sukut insonning qalb tubidagi hech kimga ochiq-oydin ayta olmaydigan dard-hasratlari, iltijo, tavbalarini tangriga yo‘llash holatini ham ifodalaydi. Masalan,

*Ismoilbey boshini egib, **sukutga berilgan chog‘larida ko‘pincha Oллоhga munojot etadi**: “Urushda jonimni omon saqla, deb yolvordim, o‘zingga shukr, saqlading. Bir kungina bo‘lsa ham qishlog‘imda, oilam bag‘rida yashay, dengizning mavjlarini ko‘ray, dedim. Qishlog‘imga qaytarding, shukr. Ammo bir kungina sig‘dirding. Dengiz mavjlariga to‘ydirmading. Gunohim ko‘p bo‘lsa, vatangado qilsang ming roziman. Ammo Ona xalqimni vatangado qilganingga aqlim lol. Nahot barchamiz baravar gunohkor bo‘lsak...” Shu gaplar xayoliga keladi-yu, Xudoga ta‘na qilgani uchun darrov tavba ham etadi. (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob. 161-b.)*

Shu o‘rinda sukut verbal vositani to‘la kompensatsiya qilganda ham verbal vositaning izi – artikulyatsiya seziladi. Bunda sukutning ma‘lum nutq vaziyati taqozosi bilan fikr ifodalash vazifasida qo‘llanilishi vaqtincha – fakultativ ekani ko‘rinadi.

Tabiiyki, muloqot bo‘lishi uchun suhbatdoshning mavjudligi muhim omil sanaladi. Aksincha, hech qanday tinglovchisiz yolg‘iz holatda, javob talab qilmaydigan so‘zlovchining nutqi tilshunoslikda suhbatdoshsiz nutq akti yoki monologik nutq deb ataladi. Nemis olimi D.Vandegveken buni nokommunikativ nutq akti deb atasa, bir guruh tilshunolar buni egosentrik nutq deb ataydilar va ushbu turdagi nutq aktlari, ko‘pincha undov, xitob, hayqiriq, munojot, murojaatni bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanishini ta‘kidlashadi [1].

6) **suhbatni davom ettirishni istamaslik** (gohida diskursda suhbatdoshlardan biri (nimadandir hadiksirash, zerikish, toliqish, vaqtni tejash, ranjish kabi o‘nlab sabablarga ko‘ra suhbatni davom ettirishni istamasligi mumkin. Sanab o‘tilgan holatlar ifodasi ham sukut orqali amalga oshiriladi):

– *Vakillarimiz Maskovga ketishdi, – dedi Ahadbey, – Qrim tatarlari bilan birgalashib, haqiqatga yetishar, inshoolloh.*

– *Chechenlar ko‘p ketishdi. Seni ham ketdi, deb yuruvdim? – dedi Ismoilbey.*

– *Onam shu yerda, buvam shu yerda. Men qayoqqa boraman? – Zelixon «men qamoqda edim», demadi. Chol gap kavlamasin, deb boshini egib, **sukut saqladi**. (T.Malik. Shaytanat. 1-kitob. 161-b.)*

Imo-ishoralar, ohang kabi sukut ham inson tafakkurida ma‘lum ma‘noga xoslanadi. Ya‘ni obyektiv borliqdagi narsa, hodisa, harakat, ichki, tashqi holatlar, munosabatlar ham barcha-barchasi inson tafakkurida aks etishi ma‘lum. Tafakkur ifodalari tilde moddiylashadi va nutqda so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn orqali voqelanadi. Demak, bu jihatdan sukut diskursda so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn o‘rnida vazifa bajaradi.

7) **sukut bilan berilgan savolga sukut bilan javob qaytarish** (diskurs jarayonida adresant va adresat o‘rtasidagi munosabatlarda shu qadar tarang vaziyat yuzaga keladiki, so‘ralishi va javob qaytarilishi zarur bo‘lgan maqsadni gap-so‘z yoki paralingvistik vositalar yordamida amalga oshirish mumkin bo‘lmay qoladi. Shunday holatlarda sukut bilan berilgan savolga sukut bilan javob qaytariladi):

Elchin bugun “O‘rnidan turib, yuryaptimi?” deb so‘rab, “Ha, yuryapti” degan lo‘nda javob oldi. “Yurayotgan bo‘lsa, nima uchun chiqmaydi?” deb so‘ramoqchi edi, negaligini o‘zi bilgani uchun savoldan o‘zini tiydi.

*Ziyrak Manzura kuyovining ko‘zlariga qarab, so‘ramoqchi bo‘lgan so‘rog‘ini angladi. “Huzuringizga qanday chiqsin? Jon achchig‘ida bema‘ni gapni aytib yubordi. Endi yuzi shuvut. Bundan keyingi turmushinglar qanday bo‘ladi, men hayronman”, demoqchi bo‘ldi-yu, kuyovidan sado chiqmagani uchun indamay qo‘ya qoldi. **Sukut bilan berilgan savolga javob ham sukut bilan bo‘ldi**. (T.Malik. Shaytanat. 2-kitob. 76-b.)*

Bolasidan ayrilgan Zaynab bu fojiada eri Elchinni ayblaydi. Agar bu o'rinda adib personajlar(kuyov Elchin va qaynona Manzura)ni "gapirtirsa", shu epizodning ta'sir kuchi pasayar edi. Mazkur epizodning jonli chiqishini "sukut bilan berilgan savolga javob ham sukut bilan qayarilishi" ta'minlay olgan.

8) **ichki g'azabni bosish** (jahlni jilovlash, qo'pollik qilmaslikka harakat qilish kabi ma'nolarni voqelantiradi):

– Siz yaxshi ish qilmayapsiz. Agar xohlasak, mashinaga bosib olib ketishimiz ham mumkin. Biz bilan o'ynashmang.

*Bu po'pisadan cholning ham g'azabi qaynadi. Ammo mehmonni quvib chiqarmaslik uchun **sukut saqlab**, o'zini bosishga majbur etdi. Kesakpolvon esa bu jimlikni o'zining foydasiga hal qilib, "bitta po'pisalik jonlaring bor, senlarning", deb qo'ydi. (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob. 16-b.)*

*Asadbek chindan ham g'azablana boshlagan edi. Gap talashuv shu zaylda davom etsa, o'rtog'ining ko'nglini og'ritib qo'yishi mumkinligini fahmlab, **sukut saqladi**. Jalil bu sukutni mag'lublik alomati deb o'ylab, g'oliblarga xos qarash bilan oshnasidan yana so'z kutdi. (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob. 71-b.)*

Yana bir misol.

– Xudo saqlasin, gunohlaringizni o'zi kechirsin. Tavba qiling, bo'tam.

*Asadbek ko'kragida alamli faryod bosh ko'tarayotgan edi. Uni bo'g'ish uchun bir necha fursat **sukut saqladi**. (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob. 152-b.)*

Misollardan ko'rinadiki, grammatik va leksik birliklari muloqotning to'liq ifoda matniga egaligi, mazmunliligi va ta'sirchanligini ta'minlamoqda. Ammo insonning muloqot qobiliyati, so'zamolligi, psixologik omillar, ijtimoiy muloqotdagi guruh vakillarining o'zaro munosabati, qolaversa, nutq muloqot vaziyati va sharoitidan kelib chiqqan holda muloqot jarayonida to'g'ri qo'llanilishi hamda noverbal vositalardan unumli foydalanilishi orqali muayyan natijaga erishiladi, ya'ni muloqot samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin.

9) **sarosimalik** (gapni nimadan boshlashni bilmaslik oqibatida jim turish holatini ifodalaydi):

*Zaynab keyingi gaplarni baqirib aytmoqchi edi. Biroq, lablari sal qimirladi-yu, ovozi chiqmadi. Nihoyat ikkala tomonning **sukut bilan olishuviga** xotima yasalib, qora xotin tilga kirdi:*

– Nima qilyapsan, o'zingni osmoqchimisani?

Ertalab qora xotin muloyim edi, endi esa sensirayapti, ovozi ham dag'al. (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob. 18-b.)

10) **aytilayotgan yoki aytilgan gap yolg'onligini sezib turish** (gohida adresat ishonitirishga qanchalik harakat qilmasin adresant sukut saqlaydi va bu holat uning aytilayotgan yoki aytilgan gap yolg'onligini sezib turishini ifodalaydi):

*Zohid **sukutga berilgani** holda Jamshiddan ko'z uzmas edi. Sezgirlikda ancha-muncha odamga dars bera oluvchi Jamshid esa bu qarash zahirida ko'p gaplar yashirinib yotganini fahm etardi.*

Shuning asnosida to'qigan uydirmalari puch ekanini ham his etib, o'zidan o'zi norizo bo'lardi.

Zohidning sukuti uzoq cho'zilmadi.

– Siz televizor ko'rib turasizmi? – dedi u.

– Ha, unda-bunda... – dedi Jamshid savoldan maqsadni uqmay.

– Bir e'lon berishyapti. "Xayrli tun, kichkintoylar", degan ko'rsatuvlari bor. Shu ko'rsatuvni olib borish uchun yaxshi ertakchi odam kerak ekan. Bir xabarlashing. Shu ish aynan siz uchun, –Zohid shunday deb zaharli jilmaydi-da, xayrlashish uchun qo'l uzata turib qo'shimcha qildi: – Ertaklaringizning muxlisiman. Yana uchrashamiz. (T.Malik. Shaytanat. 3-kitob. 204-b.)

Ba'zan so'zlovchi yoki tinglovchi diskurs jarayonida o'zi istagan yoki istamagan holda sukut saqlab, qaysidir ma'noda, muloqot madaniyati meyorlaridan chetga chiqmasligi yoki ularni buzishi ham mumkin.

Xulosalar:

Ko'rinadiki, inson nutqi nihoyatda murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning juda ko'p jihatlarini yozuvda berish imkoniyati bo'lmaydi. Til informatsiyasining to'la manzarasini namoyon qilish uchun esa nutqning barcha tomonlarini kompleks ravishda tekshirish zarurati seziladi. Zero, nutq jarayonida ishtirok etayotgan barcha vaziyat kompleksi muloqot fragmentining to'liq va haqiqiy ma'nosini ochib bera oladi [3]. Demak, diskurs davomida suhbatdoshlarning o'y-xayollari, ichki ruhiy holati, ko'pincha, verbal yoki noverbal tarzda bildiradigan munosabati ularning ruhiy va fizik holatida aks etadi va so'z/gap bilan muloqot vaziyatida aytmoqchi bo'lgan barcha fikrlarini ovozi, nutq tampa, ko'z qarashi va psixik fizik holati bilan birga sukut orqali ham tinglovchiga yetkazib bera oladi. Zero, diskursda naverbal vosita–sukutning o'rni beqiyos.

ADABIYOTLAR:

1. Vanderveken D. Meaning and Speech Acts. – Cambridge university press, 2009. – P. 137.
2. De Saussure, F. Course in General Linguistics. Columbia: University Press, 2011. – P. 260.

3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 2012. – 301 б.
4. Юлдашева Д. Н. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни. Образование и инновационные исследования. Том 1 № 1 (2020).
5. Юлдашева Д. Н. Сукут нуткий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида // Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3.
6. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Silence-is a nonverbal unit of speech communication// American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.–Pag.87-95.
7. Юлдашева Д.Н. Сукут – нуткий алоқа компоненти// НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ, 2021. № 7.–407-414-б.
8. Yuldasheva D.N. Basic non-verbal components of speech// Current research journal of philological sciences (2767-3758) 3 (01), 17-24.
9. Yuldasheva D.N., Chullieva G. T.. The role of nonverbal means in speech meaning// International Engineering Journal For Research & Development, Vol.6, Issue 2 published May 16, 2021.–Pag.1956-1961.
10. Chullieva G.T. Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 141-148.
11. Chullieva G.T. Intonema and its Types//Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95.
12. Yusupova D.Y. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389.
13. Yusupova D.Y. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva)//Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389.
14. Yuldasheva D.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (1-kitob).– Buxoro: Bukhara Hamd Print, 2023.–140 b.
15. Юлдашева Д.Н. Сукутда ички нутқнинг воқеланиши//“Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” jurnali, 2022-yil. – 4-son.– 62-67-b.
16. Yuldasheva D.N., Chullieva G.T. Expression Of Euphemistic Meaning Through Silence And Intonation// Published/ publié in Res Militaris (resmilitaris.net), vol.13, n°2, January Issue 2023.–5596-5606-p.

OHANG – NOZIK MA’NO BO‘YOQLARINI IFODALOVCHI VOSITA

Cho‘lliyeva Gulchehra Toshpo‘lat qizi -

Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika

Kafedra tayanch doktoranti

@mail: gchulliyeva@bk.ru

Annotatsiya. Ijtimoiy turmushda yashab qolishning asosiy shartlaridan biri muayyan kasb-hunar egasi bo‘lishni taqozo etadi. Kishilarning o‘zlari tanlagan, egallagan hunar yoki kasb doirasidagi uzoq yillik faoliyatlari ularda ko‘nikma va malakalarning yuqori darajasiga erishish imkonini beradi. Zero, egallangan kasb-hunarning ijobiy/salbiy jihatlari shu kasb-hunar egalarining shaxsiy xarakter-xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatishi tabiiy. Biz buni quyida turli kasb-hunar egalarining og‘zaki nutqiga hamda og‘zaki nutqning ajralmas qismiga aylangan ohangiga ta’siri xususida mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: *og‘zaki nutq, kommunikatsiya, intonatsiya, tembr, temp, ohang*

ТОН – ТОНКИЕ ЦВЕТА ЗНАЧЕНИЯ СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ

Аннотация. Одним из главных условий выживания в общественной жизни является обладание определенной профессией. Многолетняя деятельность людей по выбранной и освоенной профессии или профессии позволяет им достичь высокого уровня навыков и квалификации. Ведь естественно, что положительные/негативные стороны приобретённой профессии влияют на личностные характеристики владельцев этих профессий. Мы рассмотрим это ниже с точки зрения его влияния на устную речь различных профессий и тон, ставший неотъемлемой частью устной речи.

Ключевые слова: *устная речь, общение, интонация, тембр, темп, тон*

TONE – SUBTLE COLORS VALUES MEANS OF EXPRESSION

Annotation. One of the main conditions for survival in public life is the possession of a certain profession. Many years of activity of people in a chosen and mastered profession or profession allows them

to achieve a high level of skills and qualifications. After all, it is natural that the positive/negative aspects of the acquired profession influence the personal characteristics of the owners of these professions. We will look at this below in terms of its influence on the spoken language of various professions and the tone that has become an integral part of spoken language.

Key words: *oral speech, communication, intonation, timbre, tempo, tone*

Mavzuning dolzarbligi

Millatning millatligini, xalqning jips butunlik ekanligini ko'rsatuvchi asosiy voqeliklardan biri uning tilidir. Zero, til – xalq ruhi, milliy madaniyati, o'ziga xos ma'naviyatining ko'zgusi. Til hamisha tinglovchiga moddiy, abstraksiya, fantaziya bilan bog'liq bo'lgan yoki fatik xarakterdagi axborotni yetkazadi; ijobiy/salbiy ta'sir ko'rsatadi; moddiyliklar haqidagi ma'lumotlarni, ma'naviy, ilmiy, huquqiy, siyosiy merosni avloddan avlodga yetkazib beradiki, bu ilmiy adabiyotlarda mazkur ijtimoiy hodisa – tilning kommunikativ, ekspressiv, akkumulyativ vazifasi sifatida e'tirof etiladi [1]. Agar inson hayotiga xos doimiy o'zgarishlar; uning tafakkur tarzi, dunyoqarashi o'zanlarini muttasil kengaytirib borishi; mislsiz o'y-fikrlari, miya ko'zgusidagi doimiy analiz, sintez jarayonlari til bilan bog'liq holatda amalga oshirishini inobatga olsak, til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, butun borlig'ini, o'zligini belgilaydigan betakror birlikka aylanadi.

Adabiyotlar tahlili

Til – zamonlar osha har bir millatning o'zligini ko'rsatuvchi, madaniyat va urf-odatlarini aks ettiruvchi bebaho manba bo'lib kelmoqda. Tilshunos olim N.Mahmudov suhbatlarining birida tilning ana shu qobiliyati haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: “Barchasining asosiy mazmun-mohiyati tabiatdagi mavjud tovushlarga taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so'z yuzaga keladi. Tilni mana shu tarzda tasnif qiladigan bo'lsak, til bu faqatgina aloqa vositasi emas, ko'rish, eshitish, hattoki anglash vositasi ekanligini bilib olamiz. Yurtimizning birinchi rahbari “Tilimizdagi “andisha”, “ibo”, “hayo” degan so'zlarni boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi,” degan edi. Tillarda boshqasiga tarjima qilib bo'lmaydigan tushunchalar mavjud. Sababi shu tushunchalar shu millatning o'zigagina xos bo'lgan, o'zidagina bor va nomi ham shu tilda mavjud. Ularni tarjima qilish kerak bo'lsa, faqatgina tavsifiy vosita yoki iboralar hamda tasvirlash yo'li bilan tarjima qilish mumkin”[2].

Tilning qay darajada boyligi, uning birliklariga xos mohiyat, sababiyat, imkoniyatning keng va serqirraligini namoyon eta oladigan voqelik hamisha nutq hisoblanadi. Qadimdan nutq irod etuvchining til imkoniyatlaridan nutqiy sharoitga mos va xos foydalana olishi xushmuomalalik, hilmlik, shirinsuxanlik, tinglovchi ko'nglini ayash, siyqalikdan yiroqlik kabi o'nlab mezonlarga solib ko'rilgan. Jumladan, sohibqiron Amir Temur ham vazifasi xabarchi yoki elchi bo'lgan kishilarning nutqiga (xoh yozma, xoh og'zaki bo'lsin) jiddiy e'tibor qaratgani tarixdan ma'lum: “Har bir mamlakatning ahvolini, kayfiyatini, turish-turmushlarini, qilish-qilmishlarini, bular o'rtalaridagi aloqalarni yozib, menga bildirib turish uchun diyonatli, to'g'ri qalamli kishilardan voqeanavislar (axbornavis, xabarchilar) belgiladim. Bordi-yu, not o'g'ri narsa yozganlari menga ma'lum bo'lib qolsa, bunday voqeanavislarni jazoladim,”[5] deb ta'kidlanadi “Temur tuzuklari” kitobida. Demak, kommunikatsiya jarayoni qadim davrlardan beri jamiyatning axloqiy, milliy mezonlarini aks ettiruvchi, shaxsning asl tabiati – “men”ligi haqida so'zlovchi shaxsini xarakterlovchi tarjimayi hol yoki tavsif bo'lib kelgan.

Zero, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari[2,14]da keltirilgan “Ardam bashi – til” maqolida ham “ardam”, ya'ni kishining odobi, fazilati, odati tili(nutqi)dan ma'lumdir, deyilishi bejiz emas. Qadim turkiy qavmlar nutqida uchraydigan “Kishi so'zlashu, yilqi yizlashu” (“Hayvonlar hidlashib bilishganlaridek, odamlar bir-birlarini so'zlashib bilishadi”) maqolida ham insonlar orasidagi muloqot jarayoniga jiddiy e'tibor qaratilganligini kuzatamiz. Yoki bu o'rinda hazrat Alisher Navoiyning “Insonni so'z ayladi judo hayvondin, bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin”, shohbaytini eslashimiz kifoya. Demak, nutq odobi inson ma'naviyati va kamolotida yetakchi mezon ekanligi zamon va makon tanlamasi ekan.

Yusuf Xos Hojibning “So'zning o'rni – sir” degan fikrida ham chuqur mantiq yashirin. Vaholanki, bu fikr istalgan so'zning ma'nosi faqat kontekst(matn)da reallashadi, degan mantiqning badiiy ifodasidir. Zero, keltirilgan misollar nutqiy madaniyatning ijtimoiy turmushimizdagi informatsion qiimmatini bilib olishimizga ko'maklashadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Istalgan nutqning tarkibi matn, matnning tarkibi gap, gapning tarkibi so'z birikmasi hamda so'zshakllardan iboratligi ma'lum. Sanab o'tganlarimizning har biri o'z o'rnida o'ziga xos grammatik butunlikni tashkil etgan holda, ularning barchasi tarkibini tashkil etuvchi asosiy birlik sifatida so'z turadi. (Tabiiyki, so'z ham morfema, bo'g'in, nutq tovushi kabi birliklarga bo'linib ketadi.) Ammo shu o'rinda e'tirof etish zarurki, nutqiy jarayon uchun lisonda o'ziga xos turli paradigmatic qatorlar hosil qiluvchi biror

lisoniy birlikning nutqiy hosilasi – leksik, grammatik birlikning ahamiyatini rad etib bo'lmaydi. Demak, to'laqonli nutq uchun ularning barchasi zarur.

Nutq, ayniqsa, uning og'zaki ko'rinishida so'zlovchi tomonidan ko'zlangan maqsadga erishish, tinglovchiga yetkazilayotgan axborotga o'zining munosabatini ifodalash uchun ham bir qator noverbal vositalar(imo/ishoralar, xatti-harakatlar, ohang, sukut va b.lar)dan foydalaniladiki, ularsiz og'zaki nutq, ta'bir joiz bo'lsa, libossiz tanga o'xshab qolar edi.

Rus tilshunosi N.V.Pronnikova nutqiy muloqotda intonatsiya(ohang)ning quyidagi vazifalarini ko'rsatib o'tadi.

a) **semantik vazifasi**: nutq maqsadini ifodalash, muhimlik darajasiga qarab jumlani turli qismlarga bo'ladi;

b) **ekspressiv vazifasi**: so'zlovchining suhbatdoshi bildirayotgan fikriga nisbatan situativ hissiyotini ifodalaydi;

d) **sintaktik vazifasi**: gapning sintaktik komponenti, ko'pincha, umumiy integral xususiyatlariga va bitta frazasal aksentga ega bo'lgan yagona intonatsiya guruhi sifatida shakllanadi;

e) **evfonik vazifasi**: badiiy nutqda muloqot jarayonining o'ziga xos ritmik, tematik xususiyatlariga qarab urg'uning o'rnini belgilab beradi va h.k [4].

Nutq takrorlanmas, hech bir kishining nutqini ikkinchisi aynan takrorlay olmaydi (nutqlar nutq egasiga ko'ra, zamon yoki makonga ko'ra, nutq ohangi yoki maqsadiga qarab o'zaro farqlanadi). Shu o'rinda asosiy e'tiborni nutq ohangiga qaratamiz. Har bir so'zlovchining nutq ohangi ham (nutqning o'zi kabi) betakror va ayni paytda nutqiy ohang so'zlovchining maqsadi, holati, kayfiyati, xarakter-xususiyatiga qarab turli ma'nolarni yuzaga chiqaradi yoki muayyan ma'nolarga ishora qiladi.

Ba'zan o'rganayotgan chet tilimiz talaffuzini – samarador metod sifatida – audio yoki video matnlar orqali o'zlashtirishga harakat qilamiz. Chet tilida so'zlashimiz ancha biyronlashib qolgan bo'lsa-da, texnik vositalar orqali yetkazilgan nozik ma'no bo'yoqlarini ilg'ashimiz qiyin kechadi. Jumladan, chet tilida ifodalangan hazil yoki kinoya ohangini anglab olish, ko'pincha, jumla intonatsiyasi orqali yetkaziladigan ajablanish, g'azablanish, nafrat, ishonch yoki ishonchsizlik bo'yoqlarini tushunib olishimiz dushvor. Ya'ni, chet tilini o'zlashtirayotgan kishi o'sha til intonatsiyasini o'rganib olishida qiyinchilik tug'iladi yoki o'zga til so'zlari-yu gaplarini talaffuz qilishda xatoga yo'l qo'yadi. Demak, intonatsiya ma'lum bir tilning eng xarakterli fonetik belgisidir. Intonatsiyaning asosiy xususiyati kommunikativ vazifasi bo'lsa, uning gap m'nosi bilan mavjud bo'lgan bog'liqligi intonatsiyani eng muhim aloqa omillaridan biriga aylantiradi. Chunki jumlaning asosiy darak, so'roq ma'nosi, tugagan yoki boshlanganligi kabi ma'nolarni, asosan, shu vosita belgilab beradi.

Intonolog olimlarning fikricha, nutq intonatsiyasining ikkita asosiy jihati farqlanadi, bulardan biri kommunikativ, ya'ni muloqot jarayonida ma'lumot berish va olish, savol, xabar ma'nolarini ifodalash kabi xususiyati bo'lsa, ikkinchisi ekspressiv vazifalaridir. Ekspressiv vazifasi shundaki, so'zlovchining muloqot jarayonidagi hissiy holatini yoki hissiy jihatdan suhbatdoshiga yetkazmoqchi bo'lgan tuyg'ularni ifoda etadi.

Nutq intonatsiyasi ustida ish olib borgan rus tilshunosi N.S.Trubeskoy intonatsiyaning uch vazifasini ajratishni taklif etgan:

1) eksplikativ vazifasi, ya'ni muloqot jarayonida axborot almashishga ko'maklashish;

2) apellyativ vazifasi – suhbatdoshning nutqi, harakatlariga so'zlovchining munosabatini ifodalovchi funksiya;

3) ekspressiv vazifasi – so'zlovchining shaxsini, uning ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini aniqlashga imkon berish vazifasi [4].

O'zbek tili tabiatidan kelib chiqib, nutq ohangi – intonatsiyasining muloqot jarayonidagi vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) **kommunikativ vazifa**, ya'ni muloqot jarayonida ma'lum axborotni uzatish yoki olish vazifasini bajaradi;

2) **ekspressiv vazifa**, ya'ni suhbatdoshning tinglovchiga nisbatan situativ hissiyotlarini uzatish, bildirish vazifasi;

3) **shaxsning turli individual xususiyatlarini bera olish vazifasi**.

O'zbek tilida ohang kommunikantlarning quyidagi individual xususiyatlarini o'zida ifodalay oladi hamda tinglovchiga bu xususda muayyan ma'lumotni yetkaza oladi: 1) turli kasb egalari nutqida kasbiga oid o'ziga xos ma'lumotlarni bera oladi; 2) turli yoshdagi kishilar nutqida ohang o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va kommunikantning yoshiga xos xususiy ma'lumotlarni bera oladi; 3) erkak va ayol nutqida gender o'ziga xoslikning lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsata oladi; 4) turli millat vakillarining individual milliy xususiyatlarini ko'rsata oladi.

Tahlillar va natijalar

Insonlar o'zaro nutqiy muloqotga kirishar ekan, ularning ijtimoiy xoslanishi, madaniy, milliy, ma'rifiy saviyasi, individual xarakteri, shug'ullanadigan kasbi, hunari, kundalik hayotida doimiy bajaradigan ishiga xos turli belgilar uning nutqi ohangida ham aks etadi. Quyida turli tabaqa vakillari nutqiga e'tibor qaratamiz:

lo'lining nutqi: *Xayri opa oynaga tikilib cho'kkalagancha qotib qoldi. Lo'li boshqa bir oynacha oldi. –Yoshini ayt! –dedi qat'iy ohangda.* (O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari. 90-b.)

Odatda, fol ochish bahonasida laqma kishilarni avrash bilan shug'ullanadigan lo'lilarga xos xususiyat shundaki, ular sodda, ishonuvchan kishilarni o'ziga ishontirish, ergashtirish, o'zining yo'rig'iga kiritishga harakat qilishadi. Zero, bu ularning aksariyatiga tegishli bo'lgan turmush tarzi. Ularning ovozi qat'iyat bo'ladi, aks holda lo'lilar ishining natijasini ko'rmaydi, foyda ololmaydi. Shu sababli ular har bir jumlasini o'ziga ishongan holda, qat'iyat bilan talaffuz qilishi lozim. Yuqoridagi misolda lo'lining "qat'iy ohangda" "yoshini ayt" deb tinglovchiga qilgan murojaatida ham fol ko'ruluvchining yoshini aytsa bo'ldi, u shundan keyin uning bor taqdirini so'zlab bera oladigan ishonch bilan ta'kidlayapti.

zakunchining nutqi: *Tashqarida ot kishnadi. Darvozadan Umar zakunchi kirib keldi. Boshida chaqmoq telpak, egnida ixcham poch-poch, qo'lida qamchi. – Hormanglar-ov! – dedi tetik ohangda. – Nastrayena zo'r-ku! Demak ish besh! .* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. 181-b.)

Umar zakunchi shu yerda yashovchi butun aholining boshlig'i, ish boshqaruvchisi, hammadan ham ko'ra rahbariyat bilan aloqasi yaxshi, o'z davrining "qo'li uzun" odami. Yuqoridan keladigan har qanday buyruqning ijrosi unga bog'liq. U hammaga buyruq berishga haqli, qolganlar esa yoshi-yu amalidan qat'i nazar, unga bo'ysunishga majbur. Zakunchi nutqidagi "tetik ohang" shularning ifodasi hisoblanadi. Yoki:

Zakunchi labining bir burchi bilan iljaydi, lekin o'sha zahoti jiddiy tortdi. – Chiqish kerak-da, dalaga! – dedi murosaga chaqirgan ohangda. – Sizgayam qoyilmasman, Duma! – U cholinga yuzlandi. – Shuncha ish turibdi-yu. Hayronman, ikkovlaringni gaping hech ado bo'lmaydi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi. 214-b.)

Asar qahramoni Dumaning yoshi Umar zakunchidan ancha katta. Ammo zakunchi unga topshirilgan amaldan kelib chiqib, qo'l ostidagi istagan kishisiga maslahat yoki topshiriq bera olishi mumkin. U ifoda etayotgan nutqida otasi tengi insonlarga "murosaga chaqirgan ohangda" (ya'ni biroz yon berib) muomala qilishi uning egallab turgan amalidan kelib chiqadi.

Endi diqqatimizni shu badiiy asarlardagi turli kasb egalari nutqida ohang ifodalagan ma'nolarga qaratamiz. Jumladan,

tabib nutqida: *Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi. – Sarpoychan kelaveringizmi?! – dedi Hoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. – Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bolib qolasiz.* (O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari. 19-b.)

Qor yog'gan, havoning zirillama sovug'ida uzoq masofani oyoq kiyimsiz bosib o'tgan ayolning holatini hech kim tabib darajasida aniq his eta olmaydi. Tabib ayolning nutqidagi "vahima ohangi" shundan.

kotiba nutqida: *Eshik tepasidagi yozuvni qayta o'qidi. "Vasilev D.S." Tutqichdan ushlab tortib ko'rdi. Eshik qulf edi. – Kim kerak sizga, o'rtoq! Parket polda qars-qurs qadam tovushi eshitildi. Grisha yonboshiga burildi. Poshnasi bir qarich tufli kiygan xushro'ygina qiz ipdek qoshini chimirib ro'parasida turardi. – Kim kerak sizga? – dedi qiz rasmiy ohangda. – Dmitriy Stepanovich, – dedi Grisha g'o'ldirab... – Nima ish bilan keldingiz? – Shaxsiy ish bilan! –...Bu yer gorkom komsomol bo'ladi, o'rtoq! Bu yerda shaxsiy ishlar ko'rilmaydi.* (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar. 29-b.)

Korxona kotibasining vazifasi boshliq qabuliga keluvchilarning savollariga javob qaytarish kabi tashkiliy ishlardan iborat bo'ladi, shu bois u rahbar xodimga uchrashish istagida kelgan kishilar bilan ko'p muloqot qiladi. Keltirilgan misoldagi kotiba nutqida his-hayajon, hurmat-e'tibor, iymon, qiziqsinish kabi shaxsiy tuyg'ulari ifoda etilmagan "rasmiy ohang" kasbi talabidan kelib chiqqan.

tergovchi nutqida: *Oq do'ppili qariya chiqib ketgach, Omonullo ayvonga ko'tarilib bemor yoniga o'tirdi-da, salom berdi. Ahvolni ko'rib turgan bo'lsa-da, ko'ngil uchun: – Salomatligingiz yaxshimi endi? – deb so'radi... – Gapirolmaydi, til ketgan. Oyoq-qo'l ham ketgan. Tirik o'likning o'zginasi, – dedi Adolat. Bu qo'pollik Omonulloga malol keldi. – Kechirasiz opa, siz bu kishiga kim bo'lasiz? – dedi dag'alroq ohangda. – Xotiniman, – dedi Adolat ayvon chetiga omonat o'tirib.* (T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. 89-b.)

Jinoyatni taftish qilish topshirig'i bilan kelgan tergovchi har qanday holatda o'zini tuta olishi, qay yo'l bilan bo'lsa ham (avrabmi, qo'rqitibmi, qiynoq bilanmi), jinoyatga oid tafsilotlarni bilib olishi va jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlashi lozim. U, kasbi taqozosiga ko'ra, hissiyotlarga berilishi mumkin emas. Huquq-tartibot sohasi vakilining nutqidagi "dag'allik ohangi" uning qattiq tartib ostida tarbiyalanganligi bilan ham bog'liq. Ba'zan bunday kasb egalari nutqidagi bu tabiiy dag'allikni vaziyatdan kelib chiqib o'zgartirishi,

kerakli ma'lumotni olib, jinoyatni fosh qilish uchun nutqida kasbiga xos bo'lmagan ohangda ham so'zlashi mumkin. Masalan, quyidagi parchada tergovchi nutqida yasama "samimiylik ohangi"ni kuzatish mumkin:

*Omonullo liqillab turgan, ammo bitta odamni ko'tarishga yaraydigan stulga omonat o'tirdi. Ikkinchi stulni Matluba egallab, ... barmoqlariga tikilib qoldi... –Akamdan xat-xabar bormi, tinchmilar? – Omonullo o'zining nima maqsadda kelganini bildirib qo'yish uchun gapni shunday boshladi. Matluba esa "militsiya bekorga surishtirmaydi", degan xavotir bilan titroq ovozda: – Kimni so'rayapsiz? – dedi. – Xo'jayiningizni so'rayapman, – dedi Omonullo yanada **samimiy ohangda**. – Xo'jayinimning yana chala ishlari qolgan ekanmi? – Matluba shunday deb unga o'g'rincha qarab oldi. (T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. 124-b.)*

Zero, huquq-tartibot sohasi vakilining nutqidagi "samimiy ohang" uning suhbatdoshini ko'proq seskantirmoqda.

shifokorning nutqida: Xonadagi anjomlarga qarab, shifoxonada yotganini angladi. Shifoxonaning yoqimsiz hidi ko'nglini aynitib, o'qchiy boshladi. O'qchuq ovozi eshitgan hamshira shoshilib kirib, unga idish tutdi. So'ng vrach paydo bo'ldi. Tomirini ushlab, mijjalarini qayirib ko'rgach, hamshiraga **qisqa, ammo buyruq ohangida** ko'rsatmalar berdi. (T.Malik, Murdalar gapirmaydilar. 96-b.)

Odatda, shifokorlarning nutq ohangida, buyurish, sovuqqonlik, ba'zan beparvolik ham seziladi. Tabiiyki, bemorlar nutqida esa, iltimos, yolborish, ikkilanish, najot kutish, tushkunlik hislarini ifodalovchi ohang aniq sezilib turadi.

Misol:

Ertasiga ertalab to'g'ri poliklinikaga yo'l oldim. Ro'yxatga olish xonasida nomimga daftar ochishdi va uni qo'linga tutqazishib terapevtga uchrashishimni aytishdi. –Xo'sh, sizni nima bezovta qilyapti? – shifokor boshini ko'tarmay qo'li bilan yonidagi stulga o'tirishimni ishora qildi.

*–Boshimda og'riq sezganday bo'laman, – dedim uning **beparvo munosabatidan** o'ksinib, **iltijoli ohangda**. **Ovozimdagi o'ta shikastalik** ta'sir qildimi, vrach yozishini to'xtatib yuzimga tikildi.*

–Ko'rinishingiz yomonmas. Demak, qon bosimingiz joyida. Asabdan bo'lsa kerak. Oyoq qanday?

Oldiniga ajablandim, keyin jahl bilan:–Mening boshim og'riyapti, – dedim.

–O'zingizni bosing, aytdim-ku nervdan deb, darrov asabiylashdingiz. (X.Nurillayev, Hammasi asabdan.)

Xulosa

Keltirilgan misollarda nutq ohangining o'zbek tilidagi uch asosiy vazifasidan uchinchisi – shaxsning individual xususiyatlarini aks ettirish vazifasi o'z ifodasini topgan. Demak, nutqning turli shakllarida ohang o'ziga xos informatsion qiymatga ega bo'ladi hamda u og'zaki nutq mazmunining to'liq anglashilishiga ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021.–555 b.
2. Кошғарий М. Девони луғатит турк. III т.– Т.: Фан, 1960. – 14-b. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Mahmudov Nizomiddin: O'zbek tili – xalq ruhining ko'zgusi// J.: Sog'lom avlod uchun, 2016-yil 9-son.
4. Пронникова Н.В. К вопросу о функциях интонации//Фундаментальные исследования. Журнал. elibrary.ru
5. Амир Темур. Темур тузуклари.–Т.:Ф.Ғулом,1991.–144 б. <https://n.ziyouz.com>
6. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Qissa va hikoyalar. – Т.: Yangi avlod, 2015.– 338 b.
7. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Roman. – Т.: Sharq, 2012.
8. Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. Роман. – Т.: Фафур Ғулом, 2002.– 142 б.
9. Тоҳир Малик. Мурдалар гапирмайдилар (қисса). <https://n.ziyouz.com>
10. Nurullayev X. Hammasi asabdan (hajviya). <https://n.ziyouz.com>
12. Yuldasheva D. N., Chullieva G. T. The role of nonverbal means in speech meaning// International Engineering Journal For Research & Development, Vol.6, Issue 2 published May 16, 2021.–Pag.1956-1961.

“SAB`AI SAYYOR” DOSTONI VA XALQ OG`ZAKI IJODI

Mahmudova Diyora - O`zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Z.Axmedova

Xalq og`zaki ijodining yozma adabiyotga ta`siri masalasi bugungi kunda eng dolzabr masalalardan biri hisoblanadi. Sharqning buyuk shoiri Alisher Navoiy ham o`z asarlarida folklor janrlariga ko`p bora murojaat qilgan. Ma`lumki, “Alisher Navoiy Yaqin va O`rta Sharq xalqlari adabiyoti, falsafasi, ilm-fani va yunon mutafakkirlarining ta`limoti, turli diniy bilimlar va tasavvuf bilan keng va mukammal tanish edi”<sup>61</sup>, deb yozgan edi adabiyotshunos olim N.Mallayev. Sharq xalqlari folklorini chuqur o`rgangan Navoiy “Sab`ai sayyor” dostonida xalq og`zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanadi. “Xamsa” dostonlarining shu tipiga kiruvchi Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”i (“Etti go`zal”) ozarbayjon folklori namunalari asosida, Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) dostoni esa hind folklori namunalari asosida yaratilgan.

Asarning bosh qahramoni Bahrom Go`r obrazi hisoblanadi. Sharq xalqlari adabiyotida juda ko`p murojaat etilgan bu obrazning zamiri qadimiy mifologiyaga borib taqaladi. “Bahrom Go`r haqidagi afsona va rivoyatlar hind – eron xalqlari o`rtasida yaratilgan, keyinchalik esa qo`shni xalqlar, ayniqsa, armanlar, gruzinlar orasida ham paydo bo`ldi”⁶².

Bahrom Go`r haqidagi rivoyat va afsonalarga tayangan holda taniqli fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy yozma adabiyotga Bahrom obrazini olib kiradi. Bu obraz shoirning “Shohnoma”sida o`z aksini topgan.

Bundan ko`rinadiki, har bir shoir o`z asarini xalq og`zaki ijodi bilan chambarchas bog`lagan holda, folklor namunalaridan ilhomlanib yaratadi.

Xalq og`zaki ijodi namunalari bo`lgan ertak, rivoyat, afsona kabilar asar mazmunini boyitishga xizmat qiladi. Chunki ularning zamirida ham qandaydir haqiqat yotadi. Shu o`rinda buyuk yunon faylasufi Aristotelning quyidagi so`zlari o`rinlidir: “Afsonalar haqiqatdan darak beruvchi yolg`on hikoyalardir”. Shoirilar o`z asarlarida bunday folklor namunalarini sayqallashtirib, estetik jilo berib, haqiqatga yaqin deb, hayot bilan hamohang tarzda ijod etadilar. Bu esa adabiyot ixlosmandlarini shu asarga bo`lgan qiziqishini oshiradi. Albatta, buning uchun shoir yuksak iste`dod sohibi, qalami o`tkir san`atkor bo`lishi lozim. So`zimizni isboti sifatida “Sab`ai sayyor” dostoniga murojaat etamiz. Ushbu asar boshdan-oyoq folklor namunalari bilan ziynatlangan desak, xato bo`lmaydi. Chunki, yetti iqlimdan kelgan yetti musofirning so`zlagan rang-barang hikoyalarini o`ziyoq xalq og`zaki ijodi bezaklari bilan sayqal topgan. “Sab`ai sayyor”da hind-eron, arab, xalq ertaklarida mavjud bo`lgan “hikoya ichida hikoya” – “qoliplash usuli”dan keng foydalangan holda yozilgan. Xalq dostonlarida bo`lgani kabi, oshiq o`z ma`shuqasini surat orqali ko`rib, unga g`oyibona oshiq bo`lib qoladi.

“Sab`ai sayyor”da ham Bahrom o`z Diloromini Moniy chizgan surat orqali biladi va shu zahotiyoq sevgi dardiga muhtalo bo`ladi. Uning qalbida qanday qilib bo`lmasin Diloromning visoliga yetishish fikri tug`iladi va yetishadi ham. Bunga o`xshagan jihatlarni yana ko`plab keltirishimiz mumkin. Masalan, dostonlarda juda ko`p uchraydigan bu holatlardan biri “tush ko`rish” jarayonidir. Bunda, oshiq yoki ma`shuqaga tushi orqali taqdiri namoyon bo`ladi. Hikoyamiz qahramonlari Farrux va Sa`d ham ko`rgan tushlari orqali o`z taqdiralaridan voqif bo`ladilar. Bu o`rinda xalqimiz orasida juda ko`p ishlatiladigan “tushing o`ngidan kelsin” iborasini aytish joiz. Qahramonlarimiz ham ko`rgan tushlarini o`ngidan kelishini tilab, yo`lga otlanadilar va o`zlari orzu qilgan baxt – saodatga erishadilar.

Xalqimizda bir maqol bor: “Izlagan imkon topadi”. Bu naql, albatta, bejizga aytilmagan. Chunki, biror maqsadga erishish yo`lida harakat qilgan inson hech qachon o`z maqsadiga erishmay qolmaydi. “Sab`ai sayyor” dostonini o`qir ekanmiz, yuqoridagi maqolning boshqacharoq talqiniga duch kelamiz. Hikoyamiz qahramoni Moniy shohga qarata shunday deydi: “Yugurib-yelib, butun dasht-biyobonlarni jahd - jadallik bilan kezishdan maqsadim shuki, men osmoni falakni chang-u g`uborxona qilib olgan jahon shohi Bahromning dargohiga yetsam, uning tuprog`iga yuzlarimni surtsam degan umid bilan yashayman”.

Shoh Bahrom bu gaplarni eshitarkan, bog` kabi yashnab, gul kabi ochilib ketdi. Shundan so`ng tilini chiroq shulasidek qilib dedi: “Ey, dashtlarni shitob bilan kezib yurgan odam, bilgilki, “axtargan-topadi” degan maqol bor. Sening baxting yulduzi kom - maqsadingni yuzaga chiqazibdi, murodingga yetganing

⁶¹ Маллаев Н. Навоий ижодиётининг халқчил негизи. Т., 1980, 9-бет.

⁶² .O`zbek adabiyoti tarixi.. 5 jildlik, 2-jild. Т., 1978

holda, sen bundan g'ofilsan. Tashna lab bo'lma, suv to'la daryo yoningda turibdi"⁶³. Shoh Bahrom shu tarzda Moniydan o'z lutf-u marhamatini ayamabdi.

Xalq dostonlarida yana bir hodisaning guvohi bo'lamizki, asar voqealari boshdan-oyoq yaxshilik va yovuzlik kuchlarining o'zaro kurashi, tortishishi asosida kechadi. "Sab' ai sayyor" dagi hikoyalarda ham bunday holatlarga ko'plab duch kelamiz. Shoh Juna va Ma'sud hamda Jaypur va Mallu o'rtasidagi, Jobir va uning hamtovoqlari hamda Suhayl va uning yaqinlari o'rtasidagi, Muqbil va Mudbir o'rtasidagi keskin munosabatlar fikrimizning yorqin dalilidir.

Yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Demak, folklor namunalari yozma adabiyotda yuksak badiiy durdona asarlarning vujudga kelishida eng muhim vosita hisoblanadi.

O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA KO'RGAZMALI QUROLLARNING AHAMIYATI

Zarina Adizova-

*Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar, dotsent H.Suyunov, O'zbekiston*

Annotatsiya: Adabiyot darslarida yozuvchi hayoti va ijodini o'tishda ko'rgazmalilikdan foydalanishning samarali yo'llari, tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, adabiyot, ko'rgazma qurollar, usul, mustaqil ish.

Annotation: Recommendations on the organization of effective ways of using visualization to describe the writer's life and work in literature classes are described.

Keywords: Education, literature, visual aids, method, independent work.

Аннотация: На занятиях по литературе описаны эффективные способы использования визуализации для описания жизни и творчества писателя, а также рекомендации по организации.

Ключевые слова: Образование, литература, наглядные пособия, методика, самостоятельная работа.

Ta'lim tizimini yangicha rivojlantirish, dars jarayonlariga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, noan'anaviy, qiziqarli, innovatsion usullarni qo'llashni, o'quvchi – yoshlarni, talabalarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatishni taqozo qilmoqda. Demak, dars jarayonida bu usullardan qanday foydalanish kerak?. Noan'anaviy, qiziqarli, innovatsion usullarning, yangi ko'rgazmali qurollarning qanday turlari mavjud?. Mazkur savollarga beriladigan javoblar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi.

Adabiy ta'limda yozuvchi hayoti va ijodiga oid mavzularni o'rgatish vositasida uning shaxslik sifatleri bilan yaratuvchi ijodkorga xos qiyofasini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish orqali namuna tarbiyasiga e'tibor qaratilgan. Muayyan ijodkorga xos badiiy tafakkur tarzini o'rgatish, yozuvchi kechinmalariga kechinmadoshlik, hamfirklik holatini yuzaga keltirishdagi o'qituvchi mahorati bilan bog'liq jarayonlarga kam e'tibor qaratilgan.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikdan foydalanishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin. Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa undan foydalanmagan ma'qul.

Gap o'tmish adabiyoti, hayoti bilan bog'liq asarlar ustida boradigan bo'lsa, ko'rgazmalilikning ahamiyati yanada ortadi. Zero o'quvchi xira tasavvur qilgan yoki mutlaqo tasavvurga ega bo'lmagan voqea va hodisalar haqida ko'rgazmalilik tufayli yorqinroq va aniqroq bilim va tasavvurlarga ega bo'ladi. Unday paytda o'qituvchining izohi kamlik qiladi. Ana shu ko'rgazmalilik to'ldiradi.

Ko'rgazmalilik o'qituvchi nigohida ham mavjud. Garchi bunday holatlarda o'quvchida passivlik sezilsa-da, ammo bu ko'rgazmalilikning rolini mutlaqo pasaytirmaydi.

² A.Navoiy "Sab' ai sayyor" T., 1991. 385-bet.

Ammo shunisi muhimki, ko'rgazmalilik vositasida o'quvchi faol muloqotga, suhbatga, faol fikrlash darajasiga etsin. Ko'rgazmalilik adabiy jarayon, hodisa yoki obrazning muayyan qirralarini ochishga yordam bersagina shunday bo'ladi.

Bir asarga turli rassomlar chizgan suratlar vositasida o'quvchi faolligini ta'minlash mumkin. Bunday ishlar qahramonlar xarakterini chuqurroq anglashda, asarda tilga olingan davr hodisalarini yorqinroq tasavvur qilishda yordam beradi. Masalan, Alisher Navoiy bobomizga aloqador mavzularni o'tishda adib dostonlariga ishlangan qadimiy miniatyuralar hamda hozirgi zamon rassomlari asarlaridan foydalanish mumkin. Ular asosida, masalan "Layli va Majnun" yoki "Farhod va Shirin" dostonini syujet yo'nalishi, qahramonlar xarakteridagi murakkabligini o'quvchilar yorqinroq tasavvur etishi mumkin.

O'quvchilar bilim faoliyatini oshirish va faollashtirishda ularni o'zlarini ko'rgazmali qurollar yasashga jalb etish ham samarali bo'ladi. Bu o'quvchilardagi muayyan bilimlarni mustahkamlashda ham qo'l keladi.

Demak, ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Ayniqsa ko'rish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan joylar fotografiyasi yoki, yozuvchiing hayoti bilan bog'liq fotosuratlar kirishi mumkin.

Kompyuter texnologiyasining imkoniyatlari nihoyatda katta. Uni maxsus izohlashga zarurat yo'q. Unda ham ko'rish ham eshitishi ko'rgazmaliligi mavjudki, ular obrazlarning makon va zamonda qayta gavdalandirishi bilan adabiy voqealikning asl holiga ancha yaqin manzarali yarata oladi. Shuning uchun ham ulardan o'quv maqsadlarida foydalanish imkonlari ham kelajagi ham katta.

O'qituvchi ko'rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda, shuningdek, qay miqdorda foydalanishini o'zi belgilab olishi shart. U darslar tizimi, yoki bir darsning muayyan qismi bo'lishi mumkin.

Garchi metodik adabiyotlarda ko'rgazmalilikdan yakunlovchi darslarda mahoratli o'qituvchi undan istalgan dars tipi va darsning istagan qismida foydalanishi mumkin.

Asarni o'rganishning yakunlovchi bosqichida qiyosiy yo'nalishdagi topshiriqlardan berish ko'proq tarqalgan. Zero, bu usul asar mohiyatini obrazlar xarakterini, so'z san'atini o'ziga xos xususiyatlarini yorqinroq va chuqurroq anglashda eng sarmahsul hisoblanadi.

Agar ko'rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o'ylab, ko'rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar yasash o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1992. – 329 b.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 167-b.
3. Madayev O. Adabiyot darslari va milliy mafkura. Til va adabiyoti ta'limi. 1998. №2. –B. 9-17.
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi. 1996. -191 b.

MUNDARIJA

BIRINCHI SHO‘BA GLOBALASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR		
1.	Xolmuradova Mushtariy “Qutadg‘u bilig”dagi ijobiy va salbiy fe‘l-atvor bildiruvchi leksemalar	5
2.	Alimsaidova Sayyora Amidieevna, Raximova S.G., Mafozilova N.M., Mamirova R.A. Rus va o‘zbek tilida tanglik qurilishlarini kompetensiyaga asoslangan yondashlash bilan o‘rganish	8
3.	Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi “Layli va Majnun” dostoni terminlarining mavzuviiy guruhlar	11
4.	Hayriddinova Gulzoda Jumayeva Z.Sh. Xalq frazemalarining milliy-madaniy xususiyati	14
IKKINCHI SHO‘BA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI		
5.	B.Tuxtayeva O‘zga tilli (qozoq) guruh talabalarining so‘z boyligini oshirishda tovushdosh so‘zlarning ahamiyati	17
6.	Maftuna Axmedova Faxriddinovna Texnika terminlarining yasash xususiyatlari	18
7.	Safarova Nigora Fahlavon qizi Rus tilshunosligida “Ona “ konseptining badiiy matnlar orqali o‘rganilishi	20
8.	B.Tuxtayeva S.Musajonov Nomilliy guruh talabalariga orfografik qoidalarini o‘rgatishda qo‘sh undoshli so‘zning talaffuzi va imlo ustida ishla	21
UCHINCHI SHO‘BA TURKIY ADABIYOT: TARAQQIYOT BOSQICHLARI, MOHIYATI, POETIKASI		
9.	Tohir Xo‘jayev Tabiat va she‘riyat uyg‘unligi (Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devoni asosida)	24
10.	Жўраев Жамолiddин Аминжонович “Гулшан ул-асрор” хикоятларида Махмуд Ғазнавий ва Амир Темур образлари талқини	26
11.	Jo‘rayev Murodulla Alishboyevich O‘zbek adabiyotida komediyaning o‘ziga xos janr xususiyatlari	30
12.	Boltayeva Gulchehra Shokirovna Taxmis muxammaslarning poetik xususiyatlari	33
13.	Mamadalieva Zuhra Umaralievna Alisher Navoiy “Xamsa”sida raqib obrazi va uning ramziylik xususiyati	36
14.	Narzullayeva Difuza Saitovna O‘zbek marosimlarida momo kultiga ishonch izlari	38
15.	Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna Ibratning nasriy va nazmiy merosi	42
16.	Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna Ibratning qozilik faoliyati xususida	44

17.	Isayeva Sh.B. Adabiyot darslarida ruhiyat masalalariga yangicha yondashuv	47
18.	Mirzohidova Laylo Baxtiyorovna “Devonu lug‘otit turk”dagi kichik majoziy she‘rlar	52
19.	Barziyev Oybek Xabibullayevich To‘qtag‘ul Sotilganov ijodi va milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysi she‘riyatidagi g‘oyaviy mushtaraklik	57
20.	Eshchanova Gavhar Otajonovna Xalmuratova Iroda Safarboyevna “Edigo” dostonining ilmiy o‘rganilishi tarixi xususida	59
21.	Tajibayeva Latofat Farhodovna Mumtoz adabiyot an‘analari – yangi o‘zbek she‘riyati takomilining asosi	64
22.	Jumayev Ilhom Hamroyevich O‘zg‘urmish – komil inson	67
23.	Jahongir Komiljonov O‘zbek ertaklarida “Semurg” obrazi	72
24.	Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida tarjima masalalari	77
25.	Tulisheva Gulzina Ravshanovna Zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidchiligi rivojida Ozod Sharafiddinov asarlarining o‘rni	80
26.	Гулжахон Амоновна Мардонова Ўланларда ўхшатиш, муболаға санъати, аниқловчи эпитет ва поэтик рамзларнинг қўлланилиши	83
27.	Шарапова Диана Риннатовна Художественное пространство улицы и площади в поэтическом мире Марины Цветаевой	87
28.	G‘oyibboyeva E‘tiborxon Ahmadjonovna Hazrat Navoiy hikmatlarida ilm va tarbiya uyg‘unligi	89
29.	Соҳибжон Собирович Бойсинов Қадимги туркий адабиёт шеърятининг поэтик хусусиятлари (Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари мисолида)	90
30.	Jabboraliyeva Zulhaya Alisher qizi G‘oyibboyeva Rayhona Alisher Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarining badiiy-ilmiy tahlili	94
31.	Xamroyeva Gulmira Tilavna Keldiyorova Dinora Islom qizi Sharof Boshbekov pyesalarida konflikt va kollizya	96
32.	Babakulova Nargiza Kurashbayevna Alisher Navoiy ijodida she‘riy san‘atlarni qo‘llanilish sehri	98
33.	Yaminova Muhayyo Komil Xorazmiy ijodida poetik tasvir: an‘ana va novatorlik	101
34.	Abduraxmonova Dilshoda Alisher Navoiy asarlarida ramzlarning ifodalanishi	104
35.	Rustamov Qalandar Ravshan o‘g‘li Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida jadid adabiyoti namoyondalari ijodini o‘rganish	105
36.	Nilufar Urinboyeva Ilm - ma‘rifatdan nur olgan qalblar	108
37.	Ma‘rufaliyeva Feruzabonu Ma‘rufjon qizi Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamida inson va ruhiyat tasviri	110

38.	Botirova Ozoda Jamol qizi Oybekning “Navoiy” romanidagi Navoiy obrazining talqini	112
39.	Abdullayeva Dilorom Nosir qizi O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidagi kompozitsiya, obraz, syujet xususiyatlari	114
40.	Miyassarov Kamronbek Nurali o‘g‘li Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida davr fojiasi va milliy o‘zligimizga yashirilgan umuminsoniylik	116
41.	Normamatov Diyorbek Matyoqub Qo‘shjonovning adabiy-tanqidiy qarashlari	119
42.	Qahramonova Malika Lev Nikolaevich Tolstoyning jodiyoti	120
	TO‘RTINCHI SHO‘BA TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI, TARIXI, MADANIYATI	123
43.	Sarvar Mahmudovich Qo‘ldoshev “Devonu lug‘otit turk”da arslonxon unvonini haqida	123
44.	Saidova Inoyatxon Muhammadraximovna Turkiy xalqlar etnografiyasi, tarixi, madaniyati	125
45.	Raximova Gulora Shahobiddin Suhravardiy ma’naviy-axloqiy ta’limoti va uning yoshlar tarbiyasini shakllantirishdagi o‘rni	128
46.	Sheraliyeva Rohatoy Turk va o‘zbek maqollarida onaning ulug‘lanishi	131
47.	Yuldasheva Dilorom Nigmatovna Sukut – diskurs to‘laqlonligini ta’minlovchi vosita	133
48.	Cho‘liiyeva Gulchehra Toshpo‘lat qizi Ohang – nozik ma’no bo‘yoqlarini ifodalovchi vosita	137
49.	Mahmudova Diyora “Sab‘ai sayyor” dostoni va xalq og‘zaki ijodi	143
50.	Zarina Adizova O‘quvchilar faolligini oshirishda ko‘rgazmali qurollarning ahamiyati	144

**“O‘RTA OSIYODAN ANADO‘LIGACHA:
TURKIY XALQLAR TILI, TARIXI, MADANIYATI
VA ETNOGRAFIYASI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

II KITOB

19.10.2023

Hajmi 17. 1/8 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.

NavDPI bosmaxonasida chop etildi.

Navoiy shahri Ibn Sino-45.
